A.A. OMONOV,
T.M. QORALIYEV

PUL, KREDIT VA BANKLAR

336.5
O-355

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

A.A. OMONOV, T.M. QORALIYEV

PUL, KREDIT VA BANKLAR

Darslik

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan «Bank ishi» ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2012

Kutubxonasi

УДК: 336.7(575.1)ya7
КБК: 65.26(5O‘)
O-56 546

Masul muharrirlar: i.f.d., prof. A.V. Vaxabov
i.f.n., dot. E.F. Gadoyev

Taqrizchilar: i.f.d., prof. O.H. Hamrayev
i.f.d., dot. T.I. Boboqulov
i.f.n., dot. S.X. Norqobilov

Omonov A.A.
Pul, kredit va banklar. Darslik / A.A.Omonov, T.M. Qoraliyev. Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2012. –324 b.

Darslik O‘zbekistonda uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standartlarining qoidalariga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, ta’limning «Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq» bilim sohasi bo‘yicha «Pul, kredit va banklar» fanining namunaviy dasturidagi bo‘limlarini qamrab olgan.

Darslikda pul, kredit va banklarning vujudga kelishi, rivojlanishi va takomillashuv jarayonining nazariy jihatlari, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tashkil topishi, vazifa va maqsadlari qisqa, aniq va ravon tilda yozilgan.

Kitobda O‘zbekiston pul va bank tizimining tashkil etilishi va ularning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro moliyaviy institutlar bilan amalga oshirayotgan o‘zaro iqtisodiy hamkorlik masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Darslik iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalar va o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, bank va moliya sohasidagi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

УДК: 336.7(575.1)ya7
КБК: 65.26(5O‘)

ISBN 978-9943-13-365-5
© «Iqtisod-Moliya», 2012
© A.A. Omonov, T.M. Qoraliyev, 2012

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitda tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari pul, kredit va banklarning ishtirokisiz amalga oshmasligi barchamizga ma'lum. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo'lib, ushbu faoliyatning asosini ham pul, kredit va bank tizimi bilan bog'liq qator munosabatlar tashkil etadi. Bu o'z-o'zidan, keyingi yillarda, mamlakatimiz o'quv yurtlarida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda «Pul, kredit va banklar» kursining ahamiyatini keskin oshirmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning iqtisodiyot va moliya yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari professor – o'qituvchilari tomonidan «Pul, kredit va banklar» o'quv kursi bo'yicha qator darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilgan. Shunga qaramasdan, bank ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarga bo'lgan talab o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Buning qator sabablari mavjud bo'lib, fikrimizcha ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

– birinchidan, milliy ta'lim standartlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarga qo'yilayotgan talab va qoidalar takomillashib bormoqda. Xususan, ular qisqa, mazmunli va o'quvchiga tushunarli tilda yozilishi lozim;

– ikkinchidan, jahon va mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarni doimiy ravishda yangilab va takomillashtirib borishni talab etmoqda;

– uchinchidan, internet va elektron tizimning rivojlanib borayotganligi tufayli talabalarga taqdim etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar raqobatbardosh bo'lishi, ularni o'ziga jalb qila oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Mazkur darslik, yuqorida qayd etilgan talab va tartiblarni inobatga olingan holda, O'zbekistonda Davlat ta'limining «Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq» bilim sohasining «Bank ishi», «Biznesni boshqarish», «Moliya», «Soliqlar va soliqqa tortish» va boshqa yo'nalishlari bo'yicha qo'yilgan talablari doirasida tayyorlangan. Buni darslikning mazkur kredit

AXPU ... MARKAZI
460878

va banklar» fanining namunaviy dasturidagi barcha bo'limlarini qamrab olganligida ham ko'rish mumkin.

Darslik tarkibiy tuzilishi jihatidan to'rtta bo'lim va 17 bobdan iborat bo'lib, har – bir bobdan so'ng o'quvchining bilimini mustahkamlash maqsadida boblarning mavzulariga oid savollar va testlar majmui keltirilgan.

Birinchi bo'lim «Pul»ga bag'ishlangan. Bo'lim 8 ta bobdan iborat bo'lib, unda pulning vujudga kelishi, pul tizimi, pul nazariyasi va pul muomalasi hamda inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari atroflicha yoritilgan. Ushbu bo'limning o'ziga xos bo'lgan jihatlaridan biri shundaki, unda mamlakatimiz hududida tanga va qog'oz pullarning vujudga kelishi va amal qilishi, shuningdek, O'zbekiston pul tizimining tashkil topish va rivojlanish jarayonlariga alohida o'rin berilgan.

Ikkinchi bo'lim «Kredit»ga bag'ishlangan bo'lib, bo'limda kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida vujudga kelish sabablari, uning shakllari va turlari o'rganilgan. Shuningdek, kreditning iqtisodiyotda tutgan o'rni va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida yoritilgan.

Uchinchi bo'lim «Banklar»ga bag'ishlangan. Bo'lim o'z tarkibiga beshta bobni olgan. Jumladan, bo'limning o'ninchi bobida banklarning vujudga kelishi, funksiyalari va iqtisodiyotdagi roli masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, o'n birinchi va o'n ikkinchi boblarida mamlakatimiz bank tizimining tashkil topish bosqichlari, Markaziy va tijorat banklarining o'ziga xos jihatlari atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, ushbu bo'limda AQSH va Buyuk Britaniya mamlaktalari bank tizimining tashkil topishi va rivojlanishi hamda mamlakatimizda nobank kredit muassasalarining faoliyati bayon etilgan.

To'rtinchi bo'limda xalqaro valuta munosabatlari va hisobkitoblari, to'lov balansining tuzilishi va ahamiyati, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tashkil topishining maqsad va vazifalari, ular bilan mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlarning mazmun – mohiyati bayon etilgan.

Darslikning «Pul muomalasi va pul massasi» nomli 4 – bobini i.f.n., dotsent M.D.Marpatov tayyorlagan, «Valuta tizimining rivojlanish bosqichlari» nomli 15.2 – paragrafi – tadqiqotchi M.U. Axmedov, qolgan barcha bo'lim, bob va paragraflar i.f.d. A.A. Omonov va i.f.n., prof. T.M. Qoraliyev tomonidan tayyorlangan.

Xalqaro iqtisodiy doirada, shuningdek, O‘zbekiston moliya – kredit tizimida ro‘y berayotgan jadal ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar qator soha va tarmoqlarda bo‘lgani singari ta’lim tizimi oldiga, xususan, darslik va va o‘quv qo‘llanmalar tayorlashning tarkibi va mazmuniga jiddiy talablarni qo‘ymoqda. Shu jihatdan, mualliflar «Pul, kredit va banklar» darsligini vaqti – vaqti bilan O‘zbekistonda va xalqaro doirada ro‘y berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlar asosida nazariy – amaliy jihatdan boyitib borishni maqsad qilib, uning ushbu nashrini *«birinchi nashri»* sifatida o‘quvchilar e’tiboriga havola etmoqda.

I BO‘LIM. PUL
1 – bob. PULNING ZARURLIGI VA MOHIYATI

1.1. Pulning vujudga kelishi va zarurligi

Pulning vujùdga kelishi kishilik jamiyati sivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. «Pul» deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo‘lishi natijasida odamlar o‘rtasida ayirboshlash bilan bog‘liq ziddiyatlar va «ehtiyojlarning bir – biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi.

Pulning vujudga kelishi, uning evolyutsion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko‘p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko‘rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas.

Pulning vujudga kelish sababini bilish uchun qadimda odamlar o‘rtasida ro‘y bergan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirish jarayoniga e’tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayirboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob-kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi omillar asos bo‘lib xizmat qiladi:

- qadimgi davrda odamlar o‘z ehtiyojidan ortib qolgan iste’mol mahsulotlari turib qolmasligi va saqlashning imkoniyati bo‘lmaganligi bois ularni o‘zlariga yaqin yoki tanish odamlarga bergan, bu o‘z – o‘zidan odamlar o‘rtasida stixiyali ravishda bir tomonlama ayirboshlash munosabatlari vujudga kelishiga sabab bo‘lgan;
- keyinchalik odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanganligi natijasida, ikki tomonloma ayirboshlash munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu davrda, kishilarda o‘ziga zarur bo‘lmagan buyumning o‘rniga nimadir olish evaziga, ikkinchi kishiga berishi lozimligini anglay boshladilar.

Bularning barchasi dastlab stixiyali ravishda sodir etilib, bu odamlarning kundalik uchun zarur bo'lgan buyumlar, oziq – ovqatlar, kiyim – kechaklar va boshqa ehtiyojlarini qondirish natijasida ro'y bergan. Bu davr ishlab chiqarish usulining natural xo'jalik tuzumi davriga borib taqaladi. Ma'lumki, natural xo'jalik tuzumidan ilgarigi davrda har bir kishi kunlik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotni mustaqil ravishda ishlab topgan (yaratgan)ligi bois, ular o'rtasida ayirboshlash munosabatlariga ehtiyoj mavjud bo'lmagan.

Yuqorida qayd etilgan ikki omil, kishilar o'rtasida ayirboshlash munosabatlarining shakllanishiga zamin yaratdi, natijada odamlar ixtiyoridagi ortiqcha mahsulotni o'zi uchun zarur bo'lgan boshqa mahsulotga ayirboshlashga ehtiyoj seza boshladi.

Ayirboshlash – bu kishilarning istak – xohishlari va ehtiyojlari mahsuli sifatida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, buning natijasida, tomonlar ehtiyojini qondirish maqsadida ixtiyoridagi narsadan voz kechib, zarur bo'lgan narsaning o'rniga berishdir. Ayirboshlash kishining ehtiyoji bo'lgan buyumga ega bo'lish imkoniyatini beradigan jarayondir.

Demak, ayirboshlash «A» va «B» tomonlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv natijasida sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, «A» o'ziga tegishli tovar yoki xizmatini «B» tomonning tovar yoki xizmati uchun berishdir. Madomiki, ushbu almashuv jarayoni ikki tomonga ham iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, «A» tomon voz kechgan tovar yoki mahsulot o'rniga o'zi uchun zarur bo'lgan, undan ham foydaliroq tovar yoki xizmatni oladi.

Shuningdek, natural xo'jalikning rivojlanib borishi, jamiyatda mehnat taqsimotini shakllanishiga olib kelgan. Vaqt o'tishi bilan odamlar o'rtasida mahsulot ayirboshlash jarayoni rivojlanib, ishlab chiqarishning ixtisoslashuv jarayoni ro'y bera boshlagan. Xususan, pulning vujudga kelishida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, keyinchalik hunarmandchilikning shakllanishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrda, odamlar o'rtasida mahsulotlarni faol ayirboshlash jarayoni boshlandi. O'sha davrdagi ayirboshlash munosabatlarini faollashishiga asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ishlab chiqarishning natural xo'jalik shaklidan tovar ishlab chiqarish davriga o'tishi;
- ishlab chiqaruvchi subyektlarning bir – biriga o'zaro bog'liqligining vujudga kelishi;
- ayirboshlash jarayonida tovarlar ekvivalentligining ta'minlanganligi.

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy e'tibor, uning qiymat shaklining rivojlanish evolyutsiyasiga qaratiladi. Chunki, pulning vujudga kelishida uning qiymat shakllari juda muhim o'rin tutadi. Pulning qiymat shakllari, asosan, beshta ko'rinishdan iboratligi e'tirof etilib, ular quyidagilardan iborat:

1. Qiymatning oddiy shakli. Qiymatning ushbu shakli natural xo'jalik tuzumiga xos bo'lib, mahsulotlarning ortiqchaligi vaqti – vaqti bilan vujudga kelgan sharoitda amal qilgan. Qiymatning oddiy shaklida ishlab chiqarish hajmining pastligi, yaratuvchi va oluvchining manfaatlari doimo ham bir – biriga mos kelmagan ayirboshlash jarayonida ma'lum tovarlargina ishtirok etgan.

Ushbu davrda odamlar o'rtasida vujudga kelgan ayirboshlash munosabatlarining vujudga kelishiga ortiqcha mahsulotni buzilmasligi va turib qolmasligining oldini olishga bo'lgan ehtiyoj turtki bo'lgan. Masalan, bir qop don = bitta qo'yga almashilgan va h.k.

2. Qiymatning kengaytirilgan shakli. Qiymatning kengaytirilgan shakli jamiyatda mehnat taqsimotining vujudga kelish davri bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu davrda, kishilar o'rtasida ayirboshlash munosabatlari rivojlandi. Endi kishilar mahsulotning asosiy qismini ayirboshlash uchun ishlab chiqara boshladi. Natijada, ishlab chiqarish salmog'i ortib bordi, mahsulotlar tez – tez tovar sifatida ayirboshlash jarayonida ishtirok eta boshladi. Bitta tovar bir necha tovarga ayirboshlanadigan bo'ldi. Ayirboshlash jarayonining vujudga kelishida, tomonlarning mafaatlari o'zaro mos kelishi asosiy omil sifatida maydonga chiqdi.

Qiymatning kengaytirilgan shakli amal qilgan davrda ayrim tovar turlari, mehnat qurollari va mollar pulning vazifasini bajargan. Masalan, bir qop don = bitta qo'y, bitta boltaga ayirboshlana boshladi. Albatta, mamlakatning geografik xususiyati va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, ular o'rtasida pul vazifasini bajaradigan tovarlar va mahsulotlarni ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Masalan, AQSHda tamaki, Sharqiy Hindistonda qand, fil suyagi, Qadimgi Gretsiyada buqa, Shotlandiyada mix, Misrda mis, shuningdek don, tuz va jun kabi mahsulotlar umumekvivalent vazifasini bajara boshladi.

3. Qiymatning umumiy shakli. Bu sharoitda umumekvivalent sifatida e'tirof etilgan tovarlar eramizdan oldingi V – IV asrlarga qadar pul vazifasini bajardi. Qiymatning umumiy shakli davrida, ishlab chiqarish kengaydi va uning asosiy maqsadi barcha uchun zarur bo'lgan tovarni o'zlashtirishga qaratildi.

Umumiy ekvivalent sifatida qo'y, don, jun, qimmatbaho buyum va boshqalar e'tirof etildi, lekin ular o'zining xossasidan kelib chiqqan holda uzoq vaqt umumekvivalent vazifasini bajarmadi. Chunki, ishlab chiqarishning rivojlanishi, kishilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni tezlashtirdi, bu sharoitda umumekvivalent vazifasini bajaradigan tovarlarni olib yurish, saqlash va boshqa jarayonlar turli noqulaylik va qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Buning qiyinchiligi shunda ediki, masalan, dehqon ustiga kiyadigan kiyim olish uchun to'quvchiga donni taklif etsa, to'quvchiga don emas, balki qo'y zarurligini aytadi. Bunday paytda dehqon donni qo'yga almashtirish va shundan so'ng to'quvchiga qo'yni berib o'ziga zarur bo'lgan kiyimni olishi mumkin, ya'ni ayirboshlash jarayonlarida ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlari doimo ham bir – biriga mos kelmasligi oqibatida, turli qiyinchlik va ziddiyatli holatlar vujudga keldi. Buning natijasida, qiymatning pul shakli vujudga keldi.

4. Qiymatning pul shakli. Ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi, jahon bozorining vujudga kelishi, kumush va oltinning barcha tovarlar ichidan umumekvivalent vosita sifatida ajralib chiqishiga olib keldi. Ushbu metallarning tabiiy xossasi (yagona jismligi, qiymatining o'zgarmasligi, sifatining buzilmasligi) uzoq davr jamiyatda pul vazifasini bajarishiga xizmat qildi.

Qimmatbaho metallar umumekvivalent sifatida muomalaga kiritilishining dastlabki davrida har xil quyma shakldan (sim, plastinka, yumaloq va boshqa shakllar) iborat edi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va mehnat taqsimotining tobora takomillashib borishi metall pullardan ma'lum shakl va miqdorga ega bo'lgan tangalarni zarb qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tarixiy manbalarga ko'ra, dastlabki metall tangalar eramizdan avvalgi VII asrda Xitoy va Lidiya (Kichik Osiyo) davlatlarida zarb etilgan.

Metall pullarning nominal qiymati haqiqatdagi qiymatiga teng bo'lib, noyob qimmatbaho metalldan tayyorlanadi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi.

E'tiborli jihati shundaki, muomalada haqiqiy pullar ayirboshlash vositasi vazifasini bajargan davrda iqtisodiyotda pul muomalasi avtomatik ravishda tartibga solinadi. Natijada, iqtisodiyotda pulning qadrsizlanishi, baholarning o'sishi va inflatsiya holati kuzatilmaydi. Chunki qimmatbaho metallarning muomalada ortiqchalik holatining vujudga kelishi, ularni jamg'arma va boylik sifatida saqlashga yo'naltirilishi orqali bartaraf etila-

di. Agar, muomalaga qo'shimcha ayirboshlash qiymati zarur bo'lsa, ular qiymat o'lchovi, muomala va to'lov vositasi sifatida qaytadan muomalaga chiqariladi.

Oltinning muomalada amal qilishi XX asrning 30 – 70 yillarida bekor qilindi, ya'ni oltin demonitizatsiyasi yuz berdi. Oltin ayirboshlash vositasi sifatida muomaladan chiqarilishining dastlabki davrida avval muomala va to'lov vositasi funksiyasini, 1975-yildan so'ng esa jahon puli funksiyasini to'xtatdi. Ushbu vazifalarni ichki va jahon bozoriga oltinning o'rniga kirib kelgan qog'oz va kredit pullar egalladi.

5. Qiymatning qog'oz – pul shakli. Dastlabki qog'oz pullarni muomalaga chiqarilishi taxminan X asrning oxiri XI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Shu davrdan boshlab, muomaladagi oltin va kumush pullar o'rnini qog'oz pullar egallay boshladi. Muomalada oltin va kumush amal qilgan sharoitda ular bilan parallel ravishda to'lov vositasi sifatida qog'oz pullarni kirib kelishining sabablari sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- qimmatbaho metallarni olib yurish, saqlash va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan muammoli holatlarning vujudga kelishi;
- oltin va kumush muomalada qo'ldan-qo'lga o'tishi natijasida yedirilib, o'zining dastlabki hajmi va xossasini yo'qotishi;
- qimmatbaho metallar zebu ziynat va boylik timsolida muomaladan chiqib ketishi;
- iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajada rivojlanishi natijasida tovar va xizmatlar massasining qimmatbaho metallar (oltin, kumush) massasiga nisbatan shiddat bilan ortib borishi.

Dastlab muomalaga chiqarilgan qog'oz pullarning asosi oltin bilan ta'minlangan bo'lib, ushbu pullar bilan birgalikda oltin tangalar ham muomalada ishtirok etgan.

Qog'oz pullar mustaqil qiymatga ega bo'lmasdan, ular davlatning qonuniy hujjatlari asosida mamlakatda to'lov va muomala vositasi rolini bajaradi. Shuning uchun qog'oz pullarning qiymati o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, u mamlakat ichki bozorida chet el valutasiga bo'lgan talab va taklif, milliy iqtisodiyotning barqarorligi hamda ijtimoiy – iqtisodiy holatlar ta'sirida o'zgarib turadi. Bu uning sotib olish qobiliyatining mustahkamligi, inflatsiya darajasi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi.

1.2. Pulning mohiyati

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida iqtisodiy adabiyotlarda turli ta'riflar va talqinlar mavjud bo'lib, uning mohiyatiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Chunki, jamiyatda xo'jalik yuritish tuzumining va ijtimoiy – iqtisodiy sharoitning o'zgarishi pulning mohiyatini turlicha talqin etilishini talab etmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari pulni – iqtisodiy kategoriya sifatida, qiymat o'lchovi vositasi, umumekvivalent tovar, maxsus tovar, ayirboshlash vositasi ekanligini e'tirof etadi.

Pul jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarda, jami ijtimoiy mahsulotni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, bozordagi talab va taklif asosida tovarlar bahosini aniqlashda bevosita qatnashishi uning mohiyatini namoyon qiladi.

Pulning iqtisodiy mohiyati va uning zaruriyatiga xorij iqtisodchilari alohida e'tibor qaratgan bo'lmasalarada[1], iqtisodiy nazariyachilarning asarlarida unga nisbatan berilgan fikrlarini uchratish mumkin. Masalan, A.Smit pulni iqtisodiy kategoriya darajasiga ko'tarib, unga «pul – bu muomalaning buyuk g'ildiragi», «savdo-sotiqning yuksak quroli» sifatida ta'rif beradi[2].

D. Yum A. Smitning pul xususidagi qarashlariga e'tiroz bildirib, «Pul bu – savdo – sotiqning g'ildiragi emas, balki u yog', shu savdo – sotiq g'ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir» degan fikrni bildiradi[3].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga «pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to'lovlarni amalga oshirish ishlarini yengillashtiradi» deya ta'kidlaydi[4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olima Sh.Z. Abdullayeva pul, kredit va banklar masalasiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda pulning mohiyatini ochishda uchta jihatiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. «Birinchidan, pulning iste'mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o'z aksini topadi. Ikkinchidan, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil etadi.

---

[1] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иқтисод – Молия», 2007, 8 – б.
[2] Смит А. Исследование природе и причинах богатства народов. Том 1. –С.418, 421.
[3] Юм Д. Опыты. –М.: Издание К.Т.Солдатенкова, 1986. –С.20.
[4] Соколов Б.И. Деньги, кредит и банки. Учебник. –М.: ТК Вебли, Изд – во. Проспект, 2008. –С.8.

Uchinchidan, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi. Shunga asoslangan holda, pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus tovar degan xulosaga kelish mumkin»[5].

Iqtisod fanlari doktori, professor O.Yu. Rashidov va boshqalar ishtirokida nashrdan chiqarilgan darslikda «Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul – bu boshqa ne'matlarning qimmatini o'lchash vositasi (umumiy ekvivalent) yoki ayirboshlashda hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi (ayirboshlash vositasi) funksiyalarini bajaruvchi ne'matdir. Pul – bu mutlaq likvidlilikka ega bo'lgan ne'matdir. Pul – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar unda namoyon bo'ladi va uning yordamida quriladi. Pulning maqsadi bozorga oid o'zaro harakatlarning transaksion xarajatlarini tejashdan iborat»[6].

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida fikrlarni eramizdan oldingi davrda yashagan Aristotel (er. oldingi 384 – 322 yy.), keyinchalik sarkarda Aleksandr Makedonskiy kabi buyuk shaxslar tomonidan qoldirgan manbalarda ham ko'rish mumkin[7].

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, pulning mohiyatiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va nazariyachilar o'zlarining yondashuvlarini bildirgan. Biz ularning ushbu fikr va yondashuvlarini tadqiq qilish maqsadidan yiroqmiz.

Pul – iqtisodiy kategoriya bo'lib, barcha tovarlar uchun umumekvivalent vazifasini bajaradigan maxsus tovardir. Pul faqat ayirboshlash jarayonida zarur bo'ladigan, hukumat tomonidan o'rnatilgan to'lov vositasidir. Pul – qat'iy o'rnatilgan kafolatlangan bahoni aniqlaydigan vosita emas. U oddiy tovar, faqat boshqa tovarlardan unga ehtiyojning yuqoriligi va qolgan barcha tovarlar uchun ayirboshlash vositasi sifatida foydalanganligi bilan ajralib turadi. Boshqa tovarlar singari pul ham kishilar tomonidan jamg'ariladi. Kishilar tovarlarni sotish va xizmatlarni ko'rsatish orqali uni «sotib» oladi yoki jamg'aradi. Tovarlarni sotib olish va turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish natijasida uni «sotadi».

---

[5] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иқтисод – Молия», 2007, 7 – 6.
[6] Рашидов О.Ю. ва бош. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2008. 11 – 6. (432 б).
[7] Аристотель. Сочинения. 4 т. –М.: 1983. Т. С.325.

Pulning mohiyati uning turlarida va funksiyalarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi, keyingi paragraf va boblarda ushbu masalalarga atroflicha o'rin beriladi.

1.3. Pulning rivojlanish tarixi

Pul hozirgi kundagi ko'rinishi, holati va darajasiga yetgunga qadar juda uzoq tarixiy davrni boshidan kechirdi. Yer yuzida puldan ayirboshlash vositasi sifatida foydalanib kelinayotganiga yetti ming yildan ortiq vaqt bo'ldi[8]. Bu davr ichida dastlabki pullar tovar, buyum, oddiy metall va qimmatbaho metallar ko'rinishidan hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan qog'oz va elektron pullar ko'rinishigacha yetib keldi.

Jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar takomillashib va rivojlanib borgani sari pulning shakli, pul ishlari va pul ishtirokidagi hisob-kitoblar ham doimiy ravishda takomillashib va rivojlanib kelmoqda.

Pulning rivojlanishiga turtki bo'lgan asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi.

1. Tovar ishlab chiqarishning kengayishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi.
2. Barcha shakllardagi mulk qiymatlarining o'sishi.
3. Tovarlar oldi – sotdisi bo'yicha aylanmalar hajmining ortishi.

Tanga pullarning rivojlanish tarixi. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki tanga pullar Xitoy mamlakatida va qadimgi Lidiya xonligi davrida miloddan avvalgi VII asrda paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Manbalarga ko'ra, birinchi oltin pullar bizning eramizgacha bo'lgan VII asrda Lidiya shohi Gigesning buyrug'i bilan zarb etilgan. Oltinga o'zining tasvirini tushirib zarb qilgan birinchi shoh Aleksandr Makedonskiy hisoblanadi, o'sha davrda oltinning qiymati uning probasi va og'irligi bilan o'lchanar edi.

AQSHda monetalar 1793-yilda zarb etilgan, shu davrga qadar va undan keyin uzoq muddat davomida mamlakatda xorijiy mamlakatlarning tangalari to'lov vositasi sifatida amal qilgan. Mamlakatda ayrim xorijiy tangalar 1857-yilgacha to'lov vositasi sifatida muomalada ishtirok etdi.

---

[8] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.; под ред.академ. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 25.

Muomalada oltin tangalar to'lov vositasini bajarganda ular haqiqiy pul sifatida o'zining sohibiga iqtisodiy zarar keltirmaydi va avtomatik ravishda boshqarilib turish xususiyatiga ega bo'lgan. Ya'ni, ularni hozirgi paytdagi kabi qog'oz pullarni emissiyasi orqali tartibga solib turishga ehtiyoj bo'lmagan. Agar oltin tangalarning hajmi ehtiyojdan ortib ketadigan bo'lsa, ular boylik sifatida avtomatik tarzda jamg'armaga o'tadi, aksincha bo'lganda esa to'lov vositasi sifatida muomalaga chiqadi. Shu bois ham oltin tangalar to'lov vositasini bajargan paytda pul tizimini tartibga solish apparati va pul – kredit siyosatini amalga oshirishga ehtiyoj bo'lmagan.

O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar miloddan ilgarigi VI asrda Ahmoniy shoh Doro I tomonidan zarb etilgan. Ushbu metall tangalarning og'irligi 8,4 grammni tashkil etgan bo'lib, «darik» deb nomlangan tilla tangalar ekanligi taxmin qilinadi. O'sha vaqtlarda, ya'ni miloddan ilgarigi VI – IV asrlarda hozirgi O'zbekistonning asosiy qismi, ya'ni Xorazm, Sug'diyona va Sak qabilalari yashagan hududlar Ahmoniylar davlati tarkibida bo'lganini hisobga olsak, ushbu «darik»lar O'zbekiston zaminida amal qilgan bizga ma'lum birinchi tangalar bo'lgan desak xato qilmaymiz.

Miloddan avvalgi 330 – 327 yillarda makedoniyalik Iskandar Ahmoniylar saltanatini tor – mor qilib, hozirgi O'zbekiston zaminida joylashgan Baqtriya va Sug'diyonaga bostirib kiradi. Makedoniyalik Iskandar sur'ati tushirilgan tangalardan vazni 4,1 g. bo'lgan kumush draxma, vazni 8,2 g. bo'lgan kumush didraxma (ikki draxma) hamda vazni 16,4 g. bo'lgan kumush tetradraxma (to'rt draxma)lar zarb qilinib, ular muomalada bo'lgani ma'lum. Shuningdek, vazni 8,4 g. bo'lgan oltin tanga (starer) va vazni 40 grammdan ortiq bo'lgan kumush dekadraxma ham zarb qilingan.

Yunon – Baqtriya davlati tomonidan zarb etilgan tangalardan 100 donaga yaqini Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida topilgan. Ushbu davlat pul tizimi asosini o'sha paytda draxma, didraxma, tetradraxma va dekadraxmalar tashkil etganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

O'rta Osiyo eramizning V asrida tarixan qisqa muddat davomida sosoniylar tasarrufida bo'lgan. Bu davrda hozirgi O'zbekiston hududida turli davrlarda zarb etilgan tangalar muomalada bo'lgan. Jumladan, sosoniylar tangalari asosan oltin, kumush va bronzadan zarb qilingan

bo‘lib, ularda sosoniy shohlariing sur’atlari bilan birga, turli hayvonlar va qushlar aksi ham tushirilgan.

Hozirgi O‘zbekistonning asosiy qismi V asrning ikkinchi yarmida Sirdaryoning sharqiy sohilidan kirib kelgan deb taxmin qilinayotgan va tarixda eftaliylar nomi bilan qolgan qabilalar tomonidan bosib olinadi.

Eftaliylar davrida O‘rta Osiyo asta-sekin rivojlana boshlagan. Xalqaro savdo ham rivojlangan. Tashqi savdo asosan Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya (Rum) bilan amalga oshirilgan.

Eftaliylar dastlabki paytlarda sasoniy hukmdorlari Bahrom va Perozning kumush tangalaridan keng foydalanishgan. Buning asosiy sababi sifatida sosoniylar tomonidan eftaliylarga o‘lpon sifatida to‘langan juda ko‘p miqdordagi kumush tangalar xazinada to‘planganligiga bog‘liq deb taxmin qilinadi.

Eftaliylar hukmronligi davrida juda ko‘p miqdorda, bazi ma’lumotlarga qaraganda 200 dan ko‘proq marta metall tangalar zarb qilingan. Har bir viloyat, har bir yarim qaram hudud o‘zi tanga zarb qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Umuman, V – VI asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududiga shimol va sharq tomonlardan turli ko‘chmanchi xalqlar tinimsiz bosqinchilik qilib kirib kela boshlaydi. VIII asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinib, o‘lkada islom dini joriy etiladi va qadimiy yurt Movarounnahr deb atala boshlaydi. Shu davrdan boshlab muomalada bo‘lgan metall tangalar ko‘rinishida o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi. Asta – sekin tangalardan shoh va hokimlarning sur’atlari o‘rnini islom oyatlari egallaydi. Natijada «kufi» nomi bilan tarixda ma’lum bo‘lgan tangalar davri boshlanadi.

Islom imperiyasida markazlashtirilgan boshqaruv tizimi tashkil etilgandan keyin xalifa Abdumalik 696-yilda imperiyaning butun hududida yagona pul tizimini joriy etdi. Shu davrdan boshlab, yirik savdo bitimlarini amalga oshirish uchun vazni 4,3 gramm bo‘lgan oltin dinor zarb etilgan. Maosh va soliqlar to‘lovi uchun vazni 2,8 gramm bo‘lgan kumush drahmalar chiqariladi. Kundalik savdo – sotiq esa mis tangalar – fuluslar yordamida (yunoncha «follis» hamyon ma’nosini anglatadi) amalga oshirila boshladi. Bu pul birliklari Movarounnahrda ham o‘sha davrda muomalada bo‘lgan.

IX asrga kelib, Movarounnahrda somoniylar davlati vujudga keladi. Somoniylar xalifa hukmronligini rasman tan olishgan bo‘lsada, ular amalda mustaqil edilar. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro

shahri bo‘lgan. Somoniylar davlati o‘z tasarrufiga hozirgi O‘zbekistonning asosiy qismi, Turkmaniston va Tojikiston hamda Eronning Xuroson viloyatini qamrab olgan, markazlashgan davlat edi. Bu davlat taxminan 120 yildan ko‘proq muddat davomida mavjud bo‘ldi.

XII asrning o‘rtalarida, xorazmshoh Otsiz davriga kelib, Xorazm davlati kuchayib ketadi. XII asrning 80–90-yillariga kelib Xorazm o‘ziga Movarrounnahr, Eron, Forsiy Iroqni bo‘ysundiradi. Xorazm davlati xorazmshoh Tekash (1172 – 1200-yillar) va uning o‘g‘li Muhammad (1200-1220-yillar) hukmronligi davrlarida ayniqsa gullab-yashnagan.

Xorazmshohlar davlatida ham an’anaviy musulmon pul birliklari – oltin dinorlar, kumush dirhamlar va mis fuluslari muomalada bo‘lgan. Bu tangalarda ham an’ana tarzida xalifa nomi qayd qilinib, undan so‘ng xorazmshoh nomi bitilgan.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida (1220-yil yozidan) Xorazmda va uning tobeligidagi hududlarda vazni 1,8-1,9 gramm bo‘lgan kumush dirhamlar muomalada bo‘lgan. Mayda savdo – sotiq uchun mis pullar chiqarilgan.

Mo‘g‘ullar zulmiga qarshi xalq bosh ko‘taradi. Bu harakat tarixda «Sarbadorlar» qo‘zg‘oloni deb nom olgan. Bu qo‘zg‘olon natijasida Samarqanddan mo‘g‘ullar haydab chiqariladi. 1370-yilda Samarqand taxtiga Amir Temur o‘tiradi va «Buyuk Temur» saltanatini barpo etadi. Ushbu imperiya tarkibiga hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston. Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Armaniston. Eronning barcha hududi, Iroq, Hindiston, Ozarboyjon, Gruziya, Qozog‘istonning bir qismi kirgan. Katta miqdorda vazni 2 grammni tashkil etgan oltin dinorlar, shuningdek, vazni 1,8 gramm bo‘lgan kumush tangalar – miralar ham zarb etila boshlagan.

Amir Temurning 40 dan ortiq tanga zarbxonalari bo‘lganligi va bu yerlarda zarb etilgan oltin va kumush tangalar Yevropada ham mashhur bo‘lganligi haqida ko‘p ma’lumotlar mavjud. Birgina G‘arbiy Eron va Ozarboyjonda Amir Temurning nomi bitilgan 120 turdan ortiq oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgan[9].

Rossiyada XIX asrda va XX asrning boshlarida naqd pul shaklida oltin tangalar keng qo‘llanilgan, xususan 1895 – 1897-yillardagi pul islohotlaridan keyin ham birinchi jahon urushiga qadar muomalada o‘n

[9] Ўзбекистон ҳудудида танга ва қоғоз пулларнинг чиқарилиши ва амал қилиши билан боғлиқ материаллар Ф. Муллажоновнинг Ўзбекистон Республикаси банк тизими китоби (–Т.: «Ўзбекистон» 2001 й. 6 – 27 бетлар)дан фойдаланилган ҳолда тайёрланди.

va besh so‘mlik oltin tangalar mavjud bo‘lgan. O‘zbekiston hududida ham oktabr inqilobiga qadar Chor Rossiyasining tangalari bilan bir qatorda Buxoro va Xiva xonligining oltin tangalaridan foydalanilgan.

Jahon sivilizatsiyasining tobora rivojlanib borishi va iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi muomalada qog‘oz pullarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Natijada, qimmatbaho metallar o‘rnini qog‘oz pullar egalladi.

Qog‘oz pullarning muomalaga kiritilishi. Manbalarga ko‘ra, dastlabki qog‘oz pullar X asrning oxiri XI asrning boshlarida Xitoyda chiqarilgan. Xitoyda qog‘oz pullar muomalaga chiqishida mamlakatda qog‘ozning kashf etilganligi va bosma mashinalarining yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlab muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar «erkin tanga», keyinchalik «qimmatbaho qog‘oz tangalar» deb yuritildi, ular mamlakatda erkin aylanadigan to‘lov vositalari bo‘lsada oltin yoki tovarlar bilan ta’minlanmagan edi.

Qog‘oz pullar kvadrat shaklda bo‘lib, bir tomonida imperatorning nomi va dinastitsiyasi haqidagi ma’lumotlar, ikkinchi tomonida esa «G‘aznachilik boshqaruvi iltimosiga ko‘ra qaror qilindi, hukumronlik qiluvchi imperator tomonidan tasdiqlangan va ushbu yozuv bo‘lgan bu qog‘oz tanga qiymatga ega va haqiqiy kumush tanga qatorida to‘lovga qabul qilinishi shart. Ushbu tartibni buzgan har qanday shaxsning boshi kesiladi» degan mazmundagi so‘zlar bitilgan edi.

Xitoyda muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullarning hajmi ortib ketganligi va ularni tartibga solish mexanizmlari mavjud bo‘lmaganligi bois juda tez vaqt ichida qadrsizlanib ketadi. Natijada 1500-yillarga kelib qog‘oz pullarni muomalaga chiqarish bekor qilinadi.

Yevropada dastlabki qog‘oz pullar Stokgolm banki tomonidan 1661-yilda emissiya qilingan. Yevropada qog‘oz pullar emissiyasining namoyandalaridan biri shotlandiyalik Djon Lo (1671–1729) hisoblanadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar ishlab chiqaruvchilar faolligini oshiradi va davlatning xazinasini to‘ldirishda juda qulay vosita hisoblandi. U o‘zining ta’limotini 1716–1720-yillarda Fransiyada o‘zi tashkil etgan bank orqali amalga oshirishga erishdi. Biroq, muomalada qog‘oz pullar haddan ortiq ko‘payib ketishi natijasida pullarning qadri tushib ketdi va uning ta’limoti inqirozga yuz tutdi.

O‘zbekistonda qog‘oz pullar 1918-yildan boshlab dastlab Buxoro amirligida muomalaga chiqarilgan. Muomalaga chiqarilgan nominali

SA
AXb
X/R
TMI kutubxonasi

20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000, va 10000 qog'oz pullar tanga deb atalgan.

1920-yilda Buxoro sho'ro qo'shinlari tomonidan bosib olinib, Buxoro amirligi o'rniga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tashkil etiladi. Yangi BXSR da 1920-yilda Buxoro amirligi tomonidan chiqarilgan metall va qog'oz tangalar muomalada bo'lib keladi hamda ularni bir oz o'zgartirilgan holda chiqarish, ya'ni sovet simvolikasi qo'yilgan holda tanga nomi bilan qog'oz pullar muomalaga chiqarish davom etgan. 1921-yilda BXSR muomalaga yangi, nominali rublda ko'rsatilgan qog'oz pullarni chiqara boshlaydi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominalda muomalaga chiqarilgan.

1922-yilda BXSR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pullarning nominali yuzlab marta kamaytirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rublik yangi pullar muomalaga chiqarilgan. Ammo ko'p o'tmasdan, kuchli inflatsiya natijasida past nominaldagi pul birliklari bozor ehtiyojlarini qondira olmay qoladi va 1000, 2500 va 5000 rublik pullar bosib chiqarila boshlagan[10].

Xulosa qilib aytganda, pulning vujudga kelishi jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishi va takomillashib borishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bularning ichida kishilar o'rtasida mehnat taqsimotining paydo bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, biz yashab istiqomat qilayotgan zaminda pullarning vujudga kelishi uning tarixi va sivilizatsiyasi juda boy va qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

[10] Ўзбекистон ҳудудида танга ва қоғоз пулларнинг чиқарилиши ва амал қилиши билан боғлиқ материаллар Ф.Мулламасовнинг Ўзбекистон Республикаси банк тизими китоби (–Т.: «Ўзбекистон» 2001й. 6 – 27 бетлар)дан фойдаланилган ҳолда тайёрланди.

Bobga oid savollar

1. Pul nima uchun maxsus tovar hisoblanadi?
2. Pul xo'jalik yuritish tuzumining qanday shaklida vujudga keldi?
3. Natural xo'jalik tuzumida kishilar o'rtasidagi qanday holatlar pulning vujudga kelishiga turtki bo'ldi?
4. Pulning vujudga kelishi ayirboshlash munosabatlarida qanday muammolarni hal etdi?
5. Pulning ayirboshlash munosabatlarini faollashishiga qanday omillar ta'sir etgan?
6. Pulning qanday qiymat shakllarini bilasiz?
7. O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar qachon va kim tomonidan zarb etilgan?
8. Amir Temur hukmronligi davrida qanday pul islohotlari amalga oshirilgan va pullar zarb etilgan?
9. Pul nima uchun iqtisodiy kategoriya hisoblanadi?
10. Pulning zarurligini belgilovchi omillar nimalardan iborat?

Bobga oid testlar

1. Dastlabki davrda pulning vujudga kelishiga nima sabab bo'lgan?

A. Ishlab chiqaruvchilarning foyda olishga bo'lgan harakati.
B. Tovar – pul munosabatlarininig rivojlanishi.
V. Ayriboshlash munosabatlarining vujudga kelishi.
G. Mehnat taqsimotining rivojlanishi.

2. Ayirboshlash munosabatlarining faollashishiga nimalar turtki bo'ldi?

A. Ishlab chiqarishning natural xo'jalik shaklidan tovar ishlab chiqarish davriga o'tilishi.
B. Ishlab chiqaruvchi subyektlarning bir – biriga o'zaro bog'liqligining vujudga kelishi.
V. Ayirboshlash jarayonida tovarlar ekvivalentligining ta'minlanganligi.
G. Barcha javoblar to'g'ri.

3. Pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy e'tibor uning:

A. Ayriboshlash xususiyatiga qaratiladi;

B. Evolyutsion nazariyasiga qaratiladi;
V. Qiymat shaklining rivojlanishiga qaratiladi;
G. Sotib olish qobiliyatiga qaratiladi.

4. Pulning qiymat shakli nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi?
A. To'rtta.
B. Beshta.
V. Uchta.
G. To'g'ri javob yo'q.

5. Dastlabki tangalar qachon zarb etilgan?
A. Eramizdan avvalgi X asrning boshlarida.
B. Eramizdan avvalgi VII asrda.
V. Eramizdan avvaligi V asrda.
G. Eramizdan avvalgi III asrda.

6. Dastlabki tangalar qayerda zarb etilgan?
A. Xitoyda.
B. Misrda.
V. Liviyada
G. Hindistonda.

7. Qog'oz pullar muomalaga qachon chiqarilgan?
A. IX asrning oxiri va X asrning boshlari.
B. X asrning oxiri XI asrning boshlari.
V. XII asrda.
G. XIII asrda.

8. Qog'oz pullar muomalaga qayerda chiqarilgan?
A. Hindistonda.
B. Xitoyda.
V. Misrda.
G. Qadimgi Rimda.

9. O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar qachon va kim tomonidan zarb etilgan?

A. Melloddan avvalgi 320–327-yillarda makedoniyalik Iskandar tomonidan.

B. XIII asrda arablar tomonidan.

V. Miloddan ilgarigi VI asrda axmoniy shox Doro – I tomonidan.

G. IX asrda somoniylar tomonidan.

10. Amir Temur nomi bitilgan necha turdagi oltin va kumush tangalar muomalaga chiqarilgan.

A. 70 dan ortiq.

B. 100 dan ortiq.

V. 120 dan ortiq.

G. 150 dan ortiq.

11. O'zbekiston hududida qog'oz pullar qachon muomalaga chiqarilgan?

A. 1912-yilda.

B. 1918-yilda.

V. 1920-yilda.

G. 1922-yilda.

12.Buxoro amirligining qog'oz pullari nechanchi yil bekor qilingan?

A. 1917-yilda.

B. 1920-yilda.

V. 1922-yilda.

G. 1924-yildi.

2 – bob. PULNING FUNKSIYALARI VA TURLARI

2.1. Pulning funksiyalari

Pulning mohiyati uning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo'ladi. Pul iqtisodiy kategoriya sifatida nechta funksiyani bajarishi iqtisodchi olimlar, nazariyachilar va iqtisodchilar o'rtasida juda uzoq davrdan buyon tortishuvlarga sabab bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotni markazdan boshqarish sharoitida nashr etilgan adabiyotlarda, pul beshta, ya'ni ***qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi va jahon puli funksiyalarini*** bajarishi ta'kidlanadi.

Iqtisodiyotni boshqarishning bozor munosabatlari joriy etilgan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida, pul uchta, ya'ni qiymat o'lchovi, muomala vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalarni bajarishi bayon etiladi.

P.Samuelson Aristotelning ta'limotlariga tayangan holda pul faqat ikkita, ya'ni ayirboshlash vositasi, baho masshtabi birligi yoki o'lchov hisobi funksiyalarini bajarishini ta'kidlaydi[11].

Angliya – amerika iqtisodchi olimlari pulning uchta funksiyasi (muomala vositasi, qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi) mavjudligini e'tirof etishadi[12]. Jumladan, Edvin Dj. Dolan, Kolin D. Kempbell, Rozmari Dj. Kempbelllar pul muomala vositasi, qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi funksiyalarini bajarishini ta'kidlaydi[13].

Nemis iqtisodchi olimi K. Knis (1821 – 1898) pulning to'rtta ya'ni, qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalarini e'tirof etadi.

S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzilar ham pulning to'rtta funksiyalarini bajarishlarini e'tirof etib, ularni quyidagi ketma – ketlikda amal qilishini ta'kidlaydi: birinchisi – muomala vositasi va to'lov

---

[11] Самуэльсон П. Экономика вводный курс. –М.: 1964. –С. 69.

[12] Масалан: Харрис Л.Денежная теория. –М.: 1990. –С.75; Долан Э., Ланцей Д. Макроэкономика. – СПб.: 1994, – С. 7 – 8.

[13] Эдвин Дж. Долан, Колин Д. Кэмпбелл, Розмари Дж. Кэмпбел. Деньги, банковское дело и денежно – кредитная политика. Пер. с. англ. к.э.н. А.А.Лукашевич, А.П.Маноцкова, к ф н. В.Б.Ярцева, к ф – м.н. М.Б.Ярцев. –М – СПб., 1991. –С. 26.

vositasi, ikkinchisi – o'lchov hisobi, uchinchisi – qiymatni saqlash vositasi, to'rtinchisi – kechiktirilgan to'lovlarni o'lchovi[14].

K.Marks pulning funksiyalari konsepsiyasida uni uchta funksiyasi mavjudligini ta'kidlaydi. U pulning funksiyalarini quyidagi ketma – ketlikda ifodalaydi. Birinchisi – qiymat o'lchovi, ikkinchisi – muomala vositasi, uchinchisi – moliyaviy pul. K.Marksning pulning uchinchi funksiyasi ayrim iqtisodchilar tomonidan jamg'arma vositasi, to'lov vositasi va jahon puli kabi vazifalarini bajarishi mumkinligini ilgari suriladi[15].

Rossiyalik iqtisodchi olim, professor O.I. Lavrushin[16], professor V.A. Shegorsova[17], professor V.V. Ivanov va professor B.I. Sokolovlar[18] tahrirlari ostida chop etilgan Pul, kredit, banklar darsliklarning barchasida pul beshta funksiyani bajarishi e'tirof etiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi, professor Sh.Z. Abdullayeva pul to'rtta funksiyani bajarishini, ular qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalari ekanligini ta'kidlaydi[19].

Professor O.Yu. Rashidov tahriri ostida chop etilgan Pul, kredit va banklar darsligida pul beshta, ya'ni qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi va jahon puli vazifalarini bajarishini ta'kidlanadi[20].

Ko'rinib turibdiki, pulning funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikrlari turlicha bo'lib, birinchi guruh olimlar pulni beshta funksiyasi mavjudligini ta'kidlashsa, ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar uning to'rtta funksiyani bajarishini e'tirof etadi. Uchinchi guruh iqtisodchi olimlar, asosan anglo – amerikaliklar uni uchta funksiyani bajarishini bayon etadi. Hatto ayrim iqtisodiy adabiyotlarda pulni oltita funksiyani bajarishi qayd etilib, oltinchi funksiya sifatida baho masshtabi ekanligini isobtlashga urinishadi[21].

Iqtisodchi olimlar pulning funksiyalari haqida turlicha talqin etishiga quyidagilar sabab bo'ladi. Bir guruh iqtisodchi olimlar, pulning funksiyasini zamonaviy sharoitda uning xossalaridan kelib chiqib bayon

---

[14] Фишер С., Дорнбуш Р., Шмоленси Р. Экономика. –М.: 1993. –С. 474 – 475.

[15] Пезенти А. Очерки политической экономики капитализма: в 2 т.: пер. с итал. Т.1. – С. 472 – 473.

[16] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 57

[17] Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С. 14.

[18] Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С. 26

[19] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иктисод – Молия», 2007, 13 – б.

[20] Рашидов О.Ю. ва бош. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2008. 22 – б.

[21] Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С. 25.

etadi, boshqa guruh olimlar esa turli mamlakat olimlarining pulni funksiyalari xususidagi fikrlariga tayangan holda unga talqin beradi. Yana boshqa guruh iqtisodchi olimlar esa pulning funksiyalarini ta'riflashda uning tarixan vujudga kelishi bilan bog'liq voqelik va nazariyalarga tayanadi.

Pulning funksiyalari xususida fikr yuritganda uning asl (haqiqiy pul) qiymatiga ega bo'lgan va asl qiymatiga ega bo'lmaganligi (o'rinbosar pullar) ga e'tibor qaratish lozim. Chunki muomalada asl qiymatga ega bo'lgan pullar to'lov vositasini bajarganda ularda pulning barcha funksiyalari namoyon bo'ladi va aksincha. Asl qiymatga ega bo'lgan pullar sifatida qimmatbaho metallar oltin va kumushni, kredit pullarni va 100 foiz oltin bilan ta'minlangan pullarni qayd etish mumkin. Asl qiymatga ega bo'lmagan pullarga qog'oz pullar, oltin asosiga ega bo'lmagan kredit pullar kiradi.

Haqiqatda ham qimmatbaho metallar to'lov vositasini bajargan paytda ular pulning barcha funksiyalarini bajargan. Qimmatbaho metallar o'rnini qog'oz pullar egallagandan so'ng, qog'oz pullarning inflatsiyaga uchrashi natijasida ular pulning barcha funksiyalarini bajarmay qo'ydi. Shuning uchun ta'kidlab o'tish kerak, yuqorida ko'rib chiqilganidek, vaqt o'tishi bilan pulning funksiyalari haqida turli qarashlar vujudga kela boshladi.

Pulning funksiyalari xususidagi fikrlarga tayanib, pul to'rtta, ya'ni ***qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalari***ni bajaradi degan fikrga keldik.

Pulning ***qiymat o'lchovi*** funksiyasi asosan tovarlar qiymatini baho shaklida aks ettirish orqali namoyon bo'ladi. Pulning qiymat o'lchovi barcha tovarlar uchun umumekvivalent vositasi sifatida ularning qiymatini o'lchaydi. Barcha tovarlarning qiymati pul o'lchovi vositasi, ya'ni baho masshtabi, dastlabki bosqichda hukumat tomonidan o'rnatiladi. Masalan, metr o'lchovi bilan uzunlikni, kilogramm o'lchovi bilan og'irlikni o'lchagan kabi, pulning qiymat o'lchovi funksiyasi bilan barcha tovarlarning qiymati o'lchanadi.

O'zbekistonda qiymat o'lchovi bevosita milliy valuta «so'm», AQSHda dollar, Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda yevro, Buyuk Britaniyada funt sterling, Yaponiyada iyena qiymat o'lchovi vositasi hisoblanadi.

Pulning inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan paytda uning qiymat o'lchovi funksiyasining amal qilishi bir qadar chegaralanadi. Masalan,

1939-yildan 1949-yilgacha Yaponiya iyenasining inflatsiya darajasi yuqori bo'lganligi uchun ko'pchilik yapon savdogarlari tovarlarning bahosini belgilashda, ayrim hollarda savdo-sotiqni ham AQSH dollarida amalga oshirganlar. Chunki AQSH dollarining qiymat o'lchovi iyenaga nisbatan bir necha barobar mustahkam va barqaror bo'lgan. Shuning uchun Yaponiyada 1939-1949-yillarda barcha tovarlar bahosi ikkita narxda, dollar va iyenada yuritilar edi. Ayni paytda, iyenada belgilangan tovarlar bahosi oshib borish tendensiyasiga ega edi, dollarda esa baholar dastlabki holatidan o'zgarmasdan qolgan.

Hukumat mamlakatda pul islohotini amalga oshirish orqali pulning qiymat o'lchovini o'zgartirishi mumkin. Pul islohoti – muomaladagi pul massasini kamaytirish orqali, uning joriy qiymat o'lchovidan boshqasiga o'tishdir. 1944 – 1952-yillarda Yevropa mamlakatlarida 24 martadan ortiq pul islohotlari amalga oshirilgan.

Sobiq ittifoq davrida rubl kuchli inflatsiyaga uchramagan va iqtisodiyot nisbatan barqaror darajaga ega bo'lgan bo'lsada, 1961-yilda mamlakatda pul islohoti amalga oshirilgan. Hukumat muomalada mavjud bo'lgan rubllarni yangi chiqarilgan rubllarga 1/10 nisbatda pul islohotini amalga oshirgan. O'sha davrda o'tkazilgan pul islohotining asosiy maqsadi mamlakatdagi xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirish va baho masshtabini pasaytirishga qaratilgan bo'lib, xufyona iqtisodiyot ishtirokchilari eski rubllarni to'lig'icha yangi banknotalarga almashtira olmaganligi natijasida iqtisodiy jihatdan zarar ko'rgan va baho masshtabi 10 martaga kamaygan.

Pulning ***muomala vositasi*** bozor ishtirokchilari o'rtasida tovarlarni oldi – sotdisi va xizmatlarni ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda pul vositachi rolini bajaradi.

Pulning muomala vositasi funksiyasini bajarishining bir sharti mavjudki, u ham bo'lsa, tovarlarni sotib olish va xizmatlarni ko'rsatish uchun to'lov bir vaqtda amalga oshiriladi. Pulning ushbu funksiyasini bajarishda bevosita naqd pullar ishtirok etishi talab etiladi.

Ayirboshlash jarayonida tovarlar bir marta qatnashib muomala maydonini tark etsa, pul muomala vositasi funksiyasi yordamida ushbu jarayonga qayta – qayta kelaveradi. Iqtisodiyotda pulning banklar orqali aylanish tezligi qancha yuqori bo'lsa, tovarlarni sotib olish uchun muomalaga zarur bo'lgan pul massasiga talab shuncha pasayadi.

Pulning muomala vositasi funksiyasi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etayotgan tomonlarning faoliyati ustidan

nazorat vositasi sifatida maydonga chiqadi. Markazdan rejalashtirish davrida pulning muomala vositasi bir muncha chegaralangan edi. Natijada, odamlarning qo'lida naqd pullar bo'lishiga qaramasdan o'zlari istagan tovarlarni sotib ololmasdi yoki sotib olishga imkoniyat bo'lmagan.

Bozor munosabatalarining takomillashuvi va rivojlangan mamlakatlarda fan – texnika taraqqiyotining tobora jadallashib borishi pulning muomala vositasi funksiyasining ahamiyatini bir qadar pasayishiga sabab bo'lmoqda. Chunki, mamlakat pul oboroti tarkibida naqd pul bilan amalga oshirilayotgan hisob-kitoblarning ulushi kamayib bormoqda. Naqd pullar asosan aholi tomonidan foydalanishi, keyingi yillarda plastik kartochkalarning ko'plab turlari joriy etilishi, hisob-kitoblarda naqd pulsiz to'lovlar hajmining ortib borishi kabi holatlar pulning muomala vositasi funksiyasining ahamiyatini pasayishiga olib kelmoqda. Masalan, 1994-1997-yillarda Angliya va Fransiyada 10%, Kanada va Germaniyada 7%, AQSHda 2% ishchi xodimlargina ish haqlarini naqd pulda olishgan.

Tovarlar sotilganda va xizmatlar ko'rsatilganda, ular uchun to'lov kechiktirib amalga oshirilgan barcha holatlarda pul ***to'lov vositasi*** funksiyasini bajaradi. Demak, sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar to'lov jarayonida uzilish bo'lmasa, pul muomala vositasini bajaradi, agar ushbu jarayon ma'lum davrga uzilishi, ya'ni to'lov kechikkan holatlarning barchasida, pul avtomatik tarzda, o'zining to'lov vositasi funksiyasini bajaradi.

Pulning to'lov vositasi funksiyasi asosan quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi;

– jami ijtimoiy mahsulotni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda;

– davlat budjeti xarajatlarini shakllantirish va qayta taqsimlashda;

– xo'jalik subyektlari o'rtasida amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda;

– kredit muassasalari ssuda va investitsiya operatsiyalarini bajarganda hamda pul o'tkazmalarini amalga oshirganda;

– korxona va tashkilotlar o'z xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag'larni to'lashda;

– va boshqa holatlarda.

Pulning to'lov vositasi funksiyasi yuridik shaxslar o'rtasida amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblarda juda keng foydalaniladi.

Bunda naqd pullarning ishtirokiga zaruriyat bo'lmaydi, barcha operatsiyalar bank hisobraqamlarida biridan ikkinchisiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarda, pulning to'lov vositasi funksiyasi, uning alohida funksiyasi sifatida e'tirof etilmaydi. Pulning ushbu funksiyasi uning muomala vositasi funksiyasi bilan hamoxong tarzda o'rganiladi. Pulning ikkita funksiyasi bir – biriga qo'shib o'rganilganda «...pul tovarlar va xizmatlarning to'lovi va qarzlarning to'lov vositasi»[22] tarzida ta'kidlanadi.

Nazarimizda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodchilari tomonidan pulning to'lov vositasi va muomala vositasi funksiyalarini bir – biriga qo'shib yuborilishi natijasida, uning to'lov vositasi funksiyasini e'tirof etilmasliklari maqsadga muvofiq emas.

Pul o'zining muomala va to'lov vositasi funksiyalarini bajarmagan vaqtda ***jamg'arma funksiyasini*** bajaradi. Demak, pullar pul oboroti jarayonida tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning muomala vositasi sifatida namoyon bo'lmaganda, shuningdek, oldindan ko'rsatilgan xizmatlar va sotib olingan tovarlar uchun to'lov vositasi vazifasini bajarmagan paytlarda jamg'arma funksiyasini bajaradi. Agar, jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlar va aholining ijtimoiy – iqtisodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, pul asosan jamg'arma vositasi funksiyasini bajarayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Pulning jamg'arma vositasi funksiyasi aholining vaqtincha foydalanmasdan kishilar o'zi bilan olib yurganda yoki uyda saqlaganda, bankning omonat hisobvaraqlarida saqlanishi, shuningdek, barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning naqd pul ko'rinishida kassada saqlanadigan vaqtincha bo'sh mablag'lari va bank hisobvaraqlarida naqd pulsiz ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Pulning jamg'arma funksiyasi kredit muassasalarida iqtisodiy jihatdan muhim vazifani bajaradi. Kredit muassasalari jamiyat miqyosidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larni (naqd va naqdsiz pul ko'rinishida) ma'lum shartlar asosida o'zida jamlab, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga to'lovlilik, maqsadlilik va qaytarishlik asosida berishi orqali, mamlakatda jami ijtimoiy

---

[21] Долан Э., Кэмпбелл., Кэмпбелл Р. Деньги банковское дело и денежно – кредитная политика. –М.: Профико, 1991

[22] Шуплягляк, Харриса Л. Денежная теория. –М.: Прогресс, 1990. – С.82.

mahsulotni ko'paytirishda pulning jamg'arma funksiyasidan foydalanadi.

Iqtisodiyotda yuqori inflatsiya darajasi pulning aholi qo'lidagi va kredit muassasalarida jamg'arma vositasi funksiyasini bir qadar chegaralaydi. Aholi o'zining vaqtincha pul mablag'larini banklarda va uyda saqlashdan ko'radigan iqtisodiy samaradorligi past bo'lishi, iqtisodiyotda tovarlarning bahosini kundan kunga o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan sharoitda, ushbu, pullarni qimmatbaho metallarni, ko'chmas mulk va xorijiy valutalarni sotib olishga sarflaydi. Buning natijasida, mamlakat Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan pul – kredit siyosatining samarasi ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini bermaydi.

Pulning jamg'arma funksiyasining ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarni ta'minlash lozim:

– omonatchilarning kredit muassasalarda saqlanayotgan pul mablag'laridan iqtisodiy manfaat ko'rish, istagan paytda to'liq va zudlik bilan qaytarib olish imkoniyatini ta'minlanganligi;

– qo'yilgan mablag'larning kafolatlanganligi (sir saqlanishi, iqtisodiy barqarorligi, to'liq qaytarilishi);

– risk darajasining pastligi.

Pulning funksiyalari bir – biriga bevosita bog'liq bo'lib, ular doimo bir – birini to'ldirgan holda iqtisodiyotda harakatda bo'ladi.

2.2. Pulning turlariga umumiy tavsif

Kishilik jamiyatida ayirboshlash munosabatlarining chuqurlashuvi, mehnat taqsimotining rivojlanishi pulning oddiy tovar shaklidan, hozirgi kunda hisob-kitoblarda qo'llanilayotgan elektron pullar ko'rinishi darajasigacha yetib kelishiga sabab bo'ldi. Albatta, bu juda uzoq davrni o'z ichiga oladi. Kishilar stixiyali tarzda hayot kechirgan va natural xo'jalik tuzumi sharoitida turli buyumlar, hayvonlar, mahsulotlar pulning vazifasini bajargan bo'lsa, miloddan oldingi VII – VI asrlarda metallar pul sifatida amal qilgan, XI va XII asrlarda qog'oz pullar, XX asrdan esa elektron pullar iqtisodiyotga to'lov vositasi sifatida kirib keldi.

Demak, pul bugungi kundagi ko'rinishiga yetib kelguncha juda uzoq davr va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni bosib o'tgan. Pulning turlarini o'rganishda uni asl qiymatga ega bo'lgan (haqiqiy) pul va asl

qiymatga ega bo'lmagan (o'rinbosar) pul sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Odatda, haqiqiy pullar to'lov vositasini bajarganda ular o'z qiymati bo'yicha ayirboshlash jarayonida ishtirok etgan, iqtisodiyotda pul massasini tartibga solish bo'yicha muammolar mavjud bo'lmagan.

Asl qiymatga ega bo'lmagan pullarning haqiqiy qiymati nominal qiymatiga nisbatan bir necha marta past bo'lib, ular muomalaga chiqarilgandan keyin doimiy ravishda tartibga solinib turish lozim. Aks holda, iqtisodiyotda pul massasi tovar massasiga nisbatan ortib ketadi va qog'oz pullar o'zining to'lov vositasi sifatidagi qobiliyatini yo'qotadi.

Haqiqiy pullar quyidagi xossalarga ega bo'lgan:

– nominal qiymatning real qiymat bilan mutanosibligi;

– qiymatning qardsizlanmasligi, ya'ni haqiqiy pullar har qanday sharoitda ham o'zining dastlabki qiymatini yo'qotmagan;

– ularni boshqa tovarlar kabi iste'mol qilish mumkinligi.

Biroq, natural pullarning hammasi ham yuqoridagi xossalarni uzoq muddatga saqlab turish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Masalan, bug'doy, tamaki, choy, baliq, jun kabilar vaqt o'tishi bilan o'zining dastlabki xususiyatlarini yo'qotgan.

2.3. Natural pullar

Jamiyatning dastlabki davrlarida to'lov vositasi sifatida foydalanilgan pullar buyum yoki natural ko'rinishida bo'lgan. Natural pullar – bu real ko'rinishga ega bo'lgan tovarlardir, ushbu pullarning qiymati tovarning o'zida aks ettirilgan bo'lib, ularning sotib olish qobiliyati tovarlar qiymati bilan ifodalangan. Ma'lum bir tovarning pul o'rnida foydalanishda uning iste'mol qiymati muhim ahamiyat kasb etgan.

Natural shakldagi pullarni uchta guruhga ajratgan holda tasniflash mumkin.

1. Hayvonlar shaklida. Ushbu pul tarkibiga tirik hayvonlar va ulardan tayyorlangan buyumlar kiradi. Masalan, qo'y, buqa, jun, suyak va boshqalar.

2. Buyum shaklida. Bu shakldagi pullar tarkibiga foydali qazilmalar va metallar hamda ulardan yasalgan mehnat qurollarini keltirish mumkin. Masalan, qimmatbaho toshlar va metallar, tuz va boshqalar.

3. O‘simlik shaklida. Bularning tarkibiga turli o‘simliklar va ularning mevalari kiradi. Masalan, bug‘doy, mevalar, tamaki va boshqalar.

Natural pullarning paydo bo‘lishi va ulardan foydalanish tarixi juda chuqur va qiziqarlidir. Odamlar dastlab yovvoyi holda yashagan davrda barcha kishilar topgani o‘rtada bo‘lgan, birgalikda iste’mol qilgan, keyinchalik bir urug‘ga mansub kishilar qabila – qabila bo‘lib yashay boshlagan. Qabila ichida odamlar bir – biriga yordam berishi, oziq – ovqatlarni baham ko‘rishi kerak bo‘lgan. Bu beg‘araz tartibda amalga oshirilib, buning o‘rniga ular bir – biridan hech narsa umid qilmagan, hamma narsa o‘rtada bo‘lgan.

Keyinchalik ibtidoiy urug‘chilikning rivojlanishi natijasida turli qabila qatlamlari vujudga kelgan. Vaqti – vaqti bilan ular o‘rtasida dahshatli qonli to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. Ushbu to‘qnashuvlar natijasida bir qabila ikkinchisi ustidan g‘alaba qozongandan keyin, ularning barcha narsalarini talon-taroj qilgan. Shu bois, ayrim qabilalar tinchlikni saqlash maqsadida kuchli qabilalarga narsalar, asosan iste’mol qilinadigan narsalarni bergan. Aynan shu jarayon ham kishilar o‘rtasida bir tomonlama ayirboshalash munosabatlarini vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Tosh asri davrida kishilar yerlarni o‘zlashtirib ekin eka boshlagan, keyinchalik dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqqan. Dastlab yaratilgan narsalar barchasi bir yo‘la iste’mol qilingan bo‘lsa, endi ma’lum miqdorda zaxiralar qilina boshlagan. Zaxira qilindimi, u yerda ortiqchalik vujudga kelgan. Ortiqcha narsalar esa unga egalik qiluvchi tomonidan erkin ravishda tasarruf qilingan. Buning natijasida ayirboshlash jarayoni jonlana boshlagan. Shuningdek, keyinchalik hunarmandchilik vujudga kelgan, bularning barchasi kishilar o‘rtasidagi bir tomonlama ayirboshlashdan ikki tomonlama ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Odamlar o‘rtasida dastlab ayirboshlash vositasi sifatida juda keng tarqalgani mehnat qurollari hisoblanadi (1-rasmga qarang). Mehnat qurollariga dehqonda, chorvadorda yoki hunarmandda juda katta ehtiyoj mavjud bo‘lib, ular o‘z mahsulotlarini iloji boricha mehnat qurollariga ayirboshlashga intilar edi. Mehnat qurollari eng qadimiy tovar – pullar hisoblanadi.

Masalan, tosh asrida Yevropada eng ko‘p tarqalgan ayirboshlash vositasi kremnivie boltalar hisoblangan. Manbalarga ko‘ra ular juda

yirik bo‘lib, ayrimlarini og‘irligi 40 kg ni tashkil etgan. Yevropada kremnivie boltalar juda keng tarqalgan bo‘lib, unga ega bo‘lgan kishilar juda boy va mavqeyi yuqori hisoblangan[23].



Bronza pu-llopatka. Miloddan oldingi III asr. Xitoy. *Toshdan yasalgan pul pichoq. Meksika. XVI asr.* *Pul bug‘u shoh. Miloddan oldingi XII-X asr. Italiya.*

1-rasm.

Agar Yevropada bolta juda keng tarqalgan to‘lov vositasi hisoblansa, Rossiyada iste’mol mollari ayirboshlash vositasi sifatida juda keng tarqalgan. Masalan, iste’mol tovarlar ichida buqalar asosiy to‘lov vositasi sifatida tan olingan. Barcha narsaning qiymati, hatto yerlar ham buqalar bilan o‘lchangan.

Manbalarga ko‘ra, Xitoyning Xuanxe provinsiyasida odamlar chorvachilik bilan shug‘ullangani bois, bundan 4 ming yil oldin Xitoyda natural pullar sifatida buqalar, mayda to‘lov vositasi sifatida qo‘ylar xizmat qilgan. Dehqonchilikning rivojlanishi natijasida bug‘doy o‘lchov biriligi vositasida foydalanilgan. Bug‘doyni uzoq saqlash imkoniyati bo‘lmaganligi, u ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng buzilishi mumkinligi uchun kauralarning chig‘onoqlari, tosh bolta va shu kabi boshqa narsalardan pul vositasida foydalanilgan (2 – rasm).

Qadimda natural pullar turli ko‘rinishda bo‘lib, (2 – rasm) ulardan to‘lov vositasi sifatida foydalanishga qator omillar ta’sir qilgan. Xususan:

– odamlarning kunlik ehtiyoji uchun juda zarur bo‘lgan buyumlar;

– mamlakatning tabiiy iqlimi va geografik joylashuvi;

– kamyob buyumlar va ularni yetishtirishning murakkablik darajasi;

– uzoqroq muddat davomida saqlash imkoniyatining mavjudligi.

---

[23] Деньги мира. Ред.группа: О.Елисеева, Т.Евсеева и др. –М.: Мир энциклопедий Аванта+, Астрель, 2009. – 184 с.: ил. ((Самые красивые и знаменитые). –С. 14.



Tosh pul-bolta. Miloddan oldingi VIII-III asr

Bronza tanga «Yuan'-tun bao» yozuvi bilan. Xitoy, Miloddan oldingi III asr.

Rasm solingan pul-chig'anoq. Yevropa. 900-100 yy

2-rasm.

2.4. Metall pullar

Kishilar o'rtasida ayirboshlash jarayonlarining tezlashuvi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ayirboshlash hajmining ortishiga olib keldi. Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi natijasida kishilar metallni kashf etdilar, undan turli xil mehnat qurollarini yasab kundalik hayotida foydalandilar. Shu bilan birga, ushbu mehnat qurollari to'lov vositasi vazifasini ham bajardi. Keyinchalik esa metalldan tanga pullarni zarb qilish yo'lga qo'yildi. Bularning barchasi ayirboshlash munosabatlari jarayonida foydalanib kelinayotgan natural pul shakllarini metall pul shakliga o'tishiga zamin tayyorladi.

Metalldan yasalgan mehnat qurollarining to'lov vositasi sifatida foydalanganligining xususiyati shunda ediki, kishilar metalldan tayyorlangan bolta va shunga o'xshash narsalardan to'lov vositasi sifatida foydalangan bo'lsada, ular boshqa maqsadda, ya'ni kundalik hayotda foydalanish uchun yaratilgan edi. Masalan, kishilar metalldan yasalgan boltadan ayirboshlash vositasi sifatida keng foydalangan, lekin u to'lov vositasini bajaradigan tanga ko'rinishiga ega bo'lmagan. Odamlar stixiyali ravishda metalldan yasalgan boltani to'lov vositasi o'rnida foydalanishgan.

Pulning natural ko'rinishidan metall tanga shakliga o'tishi, yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etgan.

1. Kishilarning metallarga turli shaklda ishlov berishni kashf etilishi. Ta'kidlaganimizdek, bolta va shunga o'xshash temir qurollardan pul vositasi sifatida foydalanilgan, lekin ularni puldan foydalnishning metall davri deb yurita olmaymiz. Chunki, ushbu mehnat qurollarining

funksiyalari boshqa bo'lgan. Kishilar metallni kashf qilganlaridan keyin oradan juda ko'p davrlar o'tishi bilan unga ishlov berish yo'llarini o'rgandilar. Bu o'z – o'zidan metall tangalarni zarb etishga turtki bo'ldi.

2. Davlatchilikning paydo bo'lishi. Metall kashf etilib, odamlarga unga ishlov berish yo'llari ma'lum bo'lgandan so'ng, ma'lum hudud va qabilalar alohida kishilarning hukmronligi, xonligi va qirolligi ostida boshqarila boshlandi. Bu o'z-o'zidan o'sha davrning hukmroni, xoni yoki qirolining mavqeyini oshirish, o'zining chegaralarini mustahkamlash va qonunlarini yuritish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bularning barchasi turli tasvirlar va yozuvlar tushirilgan tangalarni zarb etishga asos bo'ldi.

3. Kishilar o'rtasida tovar ayirboshlash hajmining ortib borishi natijasida ushbu jarayonning murakkablashuvi. Masalan, dehqon bir qop bug'doyni bitta boltaga ayirboshlashi uchun temirchi kosibning xohishi dehqonning xohishiga mos kelishi lozim. Ya'ni mazkur holatda, temirchining bir qop bug'doyga ehtiyoji bo'lishi kerak. Biroq, temirchiga bir qop bug'doy emas, balki bitta qo'y kerak bo'lsa, u holda dehqon bug'doyni qo'yga almashtirishi, so'ngra qo'yni temirchiga olib kelib bitta boltaga almashishi zarur bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, kishilar o'rtasida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va ayirboshlash hajmining ortishi natural pullarni to'lov vositasi sifatidagi vazifasini amalga oshirish imkoniyatlarini chegaralab qo'ydi.

4. Natural shakldagi pullarni saqlash va olib yurishning qiyinligi. Albatta, o'sha paytlarda pulning vazifasini bajargan bolta yoki boshqa mehnat qurollarini saqlash qiyin bo'lmagan bo'lsada, lekin ularni olib yurish va xavfsizligini ta'minlash odamlarga turli noqulayliklarni keltirib chiqargan. Pulning vazifasini bajargan bug'doy, jun, qo'y yoki boshqa shunga o'xshash narsalar esa vaqt o'tishi bilan buzilgan, o'zining dastlabki xususiyatini yo'qotgan. Shu bilan birga, ularni olib yurish, ayniqsa, saqlash ham odamlarga qo'shimcha tashvish keltira boshlagan.

Bularning barchasi natural pullar o'rniga metall pullarni muomalaga to'lov vositasi sifatida kirib kelishiga zamin yaratdi.

Dastlab metall tangalar qora rangli temirlardan slitka ko'rinishida tayyorlangan bo'lsa, keyinchalik to'rtburchak, uchburchak, yumaloq ko'rinishdagi tanga shaklini olgan.

Vaqt o'tishi bilan temir tangalar o'rnini bronza, kumush va oltin egalladi (3–rasm). Temir metallardan yasalgan tanga to'lov vositasini bajarganda ularning baho masshtabini tanganing og'irligi bilan

anqilangan. Keyinchalik bronza, mis va oltin tangalar to'lov vositasini bajarganda esa baho masshtabi qimmatbaho metallarning nafaqat og'irligi, balki ularning xossalari orqali ham aniqlanadigan bo'ldi.



Aleksandr Makedonskiy surati tushirilgan kumush tetradrxma, avers, resers. Misr. Miloddan oldingi 310-305 yy.

Oltin 10 rubl', avers, revers. Rossiya. Elizaveta Petrovna

3-rasm

Muomalada metall tangalar, ayniqsa, oltin tangalar pulning vazifasini bajarganda iqtisodiyotda pul-muomalasini tartibga solishga ehtiyoj bo'lmaydi. Chunki, qimmatbaho metallar haqiqiy qiymatga ega bo'lgan asl pul hisoblanib, uning hajmi tovar massasasiga nisbatan avtomatik tarzda tartibga solinib boriladi. Ya'ni, agar iqtisodiyotda tovar massasi oltin massasi (qiymati)ga nisbatan kam bo'lsa muomaladagi ortiqcha oltin tangalar boylik sifatida xazinaga joylashtiriladi. Agar, aksincha, muomalada oltin tangalar massasi tovar massasiga nisbatan kam bo'lsa boylik sifatida xazinaga joylashtirilgan mablag'lar muomalaga chiqarish orqali o'zaro muvozanat ta'minlanadi.

2.5. Qog'oz pullar

Qog'oz pullarning muomalaga kiritilishi jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy voqelik bo'lib, ushbu jarayon o'zi bilan birgalikda qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolarning asosiysi inflatsiya hisoblanadi. Qog'oz pullarning muomalaga chiqarilishi natijasida inflatsiya muammosi paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri, ushbu pullar haqiqiy qiymatga ega bo'lmagan, ya'ni haqiqiy pullarning o'rinbosarlari hisoblanadi. Qog'oz pullarda aks ettirilgan nominal qiymati ularning haqiqatdagi qiymatidan juda yuqoridir. Chunki qog'oz pullarning haqiqiy qiymati juda past.

Mazkur darslikning birinchi bobi 1.1–paragrafida oltin tangalarning o'rniga qog'oz pullarning kirib kelishi bilan bog'liq tavsilotlar atroflicha bayon etilgan. Ularni qaytarilishiga yo'l qo'ymaslik

maqsadida, oltin tangalarni saqlovchilar va oltinni saqlashga beruvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlar natijasida qog'oz pullarni muomlaga chiqarish bilan bog'liq jarayonni qisqacha bayon etmoqchimiz. Ushbu jarayon Yevropaning ayrim mamlakatlari va AQSH amaliyotida qog'oz pullarning kirib kelish tajribasida ro'y bergan.

Chunki, ushbu mamlakatarda qog'oz pullar Xitoy, Turkiston, Rossiya malakatlaridan keyin muomalaga kiritilgan bo'lsada, oltin tangalarni muomaladan chiqib ketishi natijasida ularning o'rniga qog'oz pullarni kirib kelishi stixiyali tarzda ro'y bergan. Manbalarga ko'ra, dastlabki qog'oz pullar Xitoy, Turkiston va Rossiyada davlati tomonidan muomalaga chiqarilgan.

Jamiyatda tovar – pul munosabatlarining jadal rivojlanib borishi natijasida, kishilar o'rtasida ayirboshlash hajmi misli ko'rilmagan darajada o'sib bordi. Bu jarayon oltinlarni saqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash borasida qator muammolarni keltirib chiqara boshladi. Bularni bartaraf etish maqsadida oltinlarni saqlab berish evaziga daromad oluvchilar paydo bo'ldi[24]. Oltin saqlovchilar asta – sekinlik bilan odamlarning ishonchiga kirib borishi natijasida kishilar vaqtinchalik bo'sh oltin tangalarini ma'lum haq to'lash evaziga ularga topshira boshladi. Oltin saqlovchi oltinlarni saqlar, ularning xavfsizligiga javobgar edi, shuningdek, kimga, qachon va qancha oltin kerak bo'lsa tegishli yozuvlarni (oltinni olganligini tasdiqlovchi tilxatlar) yuritgan holda bera boshladi.

«A» shaxs «B» shaxsga sotib olgan tovari uchun to'lagan oltin tangani «B» shaxs ham, o'z navbatida, ehtiyojidan ortiqcha qismini oltin saqlovchiga eltib topshirar edi. Bu oltin saqlovchi va oltinni saqlashga beruvchilar o'rtasida o'zaro ishonchning paydo bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik oltin saqlovchi odamlar orasida tanilib, ishonchga kira boshlaganlaridan so'ng odamlar ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan oltinni olmasdan, tovar va mahsulot uchun sotuvchiga tilxatlarning o'zini to'lov vositasi sifatida bera boshladi. O'z navbatida, sotuvchi ushbu tilxatlarni to'lov vositasi sifatida qabul qildi, zarur hollarda ushbu tilxat asosida oltin saqlovchidan kerakli miqdordagi oltinlarni oldi, yoki uchinchi shaxsga to'lov vositasi sifatida o'tkazib yubordi. Shu tariqa muomalada qog'oz pullar paydo bo'ldi.

Bu jarayon shu darajada rivojlanib ketdiki, barcha taniqli va yetarli darajada ishonchga ega bo'lgan oltin saqlovchilarning tilxatlari

---

[24] Бир неча асрдан кейин ушбу "олтин сақловчилар" банкирларга айланишди.

muomalada to'lov vositasini bajara boshladi. Dastlab muomalaga chiqarilgan qog'oz pullar to'lig'icha oltin bilan ta'minlangan edi. Keyinchalik esa oltin saqlovchining kasodga uchrashi, yoki odamlarning ishonchini suiiste'mol qilishi natijasida muomalada ta'minlanmagan qog'oz pullar paydo bo'la boshladi. Natijada ushbu pullar oltin saqlovchilarga taqdim etilganda ular buning evaziga oltin tangalar berishdan bosh tortdi. Bularning barchasi mamlakatda pul muomalasini izdan chiqishi oqibatida xo'jalik yuritish va hisob-kitoblarni amalga oshirishda tanazulliklarni keltirib chiqardi. Aynan shu jarayonda davlat qog'oz pullarni tartibga solish va yagona emissiya qilishni o'z qo'liga oldi. Buning uchun alohida davlat banki, ya'ni Markaziy bankni tashkil etdi, unga muomalaga qog'oz pullarni chiqarish, pul muomalasini tartibga solish vazifalari yuklatildi. Tijorat banklari esa muomalga naqd pullarni emissiya qilish huquqidan mahrum etilib, mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatadigan tijorat muassasalariga aylantirildi.

Angliyada qog'oz pullar 1817–1843-yillarda tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan, 1813-yilda Angliya Banki o'z banknotasini muomalaga chiqardi. 1844-yildan boshlab esa tijorat banklariga pulni emissiya qilish bekor qilindi va R. Pilning qonuniga asosan Angliya Bankining emissiya huquqi joriy etildi.

Qog'oz pullar ta'minlanmagan, asl qiymatga ega pullar bo'lmaganligi sababli ayrim davlatlarda muomalaga chiqarilgan pullar dastlabki davrlarda to'lov vositasi sifatida hisob-kitoblarda keng qo'llanilishida muammolar uchrab turgan. Buning oldini olish maqsadida og'ir choralar qo'llanilgan. Masalan, Xitoyda qog'oz pulning o'ziga uni to'lov vositasi sifatida qabul qilmagan shaxsning boshi kesilishi qayd etilgan, Fransiyada 25 yil qamoq jazosi, bazi hollarda o'lim jazosi ham qo'llanilgan. Angliyada chiqarilgan qog'oz pullarni to'lov vositasi sifatida qabul qilmagan kishilarni davlatga qarshi xiyonat darajasigacha olib chiqilgan.

Davlat tomonidan emissiya qilingan qog'oz pullar bevosita va bilvosita ta'minlangan edi. Bevosita ta'minlangani oltin tangalar bilan, davlatning soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni shu qog'oz pullarda qabul qilishi bilvosita ta'minlanganligi sifatida belgilab qo'yildi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «emissiya qilish» va «muomalaga pul chiqarish» tarzidagi ma'nosi bir – biriga yaqin bo'lgan iqtisodiy terminlarni uchratamiz. Biroq bu ikki iqtisodiy termin ma'nosi va iqtisodiyotga ta'siri jihatidan bir – biridan tubdan farq qiladi.

Naqd pullarni muomalga emissiya qilinishi iqtisodiyotda pul massasining hajmini oshiradi. Bu ishni mamlakat Markaziy banki amalga oshiradi. Muomalaga naqd pullarni chiqarish esa mavjud pul massasi hajmini o'zgartirmagan holda tijorat banklari tomonidan amalga oshiradi.

Mamlakatda iqtisodiy inqirozlar, tabiiy ofatlar va urushlar ro'y berganda davlatning xarajatlari juda ortib ketardi. Ushbu xarajatlar davlatning topshirig'i bilan muomalaga chiqariladigan qo'shimcha pul emissiyasi orqali hal etilar edi, bu, o'z navbatida, qog'oz pullarning qadrsizlanishiga va pul muomalasining izdan chiqishiga olib kelardi.

Shuning uchun ham qog'oz pullar asl qiymatga ega bo'lmagan, o'rinbosar pullar hisoblanib, ularni doimiy ravishda tartibga solib borish va tegishli nazoratni amalga oshirishni talab etadi.

2.6. Elektron pullar

Banklarning rivojlanishi, o'zaro to'lovlar va hisob-kitoblar hajmining ortishi, shuningdek, texnika va texnologiyaning takomillashuvi natijasida XX asrning ikkinchi yarmidan elektron pullar vujudga keldi. Elektron pullarning to'lov instrumenti bo'lib – plastik kartalar hisoblanadi.

Plastik karta – bu pullarni naqdsiz ko'rinishda ko'chirish yoki naqd pul ko'rinishda olish imkoniyatini beradigan, banklar va boshqa kredit muassasalari tomonidan chiqarilgan nomli to'lov hujjat hisoblanadi.

Plastik kartalar bank tizimi va undan foydalanuvchilar uchun qulaylik jihatlari juda ko'p. Xususan:

– kishi 1, 2, 3 mln. so'mni hamyonida olib yurolmaydi, lekin plastik kartada bunday muammo mavjud emas;

– hamyoningizdagi pulni yo'qotsangiz yoki unutib biror joyda qoldirsangiz ularni begona shaxs foydalanishi mumkin, lekin plastik kartalardan begona shaxslarni foydalanish imkoniyati juda chegaralangan. Chunki ularning maxsus paroli mavjud, shu bilan birga, plastik kartani yo'qotgan shaxs zudlik bilan bankka xabar bersa uning hisobraqamlari bo'yicha to'lovlarni to'xtatib qo'yish mumkin;

– banklar naqd pullarni tashish, saqlash, ularning hisobini yuritish va mijozlarga berish kabi qo'shimcha mehnat va sarf-xarajatdan forig' bo'ladi;

– banklar depozit siyosatidan kelib chiqib foydalanuvchi plastik kartadagi vaqtinchalik foydalanmay turgan qoldiq summalariga qo'shimcha foiz to'lashi mumkin.

O'zbekistonda plastik kartochkalarni joriy qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi «Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida» 445-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 3-avgustdagi «Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida»gi PQ-433-sonli va 2010-yil 19-apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1325-sonli Qarorlari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda barcha tijorat banklari o'z plastik kartochkalariga ega bo'lib, ularning soni yildan – yilga ortib bormoqda.

O'zbekiston tijorat banklari tomonidan joriy etilgan plastik kartalar bilan hisob-kitoblar samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

– savdo nuqtalarida plastik kartalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun terminallarni ko'paytirish;

– ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag'larni plastik kartalarga o'tkazish jarayonini yanada takomillashtirish;

– barcha bank bo'limlari boshqa banklarning plastik kartochkalari bo'yicha ham naqd pullarni yechilishini ta'minlash kabi ishlarni yo'lga qo'yish lozim.

Yuqorida qayd etilgan holatlar bo'yicha Markaziy bank va tijorat banklari, tegishli muassasalar, shuningdek, savdo nuqtalari tomonidan amlaga oshirilayotgan ishlar plastik kartalarni yanada kengroq va samarali ishlashiga imkoniyat yaratadi.

2.7. Tovar xo'jaligi sharoitida pulning roli

Jamiyatda mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish jarayonining mavjudligi iqtisodiy hayotda pulning roli doimo oshib boraveradi. Birgina mehnat taqsimotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kompaniya yoki firma biror narsani ishlab chiqarish yoki xizmat turini ko'rsatish uchun zarur xomashyo va materiallarni olish maqsadida bir necha xo'jalik

yurituvchi subyektlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatadi, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning mehnati uchun haq to'laydi va boshqa qator ishlarni amalga oshiradi. Bularning barchasi tomonlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlik asosida amalga oshiriladi. Mana shu iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlikni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi sifatida pulning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy manfaatdorlik yotadi. Ishlab chiqaruvchi korxona, tashkilot yoki firma yaratayotgan tovar yoki xizmatlarni shaxsiy iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish orqali tegishli iqtisodiy foyda ko'rish ilinjida ishlab chiqaradi. Bu ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasida tovar – pul munosabatlarini vujudga keltiradi, ushbu munosabatda pul ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'ratasida ayirboshlash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Bu yerda ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida ayirboshlanadigan tovar yoki mahsulotning bahosi muhim rol o'ynaydi. Ularning bahosi bozordagi talab va taklif asosida pulda ifodalanadi. Pulning rolini amal qilishida baho muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi, tovar va xizmatlar bahosiga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan, tovar va xizmatlarning sifati, unga bo'lgan talab darajasi, sotib oluvchining to'lov qobiliyati va boshqa qator omillar shular jumlasidandir.

Haqiqatda ham yuqorida qayd etilgan jarayonlarni tashkil etishda pulning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pulning tovar xo'jaligi sharoitida amal qilishining samaradorligini oshishiga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan ular quyidagilardan iborat.

1. Iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligi aholining iste'mol tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirish imkoniyatini beradi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, import hajmini qisqartirish asosida xorijiy valutalarni chetga chiqib ketishining oldini oladi. Ikkinchidan, milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

2. Markaziy bankning mustaqilligini ta'minlanganligi. Ma'lumki, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan, ushbu maqsadni samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank hukumat va davlat boshqaruv organlari bosimidan

xoli bo'lishi lozim. Aks holda, milliy valutaning barqarorligi zaiflashadi va uning xalq xo'jaligidagi roli pasayadi.

3. Aholi va mijozlarning bank tizimiga ishonchining mustahkamligi. Mamlakat aholisi va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining yuqoriligi pulning roliga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Chunki aholi va mijozlarning banklarga nisbatan ishonchining yuqoriligi ularning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini banklarga muddatli omonat sifatida qo'yishga undaydi. Bu esa pulning jamg'arma vositasi va to'lov vositasi rolini oshiradi, shu bilan birga, birinchidan, pul egalariga qo'shimcha daromad keltiradi, ikkinchidan, banklarning real sektorni kreditlash imkoniyatlarini oshiradi. Bularning barchasi tovar xo'jaligi sharoitida pulning rolini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Inflatsiya darajasining tegishli me'yorlarda saqlab turilishi. Milliy valutaning inflatsiya darajasi xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yorlardan ortib ketishi uning iqtisodiyotdagi roliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitda aholining real daromadlari pasayadi, kredit muassasalarida uzoq muddatli omonatlar hajmi qisqaradi, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish hisobidan emas, balki o'zaro olib sotish yo'li bilan daromad izlash payiga tushib qoladi. Natijada aholining iste'mol tovarlarga bo'lgan talabi mahalliy ishlab chiqarish hisobidan emas, balki import hisobidan qondiriladi. Bularning barchasi milliy valutaning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Bobga oid savollar

1. Nima uchun pulning funksiyalari iqtisodchi va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etiladi?
2. Pulning funksiyalarini sanab bering.
3. Pul qachon barcha funksiyalarini bajaradi?
4. Pulning to'lov vositasi funksiyasi qanday namoyon bo'ladi?
5. Pulning funksiyalarini o'zaro aloqadorligi qanday namoyon bo'ladi?
6. Haqiqiy pullar va haqiqiy bo'lmagan pullarga tavsif bering.
7. Natural shakldagi pullarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
8. Bir tomonlama va ikki tomonlama ayirboshlash jarayonlarini vujudga kelish sabablari.
9. Metall pullarni vujudga kelishiga qanday omillar ta'sir qilgan?
10. Nima uchun qimmatbaho metallar pulning vazifasini bajarganda pul muomalasini tartibga solishga ehtiyoj bo'lmagan?

11. Nima uchun qog‘oz pullarning nominal qiymati ularning haqiqiy qiymatidan ancha yuqori, bu pul muomalasiga qanday ta’sir qiladi?

12. Nima uchun dastlab banklarga qog‘oz pullarni muomalaga chiqarishga ruxsat berilgan, keyinchalik buning bekor qilinishi qanday izohlanadi?

13. «Pul emissiyasi» va «muomalaga pul chiqarish»ning mohiyatini tushuntiring, ularni qanday banklar bajaradi?

14. Plastik kartalarning afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?

15. Tovar xo‘jaligi sharoitida pulning roli qanday namoyon bo‘ladi?

16. Pulning roliga inflatsiya qanday ta’sir qiladi?

17. Pulning roliga Markaziy bankning qanday ta’siri mavjud?

18. Iqtisodiyotda pulning rolini oshishiga nimalar ta’sir qiladi?

19. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bahoni belgilashda pulning roli qanday namoyon bo‘ladi?

20. Pulning hozirgi kundagi ko‘rinishga yetib kelishiga nimalar sabab bo‘lgan?

Bobga oid testlar

1. Pulning mohiyati nimada aniq namoyon bo‘ladi?

A. Pulning ayirboshlash jarayonida.

B. Pulning funksiyalarida.

V. Hisob-kitob jarayonida.

G. Pul aylanmasida.

2. Anglo – amerikalik iqtisodchilar pulning nechta funksiyasini e’tirof etadi?

A. 2 ta.

B. 3 ta.

V. 4 ta.

G. 5 ta.

3. Rossiyalik iqtisodchi olimlar pulning nechta funksiyasi mavjudligini ta’kidlaydi?

A. 3 ta.

B. 4 ta.
V. 5 ta.
G. 6 ta.

4. Pulning muomala vositasi funksiyasi qachon namoyon bo'ladi?

A.Tovar va xizmatlar uchun to'lov ma'lum muddatdan keyin amalga oshirilsa?

B.Sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida ayirboshlash bir vaqtda bajarilsa.

V.Sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov oldindan amalga oshirilsa.

G.To'lov ma'lum muddatga kechiktirilsa.

5. Vaqtincha foydalanilmayotgan pullar qanday vazifani bajardi?

A. To'lov vositasi funksiyasini.
B. Muomala vositasi funksiyasini.
V. Jamg'arma vositasi funksiyasini.
G. Qiymat o'lchov funksiyasini.

6. Mehnat taqsimoti jarayonida pulning roli nimada namoyon bo'ladi?

A. Ishlab chiqarishda
B. Tovarlarni ayirboshlashda
V. Mahsulot taqsimotida
G. Mehnatni tashkil etishda

7. Tovar xo'jaligi sharoitida pulning rolini oshishiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?

A. Milliy valutaning barqarorligi
B. Monopol ishlab chiqarishning mavjudligi
V. Import hajmining ortishi
G. Pul massasining ortib borishi

8. Iqtisodiyotning markazdan boshqarish sharoitida pulning nechta funksiyasi e'tirof etilgan?

A. 3 ta
B. 4 ta
V. 5 ta

G. 6 ta

9. Xorijiy iqtisodchi olimlar pulning qanday funksiyalarini inkor etadi?

A. Muomala vositasi
B. Qiymat o'lchovi
V. To'lov vositasi
G. Jamg'arma vositasi

10. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va mahsulotlarning qiymati qanday aniqlanadi?

A. Tovar va mahsulotning tannarxi asosida
B. Ishlab chiqaruvchining foyda miqdori asosida
B Bozordagi talab va taklif asosida
V. To'lanadigan soliq stavkalari asosida

11. Metallar qachondan boshlab pulni vazifasini bajara boshlagan?

A. Miloddan oldingi VI – V asrlarda
B. Miloddan oldingi VII – VI asrlarda
V. Miloddan oldingi V – IV asrlarda
G. I va II asrlarda

12. Dastlabki qog'oz pullar qachon muomalaga kiritilgan?

A. X va IX asrlarda
B. XII asrning oxirida
V. XI va XII asrlarda
G. XI asrning boshida

13. Plastik kartochkalar qachon pulning vazifasini bajara boshlagan?

A. XVIII asrning oxiridan
B. XX asrning ikkinchi yarmidan
V. 2000-yildan
G. 2002-yildan

14. Natural shakldagi pullarni guruhlanishi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Hayvonlar, buyumlar va o'simliklar shaklida.

B. Hayvonlar, toshlar va mevalar shaklida.

V. Oziq – ovqat, toshlar va o'simliklar shaklida.

G. Hayvonlar, mevalar va o'simliklar shaklida.

15. Haqiqiy pullarning xossalari qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Nominal qiymatning real qiymat bilan mutanosibligi

B. Qiymatning qardsizlanmasligi

V. Ularni boshqa tovarlar kabi iste'mol qilish mumkinligi

G. Ularning muomalada amal qilishini nazorat qilish zarurligi

16. Xitoyning ayrim provintsiyalari va Rossiyada qanday natural pullar juda keng tarqalgan?

A. Tuz.

B. Buqa.

V. Tamaki.

G. Jun.

17. Natural pullardan foydalanishga ta'sir qilgan omil qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Odamlarning kunlik ehtiyoji uchun juda zarur bo'lgan buyumlar.

B. Mamlakatning tabiiy iqlimi va geografik joylashuvi.

V. Ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi.

G. Uzoqroq muddat davomida saqlash imkoniyatining mavjudligi.

18. Pulning natural ko'rinishidan metall tanga shakliga o'tishiga ta'sir qilgan omil qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Kishilar metallarga turli shaklda ishlov berishni kashf etilishi.

B. Davlatchilikning paydo bo'lishi.

V. Natural pullar o'zining qiymatini yo'qotganligi.

G. Natural shakldagi pullarni saqlash va olib yurishning qiyinligi.

19. «Emissiya qilish» va «muomalaga pul chiqarish» terminlari ma'nosi jihatidan bir – biridan farqi mavjudmi?

A. Deyarli farq mavjud emas.
B. Tubdan farq qiladi .
V. Qisman farq qiladi.
G. Qo'llanilishida farq mavjud.

20. Plastik kartalarning qulayligi qanday javobda noto'g'ri berilgan?

A. Olib yurishda va foydalanishda qulay.
B. Yo'qotib qo'ysangiz ham pulingiz saqlanib qoladi.
V. Banklarning xarajat qiladigan mablag'lari tejaladi.
G. Istagan miqdorda va paytda naqdlashtirish mumkin.

3 – bob. PUL AYLANMASI VA UNING TASHKIL ETILISHI

3.1. Pul aylanmasining mohiyati

Naqd pul va naqd pulsiz shaklda hisob-kitoblarni amalga oshirish pul aylanmasini tashkil etadi.

Naqd pul aylanmasi – bu qog'oz pullar va tanga pullar vositasida amalga oshirilib, naqd pullar harakati jarayonida namoyon bo'ladi. Naqd pul aylanmasi asosan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keladigan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz aylanmalar – bu kredit muassasalarida ochilgan hisobraqamlar yordamida pullarni hisobdan hisobga ko'chirish orqali amalga oshiriladi.

Pul doimiy ravishda «harakatda» bo'ladi, bu harakat davomida juda ko'plab tovar va xizmatlarni *sotish* va *sotib olish* jarayonida bevosita ishtirok etib, sotuvchi va sotib oluvchilarga xizmat qiladi. Xususan, pul o'z harakati jarayonida bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda tovarlar va xizmatlar bahosini belgilaydi, bu pulning qiymat o'lchovi, muomala vositasi va to'lov vositasi funksiyalari orqali amalga oshiriladi.

Pul vaqtinchalik hisob-kitoblar va aylanmalarda ishtirok etmagan vaqtda jamg'arma vositasi funksiyasini bajarish orqali, o'zining sohibiga qo'shimcha daromad keltiradi va real iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd yoki naqdsiz hisob-kitoblar bilan amalga oshirilayotgan to'lovlar hajmining yuqori yoki pastligiga pulning barqarorligi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va boshqa qator omillar ta'sir qiladi.

Pulning aylanmasi mohiyatini yanayam chuqurroq aniqlash uchun uning obyekti va subyektlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Pul aylanmasi subyektlari sifatida davlat va davlat muassasalari, Markaziy bank, kredit va moliya muassasalari, mamlakat rezidenti va norezedentlari, korxona va tashkilotlarni keltirish mumkin. Uning

obyekti esa tovar va tovarsiz operatsiyalar jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni aylanmalar hisoblanadi.

Pul aylanmasi subyektlari o'rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar naqd va naqd pulsiz ko'rinishida amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiy adabiyotdarida pul aylanmasi deyarli o'rganilmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri, balki mazkur mamlakatlar bank muassasalarida hisob-kitoblarni amalga oshirishda pul aylanmasi naqd va naqd pulsiz ko'rinishi shakllari o'rtasida farq mavjud emasligi bo'lishi mumkin. Haqiqatda ham rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar banklarida naqd va naqdsiz pul hisob-kitoblarni amalga oshirish o'rtasida farq mavjud emas.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarining deyarli barchasida «pul aylanmasi» va «to'lov aylanmasi» alohida – alohida o'rganiladi. Ularni bir – biridan farqlashda asosiy e'tibor hisob-kitoblarni amalga oshirishda naqd pulni ishtirok etishi yoki etmasligiga qaratiladi. Pul aylanmasida bevosita naqd pullar to'lovlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Keyingi yillarda hisob-kitoblarni amalga oshirishda plastik kartochkalar, hisob-kitob cheklarni joriy etilishi pul aylanmasi tarkibida naqd pulli hisob-kitoblar ulushining sezilarli darajada pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, AQSH, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiyada pul aylanmalarining ulushi 1 – 1,5 foizni tashkil etadi.

Quyidagi chizmada pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi va uning o'zaro bog'liqligini tavsiflovchi holatlar keltirilgan.

Chizmadan ko'rinib turganidek, pul aylanmasini to'rtta yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish, pul mablag'lari shakliga ko'ra, naqd pulli aylanmasi va naqd pulsiz aylanmasidan tashkil topgan.

Ikkinchi yo'nalish, pul aylanmasida ishtirok etayotgan subyektlar joylashuviga ko'ra, bir shahar ichidagi va shaharlararo pul aylanmasidan iborat.

Uchinchi yo'nalish, pul funksiyalarining namoyon bo'lishiga qarab muomala vositasi va to'lov vositalarini o'z ichiga oladi.

To'rtinchi yo'nalish, tovar – pul munosabatlarining aks etishiga ko'ra, tovarli pul oboroti va tovarsiz pul oborotlari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Pul aylanamasi tarkibida naqd pulli yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmining past yoki yuqori ekanligi qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, ular quyidagilardan iborat:



Pul aylanmasi tarkibi

– mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish holati, aholining ma'naviy, iqtisodiy va huquqiy ongi;

– milliy iqtisodiyotni boshqarish tartibi va rivojlanganlik darajasi;

– mamlakat bank tizimining rivojlanganlik darajasi va unga aholi ishonchining musthkamligi;

– real sektorning rivojlanganligi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;

– Markaziy bankning pul – kredit siyosatini amalga oshirish bo'yicha mustaqilligining ta'minlanganlik darajasi.

Naqd pul va naqd pulsiz hisob-kitoblari o'rtasida juda yaqin bog'liqlik mavjud bo'lib, naqd pullar naqdsiz pul ko'rinishiga, naqdsiz pullar naqd pul ko'rinishiga o'tish orqali ular doimiy ravishda bir – birini to'ldirib turadi. Masalan, korxona va tashkilotlarning bankdagi naqdsiz pullari ishchi xodimlarga naqd pul va unga tenglashtirilgan

mablag'lar ko'rinishida beriladi. Aholining qo'lidagi naqd pullar esa bankiarga omonat sifatida qo'yilganda banklar uchun kredit resursi sifatida naqdsiz pul ko'rinishida maydonga chiqadi. Shu tariqa naqd pul va naqd pulsiz aylanmalar bir – biriga chambarchas aloqadorlikda amal qiladi.

3.2. Naqd pul aylanmasini tashkil etish

Avvalgi bo'limlarda ta'kidlaganimizdek, pul aylanmasi naqd pulsiz va naqd pulli hisob-kitoblardan tashkil topadi. Naqd pulli hisob-kitoblar bevosita naqd pullar bilan amalga oshiriladi. Iqtisodiyotda pul aylanmasi tarkibida naqd pulli hisob-kitoblarning ulushi sezilarsiz darajada bo'lib, taxminan 5 – 12 foiz atrofida tebranib turadi. Mamlakat pul oboroti tarkibida naqd pulli hisob-kitoblar ulushining pastligi yoki ortib borishi iqtisodiyotda ishlab chiqarish darajasi, moliya – kredit tizimi va milliy valutaning barqarorligi hamda boshqa qator omillar bilan izohlanadi.

O'zbekistonda pul muomalasini tashkil etish va naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005-yil 20-avgustdagi 18/1 – sonli qarori bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2005-yil 10-oktabrda 1518-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasida banklar tomonidan pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish to'g'risida»gi (avvalgi 6 – sonli) yo'riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

Markaziy bank pul muomalasini tartibga solishda va naqd pulli hisob-kitoblarni tashkil etishda quyidagi ishlarni bajaradi:

1. Naqd pul aylanmasini xomcho't (prognoz) qiladi.
2. Pul muomalasini tashkil etadi va tartibga soladi.
3. Naqd pullarni tijorat banklariga jo'natish, qabul qilish, saqlash va samarali foydalanish ustidan nazoratni tashkil etadi.

Naqd pul aylanmasini xomcho't (prognoz) qilish tartibi.

Naqd pul aylanmasini xomcho't qilish tijorat banklarining aylanma kassalarini xomcho'tini tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Markaziy bank Hisob-kitob kassa markazlari (HKKM) va tijorat banklarining tegishli hududlar bo'yicha aylanma kassalarni xomcho'tini amalga oshiradi va pul muomalasi holatini tahlil qilib boradi.

Banklarning kassa aylanmalari xomcho'ti ma'lum davrlar uchun naqd pullarning tushumi va chiqimi asosida tuziladi. Banklar kassa

aylanmalari xomcho‘tini tuzish uchun o‘zlari xizmat ko‘rsatadigan yuridik shaxslardan ularning depozit hisobvarag‘i bo‘yicha har chorakning boshlanishidan 30 kun oldin buyurtmanomalarini oladilar.

Bank bo‘limi xizmat ko‘rsatadigan yuridik shaxslarning asosiy depozit hisobvarag‘i bo‘yicha aylanma kassa xomcho‘ti asosida bankda naqd pullarning tushum manbalari va chiqim moddalarining yig‘ma qaydnomasini tuzadi.

Ta’kidlash lozimki, banklar tomonidan tuzilgan aylanma kassa xomcho‘ti amaliyotda doimo ham bajarilavermaydi. Ushbu holat obyektiv ya subyektiv sabablar bilan izohlanadi. Albatta, bu ijobiy holat sifatida baholanmaydi. Chunki, banklar o‘z majburiyatlarini to‘liq ravishda bajarmasligi aholi va mijozlarning ularga bo‘lgan ishonchini pasayishiga sabab bo‘ladi.

Banklar yuridik shaxslardan olgan choraklik aylanma kassa xomcho‘tini oyma – oy taqsimlab chiqadilar. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

– har bir oyning ish kunlari soni va boshqa xususiyatlari;

– chakana tovar aylanmasi, ish haqi fondlari hajmining oylar bo‘yicha o‘zgarib turishi mumkinligi;

– aholining soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlari.

Tijorat banklari aylanma kassa xomcho‘tini yangi chorak boshlanishidan 15 kun oldin Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalariga taqdim etadi, ular esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha umumlashtirilgan aylanma kassa xomcho‘tlarini chorak boshlanishidan kamida 5 kun oldin Respublika Markaziy bankiga taqdim etadilar. Tijorat banklari va Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari kassa aylanmalari xomcho‘ti bilan birgalikda tushuntirish xatlarini ham qo‘shib jo‘natishlari lozim.

Tushuntirish xati qisqa bo‘lishi kerak, unda kassa aylanmalarining to‘liq asoslangan xomcho‘ti hamda o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan o‘zgarishlarga tushuntirishlar beriladi.

Pul muomalasini tashkil etish va tartibga solish. Markaziy bank pul muomalasini tartibga solishda pul – kredit siyosatining bevosita va bilvosita instrumentlardan foydalanadi. Markaziy bank pul muomalasini tartibga solishda tijorat banklari va Markaziy bankning Hududiy bosh boshqarmalari (MB HBB) bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Pul muomalasini tashkil etish va tartibga solishda tijorat banklari quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

1) jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilishga, jismoniy shaxslar pul daromadlarining naqd pulsiz tartibda omonatlarga o'tkazilishini kengaytirishga, tovar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni, shu jumladan, bank kartalaridan foydalangan holda rivojlantirishga qaratilgan choralar ko'radilar;

2) yuridik shaxslar bilan kelishgan holda ularning kassalaridagi naqd pul qoldig'i limitlari, pul tushumlarini bankka topshirish tartibi va muddatlarini belgilaydilar;

3) naqd pul mablag'larining har kuni kelib tushishi ustidan doimiy monitoringni amalga oshiradilar;

4) haqiqatda tushgan tushumlar va berilgan naqd pullarning kassa aylanmalarining xomcho't hisob-kitoblaridan farq qilish sabablarini tahlil qiladilar hamda naqd pul tushumlarining ko'payishini ta'minlash choralarini ko'radilar;

Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasi (MB HBB) zimmasiga pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tijorat banklarining faoliyatini muvofiqlashtirish va uning monitoringi yuklatiladi. MB HBBlari xususan quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

1) pul muomalasining holatini o'rganadi, banklarning kassa aylanmalarini tahlil qiladi, pul muomalasining holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni jamlaydi va tartibga soladilar;

2) pul muomalasini mustahkamlashga qaratilgan takliflarni tayyorlab, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining joylardagi davlat boshqaruv organlari muhokamasiga qo'yadilar;

3) naqd pulga bo'lgan talabni uzluksiz ta'minlashni nazarda tutib, mintaqalar va tijorat banklari filiallari o'rtasida naqd pul mablag'larini tezkor qayta taqsimlashni amalga oshiradilar;

4) tijorat banklari bilan birgalikda naqd pul zaxiralari hajmining eng kam miqdorini tasdiqlaydilar;

5) banklarning pul muomalasiga doir ishlarini tahlil qiladi va o'rganadilar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari»ga (1998-yil 17-dekabrda 565-son bilan ro'yxatga olingan) muvofiq o'z kassalarida naqd pul

qoldiqlari bo'yicha belgilangan limitlar doirasida naqd pulga ega bo'lishlari mumkin.

Yuridik shaxslar kassadagi belgilangan naqd pul qoldig'ining limitdan ortiqcha qismini bank bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda hisobvaraqqa kiritib qo'yish uchun bankka topshirishlari shart.

Kassadagi naqd pul qoldig'i limitlarini, tushumni topshirish tartibi va muddatlarini belgilash uchun banklar yilning birinchi choragida savdo tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan buyurtmanoma – hisob-kitob oladilar.

Kassadagi naqd pullar qoldig'i limiti har yili kassaga ega bo'lgan va naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi barcha yuridik shaxslarga belgilanadi.

Yuridik shaxsning turli banklarda bir nechta hisobvaraqlari mavjud bo'lgan taqdirda u o'z ixtiyoriga ko'ra xizmat ko'rsatuvchi banklarning biriga kassadagi naqd pul limitini belgilash uchun hisob-kitob bilan murojaat etadi. Banklarning birida kassa qoldig'i limiti belgilangandan so'ng yuridik shaxs belgilangan kassa qoldig'i limiti to'g'risidagi xabarnomani unga tegishli hisobvaraqlar ochilgan boshqa banklarga jo'natadi.

Kassadagi naqd pullar limitini belgilash uchun buyurtmanoma – hisob-kitobni xizmat ko'rsatuvchi banklarning birortasiga taqdim etmagan yuridik shaxslar bo'yicha kassa qoldig'i limiti nolga teng deb hisoblanadi, yuridik shaxs tomonidan bankka topshirilmagan naqd pul mablag'lari esa limitdan ortiqcha deb hisoblanadi.

Kassadagi naqd pullar qoldig'ining quyidagi limitlari belgilanadi:

1) doimiy naqd pul tushumiga ega va uni ish kunining oxirida bankka topshirishi lozim bo'lgan yuridik shaxslar uchun – keyingi ish kuni ertasiga normal ish faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdorda;

2) keyingi kunda topshirishi shart bo'lgan yuridik shaxslar uchun – o'rtacha kunlik naqd pul tushumidan ortiq bo'lmagan miqdorda;

3) tushumni har kuni topshirmaslik huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar uchun – tushum summasi va uni topshirish bo'yicha belgilangan muddatga bog'liq bo'lgan miqdorda;

4) doimiy naqd pul tushumiga ega bo'lmagan yuridik shaxslar uchun – o'rtacha kunlik naqd pul xarajati miqdorida (mehnat haqi to'lovlari, vaqtinchalik ishga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa, mukofot va stipendiya xarajatlaridan tashqari).

Yuridik shaxslar o‘z kassalarida naqd pullarni belgilangan limitlardan ortiqcha miqdorda faqat mehnatga haq to‘lash, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar, pensiya va stipendiyalar berish uchun, bankdan olingan kunni qo‘shib hisoblagan holda, 3 ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddat mobaynida (banklardan uzoq masofada joylashgan yuridik shaxslar esa 5 ish kunigacha) saqlash huquqiga ega. Bu muddat tugagach, ko‘zlangan maqsad uchun ishlatilmagan pullar bankka qaytariladi va keyinchalik yuridik shaxslarga ularning birinchi talabi bilanoq o‘sha maqsadlarga ishlatish uchun beriladi.

Pulning aylanishini tezlashtirish va bank kassalariga tushumlarning o‘z vaqtida tushishi zaruratidan kelib chiqqan holda, banklar tomonidan har bir yuridik shaxsga ularning rahbarlari bilan kelishilgan tarzda tushum topshirish vaqti va tartibi belgilanadi.

Kassadagi naqd pul qoldiqlarining belgilangan limitlari, tushumni topshirish tartibi va muddatlari banklar tomonidan har bir yuridik shaxsga yozma ravishda ma’lum qilinadi.

Banklar yuridik shaxslarning pul tushumlarini o‘z vaqtida va to‘liq topshirishlari bo‘yicha monitoring olib boradilar.

Naqd pullarni tijorat banklariga jo'natish, qabul qilish, saqlash va samarali foydalanish ustidan nazoratni tashkil etadi.

Markaziy bank tijorat banklarini naqd pulga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida kassa buyurtmalariga asosan ularga naqd pullarni jo‘natadi, ular o‘rtasida naqd pullarning taqsimlanishi va maqsadli foydalanishi ustidan umumiy monitoringni tashkil etadi.

Markaziy bank tijorat banklarining aylanma kassasiga naqd pullarni saqlashning maksimal miqdorini o‘rnatadi. Unga tijorat banklarining aylanma kassasidagi naqd pullar 10101 – «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag‘ida hisobga olib boriladi. O‘rnatilgan kassa limitidan ortgan naqd pullar tegishli 10102 – «Zaxiradagi naqd pullar» hisobvarag‘iga kirim qilinadi va Markaziy bankning tegishli ruxsati bilan ishlatiladi. Markaziy bank ushbu hisobvaraqdagi kassa limitidan ortiqcha mablag‘larni ishlatish bo‘yicha tijorat bankiga:

– tijorat bankiga foydalanishga ruxsat berishi haqida;

– boshqa tijorat bankiga jo‘natish haqida;

– Markaziy bankning hisob – kassa markazining zaxira fondiga topshirish haqida bo‘lishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyalarda tijorat banklarining aylanma kassasidagi naqd pullarni va

kassa limitidan ortiqcha mablag'larni ishlatish va nazorat qilish ishlari Markaziy bankning Hududiy bosh boshqarmalari orqali amalga oshiriladi.

3.2.1. Naqd pullarni qabul qilish tartibi

Yuridik shaxslardan naqd pullarni bank kassasiga qabul qilish inkassatsiya xizmat yoki istisno tarzida ularning o'zlari tomonidan bankka olib kelib topshirish orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklari quyidagi hollarda yuridik va jismoniy shaxslardan naqd pullarni qabul qilishi mumkin:

1. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidan tushgan tushumlar.
2. Soliqlar, yig'imlar, boj va boshqa majburiy to'lovlardan tushgan tushumlar.
3. Omonatlarga topshirilgan tushumlar.
4. Pochta o'tkazmalari uchun tushgan tushumlar.
5. Bank kartalariga tushgan tushumlar.
6. Boshqa maqsadlardan tushgan tushumlar.

Tijorat banklari kassasiga qabul qilingan naqd pullar bankning aylanma kassasiga kirim qilinadi. Naqd pullarni inkassatsiya qilish mijoz, bank va inkassatsiya xizmati o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mijozlar istisno tarzida savdo va boshqa naqd pul tushumlarini bankka topshirganda e'lonnoma rasmiylashtiriladi. E'lonnoma uchta qismdan iborat bo'lib, e'lonnoma, kvitantsiya va orderdan iborat bo'ladi.

Quyidagi chizmada mijozlar tomonidan naqd pullarni banklarga topshirish tartibi keltirilgan.

Mijoz naqd pulni e'lonnoma bilan birgalikda kirim kassaga topshiradi (1), bankning mas'ul kassiri pullarni qabul qiladi va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib (2), kvitantsiyani pul topshiruvchiga qaytaradi (3), e'lonnomadagi orderni esa buxgalteriya bo'limiga taqdim etadi (4), buxgalteriya bo'limi tegishli buxgalteriya yozuvini bergandan so'ng (5) mijozni naqd pul topshirganligi haqida qayd etilgan hisobvarag'idan ko'chirmani beradi (6).

Yuridik va jismoniy shaxslarning ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan naqd pullar tijorat banklari tomonidan beriladi. Tijorat banklari asosan quyidagi hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga naqd pullarni berishi mumkin:

7. Ish haqi va unga tenglashtirilgan maqsadlarga.
8. Pensiya, nafaqa va sug'urta to'lovlariga.
9. Omonatlarni qaytarishga.
10. Pochta aloqasi korxonalariga madad pullar.
11. Bank kartalariga.
12. Boshqa maqsadlarga.

Mijoz o'zi pul tushumlarini bankka topshirganda hujjatlarning aylanish tartibi



3.2.2.Naqd pullarni berish tartibi

Tijorat banklarida naqd pullarni berish chiqim kassasi orqali amalga oshiriladi. Quyida tijorat banklari chiqim kassasidan ish haqiga va unga tenglashtirilgan maqsadlar uchun beriladigan naqd pullarni berish tartibi keltirilgan.

Mijoz – yuridik shaxs bankdan ish haqi va unga tenglashtirilgan maqsadlarga naqd pul olish uchun bankka naqd pul chekini topshiradi (1), bankning mas'ul buxgalteri naqd pul chekini tegishli nazoratdan o'tkazgandan so'ng uning milki (remarka)ni mijozga (2), chekni esa bank ichki nazoratchisiga taqdim etadi (3), ichki nazoratchi naqd pul chekini qo'shimcha nazorat qilgandan keyin uni chiqim kassaga yo'naltiradi (4), chiqim kassa kassiri tegishli nazoratdan so'ng chekning nomeri bo'yicha mijozdan milkni talab etadi (5) va chekda yozilgan naqd pul summasini mijozga beradi (6), buxgalteriya yozuvini berish

uchun kassa chiqim jurnalini buxgalteriyaga jo'natadi (7), naqd pul cheki esa aylanma kassaning kunlik hujjatlar jildiga tikiladi.

Bank kassasidan naqd pullarni berishda hujjatlarning aylanish tartibi



Iqtisodiyotda naqd pulli hisob-kitoblar hajmini imkoniyat darajasida pasaytirish asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar bilan amalga oshiriladigan to'lovlar hajmini oshirish lozim. Buning uchun bankdan tashqari naqd pul aylanamalar hajmini zarur darajada bo'lishiga erishish zarur. Bankdan tashqari aylanmalarning hajmini qisqartirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish kerak:

a) banklarning o'z majburiyatlarini to'liq bajarishiga erishish lozim. Bunda asosiy e'tibor mijozlarning hisobvaraqlaridagi mablag'larni ular istagan paytda va miqdorda tegishli manzilga o'tkazib berishi, naqd pul va kreditga bo'lgan talabini to'liq qondirish lozim.

b) aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchini to'liq qozonishi lozim. Ishonchining pasayishi quyidagilar bilan izohlanadi:

– banklarning o'z vaqtida mijozlarning oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi;

– aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa, naqd pulga bo'lgan talabining to'liq va o'z vaqtida qondirilmasligi;

– mijozlarning pul o'tkazmalarini istalgan paytda va miqdorda tegishli manzilga o'tkazilmasligi;

– bankda omonatlarni saqlashning iqtisodiy manfaatdorligini pasayib ketishi va boshqalar.

3.3. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida har kuni bir necha yuz minglab naqd pulli va naqd pulsiz operatsiyalar amalga oshiriladi. Ushbu operatsiyalarning 85 – 90 foizi, ayrim rivojlangan mamlakatlarda 98 – 99 foizi naqd pulsiz ko'rinishida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar tijorat banklarining ichki va tashqi vakillik hisobraqamlari orqali, elektron to'lov tizimi yordamida, mijozlarning hisobvaraqlarida buxgalteriya yozuvlari ko'rinishda amalga oshiriladi. Mamlakatimiz bank tizimida 1997-yil mart oyida joriy etilgan elektron to'lov tizimi banklararo amalga oshirilayotgan to'lovlarni juda qisqa daqiqalar ichida amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu davlat idoralari va korxonalari, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi to'lovlarni naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshirishga juda keng qulayliklar yaratilganligidan dalolat beradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qator tamoyillar bajarilishi lozim. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq:

– naqd pulsiz hisob-kitoblar jarayonida ishtirok etayotgan har ikkala tomonning ham bankda tegishli hisobvaraqlari mavjud bo'lishi lozim;

– mijozning hisobvarag'idan mablag'larni boshqa manzilga o'tkazish va kirim qilish Markaziy bank tomonidan qat'iy belgilangan to'lov hujjatlari asosida hamda ulardagi rekvizitlarni to'liq to'ldirilgan holda amalga oshiriladi;

– bank mijozning pul mablag'larini o'tkazish haqidagi topshirig'ini uning hisobvarag'ida mablag' bo'lgandagina qabul qiladi. Mijozning hisobvarag'ida mablag' bo'lmagan holatda uning hisobvarag'idan undirish to'g'risida inkasso topshiriqnomasi (o'z vaqtida to'lanmagan soliqlar va Davlat budjetiga o'tkaziladigan soliqdan tashqari to'lovlar (penya, jarimalar)ni undirib olishda soliq idoralari tomonidan, budjetdan tashqari fondlar – o'z vaqtida to'lanmagan to'lovlarni undirib olishda, agarda bu qonuniy hujjatlarda ko'zda tutilgan holatlarda), to'lov talabnomalar kartoteka 2 ga kirim qilinadi va belgilangan tartibda to'lovlar amalga oshiriladi;

– bank naqd pulsiz hisob-kitoblarni faqat mablag' egasining topshirig'i asosida belgilangan maqsadlar uchun o'tkazadi, hisobvaraq

egasining hisobida mablag'lar yetarli bo'lmagan holatlar bundan mustasno;

– mablag'lar to'lovchining hisobvarag'idan o'chirilgandan so'ng mablag' oluvchining hisobvarag'iga kirim qilinadi;

– to'lovlarni amalga oshirish Markaziy bank tomonidan belgilangan naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllarini qo'llagan holda, tegishli to'lov hujjatlari orqali amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakli va to'lovlarni amalga oshirishning tartibi tovar sotuvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot hamda uni sotib oluvchi o'rtasida tuziladigan shartnomada aniq va batafsil belgilab qo'yiladi.

Bankda mablag'larni kirim qilish yoki hisobdan chiqarish uchun asos bo'ladigan hujjatlarning elektron nusxalari mijozning hisobvarag'i xizmat ko'rsatadigan buxgalteriya xodimi tomonidan imzolanadi hamda to'lashga qabul qilish va to'lash sanalari ko'rsatilgan holda o'ziga biriktirilgan shtamp bilan tasdiqlanadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, mamlakatimiz pul aylanmasi tarkibida naqd – pulsiz hisob-kitoblarning ulushi ayrim mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq miqdorni tashkil etadi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirishga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning banklarga bo'lgan ishonchining yuqoriligi. Agar yuridik va jismoniy shaxslar banklarga nisbatan ishonchi yuqori darajada bo'lmasa, banklarga naqd pullarni topshirishga bo'lgan moyilligi pasayadi, hisob-kitoblarni naqd pullarda amalga oshirishga intiladi.

2. Iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsiyenti darajasining tegishli me'yori ta'minlangan bo'lishi lozim. Iqtisodiyotning yetarli darajada pul bilan ta'minlanganlik darajasi monetizatsiya koeffitsiyenti asosida aniqlanadi. Monetizatsiya koeffitsiyenti mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan aniqlanib, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va ekspertlarning fikrlariga ko'ra uning miqdori, o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda 45-60 foizdan iborat bo'lishi lozim. Agar mamlakatda monetizatsiya koeffitsiyenti ushbu miqdordan past bo'lsa iqtisodiyotda pul taqchilligi, tijorat banklarida likvid mablag'lar va resurslarning etishmasligi, kreditlar va omonatlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi kuzatiladi. Bularning barchasi naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

3. Tijorat banklarining resurslarga bo'lgan ehtiyojining yetarli ravishda qondirilmasligi. Ma'lumki, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan pullar o'zining boshlang'ich nuqtasiga qaytib kelmasligi banklarning resurs bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning oqibatida tijorat banklarining real sektorni kreditlash uchun yo'naltirayotgan resurslarning taqchilligi, omonatlarga to'lanadigan to'lovlar miqdorining oshib ketishi, bu esa, o'z navbatida, naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini pasayishiga olib keladi.

3.4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari

O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida» gi 60 – sonli Nizomga asosan tashkil etiladi.

O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllarini joriy etish, umumiy talab va qoidalarini belgilash hamda nazorat qilish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston tijorat banklari, tegishli qonuniy va me'yoriy hujjatlar asosida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlarga quyidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllarini amaliyotga joriy etadi:

1. To'lov topshiriqnomalar.
2. To'lov talabnomalar.
3. Akkreditivga ariza.
4. Inkasso topshiriqnomasi.
5. Hisob cheklari bilan hisob-kitoblar.

O'zbekistonda bozor munosabatlarining tobora chuqurlashib borishi tijorat banklari xizmatlarining turlarini oshib borishiga turtki bo'lmoqda. Mana shunday xizmatlardan biri naqd pulsiz hisob-kitoblarni plastik kartochkalar orqali amalga oshirish bo'lib, hozirgi paytda hisob-kitoblarning ushbu shakli asosan aholi va xo'jalik subyektlari o'rtasida qo'llanilmoqda. Ta'kidlash lozimki, plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish juda qulay va oson bo'lib, kelgusida aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi pul – hisob-kitob hujjatlaridan foydalaniladi:

– to‘lov topshiriqnomasi, ushbu hujjat asosida mijoz sotib olgan tovarlar yoki xizmatlar uchun o‘z hisobvarag‘idan mablag‘ni to‘lash haqidagi topshirig‘ini o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan bankka beradi;

– to‘lov talabnomasi, ushbu hujjat asosida mijoz jo‘natgan mol yoki ko‘rsatgan xizmatlar uchun to‘lovni mol sotib oluvchidan undirib berish haqida o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan bankka taqdim etadi;

– inkasso topshiriqnomasi, ushbu hujjat asosida Markaziy bank tomonidan belgilab qo‘yilgan tashkilotlar to‘lovchining hisobvarag‘idagi mablag‘ni uning roziligini olmasdan tegishli manzilga o‘tkazib berish haqida bankka topshiriq beradi, agar to‘lovchining hisobvarag‘ida mablag‘ yetarli yoki mavjud bo‘lmasa inkasso topshiriqnomasi kartoteka 2 da hisobga olib boriladi;

– akkreditivga ariza, mijoz sotib oladigan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘larni deponentlash haqida o‘z bankiga taqdim etadigan hujjat hisoblanadi;

– hisob-kitob cheki, asosan jismoniy shaxslar va savdo tashkilotlari o‘rtasida qo‘llaniladigan hujjat bo‘lib, uchinchi shaxs, asosan savdo tashkilotlari chekdagi mablag‘ni talab qilib o‘z bankiga taqdim etadi;

– memorial order, ushbu hujjat bankning ichki operatsiyalarini bajarishda, shuningdek, shartnomada ko‘rsatilgan hollarda mijozlarning hisobvaraqlaridan mablag‘larni ko‘chirishda bank tomonidan qo‘llaniladi.

3.4.1. To‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar

Naqd pulsiz hisob-kitoblar ichida to‘lov topshiriqnomasi eng ko‘p qo‘llaniladigan hisob-kitob shakllaridan bo‘lib, bunday to‘lov topshiriq-nomalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘lovchi, sotib oluvchi va hatto bank uchun ham qulay hisoblanadi.

To‘lov topshiriqnomasi – mol sotib oluvchi tashkilotning o‘z hisobraqamidan mol sotuvchining hisobraqamiga to‘lovni amalga oshirish to‘g‘risida bankka bergan topshirig‘i hisoblanadi. Topshiriqnomalar orqali sotilgan tovarlar, bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirilishi mumkin.

Topshiriqnomaning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo‘lishi kerak, ular mos kelmagan holda to‘lov topshiriqnomasi ijro

uchun qabul qilinmaydi (budjetga va budjetdan tashqari fondlar bo'yicha to'lovlar bundan mustasno).

Hozirgi kunda viloyat, shahar va tuman bo'limlariga ega bo'lgan tijorat banklari yagona vakillik hisobvaraqasiga o'tkazilgan bo'lib, ushbu vakillik hisobvaraqalari orqali to'lovlarni amalga oshirishda hujjatlarni rasmiylashtirish va aylanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Quyida Ochiq Aksiyadorlik tijorat Agrobankning ikkita bo'limi o'rtasida to'lov topshiriqnomalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirganda hujjatlarni aylanishining shartli tartibi keltirilgan.

To'lov topshiriqnomalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi



Chizmadan ko'rinib turibdiki, sotuvchi va sotib oluvchilar o'rtasida to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirganda hujjatlar aylanish tartibi juda oddiy bo'lib, uning ishtirokchilariga qator qulaylik va yengilliklar tug'diradi.

To'lov topshiriqnomalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda dastlab sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida shartnoma tuzilib, unda to'lov shakli ham kelishiladi (1), sotuvchi oldindan umumiy to'lov summasining 15 foizini to'lagandan so'ng, tovarlarni jo'natadi yoki xizmatlarni ko'rsatadi (2), sotib oluvchi shartnomada kelishilgan summani mol sotuvchining hisobraqamiga o'tkazish maqsadida to'lov topshiriqnomani bankka taqdim etadi (3), bankning mas'ul buxgalter xodimi to'lov topshiriqnomalarni tegishli nazoratdan o'tkazgandan

so‘ng mablag‘ni elektron to‘lov tizimi orqali respublika bankiga jo‘natadi (4), Respublika aksiyadorlik tijorat Agrobankida elektron to‘lov topshiriqnoma tegishli dasturiy nazoratdan o‘tkazilgandan so‘ng sotuvchining bankiga jo‘natiladi (5), elektron to‘lov topshiriqnoma Agrbankning Oqtosh bo‘limida dasturiy nazoratdan, mablag‘ sotuvchining hisobiga kirim qilinadi va bu haqda unga xabar qilinadi (6).

To‘lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarning qator afzalliklari va ayrim kamchiliklari mavjud.

Afzalliklari:

– sotuvchi bajariladigan ish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan 15 foizni oladi;

– pul to‘lovchi tashkilot tovar olingandan va xizmatlar ko‘rastilgandan so‘ng to‘lov topshiriqnomasini bankka taqdim etadi;

– to‘lov hujjatlarining, boshqa naqd pulsiz hisob – shakllariga nisbatan oddiyligi va tezligi;

– tovarli va tovarsiz operatsiyalarda qo‘llanilshining mumkinligi.

Kamchiliklari:

– sotib oluvchi hisobvarag‘ida mablag‘ bo‘la turib, ushbu summani boshqa maqsadlarga foydalanishi natijasida sotuvchi to‘lov summasini kechikib olishi mumkin;

– mablag‘ oluvchi tashkilot jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun oladigan mablag‘lar pul to‘lovchining hisobvarg‘ida mablag‘ bo‘lmay yoki yetishmay qolganda mablag‘ni olish jarayoni cho‘zilib ketadi. Biroq ushbu jarayon boshqa to‘lov shakllarida ham uchraydi.

3.4.2. To‘lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar

To‘lov talabnoma xo‘jalik subyektlari o‘rtasida to‘lovlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakli hisoblanadi. O‘zbekiston tijorat banklari o‘rtasida to‘lov talabnomalar hisob-kitoblarning qo‘llanilishi juda keng tarqalmagan. Buning asosiy sabablaridan biri to‘lov talabnomalar bilan hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanishi juda ko‘p vaqt oladi va ortiqcha sarf-xarajatlar talab qiladi.

To‘lov talabnoma – mol sotuvchi tomonidan belgilangan summani bank orqali olish haqidagi talabini o‘z ichiga olgan hisob-kitob hujjatidir. *Talabnomalar asosan akseptli va akseptsiz bo‘lishi mumkin.*

Akseptli to'lov talabnomalarda bank avval to'lovchining mablag'ni to'lash haqidagi roziligini oladi, so'ngra to'lovni amalga oshiradi. Akseptsizda esa avval to'lov amalga oshirilib, so'ngra mijozga to'lov hujjatlarini beradi.

Tijorat banklarining yagona vakillik hisobvaraqlariga o'tishi to'lov talabnomalar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni rasmiylashtirish va hujjatlarning aylanish jarayonlarini bir qadar engillashtirdi.

Akseptli to'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblar. Ta'kidlaganimizdek, akseptli to'lov talabnomalar sotib oluvchining bankiga kelib tushgandan so'ng, bank dastlab to'lovni amalga oshirish yuzasidan to'lovchining roziligini oladi. Buning uchun bank tomonidan to'lovchilarga talabnomalarni quyidagicha akseptlash muddati o'rnatiladi:

– bir shahar ichida joylashgan mijozlar uchun – talabnomalarni bankka kelib tushgan kunni hisobga olmagan holda, uch ish kuni;

– boshqa shaharlarda joylashgan mijozlar uchun talabnomalarni bankka kelib tushgan kunni hisobga olmagan holda, besh ish kuni;

– to'lovchining asosli iltimosiga ko'ra 10 kungacha.

Akseptlash tartibida to'lanadigan akseptli to'lov talabnomalar muddatini kutayotgan davr davomida to'lovni kutayotgan hujjatlar kartotekasi (1 – kartoteka)da hisobga olib boriladi.

To'lovchi belgilangan muddatda yozma ravishda unga xizmat qiluvchi bank bo'limiga akseptlashni qisman yoki to'liq rad qilish huquqiga ega (tovar – material qimmatliklarini jo'natishda, xizmatlar ko'rsatishda va boshqa holatlarda shartnoma shartlariga amal qilinmaganda, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga asosan).

Belgilangan muddatda korxona yozma ravishda akseptlashni rad etmasa, talabnoma akseptlangan hisoblanadi.

Talabnomani akseptlashdan qisman bosh tortganda, to'lovchi tomonidan akseptlangan summa bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi. Agar to'lovchining hisobvarag'ida mablag'lar bo'lmaganda akseptli to'lov talabnomalar 2 – kartotekaga joylashtiriladi.

Bunda bank to'lovchi tomonidan akseptlashni qisman rad qilinganligi to'g'risida mahsulot yetkazib beruvchining (mablag' oluvchining) bankiga yozma ravishda xabar beradi.

Bank 2 – kartotekadagi hisob-kitob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda to'lovchilarga penya hisoblash va oluvchilar

foydasiga o'tkazish huquqiga ega, agar bu bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada kelishilgan bo'lsa.

Bank to'lovchilardan mablag'larni oluvchilar foydasiga muddati o'tkazib yuborilgan to'lovlar bo'yicha har bir kun uchun qonunda belgilangan miqdorda penya undiradi.Agar ushbu holat bank va mijoz o'rtasida hisob-kitob va bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha sharotnomada belgilab qo'yilgan bo'lsa.

Quyidagi shartli chizmada aksiyadorlik tijorat Ochiq Agrobankning ikkita bo'limi mijozlarining akseptli to'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilganda hujjatlar aylanishini shartli misolda ko'rib chiqamiz.

Akseptli to'lov talabnomalar bilan hisob – kitoblarni amalga oshirish tartibi



Mol sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida tovarlar sotish va xizmatlar ko'rsatish haqida shartnoma tuziladi, ushbu shartnomada to'lov shakli ham kelishiladi (1), sotuvchi tovarlarni jo'natagandan yoki xizmatlarni ko'rsatgandan keyin (2) akseptli to'lov talabnomani bankka taqdim etadi (3), bankning mas'ul buxgalteri to'lov talabnomalar belgilangan tartibga javob berishini nazoratdan o'tkazgandan keyin pochta orqali sotib oluvchining bankiga jo'natadi (4), sotuvchining banki to'lov talabnomani akseptlash uchun sotib oluvchiga jo'natadi (5), sotib oluvchi yozma ravishda to'lovni rad etmasa uning hisobidan mablag'ni sotuvchi hisobiga o'tkazish haqidagi elektron to'lov talabnomani respublika bankiga jo'natadi (6).

Agrobankning Koson bo'limi sotuvchining hisobvarag'idan mablag'ni ko'chirgandan so'ng bu haqda unga xabar qiladi (7), o'z navbatida respublika Agrobanki elektron to'lov talabnoma bilan Koson bo'limining vakillik hisobvarag'idan mablag'ni Oqtosh bo'limiga o'tkazadi (8), Agrobankning Oqtosh bo'limi mablag'ni sotuvchining hisobvarag'iga o'tkazadi va bu haqda sotuvchiga tegishli hujjatlarni taqdim etadi (9).

Akseptli to'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirganda to'lovchining hisobvarag'ida mablag' bo'lmaganda to'lov hujjatlari bankning ikkinchi kartotekasiga kirim qilinadi.

Akseptsiz to'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblar. Akseptsiz to'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblarda bank to'lovchining roziligisiz uning hisobvarag'idagi mablag'ni oluvchining hisobiga o'tkazib beradi. Tijorat banklari akseptsiz to'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishni ayrim subyektlarga ruxsat beradi. Xususan ular jumlasiga quyidagi tashkilotlar kiradi:

1. Issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblarda. Bu holda talabnoma va ajratilgan elektr va issiqliq energiyasi uchun hisobvaraq – faktura mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan bevosita iste'molchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. To'lov talabnomasining maqsadida issiqlik energiyasining o'lchov asboblari yoki ta'rif asosida foydalanilgan miqdori yozuvda ko'rsatilgan bo'lishi lozim;

2. Qarzdor tomonidan tan olingan summa haqidagi javob xatining asl nusxasi ilova qilingan holda. Talabnomaga boshqa hujjatlar ilova qilinganda akseptsiz hisobdan chiqarishga qabul qilinmaydi;

3. Qarzdor boshqa banklarda ochilgan ikkilamchi hisobvaraqlari bo'yicha kreditlarni vaqtida uzmaganda banklar tomonidan ham qo'yiladi.

Amaliyot (operatsion) kun tugagandan keyin kelib tushgan akseptsiz talabnomalarda «kechki» degan shtamp qo'yiladi va ular keyingi ish kuni to'lanadi yoki to'lovchining hisobraqamida mablag' bo'lmaganda 2 – kartotekaga kirim qilinadi.

To'lov talabnomasi bilan hisob-kitoblarning amaliyotda nisbatan kam qo'llanilishining asosiy sababi, uning kamchiliklari afzalliklariga nisbatan ko'pligidadir. Jumladan, uning asosiy kamchiliklari sifatida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq:

– mablag' oluvchi tovar jo'natgandan va xizmatlarni ko'rsatgandan so'ng to'lov talabnomasini bankka taqdim etishi natijasida, mablag'ni

to‘lovchiga tovar va xizmatlarning sifati to‘liq qoniqtirmagan hollarda to‘lovdan voz kechishi turli ziddiyatli holatlarni keltirib chiqaradi;

– to‘lovchining hisobvarag‘ida mablag‘ning bo‘lmasligi yoki yetarli miqdorda emasligi banklarda debitor va kreditorlik qarzlarining ortib ketishiga olib keladi;

– to‘lov hujjatlarining aylanishi va rasmiylashtirish jarayoni to‘lov topshiriqnomalariga nisabatan qo‘shimcha vaqt va ortiqcha mehnatni talab etadi.

Afzallik jihatlari shundan iboratki, to‘lovchining hisobraqamida mablag‘ bo‘lmagan hollarda ham jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, to‘lov talabnomasi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish mablag‘ni oluvchi va beruvchi uchun hamda bank uchun ham qo‘shimcha vaqt va ish jarayonini talab etadi. Shu bois bo‘lsa kerak, hisob-kitoblarning mazkur shakli amaliyotda boshqa hisob-kitob shakllariga nisbatan kamroq qo‘llaniladi.

3.4.3. Akkreditivlar bilan hisob-kitoblar

Hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida mijozning (to‘lovchining) topshirig‘iga ko‘ra mablag‘larni oluvchi foydasiga to‘lovni amalga oshirish uchun mablag‘ ma’lum muddatga deponentlanadi.

Akkreditiv qoplangan va qoplanmagan turlarga bo‘linadi.

Qoplangan akkreditivda sotib oluvchi shartnomada ko‘rsatilgan mablag‘ni mijozning bankida ochilgan 22602 – «Mijozlarning akkreditivlar bo’yicha depozitlari» hisobvarag‘ida deponentlanadi.

Qoplanmagan akkreditivda esa sotib oluvchi shartnomada ko‘rsatilgan summani o‘zining hisobvarag‘idan alohida hisobvaraqqa deponentlamaydi, balki mijozning banki uning hisobvarag‘ida mablag‘ bo‘lmagan taqdirda to‘lov kafolatini oladi.

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar chaqirib olinadigan yoki chaqirib olinmaydigan bo‘lishi mumkin. Uning matnida ushbu belgi mavjud bo‘lmagan holda, akkreditiv chaqirib olinadigan hisoblanadi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv bank – emitent tomonidan mablag‘larni oluvchi bilan oldindan xabardor qilmagan holda, o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Akkreditivni chaqirib olish bank – emitent zimmasiga mablag‘larni oluvchi oldida biron – bir majburiyat yuklamaydi. To‘lovchi chaqirib olinadigan akkreditivning

shartlarini o‘zgartirish yoki bekor qilinishi to‘g‘risidagi barcha ko‘rsatmalarni mablag‘lar oluvchiga, faqat bank – emitent orqali berishi mumkin, ushbu bank mablag‘larni oluvchining banki (ijrochi bank)ni, u esa – mablag‘ oluvchini xabardor qiladi.

Agar ijrochi bank operatsiyalarni bajarish paytigacha akkreditivning shartlari o‘zgartirilganligi yoki u bekor qilinganligi haqida bildirishnoma olmagan bo‘lsa, u chaqirib olinadigan akkreditiv bo‘yicha to‘lovni yoki boshqa operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Mablag‘ oluvchining roziligisiz, uning foydasiga ochilgan chaqirib olinmaydigan akkreditiv, o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Ijrochi bank, bank – emitent bilan shartnoma asosida chaqirib olinmaydigan akkreditivni tasdiqlashi mumkin. Bunday holda, chaqirib olinmaydigan akkreditiv tasdiqlangan akkreditiv bo‘ladi.

Tasdiqlangan akkreditiv bo‘lganda, ijrochi bank, bank – emitentning akkreditiv shartlariga muvofiq, to‘lovni amalga oshirish majburiyatlari bo‘yicha o‘z zimmasiga qo‘shimcha ravishda majburiyatlar oladi.

Tasdiqlangan akkreditiv ijrochi bankning roziligisiz o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Akkreditiv bilan hisob-kitoblarning ijobiy jihati shundaki, korxona jo‘natgan tovar va ko‘rsatgan xizmatlari uchun to‘lov kafolatlanadi. Shu bilan birga aytish lozimki, akkreditiv bilan hisob-kitoblarda mol sotib oluvchi korxonaning mablag‘lari ma’lum muddatga o‘z ixtiyoridan chiqib ketadi.

Akkreditivlar bilan hisob-kitoblar tartibini ikkita bank bo‘limi misolida quyidagi chizmada ko‘rib chiqamiz.

Barcha hisob-kitoblarda bo‘lgani singari, dastlab sotuvchi – akkreditiv bo‘yicha mablag‘ oluvchi va sotib oluvchi – akkreditivga ariza beruvchi o‘rtasida shartnoma tuziladi (1), sotib oluvchi shartnomada ko‘rsatilgan summani sotuvchining hisobiga deponentlash uchun akkreditivga arizani bankka taqdim etadi (2), bank emmitent, o‘z navbatida, akkreditiga arizada ko‘rsatilgan summani sotuvchining hisobiga o‘tkazish maqsadida elektron arizani bosh bankka jo‘natadi (3), bosh bankda Koson bo‘limi vakillik hisobidagi mablag‘ Oqtosh bo‘limi vakillik hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va bu haqda elektron akkretivga arizani bank bo‘limiga jo‘natadi (4), sotuvchining banki shartnomada ko‘rsatilgan akkreditiv summa uning hisobiga deponentlanganini xabar

qiladi (5), sotuvchi, o'z navbatida, tegishli tovarlarni sotib oluvchiga jo'natadi yoki xizmatlarni ko'rsatadi (6), sotuvchi tovarlarni jo'natganligi yoki xizmatlar ko'rsatganligini tasdiqlovchi hujjatlarni bankka taqdim etadi (7), bank, o'z navbatida, deponentlangan summani uning hisobiga o'tkazadi.

Qoplangan akkreditiv bilan hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanish tartibi



Mablag' oluvchining bankida akkreditivning amal qilish muddati tugaganda, akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan tartibda mablag' oluvchi uni bekor qilish haqidagi ariza berganda, to'liq chaqirib olinganda akkreditiv yopiladi.

Akkreditiv bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda qator ijobiy va salbiy jihatlar mavjud bo'lib, uning salbiy jihatlari asosan mablag' to'lovchining zimmasiga to'g'ri keladi. Ushbu salbiy holatlar quyidagilar bilan izohlanadi:

– pul to'lovchining hisobvarag'idan mablag'ni akkreditiv hisobvarag'iga deponent qilinishi natijasida ushbu mablag'ning oborotdan vaqtinchalik chiqib ketishi (odatda, akkreditiv summasi 20 – 30 kunga deponent qilinadi);

– to'lovchi ta'minlanmagan akkreditivdan foydalangan holda ham

olingan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uning talabiga to‘liq mos kelmagan hollarda to‘lovni amalga oshirishga rad javobining berolmasligi yoki ushbu jarayonning vaqtni olishi hamda qo‘shimcha hujjatlarni talab etilishi ortiqcha ishlarni keltirib chiqaradi;

– yuqorida akkreditiv bo‘yicha hujjatlarning aylanishidan ham ko‘rinib turibdiki, ushbu jarayon bir muncha murakkabroq.

Akkreditivlar bilan hisob-kitoblarda mol jo‘natuvchiga qator qulaylik jihatlari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

– akkreditiv shartnomasi tuzilgandan keyin tovarlarni ishlab chiqarishga kirishishi mumkin. Chunki ushbu tovarlarni sotib oluvchi tayin va undan tegishli iqtisodiy foyda kelishi kafolatlanadi;

– jo‘natilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov kafolatlangan. Chunki ta’minlangan akkreditivda pul to‘lovchi tovar va xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘ni alohida hisobvarag‘iga deponentlab qo‘yadi. Ta’minlanmagan akkreditivda esa tovar va xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘ pul to‘lovchining banki tomonidan kafolatlanadi.

3.4.4. Inkasso topshiriqnomalar bilan hisob-kitoblar

Bizga ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bankdagi hisobvaraqlaridan mablag‘larni faqatgina ularning topshirig‘i (to‘lov topshiriqnomasi, akkreditiv, hisob-kitob va pul cheki) va roziligi (to‘lov talabnomasi, kredit bo‘yicha muddatli majburiyatlar, shartnomalarda kelishilgan bo‘lsa, memorial order) bilangina o‘tkazish qonunchilik hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

Bozor munosabatlarida xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning ko‘pqirraligi va kutilmaganda vujudga kelgan ziddiyatlarni hal qilishda qo‘llaniladigan shunday to‘lov hujjatlari ham mavjudki, ushbu to‘lov hujjati tegishli muassasalar tomonidan bankka taqdim etilganda mijozning hech qanday roziligini olmasdan turib, bank bo‘limi uning hisobvarag‘idan mablag‘ni hujjatda ko‘rsatilgan manzilga o‘tkazib berishi lozim. Ushbu to‘lov hujjati inkasso topshiriqnomasidir.

Inkasso topshiriqnomasi – bankka mijoz (to‘lovchi)ning hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘larni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi talabini anglatadi.

Inkasso topshiriqnomalari bankka quyidagi tashkilotlar tomonidan taqdim qilinishi mumkin:

– o‘z vaqtida to‘lanmagan soliqlar va Davlat budjetiga o‘tkaziladigan soliqdan tashqari to‘lovlar (penya, jarimalar)ni undirib olishda soliq idoralari;

– budjetdan tashqari fondlar – o‘z vaqtida to‘lanmagan to‘lovlarni undirib olishda, agarda bu qonuniy hujjatlarda ko‘zda tutilgan bo‘lsa;

– bojxona organlari – o‘z vaqtida to‘lanmagan bojxona to‘lovlarini undirishda;

– sud organlari ularga berilgan ijro hujjatlari bo‘yicha;

– moliyalashtirishga ortiqcha o‘tkazilgan mablag‘larni qaytarishda, yuqori moliya organlari quyi budjet tashkilotlarga, davlat kafolati ostida berilgan muddati o‘tgan kreditlarni qaytarishda va boshqa holatlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan inkasso topshiriqnomalari qabul qilinadi;

– qonuniy hujjatlarga asosan boshqa organlar.

To‘lovchining hisobvarag‘ida mablag‘ bo‘lmaganda inkasso topshiriqnomasi 2 – kartotekada to‘lovini kutayotgan hujjatlar qatoriga joylashtiriladi va qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda to‘lanadi.

Inkasso topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanish tartibi



Tuman Davlat soliq inspeksiyasi belgilangan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamagan xo‘jalik subyektlariga nisbatan inkasso topshiriqnomalarini banklarga taqdim etadi (1), tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobvarag‘ida mablag‘lar mavjud bo‘lsa, inkasso topshiriqnomasida ko‘rsatilgan summani so‘zsiz ravishda respublika yoki mahalliy davlat budjetiga o‘tkazadi (2), va to‘lovchiga bu haqda

xabar beradi (3). Agar mablag' yetarli bo'lmasa yoki umuman mavjud bo'lmasa to'lov hujjatlari ikkinchi kartotekaga kirim qilinadi, ushbu hujjatlar to'lovchining hisobvarag'ida mablag'lar paydo bo'lib, to'lovlar amalga oshirilgunga qadar hisobga olib boriladi.

Inkasso topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirilmaganligi iqtisodiy jarayonlarning ijobiy tashkil etilganligi va xo'jalik subyektlarining soliqlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

3.4.5. Cheklar bilan hisob-kitoblar

Hisob-kitob cheklari asosan aholi o'rtasida bo'ladigan savdo munosabatlarida keng qo'llanilib, Davlat tijorat xalq banki bo'limlari amaliyotida uchraydi. Shuni ta'kidlash lozimki, hisob-kitob cheklari bilan to'lovlar naqd pulsiz shaklda amalga oshirilib, ularni naqd pulga aylantirish taqiqlanadi.

Tijorat banklari o'rtasida cheklar bilan hisob-kitoblarning asosan qo'lda amalga oshirilishi, mijozning hisobvarag'ini debetlash orqali mablag'ni o'tkazib berish lozimligi, bank bo'limida vakillik hisobvarag'ida mablag'lar taqchilligi paytida qabul qilingan cheklar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilmasligi, cheklarning yo'lda yo'qolishi va ayrim hollarda rekvizitlarining aniq bilinmasligi va to'g'ri rasmiylashtirilmaganligi kabi muammolar mavjud.

Hisob-kitob cheki bu mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankka chek beruvchining hisobvarag'idan chek qabul qiluvchining hisobvarag'iga ma'lum miqdordagi mablag'larni o'tkazib berish uchun bankning maxsus blankasida – bankka bergan topshirig'idir.

Chek blankalari tijorat banklari buyurtmasiga ko'ra tayyorlanadi. Bunda chek raqami va seriyasi, bank – emitentning nomi va firma belgisi bosma usulida yoziladi.

Hisob-kitob cheklari faqat tovar va xizmatlar uchun xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslar orasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar qilishda qo'llaniladi.

Hisob-kitob chekining maksimal summasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rnatadi, minimal summasi esa tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Jismoniy shaxs naqd pul hisobiga yoki bankdagi omonati hisobidan hisob-kitob cheki olish uchun bankka murojaat etadi (1), bank jismoniy shaxs topshirgan naqd pul yoki omonat hisobidagi mablag'lar evaziga

hisob-kitob chekini beradi (2), jismoniy shaxs hisob-kitob chekini savdo tashkiloti yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonaga taqdim etadi (3) va ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni oladi (4), savdo yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot sotilgan tovar uchun mablag'larni undirish uchun chekni o'z bankiga taqdim etadi (5), bank bo'limi chekdagi summani savdo tashkiloti hisobvarag'iga o'tkazganligini tasdiqlovchi hujjatni beradi (6).

Cheklar bilan hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanish tartibi



Hisob-kitob cheklari bilan to'lovlar amalga oshirilganda qator qiyinchiliklar mavjudligini yuqorida ta'kidlagan edik, agar ushbu jarayon bir shahar yoki ikkita bank o'rtasida amalga oshirilsa masala yanada murakkablashadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, mamlakatimizda cheklar bilan hisob-kitob shakli judayam keng tarzda rivojlanmagan.

3.4.6. Plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining tobora takomillashib borishi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turlarini ko'paytirmoqda. Xuddi shunday bank xizmatlaridan biri bu plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha tijorat banklarining plastik kartochkalari bo'lib, ular orqali naqd pullarni bankomatlardan olish va savdo shoxobchalarida foydalanish mumkin. Plastik kartochkalar asosan aholi o'rtasida qo'llanilib, naqd pulga bo'lgan talabni kamaytirish, olib yurishdagi qulayligi, vaqtincha foydalanmasdan turgan mablag'larni daromad keltirish kabi ijobiy jihatlari mavjud.

Plastik kartochka tegishli bankda kartochka egasining hisobvarag'i mavjudligini tasdiqlovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shaxsi belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to'lov vositasini o'zida ifoda etadi.

Plastik kartochkalar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar, bir tomondan hamda mahsulotni sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar (keyingi matnda – savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalari), ikkinchi tomondan, o'rtasidagi bo'ladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarda, shuningdek, naqd pul berish punktlari (NPBP) va bankomatlardan naqd pul olishda qo'llaniladi.

Vakolatli banklar xalqaro plastik kartochkalar chiqarishi va ular bo'yicha xizmat ko'rsatishi mumkin, bunda ular xalqaro to'lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarga va tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq, bajariladigan operatsiya qoidalariga amal qilishlari shart.

Bitta elektron kartochkada bir necha «elektron hamyonlar» joylashgan bo'lishi mumkin.

Plastik kartochkada, uni shaxs nomiga biriktirishda, quyidagi rekvizitlar yozilgan bo'lishi shart:

a) identifikatsiya belgilari (kartani raqami, seriyasi va boshqalar);

b) bank – emitent (kartochkalarni chiqaruvchi bank)ning kodi;

v) hisobvaraq raqami va kartochka egasining familiyasi, ismi, otasining ismi (tashkilot nomi);

g) kartochkaning amal qilish muddati.

Plastik kartochkada bir necha xamyonlar mavjud bo'lganda, identifikatsiya belgilari har bir hamyonni bir xil ma'noli identifikatsiyalashi lozim. Ko'rsatilgan rekvizitlardan tashqari, kartochkaga operatsiyalarni amalga oshirish va ular hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha belgilar kiritilishi mumkin.

Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar qog'oz ko'rinishida (slip, elektron terminal kvitantsiyasi) yoki elektron shakldagi (elektron terminal jurnalidan yoki bankomatdan olingan hujjat) hujjatlarni, shuningdek, hisob-kitoblar qatnashchilari o'rtasida tuzilgan shartnomalarda belgilangan boshqa hujjatlarni (bankomat kvitansiyasi va boshqalar) tuzish lozimligini ko'zda tutadi.

Elektron hujjatlar bank – ekvayer (savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalariga xizmat ko'satuvchi bank)ga, bank – emitentga yoki kliring markaziga, shartnomada kelishilgan davriylikda jo'natiladi.

Bitta bank bo'limlari o'rtasida kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblar qilish texnologiyasi, Bosh bank tomonidan, o'z imkoniyatlari va foydalanadigan kartochkalar turlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil belgilanadi.

Kartochkalar bo'yicha banklararo hisob-kitoblar texnologiyasi quyidagi variantlarni ko'zda tutadi:

a) hisob-kitoblarni amaldagi elektron to'lovlar tizimi (ETT) orqali yalpi hisob-kitob asosda o'tkazish;

b) hisob-kitoblarni hisob-kitoblar qatnashchilari tomonidan tashkil etilgan protsessing markazlaridan kun davomida o'tkazilib, yakuniy o'zaro majburiyatlar hisoblangan holda, tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridan yakuniy hisob-kitoblar summasini o'tkazish.

ETT orqali plastik kartochkalardan foydalangan holda, amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha yalpi hisob-kitoblar qilish, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) bank – emitent tomonidan avtorlashtirilmagan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblarda:

a) bank – ekvayer xizmat ko'rsatilayotgan savdo yoki xizmat ko'rsatish tashkilotidan olingan, kartochkalardan foydalangan holda, tuzilgan elektron hujjatlarga asosan, mablag'larni uning hisobvarag'iga o'tkazadi, bunda elektron to'lovlar tizimi orqali bank – emitentga jo'natiluvchi debetli elektron memorial orderi avtomatik ravishda shakllantiriladi.

b) bank – emitentda olingan debetli elektron memorial orderga asosan mijozning kartochkali hisobvarag'idan dasturiy ravishda mablag'lar hisobdan chiqariladi. Debetli elektron memorial order bosmadan chiqariladi va kunlik hujjatlarga tikiladi.

2) bank – emitent tomonidan oldindan shart bo'lgan tartibda avtorizatsiya qilinadigan hisob-kitoblarda:

a) bank – ekvayerda xizmat ko'rsatilayotgan savdo yoki xizmat ko'rsatish tashkilotidan olingan, kartochkalardan foydalangan holda tuzilgan elektron hujjatlarga asosan, ETT orqali avtorizatsiyalash va o'tkazmani amalga oshirish uchun bank – emitentga jo'natiladigan elektron ma'lumot, foydalanilayotgan texnologiya qoidalariga muvofiq, avtomatik ravishda shakllantiriladi;

b) bank – emitent, olingan elektron ma'lumotlarga asosan, tranzaksiyalar avtorizatsiyasini o'tkazadi, mijozning kartochka hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish uchun avtomatik

ravishda elektron memorial orderni shakllantiradi, savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazish uchun elektron to'lovlar tizimi orqali bank – ekvayerga jo'natadi.

v) bank – ekvayerda, bank – emitentdan olingan elektron memorial orderga asosan, mablag'lar savdo yoki xizmat ko'rsatish tashkilotining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. Memorial order bosmadan chiqariladi va bankning kunlik hujjatlariga tikiladi.

Protsessing markazlari orqali hisob-kitoblarni o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) kun davomida kartochkalar bo'yicha barcha tranzaksiyalar, hisob-kitoblar uning qatnashchilari tomonidan tasdiqlangan tartibda, protsessing markazi orqali o'tkaziladi va hisob-kitoblarda qatnashuvchi har bir bank uchun alohida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettiriladi;

b) hisob-kitoblar qatnashchilari kelishuviga asosan, hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy summalar (majburiyatlar) tijorat banklarining Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali, shartnomada qayd etilgan davriylikda o'tkaziladi;

v) banklar, protsessing markazidan olingan ma'lumotlarga asosan, kartochkalardan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha, mablag'larni mijozlarning hisobvaraqlariga kiritadilar yoki chiqaradilar.

Umuman olganda, tijorat banklari o'rtasida amal qilayotgan plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar kelgusida yanada rivojlanadi, bu naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlanishiga va naqd pulli aylanmalar hajmini qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bobga oid savollar

1. Pul aylanmasining iqtisodiy mohiyati va tarkibi.
2. Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ortib borishiga qanday omillar ijobiy ta'sir qiladi?
3. Markaziy bank naqd pul muomalasini tashkil etishda qanday ishlarni bajaradi?
4. Pul muomalasini tartibga solishda tijorat banklariga qanday vazifalar yuklatiladi?
5. Yuridik shaxslar kassa limitidan ortiqcha summa bo'yicha qanday qaror qabul qilishi zarur?

6. Tijorat banklari qanday manbalar hisobidan naqd pullarni qabul qiladi?

7. Tijorat banklari qanday maqsadlar uchun naqd pullarni beradi?

8. O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarning qanday shakllari qo'llaniladi?

9. To'lov talabnomalar bilan hisob-kitoblarning qanday salbiy jihatlari mavjud?

10. Akseptli va akseptsiz to'lov talabnomalarning bir – biridan qanday farqlari mavjud?

11. Akkreditivning qanday turlari mavjud va ular bir – biridan nimasi bilan farq qiladi?

12. Inkasso topshiriqnomalarning o'ziga xos jihatlari.

Bobga oid testlar

1. O'zbekiston tijorat banklarida elektron to'lov tizimi qachon joriy etildi?

A. 1995-yil dekabr oyida.

B. 1996-yil aprel oyida.

V. 1997-yil mart oyida.

G. 1998-yil mayda.

2. Quyidagilardan qaysi biri naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish qoidalari hisoblanmaydi?

A. Naqd pulsiz hisob-kitoblar jarayonida ishtirok etayotgan har ikkala tomonning ham bankda tegishli hisobvaraqlari mavjud bo'lishi lozim.

B. Mijozning hisobvarag'idan mablag'larni boshqa manzilga o'tkazish va kirim qilish Markaziy bank tomonidan qat'iy belgilangan to'lov hujjatlari asosida hamda ulardagi rekvizitlarni to'liq to'ldirilgan holda amalga oshiriladi.

V. Bank mijozning hisobvarag'idan uning xabari bo'lmagan hollarda memorial order bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishi mumkin.

G. Bank mijozning pul mablag'larini o'tkazish haqidagi topshirig'ini uning hisobvarag'ida mablag' bo'lgandagina qabul qiladi.

3. To'lov topshiriqnoma bu:

A. Sotib oluvchining bankka o'z hisobvarag'idan mablag'ni sotuvchi hisobiga o'tkazib berish haqidagi yozma topshirig'i.

B. Sotuvchi jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'ni talab qilishi haqidagi hujjat.

V. Bankning sotuvchiga to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi yozma topshirig'i.

G. Sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi shartnomaga ko'ra to'lovni amalga oshirish bo'yicha mablag' oluvchining yozma topshirig'i.

4. To'lov talabnoma bu:

A. Sotib oluvchining bankka o'z hisobvarag'idan mablag'ni sotuvchi hisobiga o'tkazib berish haqidagi yozma topshirig'i.

B. Sotuvchi jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'ni talab qilishi haqidagi hujjat.

V. Bankning sotuvchiga to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi yozma topshirig'i.

G. Sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi shartnomaga ko'ra to'lovni amalga oshirish bo'yicha mablag' oluvchining yozma topshirig'i.

5. Akkreditivning shakllari qanday javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Qoplangan va qoplanmagan akkreditiv

B. Kreditlanadigan va kreditlanmaydigan.

V.To'lanadigan va to'lanmaydigan.

G.Daromadli va daromadsiz.

6. Akseptli to'lov talabnomalarda:

A. Bank dastlab to'lovni amalga oshiradi so'ng mijozning roziligini oladi.

B. Bank dastlab belgilangan muddatda mijozning roziligini oladi, so'ng to'lovni amalga oshiradi.

V. Bank belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirib bu haqda mijozga xabar beradi.

G. Bank hujjat kelib tushgan zahoti to'lovni amalga oshiradi va bu haqda mijozga xabar beradi.

7. Akseptsiz to'lov talabnomalarda:

A. Bank dastlab to'lovni amalga oshiradi so'ng mijozning roziligini oladi.

B. Bank dastlab belgilangan muddatda mijozning roziligini oladi, so'ng to'lovni amalga oshiradi.

V. Bank belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirib, bu haqda mijozga xabar beradi.

G. Bank hujjat kelib tushgan zahoti to'lovni amalga oshiradi va bu haqda mijozga xabar beradi.

8. Banklarda ikkinchi kartoteka qanday hollarda yuritiladi?

A. Bank keladigan barcha to'lov hujjatlar to'lovdan oldin dastlab kirim qiladi.

B. Mijozning hisobvarag'ida mabalag'lar mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan hollarda kirim qilinadi.

V. Mijozning topshirig'iga asosan ayrim hujjatlar kirim qilinadi.

G. To'lovlar vaqtincha kechiktirilganda ayrim to'lov hujjatlar mijozning roziligi bilan kirim qilinadi.

9. Inkasso topshiriqnomasi:

A. – bankka to'lovchining hisobvarag'idan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish huquqini beradi;

B. – mijozning hisobvarag'iga uning roziligsiz mablag'larni kirim qilish huquqini beradi;

V. – mijozning o'z hisobvarag'idan mablag'ni so'zsiz ko'chirish haqidagi topshirig'i hisoblanadi;

G. – mablag' to'lovchi o'z hisobidan to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha topshirig'i.

10. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning eng ko'p qo'llaniladigani shakli bu:

A. To'lov talabnomalar.

B. Akkreditivlar.

V. To'lov topshiriqnomalar.

G. Inkasso topshiriqnomalar.

4 – bob. PUL MUOMALASI VA PUL MASSASI

4.1. Pul muomalasi tushunchasi va tarkibi

Pul tovar ishlab chiqarishga asoslangan har qanday iqtisodiyotning, jumladan bozor iqtisodiyotining ham asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot, uni ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq jarayonlar pul ishtirokida yuz berib, tovar ishlab chiqarish siklining ibtidosi pul bilan boshlanib, uning intiqosi ham pul bilan yakunlanadi. Yoki, iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida yuz berayotgan obyektiv iqtisodiy munosabatlar, albatta, pul ishtirokida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy subyektlar o'rtasida pul orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar *pul muomalasi deyiladi.* Pul yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarda qatnashar ekan, u doimiy harakatda bo'ladi, yangilanib turadi va muntazam takror aylanadi. Iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda pulning ma'lum davrdagi harakatlar yig'indisi *pul aylanmasini* tashkil etadi.

Naqd pul muomalasi naqd pul orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bo'lib, bunda iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro tovarlar va qimmatli qog'ozlar oldi – sotdisi, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, sug'urta, kommunal to'lovlari, naqd pulda kreditlar olish va qaytarish, lotereya biletlari harid qilish, korxona va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga naqd pulda ish haqi to'lash hamda boshqa majburiy to'lovlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, naqd pul muomalasi davlat budjetining naqd pulda shakllanadigan va taqsimlanadigan qismini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu jarayon, bir tomondan aholi va yakka tadbirkorlarning budjet oldidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarini, ikkinchi tomondan esa, davlat budjeti tomonidan aholiga naqd pulda pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarida o'z aksini topadi.

Naqd pul aylanmasi esa naqd pullarning ma'lum davrdagi harakatlar yig'indisidan iborat bo'lib, u naqd pul muomalasidagi naqd pullar harakatidan tashqari pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yig'indisini ham o'z ichiga oladi. Naqd pullarning

aylanmasi va uning tarkibiy qismlarini quyidagi paragrafda batafsil ko'rib chiqamiz.

4.2. Naqd pullar aylanmasi va uning tarkibiy qismi

Naqd pullar aylanmasi yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy subyektlar o'rtasida yuz beradigan pul muomalasi va uni tashkil qilish bilan bog'liq naqd pullar harakatini o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, uni ikki qismga – pul muomalasini tashkil qilish va pul muomalasidagi harakatlarga bo'lish mumkin.

Bunda shuni yodda tutish kerakki, pul aylanmasining bu ikki qismi bir – biridan ajralgan holda alohida mustaqil pul aylanishi bo'lmasdan, balki o'zaro bog'liq bo'lgan bir butun jarayondir. Aslida pul iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish uchun zarur. Lekin, pul mazkur iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirar ekan, u, ayni paytda, mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida harakatda bo'ladi, o'zining vazifasini to'laqonli va bekamu-ko'st ado etish uchun qo'shimcha harakatlar qilishga majbur bo'ladi. Bu yerda gap, pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan pulning harakati ustida ketmoqda.

Pul muomalasini tashkil qilish jarayoni naqd pul (banknot va tangalar) larni ishlab chiqish, ularni muomalaga tayyorlash, saqlash va iqtisodiy subyektlarga yetkazib berish, muomaladan ortiqcha va yaroqsiz pullarni olish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon naqd pullarni pul ishlab chiqarish fabrikasidan Markaziy bank muassasalariga keltirish, ulardan tijorat banklariga yetkazib berish va nihoyat tijorat bank filiallari tomonidan mijozlarni naqd pulga bo'lgan talabini qondirishdan iborat.

Naqd pullar aylanmasining tarkibiy qismlarini quyidagi chizmada ifodalash mumkin.

Albatta, pul muomalasini tashkil qilish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi, lekin naqd pullar oqimining asosiy qismi tijorat banklarining kassalari orqali harakat qiladi. Natijada, tijorat banklari ham naqd pul muomalasini boshqarishda bilvosita ishtirok etadilar.

Demak, *pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan pulning harakati* ikkita pul oqimlaridan iborat, bular:

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga naqd pullarni yetkazib berish va tijorat banklaridan ortiqcha va muomalaga yaroqsiz naqd pullarni qabul qilish bilan bog'liq pul oqimi;

2. Tijorat banklari tomonidan mijozlarni naqd pulga bo'lgan talabini qondirish uchun naqd pul berish va naqd pul tushumiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarning naqd pul tushumlarini qabul qilish (inkassatsiya) bilan bog'liq pul oqimi.



Naqd pul muomalasidagi pul harakati uchta pul oqimini o'z ichiga oladi, ya'ni:

1. Korxona va tashkilotlar o'rtasidagi.
2. Korxona va tashkilotlar bilan aholi o'rtasidagi.
3. Alohida shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq naqd pul oqimi.

Korxona va tashkilotlar o'rtasidagi naqd pul ishtirokida amalga oshiriladigan to'lovlar hajmi o'ta chegaralangan bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida ayrim to'lovlar hanuzgacha naqd pulda amalga oshirilib kelinmoqda.

Naqd pul muomalasining asosiy qismi korxona va tashkilotlar bilan aholi o'rtasidagi pul munosabatlari bilan bog'liq naqd pullar oqimidan iborat. Unga, korxona va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga naqd pulda mehnat haqi, stipendiya, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalar berish, ular o'rtasidagi o'zaro tovarlar va qimmatli

qog'ozlar oldi – sotdisi, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, sug'urta, transport, kommunal to'lovlari, naqd pulda kreditlar olish va qaytarish (shu jumladan, banklardan ham), omonatlarga pul qo'yish va olish, lotereya biletlari harid qilish, jarima va ustamalar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirishdagi naqd pullar harakati kiradi. Shuningdek, naqd pul muomalasi davlat budjetining naqd pulda shakllanadigan va taqsimlanadigan qismini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu jarayon, bir tomondan aholi va yakka tadbirkorlarning budjet oldidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarida, ikkinchi tomondan esa davlat budjeti tomonidan aholiga naqd pulda pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarida o'z aksini topadi. Aynan, mana shu pul oqimi aholining asosiy naqd puldagi daromad va xarajatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Pul muomalasining uchinchi oqimi alohida shaxslar o'rtasida tovarlar ayriboshlash, pullik xizmatlar ko'rsatish sohasida shakllanadi. Bunda Respublikamizdagi mavjud dehqon va boshqa tashkil etilmagan bozorlardagi naqd pul bilan bog'liq to'lovlar hali ham salmoqli o'rin tutib kelmoqda.

Yuqoridagi funksiyalarini bajarish mobaynida naqd pullar murakkab yo'lni bosib o'tadilar. Ya'ni, muomalaga zarur pul mablag'lari Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga, ular tomonidan esa o'z o'rnida xo'jalik subyektlari va aholiga chiqariladi. Xo'jalik subyektlari va aholi qo'lidagi pul mablag'lari savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari orqali yana tijorat banklariga qaytib keladi. Tijorat banklari va ularning filiallari yana o'zlari xizmat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarga hamda aholiga qonunchilikda belgilangan to'lovlarni amalga oshirish uchun naqd pullar berishadi. Shunday qilib, naqd pullar tijorat banklaridan chiqib yana tijorat banklariga qaytadi va doimiy aylanishda bo'ladi.

Naqd pullarning tijorat bankidan chiqib yana tijorat bankiga qaytib kelish harakati ularning doiraviy aylanmasi deyiladi.

Tijorat banklari faqat muomaladan vaqtincha ortiqcha bo'lgan va muomalaga yaroqsiz naqd pullarni Markaziy bank muassasalariga topshirishadi. *Naqd pullarning Markaziy bankdan tijorat banklariga chiqishi muomalaga pul chiqarish, ya'ni Markaziy bankning emissiya operatsiyasi, tijorat banklaridan Markaziy bankka qaytib kelish harakati muomaladan pul olish operatsiyasi deyiladi.*

Naqd pullar aylanishini mamlakatimiz misolida quyidagi chizmada aks ettirilgan.

1. Markaziy bank buyurtmasiga ko'ra, pul fabrikasida ishlab chiqarilgan naqd pullarni Markaziy bank va uning muassasalariga maxsus inkassatorlar apparati orqali yetkazib berish.

2. Markaziy bank tijorat banklari buyurtmalariga va pul – kredit siyosati ko'rsatkichlariga asosan tijorat banklariga inkassatorlar orqali naqd pullar yetkazib berish. Markaziy bank Hisob-kitob markazlari kassasidan faqat o'z mijozlariga qonunchilikda belgilangan to'lovlar uchun naqd pullar berish.

3. Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan o'zlari xizmat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan to'lovlarni amalga oshirish uchun naqd pullar berish.



4. Korxona va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi, stipendiya, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalar berish, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa to'lovlarni amalga oshirish.

5. Aholi tomonidan korxona va tashkilotlardan naqd pullarga tovarlar va qimmatli qog'ozlar, lotereya biletlari harid qilish, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, transport, sug'urta, kommunal to'lovlari, jarima va ustamalar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish.

6. Korxona va tashkilotlar tomonidan naqd pul tushumlarini tijorat bank kassalariga topshirish (inkassatsiya qilish).

7. Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklaridan naqd pulda kreditlar, omonatlardagi pul qo'yilmalari, dividend va naqd puldagi boshqa daromadlarini olish.

8. Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklariga naqd pulda kreditlarni qaytarish, omonatlar qo'yish va boshqa to'lovlarni amalga oshirish.

9. Tijorat banklari tomonidan muomalaga yaroqsiz va ortiqcha naqd pullarni Markaziy bankka topshirish.

Yuqoridagi chizmaning 4 va 5 – bosqichlar naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasini o'z ichiga oladi, ya'ni naqd pullarning bu harakati banklarni chetlab o'tadi. Naqd pullarning bu aylanmasining ma'lum qismi, aholi va xo'jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan noqonuniy faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlarida naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasiga barham berish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika Hukumati tomonidan naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish bo'yicha muntazam ravishda katta tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Xususan, «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunni qabul qilinishi ham aynan shu masalalarning ijobiy yechimini ta'minlashga qaratilgan.

Qonunda u quyidagicha bayon qilingan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol – mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol – mulkning asl xususiyatini, manbayini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini yoxud pul mablag'lariga yoki boshqa mol – mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishdir».

Mazkur qonunga binoan banklar pul mablag'lari yoki boshqa mol – mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot sifatida qaralib, ularga majburiy nazoratni amalga oshirish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni ular taqdim etgan hujjatlar asosida aniqlash yoki identifikatsiyalash vazifasi yuklatilgan.

Lekin, bankdan tashqari pul aylanmasi qonunda ko'zda tutilgan pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar tomonidan ham qayd etilmaydigan pul aylanmasiga ega. Masalan, mamlakatga noqonuniy olib kirilgan yoki xufiyona ishlab chiqarilgan tovarlarni uyushmagan bozorlarda aholiga sotish, dehqon bozorlaridagi mahsulot oldi – sotdi operatsiyalari qonunda ko'rsatilgan birorta tashkilot tomonidan rasman qayd etilmaydi yoki ularni identifikatsiyalash deyarli mumkin emas. Pulning bu aylanmasini faqat maxsus izlanishlar va tadqiqotlar o'tkazish orqali aniqlash mumkin.

Ayrim mamlakatlarda pul muomalasini tartibga solish uchun uning amal qilish doirasiga chegaralar o'rnatilgan. O'zbekistonda naqd va naqd pulsiz hisob-kitob o'rtasidagi mavjud farqqa barham berib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 790-moddasiga muvofiq fuqarolar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hisob-kitoblar hamda fuqarolar bilan korxona va tashkilotlar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ayrim hisob-kitoblar naqd pulda amalga oshirilishi belgilangan. Yuridik shaxslar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq barcha to'lovlar naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladi. Respublikaning aksariyat pul aylanmasi korxona va tashkilotlar o'rtasida amalga oshirilishi sababli, umumiy pul aylanmasida naqd pul aylanmasining ulushi ancha kamdir.

Demak, naqd pul muomalasi asosan jismoniy shaxslarning naqd pul shaklidagi daromad va xarajatlarining harakatidan iborat bo'lib, aholining kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarda qo'llanilmoqda. Shu bilan birgalikda, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq ayrim to'lovlarni ham naqd pulda amalga oshirishga ruxsat berilgan.

4.3. Naqd pul muomalasining o'rni va zaruriyati

Bugungi kunda jahon hamjamiyati erishgan yuksak texnologik yutuqlaridan foydalanilgan holda pul muomalasida naqd pullar o'rnini bank (yoki boshqa kredit tashkilotlari) hisobvaraqlari bo'yicha

yozuvlar va turli elektron to'lov hujjatlari egallab borayotganligiga qaramasdan barcha mamlakatlar iqtisodiyotida naqd pul muomalasi saqlanib qolmoqda.

Naqd pul muomalasining ulushi Buyuk Britaniya, Yaponiya va AQSH kabi yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda umumiy pul aylanmasining 1 – 6 foizini tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiyoti o'tish jarayonidagi va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich nisbatan yuqoriligicha qolmoqda.

Mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, eng rivojlangan mamlakatlarda ham naqd pul muomalasi hali o'zining muqim o'rnini egallab turibdi. Shuning uchun ham naqd pul muomalasini tashkil etish bilan bog'liq masalalar hali birorta mamlakatning kun tartibidan olib tashlangani yo'q.

Shu o'rinda, haqli savol tug'iladi. Nima uchun, eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham naqd pul muomalasi hanuz saqlanib qolmoqda? Qanday omillar borki, ularning ta'siri ostida naqd pullar o'rnini eng zamonoviy texnik vositalar ham bosa olmayapdi.

Naqd pul muomalasini saqlanib qolishiga, avvalo, aholi o'rtasida kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlarning mavjudligi sabab bo'lmoqda. Bunday savdo va xizmatlar uchun to'lovlarni texnik vositalar qo'llash yo'li bilan amalga oshirish mumkin emas. Har qanday kichik savdo shohobchasiga, barcha transport vositalariga yoki aholiga madaniy – maishiy xizmat ko'rsatuvchi hamma kichik korxonalar (firmalar)ga ham qimmatbaho qurilmalar bo'lmish bankomat va terminallar o'rnatish iqtisodiy jihatdan samara beravermaydi. Qolaversa, bugungi kunda eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati saqlanib qolmoqdaki, ushbu faoliyatni amalga oshirish, albatta, naqd pullardan foydalanishni taqozo etmoqda. Bizning Respublikamizda esa ushbu omilning ta'siri juda kuchli. Chunki, aholining tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarni dehqon bozorlarida sotish mutlaqo naqd pul yordamida amalga oshiriladi.

Naqd pul muomalasini saqlanib qolishiga nafaqat ayrim tovarlar va xizmatlarni naqd pulsiz to'lab berish imkoniyati mavjud emasligi, balki *naqd pullarning yuqori likvidlik qobiliyatiga ega ekanligi* ham katta ta'sir etadi. Iqtisodiyotdagi barcha aktivlarlarning sifat darajasi ularning qancha daromad keltirish qobiliyati bilan bir qatorda likvidlik, ya'ni qo'shimcha xarajatlarsiz pulga aylanish qobiliyati bilan ham baholanadi.

Naqd pullar mutlaq likvidli aktivlar hisoblanadi. Bank hisobvaraqlaridagi naqdsiz pul mablag'lari ham likvidlik darajasi bo'yicha naqd pullarga qaraganda past likvidli aktivlar hisoblanadi. Naqd pul banknotlari va tangalar muomalaga yagona emissiya banki – *Markaziy bank* (Milliy bank, Federal zaxiralar tizimi) tomonidan chiqariladi va ular yuqori likvidli aktivlar (oltin, xorijiy davlatlar valutasi va boshqa yuqori likvidli majburiyatlar) bilan ta'minlangan. Shuning uchun barcha aktivlarning, jumladan, plastik kartochkalar, bank omonatlari yoki boshqa depozitlaridagi mablag'larning ham likvidlilik darajasi naqd pulga aylanish qobilyati bilan o'lchanadi.

Shuningdek, *naqd pullar ishonchli va oson to'lov vositasidir.* Bugungi kunda erishilgan eng qulay va mukammal texnik vositalar ham har qanday pulli hisob-kitoblarni naqd pulchalik tez va oson bajarishga qodir emas. Tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganda, sotuvchida ham oluvchida ham o'z xatti-harakatlaridan hech qanday shubhaga o'rin qolmaydi.

Bundan tashqari, naqd pullarning yashovchanlik qobiliyati, uning *odamlar ruhiyatiga singib ketgan mo'jizakor kuchining ta'siri* bilan o'lchanadi. Kishilar ongida naqd pullar hali ham o'zlarining tarixiy ajdodlari bo'lmish *haqiqiy oltin pullarning vakillari* bo'lib qolmoqda. Azal – azaldan naqd pullar kishini jamiyatdagi ijtimoiy haq – huquqini tasdiqlovchi guvohnoma vazifasini o'tab kelmoqda. Shu sababli, har bir shaxs cho'ntagida omonat daftarchasi, plastik kartochka yoki uning o'rnini bosuvchi biror hujjat olib yurgandan ko'ra naqd pullarning o'zini olib yurishni afzal ko'radi.

Odamlar iqtisodiy hayot jarayonlarini begonalarning aralashuvisiz (anonimnost) boshqarishni hush ko'radilar, zero naqd pulli hisob-kitoblar har bir shaxsning o'ziga xos maxfiy xatti-harakati hisoblanadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar esa bunday talabni bajarishga qodir emas, chunki unda, albatta, uchinchi shaxs bo'lgan banklar ishtiroki muqarrardir.

Bundan tashqari, aholining naqd pul bilan hisob-kitoblar qilishga moyilligi bank tizimiga bo'lgan ishonch va banklar tomonidan zarur to'lovlarni qanchalik darajada amalga oshirish qobiliyati bilan ham o'lchanadi. Agar aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkam bo'lsa, ular qo'llaridagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini bank omonotlariga topshiradilar hamda banklar tomonidan naqd pullar o'rniga oson va tez amalga oshirish mumkin bo'lgan naqd pulsiz hisob-

kitoblarning turli shakllari taklif qilib borilsa, naqd pul muomalasi shunchalik qisqarib boraveradi. Qolaversa, aholi bank tomonidan ularning omonatlarga foizlar to'lashdan oladigan daromadlardan manfaatdordirlar.

Shu bilan birga, yana shunday omilni qayd etib o'tish zarurki, naqd pul muomalasining mavjudligi har bir *millatning dunyoqarashi va hayot tarziga* ham bog'liqdir. Ma'lumki, o'zbek xalqining ko'pdan-ko'p udum va marosimlari bevosita naqd pullar yordamida amalga oshirilayotganligi ham mamlakatimizda naqd pul muomalasi salmog'ini oshiradi.

Naqd pul muomalasining zaruriy qo'llanishiga aholining demografik joylashishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu omilning ta'siri, ayniqsa, bizning respublikamizda sezilarli darajada saqlanib turibdi. Respublika aholisining aksariyat qismi qishloq hududlarida istiqomat qilayotganligi ushbu omil ta'sirini kuchaytirmoqda.

Naqd pullarning iqtisodiy jihatdan zaruriy mavjudligi uning huquqiy asoslarini ham saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Barcha mamlakatlarning qonunchilik hujjatlarida naqd pullar asosiy to'lov vositasi va milliy pul tizimining asosi deb qayd qilingan. Demak, naqd pullar qonunchilik asosida davlat tomonidan himoyalangan. Qolaversa, qonunchilik hujjatlarida ham naqd pullarning naqdsiz pul mablag'lariga nisbatan ustuvor xususiyati saqlanib qolganini sezish qiyin emas.

Deyarli barcha mamlakatlarda naqd pul banknotlari va tangalar muomalaga yagona emissiya banki – Markaziy bank (Milliy bank, Federal zaxiralar tizimi) tomonidan chiqariladi va naqd pullar Markaziy bankning so'zsiz bajarishi shart bo'lgan majburiyati hisoblanadi.

Plastik kartochkalar, bank omonatlari yoki boshqa depozitlaridagi mablag'lar esa tijorat banklarining majburiyatlari hisoblanadi va ularning bajarilish darajasi o'sha tijorat bankining moliyaviy holati bilan baholanadi. Bozor iqtisodiyotidagi mavjud kuchli raqobat har qanday tijorat bankining faoliyatini xavf – xatardan holi qoldirmaydi. To'g'ri, har bir mamlakatda bank majburiyatlari ma'lum jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi, jumladan, bizning respublikada ham «Fuqoralarning banklardagi omonatlarini kafolatlari to'g'risida» qonun qabul qilingan, lekin har qanday sharoitda ham ular naqd pullar ega bo'lgan bexatarlikni to'liq kafolatlay olmaydi.

Naqd pul muomalasi o‘z o‘rnida salbiy xususiyatlarga ham egadir. Chunonchi, naqd pul muomalasini tashkil qilish va boshqarish, ya’ni naqd pullarni muomalaga chiqarish, saqlash, tashish hamda ularni muomalaga tayyorlash bilan bog‘liq katta xarajatlarni talab qiladi. Muomalaga yaroqsiz holga kelgan naqd pul biletlarini yo‘q qilish ham maxsus tadbirlar orqali katta xarajatlar evaziga amalga oshiriladi.

Naqd pullar o‘rniga tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan plastik kartochkalar ham o‘z o‘rnida katta xarajatlar va tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Bundan tashqari, plastik kartochkalar, albatta, naqd pulga almashish qobiliyatini saqlab qolmog‘i zarur, aks holda, ularni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilib bo‘lmaydi. Buning uchun esa aholi uchun qulay joylarda qimmatbaho qurilmalar – bankomat va terminallar qo‘yishga to‘g‘ri kelmoqda. Yana shuni alohida qayd etish kerakki, aholining naqd pulga bo‘lgan ehtiyojini xohlagan vaqtda qondirish uchun bankomatlarga bir vaqtda katta miqdordagi naqd pullarni qo‘yishga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa, o‘z o‘rnida katta miqdordagi naqd pullarga bo‘lgan talabni vujudga keltirmoqda.

Bundan tashqari, naqd pullardan belgilangan tartibda foydalanmaslik xufyona iqtisodiyotni rivojlanishiga yo‘l ochib beradi hamda ayrim yuridik va jismoniy shaxslarga noqonuniy faoliyat yuritib mehnatsiz daromad orttirish uchun xizmat qiladi.

Naqd pullar uchinchi subyekt aralashuvisiz harakatda bo‘lganligi uchun aynan uning yordamida terrorizm, giyohvandlik moddalari bilan biznes qilish kabi o‘ta xavfli jinoyatlar amalga oshiriladi. Shuning uchun dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida pul muomalasi terrorizmni moliyalashtirish va giyohvandlik moddalari bilan biznes qilishning oldini olish maqsadida qonunlar qabul qilingan. Jumladan, bizning respublikamizda ham 2006-yilning 1-yanvaridan boshlab «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonun kuchga kirdi.

Bundan tashqari, naqd pul muomalasi bizning yodimizdan ko‘tarilgan «pul fetishizmi» (pulga sig‘inish)ni tomir otishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, hamma narsa pulga olib – sotilishi mumkin bo‘lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlar ongini oson pul topishga ruju qo‘yish kabi illatlar bilan zaharlaydi.

Naqd pullarning ijobiy va salbiy xususiyatlari bo'lishidan qat'iy nazar, ular bugungi kunda yuqorida qayd etilgan obyektiv omillar ta'sirida dunyoning barcha mamlakatlarida amal qilib turibdi.

4.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining naqd pul muomalasi bo'yicha asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» qonuniga muvofiq Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat va davlat monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda Markaziy bank to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishdagi naqd pul belgilarini muomalaga chiqarish va muomaladan qaytarib olish bo'yicha mutlaq huquqga ega.

Shunga muvofiq, muomalaga naqd pul chiqarish, ularni saqlash, muomaladan qaytarib olish va muomala uchun yaroqsiz holatga kelgan pul belgilarini yangi pul belgilariga almashtirish vazifalarini bajaradi. Shuningdek, muomalaga chiqarilmagan pul belgilarini saqlash maqsadida Markaziy bank Rezerv fondlarini tashkil etadi va ular bo'yicha pul mablag'larining tarkibiy qismlarini, ya'ni banknot va tangalar ko'rinishidagi qoldiq limitlarini belgilaydi. Tijorat banklari aylanma kassalarining qoldiq limitlari ham Markaziy bank tomonidan o'rnatiladi.

Markaziy bank respublika banklarida pul muomalasini va kassa ishlarini tashkil etish hamda ularning buxgalteriya hisobini yuritish bilan bog'liq barcha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi.

Markaziy bank o'zining asosiy maqsadini to'laqonli bajarish, ya'ni pul muomalasini barqaror saqlab turishga hamda milliy valutaning barqarorligini ta'minlash uchun pul muomalasi holatini muttasil o'rganadi va tahlil qiladi hamda uni mustahkamlash uchun amaliy choralar ko'radi. Asosiy naqd pul oqimlari tijorat banklari kassalari orqali o'tganligi sababli, Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining naqd pul muomalasi bilan bog'liq faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi.

Markaziy bank tomonidan naqd pul muomalasini tartibga solish maqsadida tijorat banklari va ularning mijozlari uchun majburiy bo'lgan quyidagi talablar o'rnatilgan:

- kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibi;

- tijorat banklari kassalariga naqd pullarni topshirish va olish tartibi;
- tijorat banklari aylanma kassalariga limit o'rnatish tartibi;
- tijorat banklari aylanma kassalari mustahkamlash uchun zaxira pullarini tashkil qilish tartibi;
- tijorat banklari kassa aylanmalarini hom cho'tqilish tartibi;
- xo'jalik subyektlari naqd pul tushumlarini inkassatsiya xizmati tomonidan tijorat banklari kassalariga topshirish tartibi;
- banknotlar va monetalarni to'lovga yaroqlilik qobiliyatini aniqlash tartibi;
- xo'jalik subyektlari kassalari qoldig'iga limit o'rnatish tartibi;
- naqd pul bilan hisob-kitob qilish tartibi;
- kassa operatsiyalarining buxgalteriya hisobi;
- chakana savdo korxonalariga naqd pulsiz hisob-kitob qilish tartibi.

Markaziy bank va uning hududiy Bosh boshqarmalari (HBB) zimmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida pul muomalasini tashkil etish, tijorat banklari naqd pul bilan bog'liq faoliyatini muvofiqlashtiradi va monitoring yuritadi.

Bank muassasalariga kelib tushgan pul birliklari va tangalarning qayta sanalishi, to'lovga yaroqli, eskirgan hamda yaroqsiz, ya'ni to'lov qobiliyatini yo'qotgan pul birliklarini toifalarga ajratilgan holda saralash, taxlash, tegishli ravishda o'rab bog'lash va qayta muomalaga chiqarilishi kabi ishlarning sifatini yanada oshirish yuzasidan Markaziy bankning barcha muassasalari va tijorat bank bo'limlariga doimiy ravishda tegishli ko'rsatmalar berib boriladi. Pul birliklarining «yaroqli», «eskirgan» va «to'lovga yaroqsiz» toifalar bo'yicha mezonlarini ishlab chiqadi.

4.5. Muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdorini aniqlash asoslari

Naqd pul muomalasini tartibga solishning *asosiy vazifasi, bu – muomalaga chiqarilishi yoki olinishi lozim bo'lgan naqd pul miqdorini aniqlashdan iboratdir.* Ushbu vazifa muomala uchun zarur naqd pul mablag'lariga bo'lgan talabni aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, naqd pullar kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlar uchun to'lovlarda qo'llaniladi. Yoki,

naqd pul aylanmasining umumiy pul aylanmasidagi ulushi yuqorida ko'rsatilgan naqd pulli to'lovlarning jami to'lovlardagi ulushi bilan aniqlanadi.

Demak, naqd pulga bo'lgan talab umumiy pul massasiga bo'lgan talabning bir qismidir. Lekin, umumiy pul massasiga nafaqat tovarlar va xizmatlar hajmi, balki pulning aylanish tezligi va bank foiz stavkalarining darajasi ham ta'sir etadi. Ushbu omillar nazariy jihatdan olimlar tomonidan allaqachon asoslanib ulgurilgan va bugungi kunda juda ko'p mamlakatlarning iqtisodiyotini boshqarishda pulga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish mexanizimi sifatida qo'llanilmoqda. Fanda bu usul monetarizm (pulning miqdoriy nazariyasi) nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Bunda shuni qayd etib o'tish lozimki, klassik – dastlabki monetarizm asoschilari muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini asosan muomaladagi mavjud tovarlar qiymati va turli pulli to'lovlar yig'indisidan kelib chiqqan holda aniqlashga uringanlar.

Keyinchalik kapitalistik tovar ishlab chiqarish rivojlangani sari muomaladagi pul miqdorini belgilovchi yangi obyektiv omillar vujudga kela boshlagan. Ayniqsa, pul muomalasi banklar tomonidan tartibga solina boshlangandan so'ng pulga bo'lgan talab va taklif banklarning ssuda foizlari darajasiga ko'proq bog'lanib borishi kuzatilgan. Natijada, iqtisodchi olimlar tomonidan pulga bo'lgan talab va taklifni boshqarish bilan bog'liq yangi zamonaviy monetarizm vujudga kelgan.

Albatta, ushbu bobda naqd pul muomalasi uchun zarur pul miqdorini aniqlash bo'yicha olimlar tomonidan bugungi kungacha yaratilgan barcha nazariyalarni taxlil qilib chiqish mumkin emas. Lekin, Markaziy banklar tomonidan amalga oshirilayotgan zamonaviy naqd pul siyosatining negizini chuqurroq tushunish uchun ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Masalan, ingliz iqtisodchisi U. Petti (1623 – 1687) muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdori aholining bir haftalik pul daromadlari, yer ijarasi uchun to'lanadigan haqning yarmi va barcha eksport qilinadigan tovarlar summasining to'rtdan bir qismining yig'indisiga teng bo'lishi lozim deb hisoblagan.

Ingliz faylasufi J. Lokk (1632 – 1704) muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdorini ish haqining ellikdan bir qismi, yer ijara haqining to'rtdan bir qismi va yillik tovar aylanmasining yigirmadan bir qismlarining yig'indisi sifatida topishni taklif qilgan.

Ingliz iqtisodchisi R. Kantilon (1680 – 1734) muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdori mamlakatdagi mavjud mahsulotlar qiymatining to'qqizdan bir qismi yoki yer ijarasi uchun to'lanadigan haqning uchdan bir qismiga teng bo'lishi lozimligini e'tirof etadi.

Shotland iqtisodchisi A. Smitt (1723 – 1790) ushbu ko'rsatkichni aniqlash mumkin emas deb hisoblagan bo'lsa ham, lekin ko'pgina olimlar uni yillik umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining beshdan, o'ndan, yigirmadan va o'ttizdan bir qismiga teng bo'lishini ta'kidlaganlarini eslatib o'tadi.

Agar e'tibor berilgan bo'lsa yuqorida sanab o'tilgan nazariyalar klassik, ya'ni dastlabki monetarizmga taalluqli ekanligini sezish qiyin emas.

Zamonaviy monetarizm nazariyasining ilk namoyondalaridan bo'lgan ingliz iqtisodchisi A. Marshall (1842 – 1924) muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdori aholining qo'lida pul ushlab turish istagi va ulardan daromad ololmaslik xavfi bilan o'lchanishini o'rtaga tashlagan. Yoki A. Marshall fikricha, odamlar qo'lidagi ortiqcha naqd pullardan hech qanday naf ololmaslik hissi muomala uchun zarur bo'lgan naqd pul miqdorini belgilashda asosiy omil bo'lib hizmat qiladi.

Miqdoriy pul nazariyasining yorqin namoyondalaridan bo'lgan mashhur ingliz olimi J. Keyns (1883 – 1946) ilk bor muomala uchun zarur pul miqdorini bank foizlari darajasi bilan bog'liq ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Uning fikricha, bank foizlari stavkasi tushib ketsa, odamlar pullarini banklarda saqlashdan ko'ra o'z qo'llarida ushlab turishni maqul ko'radilar va muomalada pulga bo'lgan talab oshib boradi. Agar, bank foiz stavkasi ko'tarilsa, odamlar qo'lidagi pullarini daromad olish maqsadida banklarga qo'yishdan manfaatdor bo'ladilar va muomalada pulga bo'lgan talab pasayib ketadi. Ko'rinib turibdiki, J. Keynsning pulga bo'lgan talabni aniqlash ta'limoti uchun «foizlar nazariyasi» asos bo'lib xizmat qilgan.

Shundan kelib chiqqan holda J. Keyns, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori mamlakat milliy boyligining o'ndan bir qismidan tortib to ellikdan bir qismigacha bo'lgan oraliqda o'lchanishi mumkin deb hisoblagan. J. Keynsning bu fikrini inkor qilib bo'lmasada, lekin uning nazariyasiga ko'ra muomala uchun zarur bo'lgan naqd pulning aniq miqdorini aniqlash mumkin emas edi.

Shu sababli, naqd pul muomalasini samarali boshqarish usullarini qidirish bo'yicha ilmiy ishlar muntazam davom ettirilgan va iqtisodchi

olimlar tomonidan pul miqdorini aniq ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha bir qancha yangi nazariyalar yaratildi.

Bulardan diqqatga sazovorlisi, ikki amerikalik olim U. Baumol va J. Tobinlar tomonidan bir – biriga bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan «portfel tanlovi» nazariyasidir.

Ushbu nazariyaga asosan bitimlarni amalga oshirish uchun naqd pulga bo'lgan talab odamlarning kassa shaklida (qo'lida) saqlanadigan naqd pullar bo'yicha vujudga keladigan alternativ xarajatlarini (bank foizlari sifatida olinishi mumkin bo'lgan daromadlarini yo'qotilishi nazarda tutilmoqda) hisobga olgan holda aniqlanadi. Yoki, mualliflar yil davomida baholar barqaror va xarajatlar bir xil bo'lgan hollarda, odamlar rejalashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish uchun qancha naqd pullarni o'z qo'lida saqlab turishlari maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan va uni quyidagi formula orqali ifodalashgan:

$$N = \sqrt{iY}/2F$$

Bunda:

N – bankka tashriflar soni;

F – har bir tashrifning xarajatlari qiymati;

Y – qo'ldagi naqd pullar miqdori (aniq kassa qoldiqlari);

i – omonat bo'yicha to'lanadigan bank foiz stavkasi.

Bunga ko'ra, bankka tashriflar soni oshgan sari xarajatlar ko'payadi va odamlar qo'lidagi pul miqdori oshib boradi, ayni paytda, esa bankdan olinishi mumkin bo'lgan foizlar ko'rinishidagi daromadlar kamayib boradi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bizning respublikada ham boshqa barcha sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan mamlakatlar qatori muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori sobiq «SSSR Davlat banki» qo'llagan kassa rejasini tuzish usuli bilan aniqlanib keldi. Ma'lumki, mamuriy buyruqbozlik boshqarish usuliga asoslangan sotsialistik jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar va pulli hizmatlar narhi hamda unga asosiy qarama – qarshi ko'rsatkich bo'lgan ish haqi miqdori deyarli o'zgarmasdi. Bu esa, bank kassalaridan beriladigan va kelib tushadigan naqd pullar miqdorini aniq belgilash imkonini berardi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari to'la shakllanib ulgurmagan sharoitda bizning respublikada ham kassa aylanmalarini homcho't qilish

orqali naqd pul muomalasini tartibga solish usulidan foydalanildi. Tijorat banklari kassa aylanmalarini xomcho'ti faqat choraklik davrlar uchun qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki naqd pulga bo'lgan talab va taklifni o'rganish maqsadida statistika organlaridan olingan ma'lumotlarga asosan quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

• xalq iste'mol mollarining umumiy hajmi, turlari bo'yicha ishlab chiqarilishi, chiqarilayotgan mahsulotlar aholi talablariga mos bo'lishi borasida doimiy monitoring olib boradi, tayyor sanoat mahsulotlarining qoldig'ini, savdoning ahvoli va tovar zaxiralarining holatini, chakana savdo tarmog'idagi tovar zaxiralari tarkibini tovar aylanmasining mo'ljaldagi hajmining bajarilishini tahlil qiladi;

• aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji qanday qondirilayotganini o'rganadilar hamda ana shu o'rganish natijalaridan aholining to'lovga qobil talabini qondirishni yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

• pul muomalasining holatini hamda uning tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida tegishli idoralar bilan birgalikda pul muomalasini barqarorlashtirish, tashkilotlarning naqd pulga bo'lgan ehtiyojlarini uzluksiz qondirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqib, joylardagi davlat boshqaruv organlari muhokamasiga qo'yadilar.

Bundan tashqari, Markaziy Bank Hududiy Bosh Boshqarmalari:

1. Tegishli hududda pul muomalasini tashkil etadilar va amalga oshiradilar;

• pul muomalasining ahvolini, naqd pul emissiyasining hududiy taqsimlanishini o'rganadilar, banklarning kassa aylanmasini tahlil qiladilar, pul muomalasining holatini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni jamlaydilar va tartibga soladilar;

• kassa resurslarini tartibga soladilar, tashkilotlarning naqd puldagi hisob-kitoblarini o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash choralarini ko'radilar;

• banklarning pul muomalasi sohasidagi ishlarini tahlil qiladilar va o'rganadilar.

2. Shu bilan birgalikda, naqd pulga bo'lgan talabni qisqartirish maqsadida tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishga qaratilgan choralar ko'radi.

Ushbu tadbirlar, albatta, naqd pulga bo'lgan mutlaq talabni aniqlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Lekin, amaliy jihatdan pulga,

xususan naqd pulga bo'lgan talab xo'jalik subyektlari va aholining naqd pulga bo'lgan aniq ehtiyojlarini hisob-kitob qilish orqali belgilanadi. Barcha naqd pul oqimlari harakati bank kassalaridan boshlanib yana bank kassalariga qaytish bilan yakunlanadi. Bu esa, bank kassalari orqali o'tadigan pul oqimlarini o'rganish natijasida yaqin kelajakdagi naqd pulga bo'lgan talabni aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Lekin, bozor munosabatlari shakllanib borgan sari eski usul bilan naqd pul muomalasini boshqarish o'z samarasini yo'qotib bormoqda. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar bahosi va ish haqi miqdorining o'zgarib turishi sababli zarur naqd pul miqdorini aniq belgilash mumkin emas edi.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-fevraldagi «Pul – kredit ko'rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 63-sonli qaroriga asosan jami pul massasi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish maqsadida pul agregatlarining zamonaviy usullarini amaliyotga joriy qilina boshlandi.

4.6. Pul massasi va pul agregatlari

Pul massasi – muomaladagi naqd pullar va naqd pulsiz oborotdagi pullarning yig'indisidir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning pul oborotida faqat banknota va tanga ko'rinishda emas, balki kredit, chek va elektron yozuvlar ko'rinishida ishtirok etayapti. Shuning uchun iqtisodchilar ushbu pullarni pul massasi deb yuritishadi. Pul massasi mamlakatda muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, uning hajmi jami ijtimoiy mahsulotning hajmi bilan muvozanatda (pulning aylanish tezligini inobatga olgan holda) bo'lishi zarur.

Pul massasining miqdori va uning tarkibi Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi. Markaziy bank pul – kredit instrumentlari orqali mamlakatda pul massasini oqilona me'yorini ta'minlaydi.

Pul massasi tarkibi asosan ikkita komponentdan tashkil topadi.

Muomaladagi naqd pullar – pul massasining yuqori likvidli mablag'lari hisoblanib, istalgan paytda to'lov vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu agregat muomaladagi banknot va tangalarni o'z tarkibiga oladi.

Naqd pulsiz mablag'lar – mulkiy shaklidan qat'iy nazar barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit muassasalarida hisobraqamlardagi, shuningdek, plastik kartochkalar va hisob-kitob cheki ko'rinishidagi mablag'lardan iborat.

Muomaladagi likvidlik darajasi past hisoblangan pullar *kvazipullar* deb yuritiladi. Ushbu pullarning tarkibiga nisbatan past likvidli va to'lov vositasi sifatida ishlatilmaydigan qimmatli qog'ozlar kiradi.

Pul massasi darajasini hisoblashning asosiy tamoyillaridan biri mablag'larni likvidlilik darajasi hisoblanadi. Muomaladagi pulning turlari pul agregatlari bilan guruhlarga ajratiladi. Unga ko'ra muomaladagi mablag'lar likvidlilik bo'yicha tasniflanadi, ya'ni dastlab yuqori likvidli mablag'lar past likvidligiga qarab M1, M2, M3,....Mn yoki L agregatlarga ajratiladi. Pul agregatlari tarkibi va soni turli mamlakatlarda turlichadir.

AQSHda naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradigan pullar livid1ilik darajasiga qarab quyidagi pul agregatlari bilan belgilanadi:

M1 = naqd pullar (banknotlar va tangalar), talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlar, pul cheklari, boshqa chek depozitlari;

M2 = *M1* + chek bo'lmagan jamg'arma depozitlar, muddatli jamg'armalar (100 ming dollargacha);

M3 = *M2* + 100 dollardan yuqori muddatli jamg'armalar, jamg'arma sertifikatlar va boshqalar;

L = *M3* + xazina jamg'arma obligatsiyalari, davlatning qisqa muddatli majburiyatlari, tijorat qimmatli qog'ozlar va boshqalar.

Pul massasi tarkibida naqd pullar ulushining past yoki yuqoriligi muhim o'rin tutadi. MDHga a'zo mamlakatlarning pul massasi tarkibida naqd pullarning ulushi sezilari darajada yuqori. Masalan, Rossiyada ushbu ko'rsatkich 2002-yilda 36,6 foizni tashkil etgan. Odatda, rivojlangan mamlakatlarning pul massasi tarkibida naqd pullarning ulushi 5 – 10 foizni tashkil etadi.

Pul massasining o'zgarishiga nafaqat muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi, balki pul aylanish tezligi ham ta'sir qiladi. *Pul aylanish*

muomalasi tezligi – pulning tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda qatnashish sur'atidir.

O'zbekistonda pul agregatlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat[25].

M1 = naqd pullar;
M2 = M0 + schyotlardagi pul qoldig'i + mahalliy budjet mablag'lari – budjet, jamoa va boshqa tashkilotlar mablag'lari;
M3 = M1 + tijorat banklaridagi muddatli jamg'armalar;
M4 = M2 + sertifikatlar + maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Pul muomalasi qonuniga ko'ra, pul muomalasi tezligi pul massasining o'sishiga nisbatan proporsional ravishda ortib boradi. Iqtisodiyotning pul vositalari bilan ta'minlanganligi darajasini aniqlashda monetizatsiya koeffitsiyenti ko'rsatkichidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkich ma'lum davr ichida o'rtacha pul massasi darajasini jami ijtimoiy mahsulotning nominal qiymati o'rtasidagi nisbati asosida aniqlanadi.

Bobga oid savollar

1. Pul muomalasi deganda nimani tushunasiz?
2. Pul aylanmasi deganda nimani tushunasiz?
3. Pul aylanmasi qanday qismlarga ajratiladi?
4. Naqd pul aylanmasi va naqdsiz pul aylanmalarining o'ziga xos jihatlari nimada?
5. Naqd pul muomalasi tushunchasi.
6. Naqd pullar doiraviy aylanmasidagi harakat bosqichlari.
7. Naqd pul zaruriyati.
8. Markaziy bankning naqd pul muomalasini tashkil etishdagi asosiy vazifalari.
9. Pul emissiyasi va uni amalga oshirish tartibi.
10. Muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdori.
11. Pul bazasining mohiyati.
12. Pul agregatlarining mohiyati.

[25] Абдуллаева Ш. Пул, кредит ва банклар. «Иқтисод – Молия» нашриёти, 2007. 66 – бет.

Bobga oid testlar

1. Naqd pul muomasidagi pul harakatining nechta oqimi mavjud?

A. 2 ta.

B. 3 ta.

V. 4 ta.

G. 5 ta.

2. Naqd pulning doiraviy aylanishi deb nimaga aytaladi?

A. Naqd pullarning tijorat bankidan chiqib yana tijorat bankiga qaytib kelish harakati ularning doiraviy aylanmasi deyiladi.

B. Naqd pullarning banklar orqali aholi va mijozlar qo'liga kelib tushishi natijasida savdo nuqtalariga o'tishiga pulning doiraviy aylanishi deyiladi.

V. Naqd pullarni Markaziy bankdan chiqib tijorat banklariga qaytib kelishiga pulning doiraviy aylanishi deyiladi.

G. Naqd pullarni Markaziy bankdan chiqib yana Markaziy bankka qaytib kelishiga pulning doiraviy aylanishi deyiladi.

3.Muomalaga pullarni emissiya qilish qanday bank zimmasiga yuklatilgan?

A.Tijorat banki.

B.Moliya vazirligi.

V.Xalq banki.

G.Markaziy bank.

4.Muomaladan ortiqcha pullarni qaytarib olishni qanday bank amalga oshiradi?

A.Tijorat banki.

B.Moliya vazirligi.

V.Xalq banki.

G.Markaziy bank.

5. Naqd pullarni muomalada mavjudligiga qanday omillar xizmat qiladi?

A. Naqd pulsiz hisob-kitoblar darajasining pastligi omili.

B. Aholi o'rtasida kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlarning mavjudligi omili.

V. Banklar va aholi o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirishda qulayliligi omili

G. Iqtisodiyotda pul massasi hajmining yuqoriligi omili

6. Naqd pullar:

A. Likvidligi past to'lov vositasi hisoblanadi.

B. Yuqori likvidlik qoibiliyatiga ega hisoblanadi.

V. Yuqori darajada daromad keltiradigan aktivlar hisoblanadi.

G. Xarajatsiz va xavfsiz darajasi yuqori mablag'lar hisoblanadi.

7. Naqd pullar bo'yicha talablarni bajarishning asosiy majburiyati:

A. Hukumat zimmasiga yuklatilgan.

B. Markaziy bank zimmasiga yukaltilgan.

V. Tijorat banklari zimmasiga yuklatilgan.

G. Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

8. Naqd pul muomalasining asosiy vazifasi nimadan iborat?

A. Banklar va aholi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ta'minlashdan iborat.

B. Muomalaga chiqarilishi yoki olinishi lozim bo'lgan naqd pul miqdorini aniqlashdan iborat.

V. Muomaladagi naqdsiz pullar hajmini oshirish.

G. Muomaladagi yaroqsiz pullarni qaytarib olish.

9. Pul massasi bu:

A. Muomaladagi naqd pullar yig'indisi.

B. Muomaladagi naqdsiz pullar yig'indisi.

V. Muomaladagi naqd va naqd pulsiz oborotidagi pullarning yig'indisi.

G. Muomaladagi tanga pullarning yig'indisi.

10. O'zbekistonda qanday pul agregatlari amal qiladi?

A. M0, M1, M2, M3, M4.

B. M0, M1, M2, M3.

V. M1, M2, M3, M4.

G. M0, M1, M2.

5 – bob. PUL TIZIMI

5.1. Pul tizimining mohiyati va elementlari

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi, xalqaro va mahalliy valuta bozorlarining vujudga kelishi, shuningdek, davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi davlat tomonidan pul muomalasini tartibga solishning zaruriyatini keltirib chiqardi.

Davlat tomonidan pul muomalasini amalga oshirish tartibini belgilashda mamlakat tarixi, siyosiy holati, milliy an'analari hamda uning iqtisodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul tizimi – bu mamlakatda pul muomalasini amalga oshirishning shakli bo'lib, uning asosini milliy valuta tashkil etadi va milliy valuta orqali tartibga solinadi.

Pul tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Pul tizimini tashkil etish tamoyillari.
2. Pul birligi.
3. Baho masshtabi.
4. Pulning turlari.
5. Pul birliklari va belgilarini emissiya qilish tartibi va ularning ta'minlanganlik asoslari.
6. Pul muomalasini tartibga solishning usullari.
7. Mamlakatda pul oborotining tarkibi va uni tashkil etish.

Pul tizimini tashkil etish tamoyillari –pul tizimini tashkil etishning asosiy elementlaridan hisoblandi. Pul tizimini tashkil etishda davlat tomonidan pul tizimini tashkil etishning tartib va qoidalari nazarda tutiladi. Ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan barcha mamlakatda muomalaga pul belgilarini emissiya qilish, bank tizimining tarkibi bir – biriga o'xshasada har bir mamlakatda pul – kredit va moliya siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos tamoyillari mavjud. Ushbu tamoyillarning asosiylari quyida keltirilgan.

Pul tizimini markazdan boshqarishi tamoyili. Pul tizimini boshqarishning ushbu tamoyili mamlakatni mamuriy – taqsimlash

modeliga xos bo'lib, bu jarayonda barcha pul munosabatlari tegishli ko'rsatma va reja asosida amalga oshiriladi. Mamlakatda faoliyat yuritadigan barcha banklar va ularning filiallari davlat ixtiyorida va nazorati ostida faoliyat yuritadi. Muomalada pul massasini tartibga solish tegishli reja va derektiv ko'rsatmalar orqali bajariladi.

Pul tizimini talab va taklif asosida tartibga solish tamoyili. Pul tizimini tashkil etishning ushbu tamoyilida asosiy e'tibor milliy valutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamligi va inflatsiya darajasining normal me'yoriga qaratiladi. Mamlakat Markaziy banki mustaqil ravishda pul – kredit siyosatini amalga oshiradi, kredit muassasalari Markaziy bank tomonidan belgilangan tegishli iqtisodiy normativlarga rioya etgan holda o'zining faoliyatini tashkil etadi.

Pul birligi. Pul birligi va uning nomi hukumatning tegishli qonun va me'yoriy hujjatlari asosida belgilanadi. Qonun va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida belgilab qo'yilgan pul belgilari mamlakatda yagona to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Mamlakat iqtisodiyotida muomalada bo'lgan pul birligi o'zining nomiga ega bo'ladi. Milliy valutaning nomi barcha mamlakatlarda turlicha nomda yuritiladi. Masalan, AQSHda dollar, Buyuk Britaniyada funt sterling, Xitoyda yuan va boshqalar (quyidagi jadvalda jahon mamlakatlarining pul birliklarining nomlari keltirilgan).

Jahon mamlakatlari milliy pul birligining nomlari

Mamlakat	Milliy puli	Mamlakat	Milliy puli	Mamlakat	Milliy puli
Avstraliya	*dollar*	Kanada	*dollar*	Ruminiya	*leu*
AQSH	*dollar*	Qatar	*riyal*	Salvador	*colon*
Albaniya	*lek*	Keniya	*shilling*	Samoa	*tala*
Aljir	*dinar*	Kipr	*pound*	Saudiya Arabiston	*riyal*
Angola	*kwanza*	Qirg'iziston	*som*	Senegal	*frank*
Argentina	*peso*	Qozog'iston	*tenge*	Singapur	*dollar*
Armaniston	*dram*	Kongo	*frank*	Slovaniya	*koruna*
Afg'onistan	*afghani*	Koreya	*won*	Sudan	*pound*
B.A.A	*dirham*	Kosta Rika	*colon*	Suriya	*pound*
Bangladesh	*taka*	Quvayt	*dinar*	Serra – Leon	*leone*
Baxrayn	*dnar*	Latviya	*lats*	Tojikiston	*somoni*

Belarussiya	*rubel*	Leviya	*Omani*	Tanzaniya	*shilling*
Bolgariya	*lev*	Litva	*litas*	Togo	*frank*
Boliviya	*bolivian o*	Mavritaniya	*ouguiya*	Trinidad va Tobago	*dollar*
Bosnya va Gersogavena	*marka*	Makao	*pataca*	Turkiya	*lira*
Botsvana	*pula*	Makedoniya	*denar*	Uganda	*shilling*
Braziliya	*real*	Malayziya	*ringgit*	Ukraina	*hryvnia*
Burundi	*frank*	Mali	*frank*	Urugvay	*peso*
Buyuk Britaniya	*sterling*	Marokko	*dirham*	Filippin	*peso*
Vengriya	*forint*	Meksika	*peso*	Hindiston	*rupee*
Venesuela	*bolivar*	Misr	*pound*	Xitoy	*yuan*
Vetnam	*dong*	Mozambik	*metical*	Chad	*frank*
Gvatemala	*quetzal*	Moldoviya	*lev*	Chexiya	*koruna*
Gong Kong	*dollar*	Mongoliya	*togrog*	Chili	*Peso*
Grenada	*dollar*	Namibiya	*dollar*	Shvetsariya	*frank*
Gruziya	*lari*	Nigeriya	*frank*	Shvetsiya	*krone*
Daniya	*krone*	Niderlandiya	*guilder*	Shimoliy Afrika	*rand*
Dominika	*peso*	Nikaragua	*cordoba*	Shri Lanka	*rupee*
Yevropa Ittifoqi	*yevro*	Norvegiya	*krone*	Ekvador	*sucre*
Jordan	*dinar*	Ozarbayjon	*manat*	Eron	*rial*
Zambiya	*kwacha*	Paragvay	*guarani*	Estoniya	*kroon*
Zimbabe	*dollar*	Pokiston	*rupee*	Efiopiya	*birr*
Indoneziya	*rupiah*	Polsha	*zloty*	Yamayka	*dollar*
Iroq	*dinar*	Panama	*balboa*	Yaman	*rial*
Isroil	*sheqel*	Rossiya	*ruble*	Yangi Zellandiya	*dollar*
Kamerun	*frank*	Ruanda	*frank*	Yaponiya	*yen*

Baho masshtabi – bu qiymatni pul birligida aks ettirish vositasidir, pulning o'ziga xos bo'lgan texnik funksiyasi ham hisoblanadi. Muomalada oltin va kumush tangalar pul vazifasini bajargan paytda baho masshtabi, ya'ni milliy valutaning bahosi bevosita oltin va kumush tangalar orqali aniqlangan. Ya'ni, qog'oz pullar ma'lum miqdorda oltin va kumush tangalar bilan ta'minlangan. 1971 – 1973-yillarda rasmiy ravishda oltinning pul vositasi vazifasini bajarishi va qog'oz pullarning oltin bilan ta'minlanganligi bekor qilindi. Natijada, milliy valutaning baho masshtabi tovarlar va xizmatlar hamda xorijiy valutalarga nisbatan

talab va taklif asosida aniqlanadigan bo'ldi, ko'pchilik mamlakatlar milliy valutaning qiymatini aniqlashda dunyoning yetakchi valutalari hisoblangan AQSH dollari, yevro, yuan kabi valutalarni asos qilib oladi.

Pulning turlari – malakatdagi qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi. Hozirgi paytda hech qanday mamlakatda metall pul tizimi amal qilmaydi. Pulning asosiy turlari sifatida kredit biletlari (banknota), shuningdek, davlatning xazina biletlari va tangalar to'lov vositasini bajaradi.

Banknota (bank biletlari) – bu qonuniy to'lov vositalari hisoblanib, mamlakat Markaziy banki tomonidan muomalaga chiqariladi va tartibga solinadi.

Xazina biletlari – qog'oz pul bo'lib, mamlakat Moliya vazirligi tomonidan davlat budjeti taqchilligi va qo'shimcha xarajatlarni qoplash maqsadida muomalaga chiqariladi. Banknotalardan farqi shundaki, ushbu pullar hech qanday qimmatbaho metall bilan ta'minlanmagan bo'lib, oltin va kumushga almashtirish mumkin bo'lmagan. Xazina biletlari pul tizimining dastlabki davrlarida joriy etilgan bo'lib, mamlakat Moliya vazirligi Markaziy bank bilan bir qatorda pul chiqarish huquqini o'zida saqlab qolgan. Hozirgi paytda, barcha mamlakatlarda milliy valuta va pul muomalasi barqarorligiga to'liq Markaziy bank mas'ul ekanligi tufayli hech qanday mamlakatda Moliya vazirligi xazina biletlarini muomalaga chiqarmaydi. Agar budjet taqchilligini qoplash uchun mablag' zarur bo'lsa ushbu mablag'ni Markaziy bankdan kredit sifatida oladi.

Tanga – metall quymadan, mamlakatning qonuniy to'lov vositasi sifatida turli qiymatlarda muomalaga chiqariladi. Iqtisodiy adabiyotlarda tangalar «maydalovchi pul» tarzida ham talqin etiladi, buning boisi shundaki, tangalar kichik qiymatda muomalaga chiqarilib, savdo – sotiq ishlarida qaytimlarni berishda qo'llaniladi. Albatta, buning uchun mamlakat milliy valutasi barqaror va sotib olish qobiliyati yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq.

Pul birliklari va belgilarini emissiya qilish tartibi va ularning ta'minlanganlik asoslari. Har bir mamlakat o'zining milliy valutasini emissiya qilish tartibi va qoidalarini mustaqil ravishda amalga oshiradi. Mamlakatda milliy valutani emissiya qilish, muomalaga pullarni chiqarish va muomaladan qaytarib olish tartibini Markaziy bank amalga oshiradi. Muomaladagi pul birliklari Markaziy bankning barcha aktivlari va mamlakatdagi moddiy tovar qimmatliklar bilan ta'minlanadi.

Pul muomalasini tartibga solishning usullari. Mamlakatda pul muomalasini tartibga solishning asosiy maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu vazifani Markaziy bank amalga oshiradi. Markaziy bank pul muomalasini tartibga solishning asosiy instrumentlari sifatida majburiy zaxiralar siyosati, qayta moliyalash siyosati, ochiq bozordagi operatsiyalari, depozit siyosati va valuta siyosatini amalga oshiradi. Markaziy bank ushbu instrumentlar orqali tovar massasi va pul massasi o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni tartibga soladi. Bundan asosiy maqsad mamlakat milliy valutasining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Mamlakatda pul oborotining tarkibi va uni tashkil etish. Pul oboroti o'z tarkibiga naqd pulli va naqd pulsiz hisob-kitoblarni oladi. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan pul oborotining asosiy qismi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushiga to'g'ri keladi. Pul oborotining tarkibi, tartibi va nazorati Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir mamlakatda pul tizimining tarkibi, amal qilish usullari va tartibi davlatning tegishli qonunlari asosida o'rnatiladi.

Pul tizimining mustahkamligi va uning barqarorligiga turli omillar ta'sir qiladi:

a) *mamlakat Markaziy bankining pul – kredit siyosatini amalga oshirishdagi mustaqilligi.* Ko'pchilik hollarda Markaziy bank pul – kredit siyosatini amalga oshirishga hukumatning aralashuvi va tazyiqi natijasida milliy valutaning sotib olish qobiliyati zaiflashadi, mamlakat bank tizimiga aholining ishonchi pasayib ketadi. Buning natijasida pul tizimi nobaraqaror bo'lib, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul – kredit siyosati o'zining tegishli samarasini bermaydi;

b) *xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi.* Mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustahkamligi va ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligi pul tizimining braqarorligini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi. Chunki bozor munosabatlarining chuqurlashuvi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani rivojlanishiga va iqtisodiyotning globallashuviga olib keladi. Ushbu sharoitda olib borilayotgan makro va mikroiqtisodiy siyosat tegishli samarani bermasa, mamlakatda importining hajmi eksportga nisbatan ortib ketishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida, pul tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, pul tizimi va uning elementlarini rivojlanish, shuningdek, samarali tashkil etilishiga qator omillar ta'sir qiladi. Bulardan asosiylari sifatida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlanganligi hisoblanadi.

5.2. Pul tizimining turlari

Kishilik jamiyatining vujudga kelishi, rivojlanishi va takomillashuvi barobarida tovar-pul munosabatlari ham shunga monand holda rivojlanib va takomillashib kelmoqda. Shuningdek, pul tizimi ham mavjud ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar davomida ikki turdan iborat bo'ldi. Xususan:

– metall pullar tizimi, bunda tovar-pul (qimmatbaho metall) muomala vositasini bajaradi, metall pullar to'lov vositasini bajarganda ularda pulning barcha funksiyalari namoyon bo'ladi;

– qog'oz – kredit pullar tizimi, oltin va kumush tanga pullar evolyutsion tarzda qog'oz – kredit pullari tomonidan muomaladan siqib chiqarildi.

Metall pullar tizimi sharoitida metall qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, to'lov vositasi sifatida qabul qilindi. Metall pullar tizimi ikkiga bo'linib, birinchisi, ***bimetallizm***, ikkinchisi, ***monometallizm*** sifatida guruhlanadi.

Bimetallizm – bu pul tizimida davlat qonuniy jihatdan to'lov vositasi ikkita metallni (odatda oltin va kumush) chegaralanmagan miqdorda erkin zarb qilishga ruxsat beradi.

O'z navbatida bimetallizm tizimi uchta shaklda amal qildi:

– birinchidan, parallel valuta tizimi, ushbu metall pullar o'rtasidagi munosabat ularning bozor bahosidan kelib chiqqan holda stixiyali ravishda o'rnatildi;

– ikkinchidan, ikkiyoqlamali valuta tizimi, metall pullar o'rtasidagi munosabat davlat tomonidan belgilandi va shuning asosida oltin va kumush tangalar zarb qilindi;

– uchinchidan, «oqsoq» valuta tizimi – ushbu tizimda oltin va kumush tangalar qonuniy to'lov vositasi sifatida xizmat qildi, lekin kumush tangalar yopiq holda, oltin tangalar esa erkin zarb etildi. «Oqsoq» valuta tizimi deyilishiga sabab kumush tangalar ushbu davrda to'laqonli valuta sifatida umum ekvivalent rolini amalga oshirmaydi.

Muomalada ikkita metall pulning vazifasini bajargan paytda ular o'rtasida bahoni aniqlashda muammolar va ziddiyatli holatlar vujudga keldi. Shu bilan birga, pul tizimining bimetallizm shakli beqaror va bir – biriga o'zaro qarama – qarshi edi. Shuningdek, rivojlangan tovar – pul munosabatlari sharoiti talablariga yetarli darajada javob bermas edi.

Pul tizimining bimetallizm shakli hukm surgan davri asosan XVI – XVII asrlarga to'g'ri keladi. Yevropa mamlakatlarida 1866-yillarda bimetallizm pul tizimini saqlab qolish maqsadida kumushning qiymatini oltinga nisbati rasmiy belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, o'sha paytda kumush va oltin o'rtasida munosabat 15,5:1 nisbatda o'rnatildi. XIX asrning o'rtalarida ushbu tenglik o'rtasida farq kengayib 22:1 tartibda belgilandi. Buning natijasida oltin va kumush tangalar muomaladan chiqib, boylik jamg'armasini bajara boshladi.

Jamiyatda tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi va ijtimoiy – iqtisodiy yagona umumekvivalent vazifasini bitta metall pul bajarish zarurligini ko'rsatdi. Buning natijasida monometallizm pul tizimi shakllandi.

Monometallizm pul tizimi sharoitida – bitta qimmatbaho metall (oltin va kumush, asosan oltin) umum ekvivalent vazifasini bajardi. Shu bilan birga, pul tizimining monometallizm davrida muomalaga oltin tangalarga maydalanadigan boshqa pul belgilari (xazina biletlari, banknotlar va mayda monetalar) ham kirib kela boshladi.

Xalqaro valuta – kredit munosabatlarini amalga oshirishda XIX asrda to'liq va XX asrning boshlarigacha muomalada oltin asosiy rol o'ynadi. Oltin standartining rivojlangan davri 1880 – 1914-yillarga to'g'ri keladi.

Monometallizm o'z navbatida ***oltin tanga, oltin quyma va oltin deviz standartini*** o'z ichiga olar edi.

Oltin tanga standarti tovarlarning bahosi oltinda ifodalanadi, mamlakat bozorlarida oltin to'lov vositasini bajaradi va erkin ravishda zarb etiladi. Oltin pulning barcha funksiyalarini bajaradi. Oltin tanga standarti sharoitida pul tizimi talab va taklif asosida tartibga solinib, muomaladan ortiqcha bo'lgan oltin tangalar «avtomatik ravishda» jamg'armaga yo'naltirildi, muomalada qo'shimcha to'lov vositasiga ehtiyoj tug'ilganda ular jamg'armadan muomalaga qaytariladi. Oltin tanga standarti sharoitida mamlakatda pul tizimini tashkil etish sillig va samarali tarzda amalga oshirildi, biroq kishilarning tovar moddiy qiymatlarga bo'lgan talabining hajmi iqtisodiyotdagi mavjud oltin

zaxiralari hajmidan sezilarli darajada ortib bordi, shuningdek, oltin tanga standarti sharoitida Markaziy banklarda ma'lum darajadagi oltin zaxiralarini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Oltin tanga standartining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

– oltin tangalarni qat'iy o'rnatilgan qiymatlarda erkin ravishda zarb etish;

– o'zining qiymatini oltinda ifoda etadigan pullarni maydalash;

– oltinning mamlakatlar o'rtasida erkin ayirboshlanuvi;

– oltin pulning barcha funksiyalarini bajarishi.

Birinchi jahon urushi juda katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi, buning natijasida hukumat budjet taqchilligini qoplash maqsadida muomalaga qog'oz pullarni emissiya qildi. Bu o'z navbatida birinchi jahon urushida ishtirok etgan barcha mamlakatlarda (AQSHdan tashqari) oltinni qog'oz pullarga almashtirish va xorijga olib chiqib ketish qonunan taqiqilab qo'yildi. Birinchi jahon urushidan keyin, birorta mamlakat oltin tanga standartiga qaytish imkoniyatini qila olmadi. 1920-yillarda qator mamlakatlarda *oltin quyma* standarti joriy etildi.

Oltin quyma standarti sharoitida banknotalar davlat tomonidan o'rnatilgan summada oltin quymalarga ayirboshlanadi, oltin quyma standarti sharoitida muomalada oltin tangalarning to'lov vositasi sifatida harakati va erkin zarb qilinishi amal qilmaydi.

Oltin quyma standartlari asosan oltin zaxiralariga boy bo'lgan AQSH, Angliya, Fransiya va Yaponiyada hukm surdi. Unga ko'ra muomalaga oltin tangalarning erkin zarb qilinishi barham topib, pullarni oltinga almashtirish qo'yilmalarning qiymati asosida chegaralanib qo'yildi. Masalan, Buyuk Britaniyada bir oltin qo'yilmasi 12,4 kg.ga to'g'ri kelar edi. Ushbu qo'yilmani olish uchun 1700 funt sterling zarur edi. Fransiyada bir qo'yilma 12,7 kg bo'lib, ushbu qo'yilma 215 ming franka baholanar edi.

Katta miqdorda oltin zaxiralariga ega bo'lmagan mamlakatlarda (Avstraliya, Germaniya, Daniya, Norvegiya va boshqalar) *oltin deviz standarti* amal qilar edi. Oltin deviz standarti joriy etilgan mamlakatlarda milliy valutalar devizlarga, ya'ni oltinga erkin almashadigan chet el valutalariga ayirboshlanishi joriy etildi. Buning natijasida bir mamlakatning ikkinchi mamlakatga valutaviy bog'liqligi vujudga keldi.

1929 – 1933-yillarda yuz bergan butun jahon iqtisodiy inqirozi natijasida oltin monometallizmining barcha shakllari amal qilish faoliyatini to'xtatdi. AQSH dollarining oltinga nisbatan pariteti saqqlanib qoldi. 1930-yillardan boshlab xalqaro va mahalliy hisob-kitoblarda qog'oz – kredit pul tizimi faoliyat yurita boshladi.

Ushbu tizimning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

– oltinning umumekvivalent sifatida muomaladagi harakati to'xtatildi, bankotlarning oltinga ayirboshlanishi va maydalanishi barham topdi, oltin ichki va tashqi oborotdan chiqib zaxira sifatida saqlanadigan bo'ldi;

– banklarning kredit operatsiyalari asosida muomalaga naqd va naqdsiz pul belgilari chiqarildi;

– pul oborotining asosiy ulushini naqd pulsiz hisob-kitoblar egallay boshladi;

– davlat tomonidan pul muomalasini tartibga solish kuchaytirildi, iqtisodiyotda pul muomalasini tartibga solishning instrumentlari ishlab chiqildi.

Qog'oz – kredit pullar tizimi. Qog'oz – kredit pullar tizimining evolyutsion rivojlanishi, iqtisodiyotning globallashuvi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sharoitida pul oborotini vaqtdan va moliyaviy jihatdan yanada tejamliroq bo'lishini, shuningdek, uni samaraliroq ishlashini ta'minlamoqda. Agar dastlabki qog'oz pullar taxminan X asrning oxiri XI asrning boshlarida muomalaga chiqarila boshlangan bo'lsa, 1930-yillarning oxiriga kelib ular qatorida kredit pullari to'lov hisob-kitob va pul aylanmalarini amalga oshirishda ishtirok eta boshladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda pul – kredit siyosatini amalga oshirish va pul muomalasini tashkil etishga ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Iqtisodiyotning rivojlangan hozirgi davrida pulning asosiy turlari banklarning kredit biletlari (banknotlar), tangalar, pul cheklari, elektron–plastik kartochkalar, hisob raqamlarda yozuvda aks ettirilgan pullar hisoblanadi.

Muomalaga pullarni emissiya qilish Markaziy bankka yuklatilgan. Markaziy bank «banklarning banki» sifatida kredit resurslarini shakllantirish va ushbu resurslarni naqd va naqd pulsiz ko'rinishida muomalaga chiqarishi mumkin. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar uning majburiyati bo'lib, tijorat banklari ushbu

pullarni muomalada aylanishini ta'minlaydi. Tijorat banklari qog'oz – kredit pullarni Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lari doirasida ishlatishi mumkin.

5.3. O'zbekiston pul tizimining tashkil topishi va rivojlanishi

O'zbekistonda pul tizimining tashkil topishi milliy valuta so'mning muomalaga joriy etilishi bilan bog'liq. So'mning muomalaga kiritilishi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda muhim ijtimoiy – iqtisodiy rol o'ynadi.

Milliy valuta so'm muomalaga joriy etilgan davrlarni asos qilgan holda mamlakatimiz pul tizimini vujudga kelishini shartli ravishda uchta bosqichga guruhlash orqali o'rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichi. Pul tizimining birinchi bosqichi 1991-yil sentabrdan 1993-yil noyabr oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda O'zbekiston pul tizimi Rossiya pul tizimiga bevosita bog'liq edi. Chunki bu davrda mamlakatimiz milliy valutasi muomalaga kiritilmagan, barcha hisob-kitoblar sobiq Ittifoq va Rossiya rubli bilan amalga oshirildi. Bu davrda pul – kredit tizimi o'z boshidan murakkab va og'ir davrni kechirdi.

«Mustaqillikning birinchi yillarida O'zbekiston hukumati siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish paytida ikki o'zaro ziddiyatli, biri ikkinchisini inkor qiladigan holatga duch kelib qoldi: bir tomondan siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan – yagona rubl, demak, iqtisodiy qaram zonada turganlik holati edi. Bu holat nafaqat O'zbekiston, balki sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari uchun o'ziga xos xususiyat edi»[26].

Buning natijasida mamlakatimiz pul tizimini tashkil topishining birinchi bosqichida quyidagi muammolar mavjud edi:

– banklar orqali mijozlar va aholini naqd pul bilan ta'minlashdagi muammolar. Dastlab Rossiya Davlat banki «rubl zonasida»gi mamlakatlarga berayotgan har bir rublini 25 foizi miqdorida to'lov belgilagan, ya'ni o'zi bergan 100 rublning 25 rublini qaytarib olib qolish sharti bilan mablag' bergan bo'lsa, asta-sekin bu to'lov miqdori oshib bordi. Rossiyada tovarlarga, jumladan, oziq – ovqat mollari va paxtaga ehtiyojning kuchayganligi sababli o'zidan olib kelayotgan mablag'ni

[26] Муллажонов Ф.М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими. –Т.: «Ўзбекистон» 2001. 33 – бет.

100 foiz tovar bilan ta'minlash shartini qo'ydi. Ya'ni O'zbekiston o'zi olib ketayogan qadrsizlangan qog'oz pullar o'rniga jahon bozorida qiymati oltin bilan o'lchanadigan paxta tolasi berishga majbur bo'layotgan edi[27];

– sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning uzilishi bilan bog'liq, shuningdek, hisob-kitoblarni amalga oshirishda vujudga kelgan muammmolar. Sobiq Ittifoq barham topgan bo'lsada, uning tarkibiga kirgan respublikalar o'rtasidagi mavjud iqtisodiy aloqalarni birdan to'xtatib qo'yishning imkoniyati mavjud emas edi. Bu, o'z navbatida, pul mablag'lari bilan bog'liq hisob-kitoblarni tashkil etishni talab etardi. Biroq sobiq Ittifoq davrida amal qilgan rubllarning keskin qadrsizlanishi, shu bilan birga, o'zaro hisob-kitob ishlarining izdan chiqishi ushbu ishlarni amalga oshirishni qiyinlashtirib yubordi. Shu bois ham, 1993-yil may oyidan mamlakatimiz Markaziy banki milliy valutasini joriy etgan MDH mamlakatlari va O'zbekiston o'rtasidagi tuzilgan bitimlarni qayta ko'rib chiqib, tijorat banklariga Markaziy bank vakillik hisobvarag'ini chetlab o'tib, to'g'ridan – to'g'ri hisob-kitoblarni olib borishi taqiqlandi;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqil pul – kredit siyosatini amalga oshirishdagi muammolar. Pul tizimini tashkil topishining birinchi bosqichida buning imkoniyati mavjud emas edi, chunki muomalaga chiqarilayotgan pullar Rossiya Markaziy banki tomonidan amalga oshirilib, ularni tartibga solish imkoniyati mavjud emas edi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar nafaqat mamlakatimiz bank tizimida, balki barcha sobiq Ittifoq mamlakatlari bank tizimida ham qator ijtimoiy – iqtisodiy muammolar vujduga kela boshladi. Natijada ular 1992-yilning may – iyun oylaridan boshlab o'z milliy valutalarini muomalaga kirita boshladi.

Quyidagi jadvalda milliy valutalarni muomalaga kiritgan mamlakatlar va ularning sanasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Buning natijasida, o'z milliy valutasini joriy qilgan davlatlarda sobiq Ittifoqning 1961 – 1992-yillar namunasidagi rubllar qadrini yo'qotgan «oddiy qog'oz» sifatida mamlakatimizga kirib kela boshladi, bu jarayon mamlakatimiz iste'mol bozoridan tovar va mahsulotlar juda katta hajmda chetga oqib ketishi ro'y berdi.

---

[27] Шу манба, 38 – бет

MDHga a'zo mamlakatlar tomonidan milliy valutalarining joriy etilishi[28]

Mamlakatlar	Rubl hududidan chiqish sanasi (asosiy (oraliq) valutaning joriy etilishi)
Belarus	1992-yil may (belorus rubli)
Estoniya	1992-yil iyun (krona)
Latviya	1992-yil iyul (latviya rubli)
Ozarbayjon	1992-yil avgust (manat)
Litva	1992-yil oktabr (litva taloni)
Ukraina	1992-yil noyabr (karbovanets) grivina
Qirg'iziston	1993-yil may (som)
Gruziya	1993-yil avgust (kupon)
O'zbekiston	1993-yil noyabr (so'm – kupon) so'm
Armaniston	1993-yil noyabr (dram)
Qozog'iston	1993-yil noyabr (tenge)
Moldova	1993-yil noyabr (ley)
Turkmaniston	1993-yil noyabr (manat)
Tojikiston	1995-yil may (tojik rubli) somoni

Albatta, bunday sharoitda iste'mol bozorini himoya qilishning yagona va eng to'g'ri yo'li zudlik bilan muomalaga milliy valutani kiritish edi. Lekin, jahon tarixidan ma'lumki milliy pul birligini kiritish uchun zarur tashkiliy va iqtisodiy shart – sharoit mavjud bo'lishini taqozo etardi, to'g'rirog'i esa ularni yaratish lozim edi. Bu esa o'z o'rnida ma'lum vaqt talab qilardi.

Ammo, bu vaqt ichida iste'mol bozorini qog'ozga aylanib borayotgan rubllardan himoya qilib borish ham zurur edi. Aks holda, mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqib ketish xavfini oldini olib bo'lmasdi. Shuning uchun, dastlabki vaqtlarda iste'mol bozorini himoya qilish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993-yil 15-mayda «Pul muomalasini tartibga solish va respublika iste'mol bozorini himoyalashni kuchaytirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Mazkur qarorga ko'ra aholining tovar sotib olishi va depozit operatsiyalarining bajarilishida pasport va kupon tizimi joriy etildi.

[28] Transition Report 2000, EBRD va boshqa manbalar

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari 1993-yil 10-maydan boshlab, banklarga qo‘yiladigan omonatlar pasport asosida qabul qilinishi joriy etildi, qiymati 25 ming rubldan yuqori bo‘lgan tovarlarni kuponlar asosida sotilishi belgilab qo‘yildi, 25 ming rubldan yuqori qiymatdagi tovarlar bank omonatchilarning topshirig‘iga ko‘ra, pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirilishi joriy etildi.

Ikkinchi bosqich 1993-yil noyabrdan 1994-yil iyun oyiga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda, ya’ni 1993-yil 15-noyabrdan muomalaga oraliq «so‘m – kupon»lar kiritildi.

1993-yil 15-noyabrdan boshlab Rossiyaning nominali 5000 va 10000 bo‘lgan rublilari muomaladan chiqarildi. Bu pullar Jamg‘arma bank muassaslarigagina topshirilishi kerak edi. Shu bilan birga, bu kupyuralarni bank muassasalarida qiymati past bo‘lgan kupyuralarga almashtirish taqiqlandi.

Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 22-noyabrdagi «Iste’mol bozorini himoyalash va respublikada pul muomalasini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 1993-yil 1-dekabrdan boshlab sobiq SSSR Davlat bankining 1961 – 1992-yillar namunasidagi 200, 500 va 1000 rubllik pul biletlarining muomalada to‘lov vositasi vazifasini bajarishi to‘xtatildi.

Bu kupyuralar 25 ming rublgacha bo‘lgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar haqi tarzida hamda Jamg‘armabank muassasalari tomonidan doimiy turar joy ro‘yxatida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan 1993-yil 1-dekabrgacha qabul qilindi. Fuqarolarning Jamg‘armabank muassasalariga qo‘yadigan omonatlarining cheklangan summasi kupyuralar qiymatidan qat’iy nazar 200000 rubl miqdorida belgilandi. Ushbu miqdordan oshgan summalar 1993-yil 4-dekabrgacha alohida maxsus foizsiz hisobvaraqlarga kiritildi.

Mazkur qarorda 1961 – 1992-yillar namunasidagi qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50 va 100 rubl bo‘lgan kupyuralar cheklovlarsiz parallel to‘lov vositasi sifatida muomalada bo‘lishi qayd etilgan edi. 50 va 100 rubl qiymatidagi kupyuralar 1993 yil 15 dekabrgacha, qiymati 1, 3, 5, 10 va 25 rubl bo‘lgan kupyuralar esa, 1994-yil 1-yanvargacha muomalada bo‘ldi. Ushbu banknotlarni 1993-yil 6-dekabrdan boshlab Jamg‘armabank muassasalari tomonidan omonatlarga qabul qilish to‘xtatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 30-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi hududida «so‘m – kupon»larning muomalada bo‘lish tartibini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida» gi qarorida O‘zbekiston Respublikasi hududida 1993-yil 15-noyabrda muomalaga chiqarilgan, qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5.000, 10.000 bo‘lgan so‘m – kuponlar qonuniy to‘lov vositasi hisoblanishi belgilab qo‘yildi. Bunda Rossiya Davlat bankining 1993-yil namunasidagi barcha qiymatdagi banknotlari dastlabki davrda O‘zbekiston Respublikasi hududida so‘m – kuponlar bilan bir qatorda cheklovlarsiz to‘lov vositasi sifatida qabul qilindi.

Shu tarzda, 1993-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi uch turdagi pul birligi muomalada bo‘ldi: so‘m – kuponlar, sobiq SSSR Davlat bankining qiymati 100 rublgacha bo‘lgan kupyuralari va Rossiya Davlat bankining 1993-yil namunasidagi kupyuralari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-aprelda qabul qilingan «Pul muomalasini mustahkamlash va «so‘m – kupon» xarid qobiliyatini oshirishning kechiktirib bo‘lmaydigan chora – tadbirlari to‘g‘risda»gi qarori pul muomalasini barqarorlashtirish, so‘mning xarid qobiliyatini oshirish uchun zarur shart – sharoitlarni yaratishda muhim tadbir bo‘ldi. Ushbu qarorga muvofiq, 1994-yil 15-apreldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida Rossiya banki banknotlarining muomalada bo‘lishi hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli to‘lovlarga qabul qilinishi taqiqlab qo‘yildi[29].

Pul tizimining uchinchi bosqichi 1994-iyuldan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122 – moddasi va «O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida»gi qonunning 11 – moddasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 3-sentabrdagi 952 – XI sonli qaroriga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi bo‘lgan milliy valuta «So‘m» muomalaga kiritildi.

Bank muassasalari tomonidan 1994-yil 1-iyul holatiga ko‘ra mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, respublika hududida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning hisob-kitob va joriy hisobvaraqlaridagi barcha pul mablag‘larini, shuningdek, inventarlash va buxgalterlik hisobi ma’lumotlari asosida 1000 so‘m – kupon – 1 so‘m nisbatida

[29] Ф.Мулажонов. Ўзбекистон Республикаси банк тизими. –Т.: «Ўзбекистон» 2001. 25 – 45 бетлар.

barcha asosiy va aylanma fondlarning balans qiymati, boshqa moddiy boyliklar, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, budjetga qarzdorlik hamda bank balansi aktiv va passivlarining barcha qolgan moddalari, respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari qoldiqlari, shuningdek, tashkil topish manbalaridan qat'iy nazar, budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari to'lig'icha qayta hisoblandi.

Aholiga pulli to'lovlar sifatida banklardan yangi pul belgilarini berish hamda hamda so'm – kuponlarni bir oy mobaynida chakana savdo, xizmat ko'rsatish sohasi orqali va omonatlarga jalb etib muomaladan chiqarildi. Shu bois, 1994-yil iyul oyi davomida respublika hududida milliy valuta «so'm» va «so'm – kupon»lar parallel ravishda muomalada bo'ldi.

Shu tarzda mamlakatimiz pul tizimining asosi bo'lib hisoblanadigan milliy valuta barcha hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha yagona to'lov vositasi sifatida amal qila boshladi. Bu, o'z navbatida, Markaziy bank va tijorat banklariga pul tizimini nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy jihatdan ham to'liq mustaqil boshqarish imkoniyatini vujudga keltirdi.

5.4. O'zbekiston pul tizimining elementlari

Bozor qitisodiyoti sharoitida mamlakat pul tizimi elementlari muhim ahamiyat kasb etadi, pul tizimi elementlarining to'liq amal qilishi va barqarorligi milliy iqtisodiyotining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston pul tizimining elementlari mamlakatimiz 1991-yilda mustaqillikka erishgandan boshlab tashkil topa boshladi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi.

– pul birligi «so'm» bo'lib, 1 so'm 100 tiyindan iborat;

– baho masshtabi tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif asosida belgilanadi;

– muomalada qog'oz va tanga pullar to'lov vositasini bajaradi. Qog'oz pullar 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000 so'm qiymatdagi banknotlardan, tanga pullar 1, 3, 10, 50 tiyin, 10, 25, 50 va 100 so'mdan iborat;

– banknot va tangalarni emissiya qilish va muomaladan qaytarib olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yuklatilgan bo'lib, muomaladagi barcha pullar uning majburiyati hisoblanadi;

– Markaziy bank pul – kredit siyosati instrumentlari asosida mamlakatda pul muomalasini tartibga soladi;

– mamlakatda pul aylanmasi va naqd pulsiz hisob-kitob shaklidan iborat bo'lib, pul aylanishi tarkibida asosiy ulush naqd pulsiz hisob-kitoblar hissasiga to'g'ri keladi. Markaziy bank pul muomalasi aylanmasini tashkil etadi va hisob-kitoblarning shakllarini belgilaydi.

Bobga oid savollar

1. Pul tizimining vujudga kelish zaruriyati.
2. Pul tizimining mohiyati.
3. Pul tizimining elementlari.
4. Pul tizimining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar.
5. Pul tizimining turlari.
6. Bimetallizm pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Monometallizm pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Hozirgi kunda pulning qanday turlari mavjud?
9. Bimetallizm va monometallizm pul tizimi sharoitida inflatsiya bo'ladimi? Nima uchun?
10. Oltin tanga standarti va uning o'ziga xos xususiyatlari.
11. Oltin quyma standarti va uning o'ziga xos xususiyatlari.
12. Oltin deviz standarti va uning o'ziga xos xususiyatlari.
13. Nima uchun mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda erkin pul – kredit siyosatini amalga oshirish mumkin emas edi?
14. Mustaqillikning dastlabki davrida «rubl zonasida» qolishning obyektiv zarurligi?
15. «Rubl zonasida» hisob-kitoblar amalga oshirilganda qanday muammmolar vujudga keldi va ularni bartaraf etish bo'yicha qanday choralar ko'rildi?
16. Rossiya Davlat banki naqd pullar bilan ta'minlashda qanday talablar qo'ydi?
17. O'zbekiston pul tizimini tashkil topishi qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?
18. Qachon va nima maqsadda muomalaga oraliq «so'm – kupon»lar kiritildi?
19. Milliy valuta «so'm» muomalaga qachon va qanday tartibda kiritildi?

20. Muomalaga kiritilgan milliy valuta «so'm» oraliq «so'm – kupon» larga qanday nisbatda ayirboshlandi?

21. «So'm – kuponlar» va milliy valuta «so'm» qancha vaqt davomida va qachon parallel ravishda muomalada bo'ldi?

22. O'zbekiston pul tizimi elementlari va ularning amal qilishi.

Bobga oid testlar

1. Mamlakatda pul tizimining asosini nima tashkil etadi?
A. Markaziy bank.
B. Tijorat banklari.
B. Milliy valuta.
G. Kredit muassasalari.

2. Pul tizimining elementlari qaysi biri noto'g'ri keltirilgan?
A. Pul birligi.
B. Baho masshtabi.
V. Valuta kursi.
G. Pulning turlari.

3. Pul tizimi tarkibida qaysi biri asosiy element hisoblanadi?
A. Pul birligi.
B. Baho masshtabi.
V. Pul tizimini tashkil etish tamoyillari.
G. Pulning turlari.

4. Pul tizimi necha turdan iborat?
A. Bitta turdan.
B. Ikkita turdan.
V. Uchta turdan.
G. To'rtta turdan.

5. Metall pullar tizimi o'z tarkibiga:
A. Bimetallizm va monometallimzni oladi.
B. Kredit pullar tizimini oladi.
V. Qog'oz pullar tizimini oladi.
G. Tanga pullar tizimini oladi.

6. Pul tizimining bimetallizm shakli hukm surgan davr qanday davrga to'g'ri keladi?

A. XV – XVI asrlarga to'g'ri keladi.

B. XVI – XVII asrlarga to'g'ri keladi.

V.XVII – XVIII asrlarga to'g'ri keladi.

G. XVIII – XIX asrlarga to'g'ri keladi.

7. Qachondan boshlab oltin xalqaro valuta munosabatlarida asosiy rol o'ynay boshladi?

A.XIX asrda to'liq va XX asrning boshlarigacha.

B.XVIII asrda to'liq va XIX asrning boshlarigacha.

V.XVII asrda to'liq va XVIII asrning boshlarigacha.

G.XVI asrda to'liq va XVII asrning boshlarigacha.

8. Qanday davr oltin standartining rivojlangan davri hisoblanadi?

A. 1875 – 1890 yillarga to'g'ri keladi.

B. 1895 – 1920 yillarga to'g'ri keladi.

V. 1920 – 1930 yillarga to'g'ri keladi.

G. 1880 – 1914 yillarga to'g'ri keladi.

9. Monometallizm tarkibiga kiritilgan standartlar qanday javobda to'liq va to'g'ri keltirilgan?

A. Oltin tanga, oltin quyma va oltin deviz standarti.

B. Oltin tanga, banknot va oltin deviz standarti.

V. Xazina biletlari, oltin quyma va oltin deviz standarti.

G. Oltin tanga, kumush quyma va oltin deviz standarti.

10. Qog'oz – kredit pul tizimi sharoitida muomalada amal qiladigan pullar qanday javobda to'liq keltirilgan?

A. Kredit biletlari (banknotlar), pul cheklari, elektron–plastik kartochkalar, hisob raqamlarda yozuv shaklida.

B. Kredit biletlari (banknotlar), tangalar, elektron–plastik kartochkalar, hisob raqamlarda yozuv shaklida.

V. Kredit biletlari (banknotlar), tangalar, pul cheklari, elektron–plastik kartochkalar, hisob raqamlarda yozuv shaklida.

G. Kredit biletlari (banknotlar), tangalar, pul cheklari, hisob raqamlarda yozuv shaklida.

11. O'zbekistonda 1991 – 1993 yillarda nima uchun mustaqil pul – kredit siyosatini amalga oshirishning imkoni yo'q edi?

A. Bank tizimi rivojlanmagan edi.

B. Muomalada sobiq ittifoq va Rossiya rubllari yetishmaganligi sababli.

V. Milliy valuta joriy etilmaganligi tufayli.

G. Pul – kredit siyosati ishlab chiqilmagan edi.

12. O'zbekiston Respublikasi pul tizimini shartli ravishda nechta bosqichga ajratish mumkin?

A. 2 ta.

B. 3 ta.

V. 4 ta.

G. 5 ta.

13. O'zbekiston pul tizimining tashkil topishini birinchi bosqichi qaysi davrni o'z ichiga oladi?

A. 1991-yil sentabrdan 1994-yil iyulgacha bo'lgan davr.

B. 1993-yil noyabrdan 1994-yil 1 iyulgacha bo'lgan davrni.

V. 1994-yil 1 iyuldan 1994-yil 31 iyulgacha bo'lgan davrni.

G. 1991-yil sentabrdan 1993-yil noyabrgacha bo'lgan davrni.

14. Oraliq «so'm kupon»lar qachon muomalaga kiritildi?

A. 1993-yil 1-yanvardan.

B. 1993 yil 1-oktabrdan.

V. 1993-yil 15-noyabrdan.

G. 1994-yil 1-iyuldan.

15. Oraliq «so'm kupon» muomalada qachongacha to'lov vositasini bajardi?

A. 1994-yil 1-iyulgacha.

B. 1994-yil 1-avgustgacha.

V. 1994-yil 1-yanvargacha.

G. 1995-yil 31-iyungacha.

16. Milliy valuta so'm va oraliq «so'm kupon»lar qanday nisbatda almashtirildi?

A. 1:500

B. 1:1000
V. 1:1500
G. 1:2000.

17. O'zbekiston hududida qanday davrda uch turdagi valuta muomalada to'lov vositasini bajardi?

A. 1993-yil noyabr.
B. 1994-yil iyul.
V. 1993-yil dekabr.
G. 1994-yil sentabr.

18. Sobiq Ittifoq respublikalari qaysi paytdan boshlab milliy valutalarni muomalaga kirita boshladi?

A. 1993-yil iyul – avgust.
B. 1992-yil yanvar – fevral.
V. 1992-yil may – iyun.
G. 1992-yil iyul – avgust.

19. Rossiya Federatsiyasining yangi namunadagi banknotalari to'lov vositasi sifatida amal qilishi qachon bekor qilindi?

A. 1994-yil 1-iyuldan.
B. 1994-yil 15-apreldan.
V. 1993-yil 15-noyabrdan.
G. 1991-yil avgustdan.

20. *Quyidagidlardan qaysi biri O'zbekiston pul tizimi elementlari hisoblanmaydi?*

A. Pul birligi so'm.
B. Baho masshtabi talab va taklif asosida belgilanadi.
V. Markaziy bank pul muomalasini tartibga solinadi.
G. Qat'iy belgilangan valuta kursi.

6 – bob. INFLATSIYA

6.1. Inflatsiyaning mohiyati va turlari

Muomalada qog'oz pullar va tanga pullarning mavjudligi inflatsiyani vujudga keltiruvchi iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. «Inflatsiya» termini – lotincha so'zdan olingan bo'lib – *«shishirilgan», «bo'rttirilgan», «ko'pchigan»* kabi ma'nolarni anglatadi. Inflatsiyaning iqtisodiy mohiyati muomaladagi naqd pullarning sotib olish qobiliyatini pasayishi, tovarlar va xizmatlarning bahosini o'sib borishini anglatadi.

Inflatsiya so'zi birinchi marta amerikalik iqtisodchi A. Delmar tomonidan 1864-yilda iqtisodiy oborotga kiritildi. Bunga AQSH Federal hukumati 1861 – 1865-yillarda mamlakat fuqarolar urushi davrida davlatning xarajatlarini qoplash maqsadida muomalaga juda katta miqdorda qog'oz pullarni emissiya qilishi sabab bo'ldi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarida inflatsiya termini birinchi jahon urushidan keyin, sobiq ittifoq adabiyotlarida esa 1920-yillarning o'rtalaridan keng miqyosda paydo bo'ldi.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, inflatsiya natijasida pullarning qadrsizlanishi, ularning to'lov qobiliyatining pasayishi kabi muammolar tarixan qog'oz pullar muomalaga chiqarilishi va tangalarning zarb qilishi davridan boshlangan. Dastlabki davrlarda inflatsiyaning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, hukumat tomonidan iqtisodiyotga haddan ortiqcha sifati va og'irligi talab darajasidan past bo'lgan haqiqiy qiymatga ega bo'lmagan tanga pullar muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. Masalan, Qadimgi Gretsiyada miloddan avvalgi VI asrda metall tangalarning tarkibida qimmatbaho metallarning hajmini yarmidan ko'prog'ini oddiy metallarga, ya'ni haqiqiy qiymatga ega bo'lmagan metallarga almashtirildi. Xuddi shu holat Rim Imperatorlari tomonidan ham amalga oshirildi. O'rta asrlarga kelib, ko'pchilik davlatlarning hukumdorlari kumush tangalarni mis tangalarga, keyinchalik oddiy alyumin metallarga almashtirdi. Bu jarayon hukumatga qimmatbaho metallarni tejash evaziga mamlakat

xazinasiga juda katta boylik sifatida qabul qilindi. Biroq, pullarning to'lov qobiliyatini pasayishi va qadrsizlanishiga olib keldi.

Muomalada qog'oz pullarning paydo bo'lishi natijasida tanga – pul bilan bog'liq inflatsiya muammosi qog'oz – pulga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Davlatning burjuaziya boshqarish tuzumining vujudga kelishi davrida o'rta asrlarda pul muomalasida paydo bo'lgan muammolarni barqaror pul tizimini tashkil etish orqali bartaraf etishga urinishlar bo'ldi.

XVIII – XIX asrlarda va XX asrning boshlarida birinchi jahon urushiga qadar inflatsiya muammosi ayrim mamlakatlarda mavjud bo'lib, davriy xarakterga ega edi. Masalan, inflatsiya muammosi Fransiyada – 1789 – 1791-yillarda Buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida, Angliyada Napoleon bilan urush davri – XIX asrning boshlarida mavjud edi. Oltin monometallizm tizimi joriy etilgan mamlakatlarda uzoq yillar davomida barqaror pul tizimi amal qildi.

Birinchi jahon urushi davrida oltin monometallizm tizimining barbod bo'lishi va qog'oz pullarning oltin tangalarga qat'iy belgilangan kurs asosida ayirboshlanishi bekor qilinishi natijasida davlat o'zining inflatsiyaga qarshi kurashish mexanizmidan mahrum bo'ldi. Shu davrdan boshlab, inflatsiya iqtisodiyotda doimiy xarakterga ega bo'lgan va keng qamrovli muammo sifatida barcha mamlakatlarda namoyon bo'la boshladi.

Inflatsiyaning mohiyati iqtisodiy adabiyotlarda turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Xususan, K.R.Makkonnell, S.Bryu va K.Eklund inflatsiyani iqtisodiyotda baholarning o'rtacha ko'tarilishi sifatida[30], P.Xeyni esa pulning sotib olish qobiliyatining pasayishi yoki qiymatining yo'qolishi ekanligini ta'kidlaydilar[31].

Markazlashgan iqtisodiyot sharoitida inflatsiyani vujudga kelishi 1930-yillarda muomalaga haddan ziyod qog'oz va tanga pullarni chiqarilishi natijasida iqtisodiyotning «pul kanallari» to'lishi yuz beradi, bu, o'z navbatida, inflatsiyaga olib kelishi ta'kidlandi, 1940-yillarda esa inflatsiyaning sababi iqtisodiyotda qog'oz pullar to'lov vositasini bajarishi har qanday holatda inflatsiyani keltirib chiqarishini e'tirof etishdi, 1950-yillarda inflatsiyani kelib chiqishining asosiy sababi sifatida uning yetarli darajada oltin va boshqa moddiy qimmatliklar bilan ta'minlanmaganligi ekanligini qayd etdilar.

---

[30] Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В. 2 т.: Пер. с англ. 11 – го изд. Т. I. – М.: Республика, 1992. С. 163.

[31] Хейне П. Экономический образ мышления. –М.:, 1991. С.484.

1960-yillarda iqtisodchi olimlar inflatsiya murakkab, ko'p omilli ijtimoiy – iqtisodiy jarayon ekanligini, uni tashqi va ichki omillar ta'sir qilishi natijasida vujudga keladigan iqtisodiy kategoriya sifatida baholadilar.

Inflatsiyaning iqtisodiy mohiyatiga qator xorijiy va mahalliy olimlar o'zlarining fikrlarini bildirgan. Xususan, Rossiya iqtisodchi olimlari V.A. Shegorsov va V.A. Taranlar «Inflatsiya – bu tovarlar va xizmatlar sifati va iste'mol qiymati o'zgarmagan holda ularning bahosini o'sib borishidir, bu jarayonda pulning qadri pasayib boradi.»[32], deya ta'kidlaydilar.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan, professor Sh. Abdullayeva inflatsiyaning iqtisodiy mohiyatiga: «Inflatsiya so'zining iqtisodiy mohiyati –muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi», deya ta'rif beradi[33].

Guvohi bo'lganimizdek, inflatsiyaning mohiyatiga turlicha fikrlar bildirilgan. Fikrimizcha, *«Inflatsiya – bu tovarlar va xizmatlar bahosining ortib ketishi natijasida muomaladagi qog'oz va tanga pullarning sotib olish qobiliyatining pasayishidir»*.

Tovarlar va xizmatlar bahosining ortib ketishini har doim ham inflatsiya sifatida qaralishi maqsadga muvofiq emas, agar muomaladagi pul massasi tegishli tovarlar va xizmatlar massasi bilan ta'minlanmasligi natijasida ularning bahosi ortsagina bunday holat inflatsiya sifatida qaralishi mumkin. Muomalada ortiqcha pul massasi paydo bo'lmagan holatda yalpi talabning yalpi taklifga nisbatan ortib ketishi natijasida bozor konyukturasining o'zgarishi, ya'ni bozorda tovarlar va xizmatlar bahosining ortib ketishi iqtisodiyotda inflatsiya mavjudligini anglatmaydi. Bunday holatda baholarning ortishi noinfiliatsion omillar ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Xususan, iqtisodiy va tabiiy resurslarning taqchilligi natijasida ularning bahosini ortishi, mavjud tovarlar va xizmatlar sifatining pastligi natijasida kam hajmdagi sifatli tovarlar va xizmatlar bahosining ortib ketishi kabilar shular jumlasidandir.

Umuman olganda, ta'kidlash joizki, iqtisodiyotda inflatsiyaning vujudga kelishi muomalada pul mablag'lari hajmining haddan ortiq ko'payishi natijasida pul muomalasi bilan bog'liq iqtisodiy inqirozdan

---

[32] Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С. 81.
[33] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: "Иқтисод – Молия", 2007, 71 – б.

dalolat beradi. Bu tovarlar va xizmatlar umumiy bahosining sezilarli sur'atlarda o'sib borishida (1), tovarlar va xizmatlar taqchilligida (2), rezidentlarning milliy valutadan «qochishi», ya'ni ularning xorijiy valutalarni jamg'arishga bo'lgan iqtisodiy manfaatdorligini ortib borishida (3), milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan kursining pasayishida (4), mablag'larni ko'chmas mulklarga joylashtirilishida (5), tovar va xizmatlarning baholarini boshqa barqaror pul birliklariga bog'lab aniqlash kabilarda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotda inflatsiya darajasini aniqlashning turli yo'llari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari iste'mol baholari indeksi (1) va inflatsiya darajasini (2) aniqlovchi tengliklar hisoblanadi.

(1)

$$\textit{bu yerda: } \text{IBI} \equiv \frac{\text{JDIKB}}{\text{O'DIKB}} \times 100\ \%$$

1. IBI – iste'mol baholari indeksi;
2. JDIKB – joriy davrdagi iste'mol savatchasi baholari;
3. O'DIKB – o'tgan davrdagi iste'mol savatchasi baholari.

$$\textit{Inf.darajasi} = \frac{I^1_{ib} - I^0_{ib}}{I^0_{ib}} \times 100 \qquad (2)$$

bu yerda:

4. I^1_{ib} – joriy davr iste'mol baholari;
5. I^0_{ib} – bazaviy davr iste'mol baholari.

Iste'mol savatchasi – odamlarning birinchi darajali ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar yig'indisi. Iste'mol savatchasi yordamida odamlarning yashash uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordagi xarajatlar miqdori hisob-kitob qilinadi. Iste'mol savatchasiga Rossiyada 407 ta, AQSHda 300 ta, Fransiyada 250 ta, Angliyada 350 ta, Germaniyada 475 ta tovar va xizmatlar turi kiradi.

Inflatsiya juda ko'p qirrali bo'lib, u asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

- sudraluvchan inflatsiya;
- shiddatli inflatsiya;
- giperinflatsiya;
- kutilgan va kutilmagan inflatsiya;

- ochiq inflatsiya;
- yopiq inflatsiya;
- talab (xarajatlar) inflatsiyasi;
- taklif (xarajatlar) inflatsiyasi.

Sudraluvchan inflatsiya sharoitida baholar yiliga 6 – 8 foiz miqdorida o'sishi kuzatiladi. Sudraluvchan inflatsiya juda ko'p mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lib, milliy iqtisodiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodchilari ushbu inflatsiya sharoitida iqtisodiyotning rivojlanishini ijobiy holat sifatida baholaydilar.

Shiddatli inflatsiya davrida baholarning darajasi yil davomida 20 foizdan 200 foizgacha o'sadi. Inflatsiya darajasi sezilarli ravishda shiddat bilan ortib boradi, uning darajasi ortib borgan sari milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir sezilib boradi. Aholining milliy valutaga nisbatan ishonchi pasayib, o'z mablag'larini ko'chmas mulklarga, qimmatbaho taqinchoq va xorijiy mamlakatlarning barqaror valutalariga almashtirishga ehtiyoji ortib boradi.

Giperinflatsiya sharoitida baholar juda tez va yirik miqdorda oshib boradi, asosan giperinflatsiya sharoitida tovarlar va xizmatlarning bahosi astronomik darajada ortib, yiliga 1000 foiz, oyiga 100 foiz darajasida o'sishi kuzatiladi. Mamlakatda iqtisodiyotni boshqarish va pul muomalasi buzilishi natijasida, pul – kredit siyosati to'liq izdan chiqib ketadi.

Giperinflatsiya birinchi jahon urushidan keyin Germaniya iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta'sir qilgan. Bu haqda E.M. Remark shunday yozadi. «Inflatsiya nima ekanligini shunda bilganman. Mening oylik ish haqim ikki yuz milliard markani tashkil etar edi. Ish haqi bir kunda ikki marta berilar edi, ish haqi berilgandan so'ng ishdan yarim soatga ruxsat berilardi. Biz bu vaqtdan foydalanib kursni ikki martaga oshib ketishidan va olgan ish haqimiz o'z qiymatini yo'qotishidan qo'rqib qandaydir tovar yoki iste'mol mollarini sotib olish uchun do'konlarga yugurar edik[34]«.

Kutilgan inflatsiya mamlakatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilinib, uning yuz berishi oldindan ma'lum bo'ladi. Buning ijobiy jihati shundaki, davlat budjeti xarajatlari va aholining kelgusidagi xarajatlari shunga monand ravishda oshib borishi oldindan ma'lum bo'ladi. Buning uchun davlat, yuridik va jismoniy shaxslar

[34] Ремарк Э.М. Три товарища. –М.: 1985. С.196.

kelgusiga mo'ljallangan rejalarini oldindan tuzib, shunga qarab o'z faoliyatini tashkil etadilar.

Kutilmagan inflatsiya iqtisodiyotda yuz beradigan ko'zda tutilmagan iqtisodiy inqirozlar, ziddiyatlar, urushlar, qurg'oqchilik va boshqa holatlarda yuz berishi mumkin.

Ochiq inflatsiya mamlakatda tovarlar va xizmatlar bahosini ortib borishi bilan izohlanadi. Inflatsiyaning ushbu shakli hukumat tomonidan e'tirof etiladi va uni bartaraf etish yuzasidan ochiqchasiga tegishli chora – tadbirlar amalga oshiriladi.

Yopiq inflatsiya sharoitida tovar va xizmatlar bahosi sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatiladi, mamlakatda qattiq pul – kredit siyosati joriy etiladi. Yopiq inflatsiya sharotida aholi mamlakatdagi real inflatsiya darajasi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lmaydi.

Talab inflatsiyasi sharoitida yalpi talab hajmi real ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib boradi, buning natijasida tovar va xizmatlar bahosi ortib ketadi.

Taklif (xarajatlar) inflatsiyasi ishlab chiqarish vositalari va resurslaridan samarali foydalanilmaslik oqibatida ishlab chiqarish xarajatlari ortib ketadi, tovar va xizmatlar bahosi ko'tariladi. Natijada aholining real daromadlariga nisbatan tovarlar va xizmatlarning bahosi nomutanosib ravishda tez ko'tarilib ketadi. Dastlabki bosqichda muomaladagi ortiqcha pul massasi mamlakatda ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarini tezlashtirish hamda ishsizlik darajasini pasaytirish hisobiga baholarning muvozanatligini ta'minlaydi. Natijada, ishlab chiqarish rivojlanib, ishsizlik darajasi pasayishi natijasida mamlakatda tovarlar hajmi ortishi talabni qondirish bilan birga, undan ortib ketadi. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarishning samarasizligi va ishsizlik darajasini oshishiga sabab bo'ladi.

6.2. Inflatsiyaning vujudga kelish sabablari

Inflatsiya – pul muomalasi qonunining buzilishi, iqtisodiyotda tovar massasi hamda pul massasi o'rtasidagi nomutanosiblik jarayonida vujudga keladi. Inflatsiyani vujudga kelishiga qator omillar ta'sir qilib, ularni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin.

Ichki omillar tarkibiga ortiqcha pul massasi vujudga kelishi, milliy valutaga nisbatan ishonchning pasayishi, mamlakatning nomutanosib to'lov balansi kabilarni kiritish mumkin.

Tashqi omillarga mamlakat tashqi siyosatining beqarorligi, iqtisodiy inqirozlar, moliya va fond bozorlarida indekslarning o'zgarishi kabilarni keltirish mumkin.

Ta'kidlash joizki, oltin va kumush tangalar pul vazifasini bajargan davrda iqtisodiyotda inflatsiya muammosi mavjud bo'lmagan. Metall pullar o'rnini qog'oz va tanga pullar egallagandan so'ng iqtisodiyotda inflatsiya bilan bog'liq ziddiyatli holatlar vujudga kela boshladi. Chunki, qog'oz va tanga pullar o'zida haqiqiy qiymatni aks ettirmaydi. Dastlabki davrda ushbu pullar oltin va kumush metallar hamda tovarlar bilan ta'minlangan edi.

Inflatsiyaning vujudga kelishiga muomala va ishlab chiqarish sohasi, shuningdek, mamlakatdagi iqtisodiy – siyosiy omillar ham sabab bo'ladi.

Inflatsiyaning vujudga kelishida pul muomalasi omillariga budjet taqchilligini qoplash maqsadida muomalaga qo'shimcha tarzda chiqarilgan pullar, iqtisodiyotda asossiz ravishda berilgan kreditlar hajmining ortib borishi, mamlakat pul – kredit siyosatiga aholi ishonchining pasayishi va boshqalar sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish va iqtisodiy siyosiy omillarga mamlakatda import hajmining eksport hajmidan ortib ketishi, tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatining pastligi, budjet – soliq siyosati, mamlakatning tashqi va ichki iqtisodiy munosabatlar doirasida amalga oshirayotgan siyosati va boshqalar sabab bo'ladi.

Inflatsiyaning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri iqtisodiyotdagi yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Inflatsiya sharoitida kapital ishlab chiqarish doirasidan muomala doirasiga oqib o'ta boshlaydi, chunki ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy jihatdan samarasiz sohaga aylanib boradi. Muomala jarayoni ko'p vaqtni talab etmaganligi bois, dastlabki bosqichlarda uning ishtirokchilariga ma'lum miqdorda iqtisodiy foyda keltiradi, lekin inflatsiya jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Inflatsiya mexanizmi o'z – o'zidan rivojlanib, barcha soha va tarmoqlarni qamrab oladi, uning ta'sirida jamg'armalar hajmi qisqaradi, kredit, investitsiya va tovarlar taklifi kamayadi.

Inflatsiyani keltirib chiqaruvchi ***birinchi sabab*** – mamlakatda bozor mexanizmlarining to'liq joriy etilmasligi, davlatning budjet daromadlari va xarajatlari ustidan monopol tartibini joriy etishi hisoblanadi. Bunda davlat budjetining daromadlaridan ortiqcha bo'lgan

xarajatlar, ya'ni budjet taqchilligi muomalaga qo'shimcha pullar chiqarish yo'li bilan qoplanadi. Budjet taqchilligini qoplash uchun muomalaga chiqarilgan pullar tovar moddiy qiymatliklari bilan ta'minlanmaganligi oqibatida mamlakatda inflatsiya darajasining ortishiga olib keladi.

Ikkinchi sababi – asossiz ravishda ish haqi va boshqa to'lovlarning oshirilishi, ushbu to'lovlar davlat budjeti xarajatlari tarkibida ko'zda tutilmagan bo'lsa, muomalaga qo'shimcha emissiya hisobiga amalga oshiriladi. Buning natijasida iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarning bahosi oshadi va inflatsiya darajasi ortib boradi.

Uchinchi sababi – mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning eksport qilish darajasining pastligi va import darajasining yuqoriligi bilan ifodalanadi. Mamlakatga kirib kelayotgan import tovarlar hisobiga xorijiy valutalarning chetga oqib ketishi yuz beradi, natijada mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlar nafaqat tashqi ehtiyojlarni, balki ichki ehtiyojlarni qondirishga ham xizmat qilmay qo'yadi. Buning oqibatida milliy valutaning sotib olish qobiliyati tobora salbiylashib, inflatsiya darajasi ortib boradi.

Yuqorida ta'kidlangan inflatsiyani keltirib chiqaruvchi omillar faqat bizning davrimizgagina xos bo'lgan holat bo'lmasdan, ushbu holatlar turlicha ko'rinishda uzoq tarixda ham mavjud bo'lgan.

6.3. Inflatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari

Iqtisodiyotda inflatsiyaning vujudga kelishi mamlakatning barcha jabhalarida ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning fikricha, mamlakatda sudraluvchan inflatsiya iqtisodiyot rivojiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Odatda, iqtisodiyotda inflatsiya darajasi yillik 12 – 14 foizdan ortgandan so'ng uning salbiy ta'siri seziladi. Inflatsiyaning salbiy ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.

1. Aholi va korxonalarning nominal daromadlari hajmi ortib borsada, real daromadlari pasayadi. Natijada aholining turmush darajasi pasayadi, ularning yillik olayotgan daromadlarining real qiymati pasayib boradi. Korxonalarda xomashyo va ishlab chiqarish xarajatlari ortib boradi, buning natijasida ularning moliyaviy holati yomonlashadi.

2. Mamlakatning boylik va daromadlari bir guruh kishilar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Kreditorlar bu borada yutadilar, debitorlar esa yutqazadilar. Dj. Millning fikriga ko'ra «Barcha tovarlarning bahosi surunkali o'sib borishi, boshqacha so'z bilan aytganda pulning sotib olish qiymatining tushib ketishi, kimgadir iqtisodiy jihatdan keltiradigan foydasi qo'shimcha ishlab chiqarish hisobidan emas, balki kimningdir hisobidan amalga oshadi»[35].

3. Pulning moddiy boylikka almashtirish jarayoni tezlashadi. Aholi o'z ixtiyoridagi pullarga tovar, ko'chmas mulk, qimmatbaho buyumlarni, shuningdek, barqaror xorijiy valutalarni sotib olishga bo'lgan iqtisodiy qiziqish ortib boradi.

4. Uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltiriladigan mablag'lar kamayib boradi va oxir-oqibat to'xtaydi. Chunki, investitsiyalar hisobidan kelgusida olinadigan daromadlar o'z qadrini yo'qotgan pullarda olinadi.

5. Aholining barcha shakldagi pul jamg'armalarining (omonat, naqd pul, obligatsiya, qimmatli qog'ozlar va boshqalar) qiymati tushib ketadi. Shuningdek, korxonalarning jamg'armalari, asosan amortizatsion fondlarining qiymati inflatsiya ta'sirida tushib ketadi va asosiy vositalarni yangilash hamda rekonstruksiya qilishga imkoniyat qolmaydi.

6. Omonatlar bo'yicha foizlar miqdorining tushib ketishi. Foizlar nominal ko'rinishda o'sishi mumkin, lekin real qiymati pasayib boradi. Natijada aholining banklardagi omonatlarining hajmi pasayib, mablag'larning bankdan tashqari oborotining hajmi ortib boradi.

7. Mikroiqtisodiy darajada ishlab chiqarishga bo'lgan manfaatdorlik yo'qoladi, buning natijasida korxonada yangi ilmiy texnikani joriy etish darajasi tushib ketadi. Ishchilarning mehnatini rag'batlantirish pasayadi.

8. Milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari markazlashadi. Milliy valutaning qadrini pasayishi natijasida muomalada xorijiy valutalarning ishtiroki ortib boradi. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda qiyinchiliklar vujudga keladi.

9. Iqtisodiy ma'lumotlarning haqqoniyligi, ishonchliligi, barqarorligiga shubha tug'iladi. Natijada aholining davlat tomonidan olib borayotgan makroiqtisodiy siyosati va pul – kredit tizimiga ishonchi pasayadi.

---

[35] Милль Дж. С. Основы политической экономики. –М.: Прогресс, 1992. –Т.2. –С 309.

6.4. Inflatsiyaga qarshi siyosat

Milliy iqtisodiyotda inflatsiyaga qarshi siyosatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, inflatsiya mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy siyosatini izdan chiqaradi. Ishlab chiqarishga va aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inflatsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda, iqtisodchilarning fikricha, uning ikkita yo'li mavjudligi e'tirof etiladi:

– umumiy talabni tartibga solish;

– umumiy taklifni tartibga solish.

Umumiy talabni tartibga solish orqali inflatsiyaga qarshi kurash ***keynschilik yo'nalishi*** sifatida e'tirof etiladi. Ular inflatsiyaga qarshi kurashda umumiy talabni tartibga solish taklifning oshishiga samarali ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Taklifning oshishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar davlat xarajatlarini oshirish va imtiyozli kreditlarning miqdorini ko'paytirishdir. Ular, o'z navbatida, mamlakatda investitsion talabni keltirib chiqaradi, investitsion talab taklifning o'sishiga olib keladi, taklifning o'sishi esa baholarning pasayishiga, baholarning pasayishi inflatsiyani oldini olish va giperinflatsiyani bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Inflatsiyaga qarshi kurashning ***monetaristik yo'nalishi*** vakillarining diqqat markazida asosiy masala ***yalpi taklifni tartibga*** solishga qaratiladi. Monitaristlarning fikricha, inflatsiyaga qarshi kurashning keynschilar tomonidan ilgari surilgan usuli mamlakatni inflatsiyadan qisqa muddat ichida chiqishga imkoniyat beradi, lekin mamlakatda yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik holati saqlanib qoladi. Buning natijasida, ma'lum vaqtdan keyin, mamlakatda inflatsiya jarayoni vujudga keladi. Monetaristik siyosatning asoschilaridan hisoblangan Milton Fridmanning fikricha – inflatsiya – bu bevosita pul bilan bog'liq bo'lgan holat bo'lib, uning kelib chiqishini asosiy sababi davlatning iqtisodiyotni boshqarishga nooqilona aralashuvi natijasida vujudga keladi. Shuning uchun davlat budjeti taqchilligini qo'shimcha emissiya evaziga emas, balki mamlakatda yalpi taklif hajmini oshirish yo'li bilan bartaraf etish lozimligini ta'kidlaydi.

Monitaristlar kreditning foiz stavkasini oshirish, budjet taqchilligini qisqartirish va soliq stavkalarini pasaytirishni ilgari suradilar. Ularning fikricha, buning natijasida, iste'molga bo'lgan ehtiyoj qisqaradi, investitsiya hajmi ortadi, samarasiz xo'jalik

subyektlari bankrot bo'ladi, mamlakatda kuchli raqobat muhiti shakllanadi. Bular, o'z navbatida, mamlakatda inflatsiya darajasining tushishiga olib keladi.

Ko'pchilik mamlakatlar inflatsiyaga qarshi kurashda keynschilik va monetaristik yo'nalishning u yoki bu jihatlarini hamoxong ravishda amaliyotga joriy etadi.

Bobga oid savollar

1. Inflatsiyaning iqtisodiy ma'nosi va vujudga kelish sabablari.
2. Inflatsiyaning turlari.
3. Talab va taklif inflatsiyasi.
4. Inflatsiyani keltirib chiqaruvchi omillar.
5. Inflatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy omillari.
6. Inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.
7. Inflatsiyaning baholarni oshishi bilan qanday bog'liqlik mavjud? Baholarning oshishi doimo ham inflatsiya mavjudligidan dalolat beradimi?
8. Inflatsiya jarayoni milliy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
9. Yuqori inflatsiya sharoitida ishlab chiqarish jarayonida qanday holat vujudga keladi?
10. Inflatsiyaga qarshi qanday siyosat olib boriladi?

Bobga oid testlar

1. Inflatsiyani keltirib chiqaruvchi omil qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Pulning sotib olish qobiliyati pasayadi.
B. Pul o'zining qadrini yo'qotadi.
V. Muomalada tovar va xizmatlar bahosi pasayadi.
G. Talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buziladi.

2. Inflatsiya tushunchasi iqtisodiy oborotga qachon kirib kelgan?

A. 1861-yilda.
B. 1863-yilda.
V. 1864-yilda.
G. 1866-yilda.

3. Inflatsiya bilan bog'liq muammolar qachon vujudga kelgan?

A. Muomalada oltin tangalar amal qilgan davrda.

B. Muomalaga kumush tangalar kiritilganda.
V. Qog'oz pullar to'lov vosita sifatida amal qila boshlagandan.
G. Oltin va kumush tangalar hajmi kamaytirilganda.

4. Iqtisodiyotda inflatsiya sharoitida qanday holat yuz bermaydi?
A. Tovarlar va xizmatlar taqchilligi kuzatiladi.
B. Aholining xorijiy valutalarni jamg'arishga bo'lgan iqtisodiy manfaatdorligi ortib boradi.
V. Milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan kursi barqarorlashadi.
G. Mablag'larni ko'chmas mulklarga joylashtirish jarayoni kuchayadi.

5. Quyidagilardan qaysi biri inflatsiyaning shakliga kirmaydi?
A. Sudraluvchan inflatsiya.
B. Shiddatli inflatsiya.
V. Monopol inflatsiya.
G. Giperinflatsiya.

6. Giperinflatsiya sharoitida pul muomalasi qanday holatda bo'ladi?
A. Pul muomalasi barqarorlashadi.
B. Pul muomalasi izdan chiqadi.
V. Pul muomalasini tartibga solish mumkin bo'ladi.
G. Pul muomalasida o'zgarish bo'lmaydi.

7. Inflatsiyani keltirib chiqaradigan omillar qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?
A. Muomalada oshiqcha pul massasining vujudga kelishi.
B. Milliy valutaga nisbatan ishonchning pasayishi.
V. Tovar massasiga nisbatan pul massasining kamayishi.
G. Mamlakatning nomutanosib to'lov balansi.

8.Inflatsiyaga qarshi qanday siyosat mavjud?
A. Umumiy talabni tartibga solish siyosati.
B. Muomaladagi pullarning hajmini oshirish siyosati.
V. Markaziy bank tijorat banklariga kreditlarni berish siyosati.
G. Majburiy zaxira siyosati stavkasini pasaytirish siyosati.

7 – bob. PULNING NAZARIYALARI

7.1.Pul nazariyasining mohiyati

Pul nazariyasining olamshumul ilmiy ahamiyati shundaki, u barcha iqtisodiy fanlarning bazisi hisoblanadi. Haqiqatda ham birorta iqtisodiy adabiyot mavjud emaski, agar pul yoki u bilan bog'liq munosabatlarni o'zida aks ettirmagan bo'lsa.

Pulning nazariy tabiati bir nechta bo'lib, qator konsepsiyalarda uning mavjudligini tabiiy asoslari va amal qilishining sabablari keltiriladi. Shartli ravishda buni «tovarli» va «tovarsiz» konsepsiyalarga ajratish mumkin[36].

Tovarli konsepsiyada pulning qimmatliligini aniqlashda asosiy e'tibor real foydali hisoblangan ichki qiymatiga qaratiladi. Bu borada juda keng tarqalgan pulning metallilik nazariyasi e'tiborga olinadi.

Pulning tovarsiz konsepsiyasida uning tovarni sotib olish huquqini beruvchi qiymati, simvoli, ieroglifi, umumiy ko'rinishi kabi belgilariga e'tibor qaratiladi.

Albatta, pul nazariyasining ko'p qirraliligi va uning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi juda ko'p iqtisodchi olimlar, mutaxassislar, ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan. E'tiborli jihati shundaki, iqtisodchi olimlar, ekspertlar va mutaxassislarning pul nazariyasi va uning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi haqidagi qarashlari, ta'limotlari va g'oyalari juda ko'p hollarda bir – biridan farq qiladi. Buning asosiy sabablaridan biri, bizning nazarimizda, iqtisodiy nazariyachi olimlar, mutaxassislar va ekspertlarning pul nazariyasi haqidagi asarlarining turli vaqtda, turlicha ishlab chiqarish sharoitida va turli hududlarda yaratilganligidir.

Jamiyatda mehnat taqsimotining mavjudligi, kishilarni bir – biriga bog'lab turadilar, ular o'rtasida mahsulotlar va resurslar almashuvini ta'minlaydigan mexanizmni amal qilishini talab etadi. Ushbu mexanizm bozor bo'lib, bozor kishilar faoliyatini tartibga soladi va ularning

[36] Деньги. Кредит. Банки: учеб. – 2 изд., перераб. и доп. / под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, Изд – во Проспект, 2008. –С. 224.

manfaatlarini bir – biriga mos kelishini ta'minlaydi. Kishilar faoliyatini harakatga keltiruvchi, ular o'rtasidagi ayirboshlashni ta'minlovchi va ularning manfaatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida pul maydonga chiqadi.

Ma'lumki, jamiyatda ayirboshlash munosabatlarining dastlabki davrlarida kishilar barterdan juda keng ravishda foydalangan, keyinchalik ular barter, ya'ni tovarni – tovarga almashtirish jarayoni ma'lum qiyinchilik va qo'shimcha vaqtni talab etishi natijasida, bozor ishtirokchilari pulni kashf etdilar.

Pul – barcha tovarlarning umumiy ekvivalenti sifatida maydonga chiqadigan «maxsus tovar» bo'lib, uning yordamida barcha tovarlar qiymati o'lchanadi. Pulning jamiyatda amal qilishi va uning evolyutsiyasi bilan bog'liq masalalar iqtisodiy adabiyotlarda pul nazariyasi sifatida talqin etiladi. Ushbu iqtisodiy adabiyotlarda pul nazariyasining iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi quyidagi uchta guruhga ajratib o'rganiladi.

7.2. Pulning metallik nazariyasi

Pulning metallik nazariyasi XVI – XVII asrlarda dastlab kapitalning boylik sifatida jamg'arish, kapitalistik tuzumning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida vujudga keldi. Agar, kapitalizm natural – feodal tuzum sharoitida rivojlanib uning asosini bozor munosabatlari tashkil etishini e'tiborga olsak, pulning metallilik nazariyasi kishilik jamiyatining natural – feodal tuzumi davriga borib taqaladi.

Ma'lumki, pul birligining sotib olish qobiliyati metall asosida aniqlanadi, metall tangalar o'zida pulning haqiqiy qiymatini aks ettirib, ulardan tanga (moneta)lar zarb etilgan. Shu bois ham metall pul nazariyasini qo'llab – quvvatlovchi iqtisodiy nazariyachilar vakillari qog'oz pul nazariyasini inkor etadilar. Metall pul nazariyasi vakillari ushbu ta'limotni yoqlab chiqqanlarida asosan nodir metallarni, ya'ni kumush va oltin tangalarni nazarda tutadilar. Ularning ta'limotida kumush va oltin tangalar real qiymatni aks ettiruvchi haqiqiy pul bo'lib, ular o'z qiymatlarini yo'qotmaydilar. Shu bilan birga, kumush va oltin pullar ayirboshlash munosabatlarida real qiymatlari asosida ishtirok etib, iqtisodiyotda inflatsiya muammosini keltirib chiqarmaydi, deya ta'kidlaydilar.

Dastlab pulning metallik nazariyasi angliya iqtisodiy nazariyachilarining ta'limotlarida paydo bo'lgan. Metall pul nazariyasi tarafdorlari sifatida U.Stafford (1554 – 1642) T.Men (1571 – 1641), D.Nors (1641 – 1691)larni ta'kidlash mumkin. Ularning pul nazariyasi asosida metall pullar ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida tabiiy ravishda vujudga keladigan jarayon sifatida emas, balki metall pullarni vujudga kelishini kishilik jamiyatining ma'lum davrida shakllangan, rivojlangan va chuqurlashib borayotgan ayirboshlash natijasi sifatida qarashgan.

Metall pul nazariyasining taniqli asoschilari sifatida Fransua Kene va Adam Smitlar ekanligini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Klassik maktabining fiziokratlar yo'nalishining asoschisi Fransua Kene o'zining ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish munosabatlariga bag'ishlangan asarida metall pul nazariyasiga yetarlicha e'tibor qaratadi. Xususan, u takror ishlab chiqarish qo'shimcha xarajat (investitsiya)lar hisobiga uzluksiz yangilanib turadi. Qo'shimcha xarajatlar metall ko'rinishida pullar hisobiga amalga oshirilib, metall pullar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda ayirboshlash vositasi sifatida ishtirok etadi, iste'mol qiymatiga ega bo'lgan tovarlar ayirboshlash jarayonida bir marta ishtirok etganidan so'ng ushbu jaryonni tark etadi va iste'mol qilinadi. Biroq, pullar esa ayirboshlash jarayonida takror va takror ishtirok etadi, aynan shu jarayonda pullarning metalll tangalardan iborat bo'lishi, birinchidan ular o'zining dastlabki xossasini yo'qotmaydi, ikkinchidan ularda pulning haqiqiy qiymati o'z aksini topgan ta'limot asosida metall pul nazariyasini yoqlab chiqadi.

Klassik maktabning asoschisi, taniqli ingliz iqtisodchisi Adam Smit bozorda ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar «ko'rinmas qo'l» qoidalari va «tabiiy tartiblash» tizimi yordamida amalga oshiriladi, aynan shu munosabatlarda metall tangalar ushbu jarayonni amalga oshirishda muhim moliyaviy mexanizm sifatida ishtirok etadilar, degan ta'limotni ilgari suradi. Ularning nazdida «ko'rinmas qo'l» talab va taklif bo'lib, ishlab chiqaruvchi o'zi yaratgan moddiy ne'matlari bilan bozordagi taklifni shakllantiradi, iste'molchi esa ma'lum darajadagi ehtiyojini qondirish uchun qilgan harakati natijasida talabni vujudga keltiradi. Aynan mana shu jarayonda tomonlarning manfaatlari bozorga taklif etilayotgan moddiy ne'matlar massasi va ularni sotib olish uchun zarur bo'lgan pul massasi o'rtasidagi

bog'liqlik natijasida o'zining yechimini topadi. Agar iste'mol uchun taklif etilayotgan tovar massasi pul massasiga nisbatan ko'p bo'lsa ularning bahosi pasayadi va iste'molchining tanlov imkoniyatlari ortadi va aksincha.

Adam Smitt va boshqa metall pul nazariyasi tarafdorlari aynan mana shu jarayonda muomalada metall tangalarning ishtirok etishi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan moddiy ne'matlarning haqiqiy qiymatini xolisona baholashda qo'l kelishi asosida metall pul nazariyasini ilgari suradilar, chunki to'lov vositasi sifatida metall tangalar amal qilgan sharoitda bozorga taklif etilayotgan moddiy ne'matlar hajmi pul hajmidan kam bo'lganda, metall tangalarning ortiqcha qismi pul sohibi tomonidan moddiy boylik sifatida jamg'armaga yo'naltiriladi, ya'ni metall tangalar (asosan oltin, kumush tangalar nazarda tutilayapti) kam miqdorda taklif etilayotgan tovar va moddiy ne'matlar qiymati (bahosi)ni sun'iy ravishda ortib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Buning asosiy sababi metall pullar haqiqiy qiymatga ega bo'lib, kelgusida ham ular o'zining qiymatini yo'qotmasligi pul sohibiga katta ishonch bag'ishlaydi va avtomatik ravishda bozordagi talab va taklifga qarab ma'lum davrda to'lov vositasi sifatida, ma'lum davrda esa moddiy boylik sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning nazarimizda, metall pul nazariyasi tarafdorlarining asosiy yutuqlari ham shunda bo'lib, muomalada metall pullar to'lov vositasi vazifasini bajargan paytda iqtisodiyotda inflatsiya muammosi vujudga kelmagan, shu bilan birga, davlat tomonidan pul – kredit siyosatini amalga oshirish va tartibga solish kabi masalalariga ehtiyoj tug'ilmagan.

Shu bilan birga, pulning metallilik nazariyasi tarafdorlarining ayrim kamchiliklari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan, pulning metallik nazariyasi tarafdorlari pulning barcha funksiyalarini bajaruvchi haqiqiy pullarni keyinchalik ularning o'rinbosarlari hisoblangan qog'oz pullar bilan almashtirilishini inkor etdilar. Ular haqiqiy qiymatga ega bo'lgan metall pullarni qog'oz pullarga almashtirish mumkinligini va uning tabiatini tasavvur qila olmadilar. Biroq, o'sha davrlarda ham qog'oz pullar Xitoyda juda keng miqyosda to'lov vositasini bajarar edi.

Ikkinchidan, metall pul nazariyachilari pullarni tovar ayirboshlash munosabatlari ta'sirida vujudga kelganligini, shuningdek, pulning tarixiy – iqtisodiy kategoriya ekanligini tushunib yetmadilar.

Uchinchidan, metallik pul nazariyachilari ta'limotida boylikning asosini savdo tashkil etadi, boylikning asosini oltin va boshqa qimmatbaho metallarni jamg'arishda degan noto'g'ri tasavvur mavjud edi. Bu jamiyatda har qanday boylikning asosida oltin yoki qimmatbaho metallar emas, balki boylik kishilarning moddiy va ma'naviy jihatdan yetukligi hamda har qanday boylikning asosida mehnat yotishini inkor etishdi.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida metallik pul nazariyasi bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari talablarini to'liq qondirmay qoldi, bu ushbu nazariyaning o'z o'rini yo'qotishiga olib keldi. Biroq bu jarayon juda uzoq muddat davomida qiyinchiliklar bilan yuz berdi, chunki metallik pul nazariyasini yoqlab nemis (K. Knis, 1821 – 1898 yy.), ikkinchi jahon urushidan keyin amerkalik (M.Xalpern), fransuz (SH. Rist, A. Tulemon, J. Ryueff, M. Debre), angliyalik (R.Xarrod) iqtisodchilar shular jumlasidandir.

Jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning tobora rivojlanib borishi, shu bilan birga, kishilarning ehtiyoji ortib borishi natijasida ayirboshlash munosabatlari hajmining o'sishi, ishlab chiqarish hajmining keskin sur'atlar bilan ko'payishi muomalada foydalanib kelingan metall tangalar bilan parallel ravishda qog'oz pullar ham to'lov vositasi sifatida amal qila boshladi, evolyutsion tarzda ma'lum ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar oqibatida metall (kumush va oltin) pullar o'z o'rnini qog'oz pullarga bo'shatib berdi. Bu pulning nominalist nazariyasining vujudga kelishiga zamin yaratdi.

7.3. Pulning nominallik nazariyasi

Nominal pul nazariyasi xususidagi tadqiqotlar natijasida ushbu nazariyani turlicha nomlanishining guvohi bo'ldik. Masalan, rus tilida pul nazariyasi haqida yozilgan adabiyotlarda «nominallisticheskaya teorii deneg», «metallicheskaya teorii deneg» tarzida, o'zbek tilidagi iqtisodiy adabiyotlarda «pulning nominalistik nazariyasi», «nominal pul nazariyasi» yoki «metall bo'lmagan pul nazariyasi» tarzidagi so'z birikmalarini uchratish mumkin.

Shu bois, dastlab pulning «metall bo'lmagan nazariyasi» haqida ayrim mulohazali holatlarni oydinlashtirib olish maqsadga muvofiq degan fikrga keldik. Metall bo'lmagan pul nazariyasi turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilishining asosiy sabablaridan biri, pul nazariyasi to'g'risida yaratilgan iqtisodiy asarlarning deyarli barchasi

xorijiy tillarda, asosan ingliz, nemis tillardan rus tiliga undan so‘ng esa o‘zbek tiliga o‘girilganligida bo‘lsa kerak.

Nominal pul nazariyasi tarafdorlari ushbu nazariyaning asosida qog‘oz pullar e’tirof etilishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, shuningdek, nominal pul nazariyasining amal qilishining asosiy omili sifatida pul nominallarini davlat tomonidan belgilanishi va uning ta’minlanishi ham davlat tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadigan bo‘lsak, nominal pul nazariyasini «qog‘oz pullar nazariyasi» tarzida ifodalash ham mumkin bo‘ladi.

Nominal pul nazariyasini «qog‘oz pul nazariyasi» tarzida yuritilishi uning aniqliligini, metall pul nazariyadan ushbu nazariyani, nominal pul nazariyasini qanday farqlari mavjudligini ortiqcha qiyinchiliklarsiz aniqlash imkonini beradi.

Nominal pul nazariyasi xususidagi dastlabki qarashlarni quldorchilik, keyinchalik feodal tuzumi sharoitidagi qadimgi faylasuflar ta’limotlarida kuzatish mumkin. Pulning nominal nazariyasi XVII – XVIII asrlarda, muomalaga haqiqiy bo‘lmagan metall pullar kiritilgan davrda shakllangan. Dastlabki nominal pul nazariyasining asosini qog‘oz pullar emas, balki haqiqiy bo‘lmagan tanga monetalar tashkil etgan.

Pulning nominal nazariyasini ilgari surgan dastlabki iqtisodiy nazariya vakillari Dj.Berkli (1685 – 1780) va Dj.Styuart (1712 – 1780) hisoblanadi. Ularning nazariyalari asosida quyidagi ikkita holat yotardi: pul davlat tomonidan yaratiladi va pulning qiymati uning nominali bilan aniqlanadi. Pul birligining sotib olish qobiliyati uning nominali asosida, ya’ni qog‘oz pulda ko‘rsatilgan nominal qiymati bilan aniqlanadi.

Nominal pul nazariyasi tarafdorlarining asosiy zaifligi shundaki, ularning ta’limotiga ko‘ra pulning qiymatini davlat belgilaydi. Bu bilan ular pulning mehnat mahsuli nazariyasi va tovar tabiatiga ega ekanligini inkor qiladi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning sotib olish qiymati talab va taklif asosida belgilanadi, shuningdek, milliy xo‘jalik doirasida to‘lov vositasini bajaradigan pullarning kursi xalqaro miqyosda amal qiladigan xorijiy valutalarga bo‘lgan talab asosida o‘zgarib turadi.

Nominalist pul nazariyasi vakillarining rivojlangan davri asosan XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to‘g‘ri kelib, uning ko‘zga ko‘ringan tarafdorlaridan biri, nemis olimi G.Knapp (1842 – 1926) hisoblanadi. G.Knappning pul nazariyasini, uning ta’limoticha ma’lum

qiymatga ega bo'lmagan monetalarda emas, balki xazina biletlari asosida asoslashga harakat qiladi.

Nominal pul nazaryachilarining asosiy kamchiligi shundaki, ularning ta'limotida pulning qiymati davlat tomonidan belgilanadi degan g'oya ilgari suriladi. Kredit pullar (veksellar, banknotalar, cheklar) esa ularning ta'limotida inobatga olinmaydi va e'tibordan chetda qoldiriladi. Chunki kredit pullarning qiymati davlat tomonidan emas, balki ularning emitentlari tomonidan belgilangan nominal qiymatga ega bo'lib, ushbu qiymat o'zgarishga moyildir, ya'ni ularni muomalaga chiqargan emitentlar kredit pullarining dastlabki qiymatda saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Bizning nazarimizda, nominal pul nazariyasi vakillari qog'oz pullarning qiymatini nafaqat oltin qiymatidan, balki tovarlar qiymatidan ham ajratib oldilar va ularning nominal qiymatining barqarorligi, sotib olish qobiliyati davlatning tegishli hujjatlari asosida aniqlanadi degan mantiqsiz g'oyani ilgari suradilar.

Nominal pul nazariyasi vakillarining ta'limoti Germaniya tomonidan birinchi jahon urushini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan katta miqdordagi emissiya jarayonida namoyon bo'ldi. Biroq, ushbu ta'limotning haqiqatga yaqin emasligi Germaniyada 1920-yillarda yuz bergan giprinflatsiya sharoitida isbotlandi. Muomalaga asossiz ravishda emissiya qilingan juda katta miqdordagi qog'oz pullar juda tez muddatda 700 – 800 foiz darajasida inflatsiyaga uchrashi natijasida mamlakatda pul – kredit, moliya tizimi izdan chiqdi. Buning natijasida ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqish pasayib, kishilar moddiy ne'mat yaratish hisobiga emas, balki mavjud moddiy ne'matlarni sotish hisobiga qo'shimcha daromad olish payiga tushib qoldilar. Chunki ishlab chiqarish va qo'shimcha moddiy ne'matlarni yaratish ma'lum darajadagi vaqtni talab etar, bu vaqtda esa ishlab topilgan daromad inflatsiya natijasida o'zining qiymatini yo'qotar edi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, nominal pul nazariyasi iqtisodiyotning markazdan boshqarish tuzumi sharoiti va talablariga mos keladi. Chunki ushbu tuzumda pulning nominal qiymati davlat tomonidan o'rnatilib, uning amal qilishi ham to'liq nazorat ostiga olinadi. Shunda ushbu nazariya tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan ta'limot o'zini oqlaydi. Ta'kidlash joizki, markazdan boshqarish tuzumi yoki markazdan rejalashtirish tuzumi sharoitida qog'oz pullarning nominali davlat tomonidan o'rnatilishi bilan birga, yaratilgan tovar

moddiy qimmatliklarning bahosi ham yuqoridan belgilanadi. Shu bilan birga, muomalaga emissiya qilinadigan pulning miqdori, ularning harakati va amal qilish kabi barcha jarayonlar ham davlat tomonidan rejalashtirilib, ushbu rejaning bajarilishi to'lig'icha tegishli organlar tomonidan nazorat qilib boriladi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida nominal pul nazariyasini amaliyotga joriy etish va uning amal qilishining imkoniyati mavjud emas. Chunki davlat banklari tomonidan muomalaga emissiya qilingan pul belgilari tegishli talab va taklif asosida tovar moddiy qimmatliklarning bahosini belgilaydi. Uning sotib olish qobiliyatini mustahkam yoki zaif bo'lishi davlatning nazdidan anchagina yiroqda bo'lib, davlat unga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday holat pulning miqdoriy pul nazariyasini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

7.4. Pulning miqdoriy nazariyasi

Miqdoriy pul nazariyasida pulning sotib olish qobiliyati va baho darajasi muomaladagi pul miqdori bilan belgilanadi. Miqdoriy pul nazariyasining asoschisi fransuz iqtisodchisi J.Boden (1530 – 1596) hisoblanadi. Keyinchalik ushbu nazariyani ingliz iqtisodchilari D. Yum (1711 – 1776) va Dj. Mil (1773 – 1836), shuningdek, fransuz SH. Monteske (1689 – 1755) rivojlantirdi.

D.Yum Angliyaga XVI – XVII asrlarda Amerikadan katta hajmda nodir metallarning kiritilishi natijasida baholarni ortib ketishini kuzatib: «pulning qiymatini uning miqdori belgilaydi» degan ta'limotini ilgari suradi.

Miqdoriy pul nazariyasining dastlabki vakillari pulni faqat to'lov vositasi sifatidagi vazifasiga e'tibor qaratadi, ularning fikricha, pul va tovar ayirboshlash jarayonida uchrashishi natijasida pulning qiymati aniqlanadi degan noto'g'ri g'oyani ilgari suradilar. Shuningdek, ularning ta'limotidagi ikkinchi kamchilik muomalaga chiqarilgan barcha pullar muomala jarayonida ishtirok etadi deya ishonishlaridir. Haqiqatda esa obyektiv iqtisodiy qonunlar muomalaga zarur bo'lgan pulning miqdorini aniqlaydi. Bu bilan ular pulning jamg'arma, to'lov vositasi kabi funksiyalarini e'tibordan chetda qoldirishadi.

Kredit va qog'oz pul muomalasiga asoslangan miqdoriy pul nazariyasining zamonaviy sharoitdagi talqini yirik iqtisodchi olimlar L.Marshall, I.Fisher, G.Kassel, B. Xansen, M. Fridmanlarning asarlarida bayon etilgan.

Ularning miqdoriy pul nazariyasi ikkita yo'nalishdagi ta'limotga asoslangan bo'lib:

– birinchisi, I. Fisher va M. Fridman boshchiligidagi monetaristlarning «tranzaksion variant» ta'limoti;

– ikkinchisi, A. Pigu boshchiligida angliya Kembrij maktabi vakillari, ikkinchi jahon urushidan keyin esa D. Patinkinning «kassa qoldig'i» konsepsiyasi ta'limoti hisoblanadi.

Pul nazariyasi haqida amalga oshirilgan o'rganishlar, tahlillar natijasida miqdoriy pul nazariyasining rivojiga sezilarli ravishda hissa qo'shgan kishilardan biri amerikalik iqtisodchi I. Fisher (1867 – 1977) ekanligining guvohi bo'ldik. U pulning mehnat mahsuli natijasidagi qiymat ekanligini inkor etib, uning sotib olish qobiliyatidan kelib chiqqan holda fikr yuritadi. I.Fisher pulning sotib olish kuchi oltita omilga bog'liq ekanligini ta'kidladi va ularni quyidagilardan iborat bo'lishini asoslab berdi.

M – muomaladagi pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

P – o'rtacha tortilgan baho;

Q – tovarlar hajmi;

M1 – bank depozitlari summasi;

V1 – depozit – cheklarning aylanish tezligi.

Tovarlar uchun to'lanadigan, muomaladagi pul miqdori jami tovarlar bahosini ko'paytirilganiga tengligini e'tiborga olib, Fisher quyidagi «ayirboshlash tengligi»ni ilgari surdi.

$$MV=PQ$$

Fisher chap va o'ng tomoni bir – biriga to'g'ri proporsional bo'lgan funksional tenglikka asoslangan holda, tovarlarning bahosi R muomaladagi pul miqdoriga to'g'ridan – to'g'ri proporsional va tovarlar miqdori Q teskari proporsionaldir degan fikrga keldi.

Fisherning funksional bog'liqligidagi tengligida kamchilik shundan iborat ediki, u tovarlar miqdori va muomaladagi pul miqdorini ma'lum bir davrdagi holatini shartli V va Q ning o'zgaruvchan darajasida e'tiborga olib, unga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan darajalar ikkita, ya'ni tovarlar hajmi va bahosini e'tibordan chetda qoldiradi. Haqiqatda esa tovarlar hajmi iqtisodiyotning davriyligidan kelib chiqib o'zgarib turadi va pul birligining aylanish tezligiga ta'sir ko'rsatadi hamda pul muomalasi va bahoning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, tovarlarning bahosi qator omillar asosida

o‘zgarib turadi. Masalan, ishlab chiqaruvchilarning monopol mavqeyiga egaligi, davlatning ichki va tashqi siyosati va boshqalar tovarlar bahosiga bevosita va bilvostia ta’sir ko‘rsatadi.

Miqdoriy pul nazariyasining «tranzaksion varianti» ta’limoti asoschilari, monetaristlar M.Fridman, K.Brunner, A.Melttserlar hisoblanadi. A.Marshall, L.Valrasning iqtisodiyotda muvozanatlik modeliga asoslangan holda, ular tovarlar bahosi va muomaladagi pul miqdori o‘rtasidagi tenglik «nisbiy» baholarning o‘zgarishi natijasida avtomatik tarzda muvozanatlashadi. Monetaristlar ushbu tenglikning o‘zgarib turishini iqtisodiyotdagi pul massasi bilan bog‘laydilar, shuningdek, M. Fridman tovarlar miqdori va muomaladagi pul miqdori o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashda nafaqat naqd pullar (banknotlar va tangalar)ni, balki tijorat banklarning tranzaksion hisobvaraqlaridagi (talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlar, depozit sertifikatlar va muddatli depozitlar) qoldiq mablag‘larni ham inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Monetaristlar zamonaviy miqdoriy pul nazariyasiga qator yangicha holatlarni kiritishdi. Xususan:

– birinchidan, ular pul massasi va bahoning o‘zaro bir – biriga to‘g‘ri proporsionalligidan voz kechdilar, faqat bozorga taklif etilayotgan tovarlar hajmining baholarga ta’siri haqidagi ta’limotni yoqladilar;

– ikkinchidan, ular pul birligi aylanish tezligini e’tirof etadilar, biroq bunga jiddiy e’tibor qaratishmaydi;

– uchinchidan, ular I. Fisherning tovarlar hajmining o‘zgarmas sharoitida muomaladagi pul miqdori jami tovarlar bahosini ko‘paytirilganiga tengligini inkor etadilar;

– to‘rtinchidan, takror ishlab chiqarish sharoitida turli darajadagi tebranishlarni aniqlashda pul massasi dinamikasi birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligiga ishonadilar, pul-kredit siyosatiga esa iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmi sifatida qaraydi.

Kembrij maktabi vakillarining qarashlari I. Fisher ta’limotidan farqli o‘laroq, odamlarning qo‘llarida pul ushlab turishlariga asos bo‘luvchi pulning ikki xususiyatini ajratib ko‘rsatishadi.

Birinchidan, pulning almashuv vositasi ekanligi. Subyektlar bitimlarni amalga oshirayotgan vaqtlarida pul almashuv vositasi sifatida amal qiladi. Kembrij maktabining vakillari Fisherning pulga bo‘lgan talab bitimlar hajmiga bog‘liq va pulning bitimlarni amalga oshirishi

uchun talabi nominal YaIMga proporsional ekanligi to‘g‘risidagi fikriga qo‘shiladilar.

Ikkinchidan, pul boylikni saqlash vositasi: Modomiki, pul boylikni saqlash vositasi ekan, pulga bo‘lgan talab ushbu boyliklar miqdoriga ham bog‘liq degan fikrni ilgari suradi. Boyliklarning oshishi bilan subyektlarda ularni har xil aktivlarga joylashtirish zaruriyati tug‘iladi.

Natijada, Kembrij maktabining olimlari pulga bo‘lgan talab nominal YaIMga proporsional degan xulosaga kelishdi va pulga bo‘lgan talab funksiyasini quyidagi tenglama tarzida ifoda etishdi.

$$M^d=K*RY$$

Ularning modeliga ko‘ra iste’molchilar qo‘llarida qancha pul bo‘lishi kerakligini o‘zlari hal qiladi. Bu esa K – (proporsionallik koeffitsiyenti)ning qisqa muddatlar ichida tebranishlarda bo‘lishini ko‘zda tutadi. Vaholanki, pullardan boyliklarni saqlash usuli sifatida foydalanish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish, boshqa aktivlardan kutiladigan daromadlarga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, boshqa aktivlardagi xususiyatlarning o‘zgarishi K ning ham o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan farq I. Fisherning Kembrij maktabi vakillari fikrlaridan farqini anglatadi.

Jon Meynard Keyns Kembrij maktabining eng so‘nggi vakillaridan bo‘lib, ularning fikrlarini rivojlantirdi. Keynschilik nazariyasi asosan XX asrning 30 – yillarida yaxlit g‘oyaviy oqim sifatida to‘liq shakllandi. Uning asoschisi XX asrning eng mashhur iqtisodchilaridan biri Buyuk Britaniyalik olim J. M. Keyns edi.

M.Fridman tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya formulasi I.Fishernikidan ko‘rinishi nuqtayi nazardan farq qilib, mohiyatan pul massasi va baho o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab berishga qaratilgan:

$$M=KRU$$

bu yerda

M – pul miqdori;

K–pul zaxirasining daromadga nisbati;

R–baho indeksi;

U–o‘zgarmas baholardagi milliy daromad.

Monetaristlarning miqdoriy pul nazariyasini aks ettiruvchi zamonaviy tengligidan shunday xulosa qilish mumkinki, pul massasining o‘zgarishi tenglikning o‘ng tomonida uchta holatning biriga ta’sir qiladi, ya’ni baholarning oshishiga (R), real milliy daromadning

ortishiga (U), pul zaxirasini daromadga nisbatan koeffitsiyentini o'zgarishiga olib keladi.

Miqdoriy pul nazariyasi Angliyaning Kembrij maktabi vakillari tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning vakillari sifatida A. Marshal, D. Robertson va D. Patinkinlarni keltirish mumkin.

I. Fisherning miqdoriy pul nazariyasi haqida shakllantirgan «tranzaksion varianti»da pul asosan muomala vositasi va to'lov vositasi funksiyalarini bajarishini e'tirof etgan bo'lsa, A.Pigu miqdoriy pul nazariyasida pulni jamg'arma vositasi funksiyasi vazifasini ham bajarishini ta'kidlab, unga alohida ahamiyat qaratadi.

Angliya Kembrij maktabi vakillari miqdoriy pul nazariyasi borasidagi ta'limotlarida I. Fisherning pul nazariyasi xususidagi ta'limotidan farqli yana bir konsepsiyani ilgari suradilar. Agar, I. Fisher iqtisodiyotga zarur bo'lgan pul miqdorini uning taklifini tahlil qilish asosida aniqlagan bo'lsa, Kembrij maktabi vakillari iqtisodiyotga zarur bo'lgan pul miqdorini tovarlar va xizmatlar hajmidan kelib chiqib unga bo'lgan ehtiyoj asosida aniqlash zarurligi haqidagi ta'limotni ilgari suradi.

Shuningdek, agar I. Fisher pulning hajmini muomalada bo'lgan miqdoriga qarab va ular doimiy ravishda muomalada ishtirok etishini e'tirof etgan bo'lsa, Kembrij maktabi vakillari muomalaga chiqarilgan pullarning barchasi doimiy ravishda muomalada ishtirok etmasligi, ular «kassa qoldig'i» sifatida aholining qo'lida, bank va korxona hisobvaraqlarida ma'lum muddatga saqlanib qolishi mumkinligi xususidagi ta'limotni asoslab berishadi.

I. Fisher jami ijtimoiy kapitalni va bahoning darajasini umumiy yaxlitlikda tahlil qilish asosida tegishli xulosalarni shakllantirgan bo'lsa, A.Pigu asosiy e'tiborni kapitalning individual harakati va ularning sohiblariga qaratadi.

A. Pigu miqdoriy pul nazariyasining «kassa qoldig'i» haqidagi ta'limotni ilgari surganda uning tarkibiga muomaladagi naqd pulsiz va joriy hisobvaraqlardagi qoldiq summalarni, ya'ni pul miqdorini aniqlashda aholining qo'lidagi naqd pul qoldiqlari va korxona – tashkilotlarning banklardagi hisobvaraqlari qoldiqlarini ham inobatga oladi.

E'tirof etish lozimki, A.Piguning pul nazariyasi haqidagi yondashuvlari I.Fishernikidan farq qilsada, mohiyatan miqdoriy pul nazariyasi doirasidan chiqib ketolmagan edi, pul va baho o'rtasidagi

to‘g‘ridan – to‘g‘ri aloqa saqlanib qolgan edi. Buni A.Pigu tomonidan yaratilgan $M = RPQ$ yoki $P=M/Q$ tengligida ham kuzatish mumkin, chunki bu I.Fisherning «ayirboshlashni tenglashtirish» konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, unda:

M – pul massasi;

P – baho darajasi;

Q – tovar massasi (yoki tovar aylanmasining moddiy hajmi);

V – jismoniy va yuridik shaxslarning pul ko‘rinishida saqlashi mumkin bo‘lgan daromadlar.

I. Fisher va A. Piguning tengliklari o‘rtasidagi farq, Fisherda pul birligining aylanish tezligi V foydalaniladi, ikkinchi koeffitsiyent K, V ga teskari ko‘rsatkich bo‘lib, agar Piguning tengligidagi K almashtirilsa Fisherning formulasi kelib chiqadi.

XX asrning 50-yillarini o‘rtalaridan boshlab, miqdoriy pul nazariyasining Kembrij ta’limotiga asoslangan neoklassik yo‘nalishi vujudga keldi. Ushbu yo‘nalishning asosiy nomoyandasi D. Patinkin hisoblanib, u o‘zining asarlarida pul massasi va baho o‘rtasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri proporsionallik mavjudligidan kelib chiqdi. D. Patinkin «kassa zaxirasi»ni yuqori likvidli manba sifatida qaraydi, uning hisobidan qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish va keyinchalik ushbu mablag‘larni real kapitalga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi.

D. Patinkin miqdoriy pul nazariyasida daromadni uchta yo‘nalishga, ya’ni iste’mol, investitsiya va «kassa zaxirasi» sifatida joylashtirish zarurligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, pul nazariyasi va uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi holatini o‘rganish va tahlil qilish asosida bu xususda iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va tadqiqotchilarning fikrlari turlicha bo‘lsada, barchasining asosida uning ayirboshlash vositasi ekanligi va pulning mavjudligi asosida mehnat taqsimoti yotishi e’tirof etiladi.

Bobga oid savollar

1. Pulning nazariyalari xususida iqtisodiy nazariyachilarning qarashlari.
2. Pulning qanday nazariyalari mavjud?
3. Metall pul nazariyasining mohiyati va uning tarafdorlari.
4. Metall pul nazariyasi qanday davrlarga to‘g‘ri keladi?

5. Metall pul nazariyasining asosiy kamchiliklari.
6. Nominal pul nazariyasining mohiyati va uning tarafdorlari.
7. Nominal pul nazariyasining asosiy yutuq va kamchiliklari.
8. Miqdoriy pul nazariyasining mohiyati va uning tarafdorlari.
9. Miqdoriy pul nazariyasi afzalliklari va kamchiliklari.
10. Miqdoriy pul nazariyasi ta'limotining asosiy yo'nalishlari.

Bobga oid testlar

1. Pulning nazariyasi iqtisodiy kategoriya sifatida nechta guruhga ajratib o'rganiladi?

A. 2 ta guruhga.
B. 3 ta guruhga.
V. 4 ta guruhga.
G. 6 ta guruhga.

2. Pulning metallik nazariyasi qanday davrlarda vujudga kelgan?

A. XV – XVI asrlarda.
B. XIV – XV asrlarda.
V. XVI – XVII asrlarda.
G. XVII – XVIII asrlarda.

3. Pulning metallik nazariyasi qanday tuzumda vujudga kelgan?

A. Quldorchilik tuzumida.
B. Natural – feodal tuzumida.
V. Kapitalistik tuzumida.
G. Sotsialistik tuzumda.

4. Pulning nominal nazariyasi qanday davrlarda vujudga kelgan?

A. XVI – XVII asrlarda.
B. XIV – XV asrlarda.
V. XV – XVI asrlarda.
G. XVII – XVIII asrlarda.

5. Pulning nominal nazariyasi davrining shakllanishiga qanday omillar ta'sir qilgan?

A. Muomalaga qog'oz pullar kiritilganda.
B. Muomalaga kumush va oltin tangalar kiritilganda.
V. Muomalaga haqiqiy bo'lmagan metall pullar kiritilganda.
G. Muomalaga banknotalar va monetalar kiritilganda.

6. Nominal pul nazariyasi tarafdorlarining zaifligi nimada?

A. Oltinni haqiqiy qiymat sifatida e'tirof etishida.

B. Pulning qiymatini davlat belgilashini e'tirof etishida.

V. Kumushni to'lov vositasi sifatida e'tirof etmaydi.

G. Qog'oz pullar qiymati talab va taklif asosida belgilashini e'tirof etishida.

7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning sotib olish qobiliyati:

A. Talab va taklif asosida belgilanadi.

B. Tovar va mahsulotlar hajmi asosida belgilanadi.

V. Davlatning tegishli qarorlari asosida belgialandi.

G. Markaziy bankning qarori asosida belgilanadi.

8. Pulning miqdoriy nazariyasi haqidagi ta'limotni qachon va kim tomonidan ilgari surilgan?

A. XV – XVI asrlarda, Dj.Mil tomonidan.

B. XVI – XVII asrlarda, D.Yum tomonidan.

V. XVII – XVIII asrlarda, J.Boden tomonidan.

G. XVIII – XIX asrlarda, SH.Monteske tomonidan.

9. Miqdoriy pul nazariyasining «tranzaksion varianti» ta'limoti asoschilari kimlar?

A. M.Fridman, K.Brunner va A.Meltserlar.

B. A.Marshall va L.Valras.

V. A.Smit, G.Kassel va B.Xansen.

G. J.Boden, D.Yum va Dj.Mil

10. *Miqdoriy pul nazariyasida «kassa qoldig'i» haqidagi ta'limotni ilgari surgan nazariyachi ?*

A. A.Pigu.

B. D.Yum.

V. Dj.Mil.

G. J.Boden.

8 – bob. AYRIM XORIJIY DAVLATLAR PUL TIZIMI

8.1. AQSH pul tizimi

Amerika qitasida pul muomalasi XVIII asrlarda asosan xorijiy valutalarda, ya'ni Angliya funt sterlingi va Ispaniya kumush dollari bilan amalga oshirilgan.

AQSH dollari Kongress qarori bilan 1785-yilda milliy valuta sifatida e'lon qilingan. 1792 yilda bimetallizm tizimi joriy etilib, dollar oltin va kumushdan zarb etilgan. Banknotlar xususiy banklar tomonidan muomalaga kiritilgan. 1859-yilda AQSHda 1000 dan ortiq xususiy banklarning 5400 turdagi banknotlari to'lov vositasi vazifasini bajargan.

AQSHda XVIII – XIX asrlarda pul emissiyasini markazlashtirish va tartibga solishga ikki marta (1791va 1816-yy.) urinib ko'rildi, biroq ushbu harakatlar muvafaqqiyatsizlikka uchradi. AQSHda 1863-yilda milliy (davlat) banklari tashkil etilib, ularga emissiya huquqi berildi. Shtat banklari 10 foizlik soliqqa tortish evaziga emissiya qilish huquqidan bosqichma – bosqich bekor qilindi. Shu bilan birga, 1873-yildan boshlab kumushni erkin zarb etish bekor qilindi.

1900-yilda rasmiy ravishda oltin standarti joriy etilib, dollarning oltin qiymati 1,504632 gr etib belgilandi.

Federal hukumat qonunchiligiga asosan 1913-yilda AQSH Federal zaxira tizimi (FZT) tashkil etildi. Uning a'zolari o'z kapitalining 6 foizini pay sifatida FZTga o'tkazishlari, shuningdek, muddatli depozitlarining umumiy summasini 3 foizi, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning 7 foizdan 13 foizgachasini zaxira sifatida ushlab turishlari belgilab qo'yildi.

FZT mamlakat Markaziy banki sifatida muomalaga banknotlarni chiqarish bo'yicha monopol huquqqa ega bo'ldi, dastlab uning banknotlari tijorat va bank veksellari bilan, 1917-yildan boshlab oltin bilan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Natijada 1920-yilga kelib, uning muomalaga chiqargan biletlari mamlakatdagi mavjud pul biletlari hajmidan bir necha barobar ortib ketdi.

FZT tomonidan qilingan emissiya hajmining ortib ketishi natijasida 1932-yilda qabul qilingan Blass – Stigalla qonuniga asosan davlatning qimmatli qog'ozlari banknotlarning ta'minoti sifatida qabul qilindi.

AQSH G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, birinchi jahon urushi davrida banknotlarni oltinga almashtirish tartibini bekor qilmadi, lekin muomalada oltin tangalar miqdori keskin kamayib ketdi.

AQSHda yuz bergan 1929 – 1933-yildagi Buyuk inqirozga qadar muomaladagi oltin tangalar xususiy shaxslar va banklar tomonidan olib qo'yila boshladi. 1929 – 1933-yildagi Buyuk inqiroz 1933-yil aprelda AQSHda oltin standartini bekor qilishga majbur etdi.

1934-yil 31-yanvardagi qonunga ko'ra dollarning 40,8 foizi oltin bilan ta'minlanishi belgilanib qo'yildi, shuningdek, bir dollarning oltindagi qiymati 1,50463 grammdan 0,888671 grammga tushirildi, AQSH g'aznasi bir unsiya oltinni sotib olish bahosini 20,67 dollardan 35 dollargacha ko'tardi. AQSHning yuridik va jismoniy shaxslarga oltinni tanga shaklida saqlashni taqiqlab qo'yildi.

1934-yilda FZT tasarrufidagi oltin zaxirasi bir unsiyasi 26,67 dollar bahosida davlat g'aznasiga topshirildi. FZT uning o'rniga federal g'aznasi tomonidan banknotlarni ta'minlanganligiga xizmat qiluvchi oltin sertifikatlarni oldi. AQSH hukumati 2,8 mlrd. dollar oltin zaxirasi hisobidan 2 mlrd.ga teng bo'lgan barqarorlashtiruvchi valuta fondini tashkil etdi.

1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshida AQSHning valuta pozitsiyasi sezilarli darajada yomonlashdi. Mamlakat oltin zaxirasi ikki martadan ziyodroqqa kamaydi. 1949-yilda 24,6 mlrd. dollar 1987-yil sentabrda 11,1 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1960-yillarda mamlakat oltin zaxirasi muomaladagi jami banknotlarning 25 foizi atrofida tashkil etdi, buning natijasida dollarning oltin bilan ta'minlanishi bekor qilindi.

1971-yilda oltining bir unsiyasi 38 dollarni, 1973-yil fevralda 42,22 dollarni tashkil etdi. 1975-yilda AQSH o'z fuqarolariga oltin tanga va slitkalarni sotib olishga ruxsat berdi, 1970-yilda oltinning bahosini pasaytirish maqsadida oltin auksioni o'tkazildi. Natijada, Yamayka kelishuviga asosan oltining rasmiy bahosi bekor qilindi va uni valuta pariteti sifatida foydalanishni taqiqladi. Dollarning kursi talab va taklif asosida o'rnatiladigan bo'ldi, buning natijasida oltinning bozor bahosi birdan oshib ketdi.

AQSHning zamonaviy pul muomalasi juda rivojlangan bo'lib, AQSH davlat g'aznasi, FZT va ayrim shtat banklari pullarni muomalaga emissiya qilish bilan shug'ullanadi. Davlat g'aznachiligi mayda banknotalarni (1-10 dollarlik qiymatdan), kumush dollar va tangalarni muomalaga chiqardi.

Muomaladagi asosiy pullarning ulushi FZT tomonidan chiqarilgan bo'lib, kredit tizimini takomillashuvi barobarida naqd pul bilan hisob-kitob tizimi qisqarib bormoqda.

8.2. Buyuk Britaniya pul tizimi

Markazlashgan mamlakat vujudga kelgunga qadar Britaniya orollarida IX – X asrlarda funt sterling ayirboshlash vositasi sifatida foydalanib kelingan. Funt sterlingni dastlabki nomi uning og'irligi tarkibidan paydo bo'lgan.

Bir funt kumushdan 240 pens zarb qilingan. Ular «sterlik» deb nomlangan. XIV asrning o'rtalarida muomalada oltin tangalar paydo bo'ldi, mamlakatda bir necha asr davomida bimetallizm hukm surgan. Angliya boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha ilgari oltin standartiga o'tdi. Angliyada oltin standarti amalda XVIII asrning oxiri, huquqiy jihatdan 1866-yildan boshlab joriy etildi.

Birinchi jahon urushiga qadar Angliyada pul muomalasi Robert Pilya qonuni asosida tartibga solindi, unga ko'ra barcha banknotlar 100 foiz oltin bilan ta'minlanishi shart edi.

Birinchi jahon urushi mamlakat pul muomalasini keskin izdan chiqardi. 1914-yilda banknotlarni oltinga almashtirish jarayoni bekor qilingandan so'ng, hukumat harbiy xarajatlarni qoplash uchun juda katta miqdorda emissiyani amalga oshirdi. Muomaladagi pul massasi 1913 – 1918-yillarda 35 mln. funt sterlingdan 399 mln.ga, 1920-yilda esa 555 mln. funt sterlingga chiqdi.

Hukumat pul muomalasini barqarorligini ta'minlash maqsadida «qimmat pullar» siyosatini qo'llab 1920-yilda deflyatsiyani amalga oshirdi. Bu mamlakatdagi moliyaviy oligarxlarning manfaatiga mos tushdi, ular xorijiy mamlakatlarga juda katta miqdorda kapital qo'yilmalarini amalga oshirgan bo'lib, funt sterlingning sotib olish qobiliyatini yuqoriligidan manfaatdor edilar.

Angliyada 1925 – 1928-yillarda pul islohoti o‘tkazildi. Islohotlar 1925-yil aprelda boshlanib, uning natijasida urushdan oldingi kabi, Angliya banknotlarini oltinga almashtirish tiklandi.

Angliya Banki funt sterlingining kursini barqarorligini ta’minlash maqsadida hisob stavkasining darajasini oshirdi, bu sanoat korxonalarining «arzon pullar»ga ehtiyojini cheklashga olib keldi.

1929 – 1933-yillarda ro‘y bergan jahon iqtisodiy inqrozi Angliyaning tashqi bozorlaridagi mavqeini ancha pasaytirdi, mamlakatdan juda katta hajmda kapitallar chiqib keta boshladi. 1931-yil 21-sentabrda funt sterlingni oltinga ayriboshlanishi bekor qilindi va devalvatsiya qilindi.

Angliya Banki tasarrufidagi oltin zaxiralari 1932-yilda davlat g‘aznachilik qoshida tashkil etilgan Valutani barqarorlashtirish fondi tasarrufiga o‘tdi. Angliya tashqi bozorlaridagi funt sterlingning kursini tushirish orqali Yaponiya va AQSH mamlakatlari bilan faol «valuta urushi»ga kirib bordi. Natijada ushbu «valuta urushi» mamlakat milliy iqtisodiyoti va pul muomalasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1939-yildan 1945-yilgacha muomaladagi pul massasining hajmi 2,5 martaga oshdi, tovar va xizmatlar baxosi 75 foizga ko‘tarildi. Shunga qaramasdan, Angliyada inflatsiya darajasi boshqa mamlakatlarga nisbatan, AQSHdan tashqari, anchagina past edi.

Buning quyidagi 3 ta sababi mavjud edi. Birinchidan, Angliyada harbiy xarajatlarni qoplash uchun soliqniing ulushi juda yuqori edi; ikkinchidan, Angliyaning tashqi moliyaviy manbalarining mavjudligi, asosan Angliya kaloniyasida bo‘lgan davlatlar hisobidan. Uchinchidan, baholar ustidan davlat nazoratining yuqoriligi. Xususan, xomashyo, yoqilg‘i va oziq – ovqat mahsulotlari bahosi davlat tomonidan nazorat ostiga olingan edi.

Funt sterlingning ikkinchi jahon urushidan keyingi 30,5 foizga devalvatsiyasi 1949-yil sentabr oyida amalga oshirildi, funt sterlingning oltin bilan ta’minlanish darajasi 3,58 grammdan 2,8 gramm toza oltinga tenglashtirildi, bir funt sterling 4,03 dollardan 2,80 dollarga arzonlashtirildi. Funt sterlingning xalqaro miqyosdagi mavqeyini tiklash uchun amalga oshirilgan ushbu chora – tadbirlar tegishli natijani bermadi, funt sterlingning joriy operatsiyalar bo‘yicha dollarga nisbatan obro‘yi pasaydi. Mamlakat oltin zaxiralari hajmi birdan kamayib ketdi, tashqi savdo balansi taqchilligi ortdi, funt sterlingga bo‘lgan ishonchga darz ketdi va 1947 – 1948-yillarda inflatsiya darajasi ortib ketdi.

Angliya funt sterlingini devalvatsiya qilinishi uning sotib olish qobiliyatiga mo'ljallangan darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmadi. Natijada, 1952, 1955, 1958, 1960 – 1961, 1964 – 1965-yillarda mamlakatda valuta inqirozlari ro'y berdi.

1967-yilda funt sterling 14,3 foizga devalvatsiya qilindi, uning oltin bilan ta'minlanishi darajasi 2,13g pasaytirildi, dollarning kursi 2,40 dollarni tashkil etdi.

1972-yilda Angliyada ro'y bergan qisqa muddatli iqtisodiy ko'tarilish tashqi savdoda yirik taqchillikni vujudga kelishiga, mamlakatda xorijiy kapitalni chiqib ketishiga va funt sterlingni kuchli inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi.

Angliya funt sterlingini barqarorligini ta'minlash maqsadida ikki hafta ichida 5 mlrd. dollar sarflandi, Angliya hukumati 1972-yil 23-iyundan boshlab o'z valutasiga nisbatan suzib yuruvchi kursni o'rnatdi. Yil oxiriga kelib funt sterlingning kursi 1971-yil dekabriga nisbatan 10 foiz, 1973-yil oxiriga 17 foiz, 1974-yilda 18 foiz, 1975-yilda 27 foiz, 1976-yilda 40 foizga pasaydi.

Angliyada XVIII asrda yuz bergan sanoat revolyutsiyasi mamlakatni dunyodagi yirik jahon savdo markaziga aylantirdi, funt sterling xalqaro valuta sifatida tan olindi. Birinchi jahon urushi oldidan dunyo savdo aylanmasining 80 foiz funt sterlingda amalga oshirilar edi, keyinchalik mamlakat iqtisodiyotining zaiflashuvi natijasida uning xalqaro valuta va kredit munosabatlari bo'yicha mavqeyini keskin pasaytirib yubordi.

Angliya 1931-yilda oltin standartini bekor qilgan bo'lsada, bir guruh manfaatdor mamlakatlar savdo – iqtisodiy munosabatlarini saqlab qolish maqsadida funt sterlingni to'lov va zaxira vositasi sifatida saqlab qolishga harakat qilishdi. Shu maqsadda, Angliyaning tashabbusi bilan 1932-yilda «sterling bloki» tashkil etildi. Ikkinchi jahon urushidan oldin blok tarkibidagi mamlakatlarning ko'pchiligida bir xil shakldagi valuta nazorati tizimi joriy etildi, bunga ko'ra uchinchi mamlakatlar bilan valuta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha chegaralar joriy etildi, blok tarkibidagi mamlakatlar bilan valuta operatsiyalari bo'yicha erkinliklar joriy qilindi.

Angliyaning iqtisodiy siquvi ostida xorijiy valuta va oltin «pul»da ishtirok etishiga rozilik berdi, yangi shakldagi sterling bloki «sterling hududi» tarzida yuritila boshlandi.

1960-yillardan boshlab sterling hududi iqtisodiy jihatdan inqirozga yuz tutdi, buning asosiy sabablaridan biri ular tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar amaliyotda o'zining ifodasini topmadi.

Hozirgi kunda funt sterling xalqaro zaxira mavqeyini deyarli tugatdi, uning xalqaro savdo aylanmasidagi ulushi taxminan 5-6 % ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyaning xalqaro dunyodagi mavqeyidan dalolat beradi. 60 – 70-yillarda Britaniya hukumati xalqaro markaziy banklardan zaxiralari tarkibidan funt sterlingning ulushini kamaytirishni so'rab murojaat qilgan bo'lsa, 1986-yillarga kelib bunday murojaatga umuman ehtiyoj qolmadi.

Bobga oid savollar

1. AQSH dollari qachon va qanday hujjat sifatida qonuniy valuta sifatida e'lon qilindi?
2. AQSH da qachon pul emissiyasini markazlashtirishga urinib ko'rilgan va uning natijasi nima uchun ijobiy bo'lmagan?
3. Federal zaxira tizimi qachon joriy etildi?
4. AQSH dagi Buyuk inqirozning salbiy oqibatlari?
5. Dollarning ta'minlanganlik darajasi qanday bo'lgan?
6. AQSH o'z fuqarolariga oltin slitkalarni sotishga ruxsat berishining sababi nimada?
7. Funt sterlingning vujudga kelishi haqida.
8. Funt sterlingning qiymatini oltinga nisbatan o'zgarishi.
9. Angliyada inflatsiya darajasining boshqa mamlakatlardagiga nisbatan pastligi nima bilan izohlanadi?
10. Angliya funt sterlingi jahon valutasi sifatida maqieni oshirish uchue qanday harakatlar qilingan?

Bobga oid testlar

1. AQSH dollari qachon va qanday hujjat asosiad milliy valuta sifatida e'lon qilingan?

A. 1785-yilda Kongress qarori bilan.

B. 1792-yilda, Prezident farmoni bilan.

V. 1859-yilda, Respublikachilarning qarori bilan.

G. 1759-yilda, Demokratlarning qarori bilan.

2. AQSH da 1859-yilda necha turdan iborat banknotalar to'lov vositasini bajargan?

A. 4400 dan ortiq.

B. 5400 dan ortiq.
V. 6400 dan ortiq.
G. 7400 dan ortiq.

3. AQSHda 1900 yilda dollarning oltindagi qiymati qanchani tashkil etgan?

A. 1,704632 gr.
B. 1,604632 gr.
V. 1,504632 gr.
G. 1,404632 gr.

4. AQSH dollarining asosi 1917-yilda nima bilan ta'minlangan edi?

A. Tijorat biletlari bilan.
B. Oltin bilan.
V. Kumush bilan.
G. Veksel bilan.

5. AQSH da oltin standarti qachon bekor qilindi?

A. 1929-yil may oyida.
B. 1933-yil aprel oyida.
V. 1934-yil dekabrda.
G. 1947-yil sentabrda.

6. AQSH ning valuta pozitsiyasi qachon yomonlashdi?

A. 1945 – 1947-yillarda.
B. 1960 – 1970-yillarda.
V. 1980 – 1990-yillarda.
G. Birinchi jahon urushidan keyin.

7. Angliyada banknotlarni oltin bilan almashtirilishi qachon bekor qilindi?

A. 1917-yilda.
B. 1929 – 1933-yillarda.
V. 1947-yilda.
G. 1973-yilda.

8. Angliya iqtisodiyotida pul massasi qachon ikki martaga oshdi?

A. 1938 – 1940-yillarda.
B. 1939 – 1945-yillarda.
V. 1929 – 1933-yillarda.
G. 1914 – 1916-yillarda.

9. 1949-yil sentabr oyida funt sterling necha foizga devalvatsiya qilindi?

A. 25,5 foizga.
B. 30,5 foizga.
V. 35,5 foizga.
G. 40,5 foizga.

10. Angliyaning funt sterlingi jahon valutasi mavqeyiga erishishda nima sabab bo'lgan?

A. Funt sterlingni devalvatsiya qilinishi.
B. Funt sterlingni oltinga tenglashtirilishi.
V. Mamlakatda yuz bergan sanoat revolyutsiyasi.
G. Buyuk inqiroz.

II BO'LIM. KREDIT
9 – bob. KREDITNING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

9.1. Kreditning zarurligi va mohiyati

Jamiyatda tovar – pul munosabatlaridan keyingi vujudga kelgan muhim ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlardan biri kredit munosabatlari hisoblanadi. Kredit, pul kabi iqtisodiy kategoriya bo'lib, pul mablag'larining samarali ishlashiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarning ortiqcha vaqt va mablag' sarf qilmasdan qo'shimcha pul mablag'lariga bo'lgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit munosabatlari iqtisodiy fanlarning barcha bo'g'inlarida bevosita yoki bilvosita alohida ijtimoiy – iqtisodiy jarayon sifatida o'rganiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «kredit» so'zi lotincha *«creditum»* – ssuda, qarz so'zidan paydo bo'lganligi qayd etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar *«credo», ya'ni «ishonaman»* degan ma'noni anglatishini qayd etadi[37]. Albatta, kredit munosabatlarida ishtirok etayotgan subyektlarning bir – biriga bo'lgan ishonchi asosiy omil hisoblanadi. Bu yerda kreditor, kreditni berishda asosiy masala kredit oluvchiga nisbatan «ishonchi» muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi uchun birgina ishonchning o'zi yetarli bo'lmaydi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishida ishonch bilan birgalikda shunday bir kategoriya mavjudki, bu kreditor va kredit oluvchi o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga undaydi. Buni kreditor va qarz oluvchi nuqtayi nazardan ko'radigan bo'lsak, kreditorni ushbu munosabatlarni rivojlantirishiga asosiy omil bu iqtisodiy manfaatdorlik, ya'ni kredit foizi hisoblanadi. Qarz oluvchi uchun esa ishlab chiqarish

---

Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С.410

jarayonini uzluksizligini ta'minlash orqali tegishli iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, kredit va kredit munosabatlarini vujudga kelishi va rivojlanishida har ikkala tomonning ham iqtisodiy manfaatdorligi kuchli moliyaviy mexanizm hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlanishi. Xususan, kreditor kredit hisobidan foiz to'lovlari sifatida foyda olsa, qarz oluvchi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash orqali tegishli foydani shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lar ssuda kapitali sifatida jamg'arilib, tegishli maqsadlarga yo'naltiriladi;

– iqtisodiyotda ishlab chiqarish siklining davriyligi. Bunda ayrim tarmoqlarda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari vujudga kelsa, boshqalarida qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug'iladi, ushbu jarayon kredit orqali tartibga solinadi;

– ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojning asosiy qismi kreditlar orqali qondiriladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlashining asosida tovar ishlab chiqarish, yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak – kapital muomalasi va aylanishi yotadi. Jamiyatda kapital muomalasi va aylanishi doimo ham bir maromda amal qilmaydi, bular yuqorida ta'kidlanganidek qator omillar bilan izohlanadi.

Kreditning mohiyatiga qator iqtisodchi olimlar tegishli ta'riflarni shakllantirgan. Xususan, V.A. Shegorsova tahriri ostida tayyorlangan darslikda, «Kredit – qaytarish va to'lov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish maqsadida pul mablag'i yoki moddiy buyum ko'rinishida berish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir» tarzidagi ta'rifi shakllantirilgan[38].

Professor O.I. Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan darslikda kreditning mohiyatiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq, ularning fikricha, kredit ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, iqtisodiy

[38] Деньги, кредит, банки. Учебник для вузов. Под. ред. проф.– Щегорова В.А. М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С.176.

kategoriyadir. Shu bilan birga, kredit turlicha ijtimoiy munosabatlarda emas, balki iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi qiymatning harakati jarayonida namoyon bo'ladi. Darslikda, kreditning mohiyatini aniq aks ettirish uchun uning tarkibi, harakat qilish jarayoni va vujudga kelish asosiga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi[39].

Boshqa rossiyalik iqtisodchi olimlar «Pulli (tovarli) kredit to'lov asosida amalga oshiriladigan bir toifadagi ekvivalentning turli vaqtdagi o'zaro harakatining yig'indisir.», degan ta'rifni berishgan[40].

O'zbekistonlik iqtisodchilardan professor Sh. Abdullayeva tomonidan nashr ettirilgan darslikda: «Kredit – bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir» tarzidagi ta'rif berilgan[41].

Kreditning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, bu borada iqtisodchi olimlarning fikrlari bir – biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois, *«Kredit – tegishli tamoyillar asosida (qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik) qiymat va moddiy buyum ko'rinishida, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladigan iqtisodiy kategoriyalarning bir shaklidir»* tarzidagi ta'rifni shakllantirishga jazm etdik.

Kreditning mohiyatini yanada aniqroq va to'liqroq ochib berishda uning subyektiv va obyektiv mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Kredit munosabatlarining vujudga kelishida, shuningdek, uning mohiyatini ochib berishda kreditning subyektiv mohiyati ham alohida o'rin tutadi. Kreditning subyektiv mohiyati bir – biriga bog'liq bo'lgan *«kreditor»* va *«kredit oluvchi»*ning munosabatlarida namoyon bo'ladi.

«Kreditor» va «kredit oluvchi» o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning asosida tovar – pul aylanmasi yotadi. Jamiyatda vaqtinchalik bo'sh mablag'larning mavjudligi va tovar aylanmasining mavjudligi kredit va qarz oluvchining manfaatlarini bir – biriga to'qnashishiga xizmat qiladi. Agar, ushbu manfaatlar bir – biriga mos kelsa ular o'rtasida kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditor – kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit beruvchi sifatida maydonga chiqadi. Kreditor pul mablag'larini vaqtinchalik

---

[39] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 237 – 238.

[40] Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С.428.

[41] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иқтисод – Молия», 2007, 165 – б.

foydalanishga beruvchi subyektlar hisoblanadi. Bunday subyektlar banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlar, lombardlar, davlat va boshqa moliyaviy tashkilotlar bo'lishi mumkin. Kreditor ssuda sifatida beradigan pul mablag'lari ularning *o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lari* hisobidan shakllantiriladi. Kreditor subyektlar ichida, banklar va kredit uyushmalari nafaqat o'z mablag'lari hisobidan, balki chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobidan kreditlar beradi. Mablag'larni jalb qilishning turli yo'llari mavjud bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyalar va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish asosiy va samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

Kreditor jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag'larni kreditning qayta taqsimlash funksiyasi orqali real sektorning zarur bo'lgan bo'g'inlariga joylashtiradi. Bu jarayon iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini samarali ishlashini, ya'ni kapital aylanmasini to'xtovsizligini ta'minlash bilan birga, kreditor jamlangan mablag'larni zarur maqsadlarga joylashtirish asosida ushbu mablag'larni o'z maqsadi va kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga erishadi.

Kredit oluvchi – kredit munosabatlarida kredit oluvchi sifatida ishtirok etadi. Kredit oluvchi subyektlar sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi, davlat, banklar va boshqa shaxslar maydonga chiqadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kredit oluvchini qarzdor sifatida talqin etish holatlari uchraydi, shuningdek, kredit va qarzning bir – biridan iqtisodiy jihatdan farqlanishi xususida ham tortishuvlar ko'zga tashlanadi. Albatta, «kredit» va «qarz» o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi mumkin, lekin iqtisodiy mohiyatan bu ikki tushuncha o'rtasida bir – biridan jiddiy farq qiladigan jihatlari mavjud. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida tegishli ijtimoiy – iqtisodiy qonunlar va tamoyillar asosida amal qiladi. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi har ikkala tomonning iqtisodiy manfaatlari mavjud bo'lib, ushbu manfaatlar o'zaro mujassamlashganda kredit munosabatlari ro'y beradi.

Kreditor berilgan kredit uchun iqtisodiy manfaatdorlik (foyda)ni foiz ko'rinishida undirsa, kredit oluvchi kredit yordamida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kredit munosabatlarida kreditor uchun kredit oluvchi shaxsning qanday shaxs ekanligi, qanday faoliyat bilan shug'ullanishi judayam muhim emas, asosiysi berilgan

kredit o‘z vaqtida va tegishli foiz to‘lovi bilan to‘liq qaytishi muhim hisoblanadi.

Qarz munosabatlarida esa qarz beruvchi uchun birlamchi masala shaxs hisoblansa, berilayotgan qarz summasi uchun tegishli manfaatdorlikni ustama to‘lov sifatida olishga umid bog‘lamaydi, ya’ni ko‘pchilik hollarda berilgan qarz uchun qo‘shimcha haq talab etilmaydi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish munosabatlarining chuqurlashuvi, tovar – pul munosabatlarining mavjudligi, ishlab chiqarish siklining davriyligi, o‘zaro iqtisodiy manfaatlarning bir – biriga mos kelishi kreditning zarurligiga zamin yaratuvchi asosiy omillar bo‘lib qolaveradi. Kredit munosabatlari jarayonida ishtirok etuvchilar, mavjud ijtimoiy – iqtisodiy holat esa uning mohiyatini u yoki bu darajada yoki ko‘rinishda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

9.2. Kreditning funksiyalari va tamoyillari

Kreditning mohiyati uning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Kreditning funksiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha va miqdorda keltiriladi. Ayrim adabiyotlarda iqtisodchi–olimlar kreditning funksiyalarini beshta ekanligigini ta’kidlashsa[42], ayrimlarida uning funksiyalari ikkitadan iboratligiga da’vogarlik qiladi[43].

Iqtisodchi – olimlarning kredit funksiyalari haqidagi fikrlariga, shuningdek, kreditning tovar–pul munosabatlari va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokiga tayangan holda, uning *qayta taqsimlash (1), muomala jarayonini tezlashtirish (2), pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish (3) hamda pul kapitalini jamg‘arish va markazlashuvini jadallashtirish (4) funksiyalarini* bajarishini ta’kidlash mumkin.

Kreditning funksiyalari ichida *qayta taqsimlash funksiyasi* asosiy funksiyalardan biri hisoblanadi. Kredit ushbu funksiyasi orqali jismoniy va yuridik shaxslarining taqsimlangan daromadlarining vaqtinchalik foydalanilmagan qismini tegishli fondlarga jalb qiladi. Jalb qilingan mablag‘lar iqtisodiyotning qo‘shimcha resurslarga ehtiyoji mavjud tarmoqlariga qayta taqsimlanadi.

Kredit ushbu funksiyasi orqali vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larining sohiblariga qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini

---

[42] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иқтисод – Молия», 2007, 168 – 170 бб.

[43] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 251 – 252.

yaratsa, kreditorga qo'shimcha mablag'larga ehtiyoji mavjud shaxslarga tegishli foizlar berish asosida daromad olishga, kredit oluvchilarga esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash natijasida qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini yaratadi.

Demak, kreditning qayta taqsimlash funksiyasi orqali ssuda kapitali iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida, qaytarishlik asosida joylashtiriladi, bu kredit munosabatlarida bevosita ishtirok etayotgan tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash bilan birga, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini kreditor ixtiyoriga yo'naltirgan shaxslarga tegishli daromad olishiga xizmat qiladi.

Kreditning qayta taqsimlash funksiyasini amal qilishida pulning jamg'arma funksiyasining bevosita va bilvosita ta'siri mavjud. Ushbu masalaga klassik va neoklassik maktab vakillari alohida e'tibor qaratishgan. Xususan, A.Marshall «odamlar sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, ular uni (pulni) ishlatmasliklari mumkin», deydi. Ko'rinib turibdiki, ushbu e'tirof Sey qonunini to'lig'icha inkor etmaydi. Aksincha, neoklassik – iqtisodchilar shunday to'xtamga kelishdiki, Sey qonuni bir shart bilan bajariladi, bu vaqtda faqat jamg'arma (S) investitsiya (I) ko'rinishini oladi. Ularning ta'kidlashicha, bu vaqtda kapital bozoridagi talab va taklifning muvozanati foiz stavkasining barqarorligi hisobiga yuz beradi. Agar jamg'arma (kapitalning taklifi) hajmi mo'ljallangan investitsiya qilish hajmidan kam bo'lsa, natijada foiz stavkasi oshadi, buning oqibatida investitsiyaga bo'lgan talab kamayadi, jamg'armaga nisbatan taklif esa ortadi.[44] Ushbu holat o'rtasidagi o'zaro muvozanat jamg'arma va kreditning foiz stavkasi asosida tartibga solinadi.

Agar klassik maktab vakillari investitsiya va jamg'armaning hajmiga foiz stavkasining ta'sirini asosiy omil qilib ko'rsatsalar, keynschilar esa uning hajmiga uy xo'jaligi a'zolari tomonidan olayotgan daromadlar miqdori ta'sir qiladi, deb ta'kidlaydilar. Albatta, bu jarayon kreditning qayta taqsimlash funksiyasiga bilvosita ta'siri mavjud.

Kreditning *muomala jarayonini tezlashtirish* funksiyasi mamlakat pul muomalasi, pul massasi, pulning aylanish tezligiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli fondlarga jalb etish orqali ularni pul aylanmasiga kiritadi.

Ma'lumki, mamlakat pul massasining tovar massasiga nisbatning ta'minlanishi milliy valutaning barqarorligi va sotib olish qobiliyatiga

[44] Ядгаров Я.С. История экономических учений –М.: ИНФРА – М, 2001. – С.313

ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda kredit mamlakat pul massasining umumiy hajmini oshirmagan holda iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi.

Odatda, berilayotgan kreditlar asosan moliya muassasalari orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Bu, o'z navbatida, muomaladagi pullarning aylanish tezligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kredit paydo bo'lishi bilan birga, kredit pullarining oddiy shakli bo'lgan veksellarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Albatta, veksellar xo'jalik yurituvchi subyektlarning vaqtinchalik pul mablag'lari bilan bog'liq muammolarni hal etishda, kredit munosabatlari yordamida muhim moliyaviy qurol sifatida maydonga chiqadi.

Kreditning *pullarni muomalaga chiqarish va ularni naqdlashtirish funksiyasi* asosan Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, Markaziy bank muomaladagi pul massasini tartibga solish maqsadida qayta moliyalash stavkalari asosida tijorat banklariga kreditlar beradi, berilgan kreditlar iqtisodiyotdagi pul massasini oshirish bilan birga, Markaziy bank tomonidan kreditlar ko'rinishida muomalaga chiqarilgan naqdsiz pullarni u yoki bu yo'l bilan naqdlashtiradi.

Kredit *pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish* funksiyasi yordamida yirik ssuda kapitalini tegishli fondlarda jamg'aradi. Jamg'armalar yordamida mamlakatlar, hududlar, mintaqalar, qitalar yoki ayrim kompaniyalarda mablag'larning markazlashuvi ro'y beradi. Kredit mablag'larining markazlashuvi hududning iqtisodiyoti va moliya – kredit tizimi rivojlangan joylarda yuz beradi.

Kreditning funksiyalarini to'laqonli amal qilishida uning tamoyillari alohida o'rin tutadi. Kredit quyidagi tamoyillarni bajaradi:

– *muddatlilik tamoyili* (kreditlar kredit shartnomasiga asosan ma'lum muddatga beriladi. Mamlakatimiz bank tizimida kreditlar muddatiga qarab, qisqa yoki uzoq muddatli kreditlarga guruhlanadi);

– *to'lovlilik tamoyili* (kreditor barcha kreditlar uchun tegishli to'lovlarni foiz ko'rinishida kredit oluvchidan undiradi);

– *ta'minlanganlik tamoyili* (berilgan kreditlarning barchasi u yoki bu darajada tegishli risk bilan bog'liq bo'ladi, kreditor ushbu riskni pasaytirish maqsadida kredit oluvchidan uning ta'minlanganligini talab etadi. Odatda, kreditlar mol – mulklarni garovga qo'yish, sug'urta polisi va uchinchi shaxslarning kafolat xatlari bilan ta'minlanadi);

– *qaytarishlik tamoyili* (kreditor tomonidan vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'lar tegishli muddatlardan so'ng to'liq qaytarilishi lozim bo'ladi);

– *maqsadlilik tamoyili* (kreditor berayotgan kredit bo'yicha tuzilgan shartnomada kreditni yo'naltirilishi lozim bo'lgan aniq maqsadlarni qayd etadi va olingan kreditni shu maqsadga ishlatishi belgilab qo'yiladi).

Xulosa qilib aytganda, kreditning funksiyalari va tamoyillarini to'laqonli amal qilishiga qator omillar ta'sir etadi. Mazkur omillar mamlakat bank tizimining holati, milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari, davlatning ichki va tashqi siyosati natijalari sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan shu munosabat va siyosatlarni samarali jarayonlarini ta'minlanganligi kredit funksiyalari va tamoyillarida o'z aksini topadi.

9.3. Kreditning shakllari va turlari

Iqtisodiy adabiyotlarda, iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan kreditning turlari va shakllari xususida turlicha fikr yuritiladi va talqin etiladi. Masalan, O'zbekistonlik olima, professor SH. Abdullayeva kreditning shakllari xususida aniq fikrlarni bayon etmagan bo'lsada, uning turlarini «qisqa muddatli kreditlash» va «uzoq muddatli kreditlash»dan iborat ekanligini ta'kidlaydilar[45], xuddi shuningdek, rossiyalik iqtisodchi olimlar ham kredit shakllari bo'yicha turlicha fikrlarni ilgari suradilar. Shu bois, ushbu paragrafda kreditning turlariga atroflicha to'xtalishga qaror qildik.

Kreditning turlari asosan uning mohiyatini aniqroq tushunish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, kreditning nafaqat turlari va shakllari o'rtasida, balki tasniflanishi ham ulardan ajralgan holda o'rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kredit an'anaviy ravishda qator belgilarga qarab tasniflanishi mumkin. Xususan, kredit qarzdor va kreditor toifasi bo'yicha (1), kreditni taqdim etish muddatiga qarab (2) va kreditni berish shakllariga (3) qarab tasniflanadi.

Agar kreditning bu tartibda tasniflanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan bunday tasniflanish kredit subyektlari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar jarayonida yuz beradi. Shuningdek,

[45] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иқтисод – Молия», 2007, 181 – б.

uning e'tiborli jihati material qiymatni o'zida aks ettirganligi bo'lib, amaliyotda taqdim etish bilan bog'liq holatlarni o'zida namoyon etishi hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganlarga va iqtisodiy adabiyotlardagi manbalarga tayanib, kreditning a) tovar, b) pul va v) aralash shakllari mavjudligini ta'kidlash mumkin.

Kreditning *tovar shakli* uning juda oddiy shakli hisoblanib, kredit bilan bog'liq dastlabki munosabatlar aynan ushbu shakl doirasida rivojlangan. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda bayon etilishicha, kreditning tovar shaklida u asosan buyum ko'rinishida taqdim etilib, qarzdor kreditorning kreditini qoplashda xuddi shu miqdordagi buyumni unga qaytargan. Manbalarga ko'ra, kreditning ushbu shakli antik jamiyat davrida, qadimgi Rimda vujudga kelgan va rivojlangan[46].

Hattoki, o'sha davrning huquqshunoslari «ssuda» va «kredit» iqtisodiy kategoriyalari o'rtasidagi bir – biriga o'xshashlik va farqlar xususidagi ayrim fikrlarni ilgari surishgan. Ma'lumki ushbu masala hozirgi kunda ham iqtisodchi olimlar va mutaxassislar o'rtasidagi munozarali holatlardan hisoblanadi. Bir guruh olimlar, «ssuda» va «kredit» o'rtasida jiddiy farqlar mavjud emasligini ta'kidlashsa, ikkinchi guruh olimlari buni inkor etishadi.

E'tiborli jihati shundaki, Rimda o'sha davrning huquqshunoslari «ssuda» va «kredit» (qarz) o'rtasidagi farqni quyidagicha izohlab berishga urinishgan. Ularning fikricha, ssudada qarzdor, ya'ni tovar shaklida kredit oluvchi kreditni qaytarishda undan olgan aynan shu tovar yoki buyumni kreditorga taqdim etishi zarur bo'ladi. Masalan, qarzdor kreditga otni olgan bo'lsa, ushbu kreditni qaytarishda aynan shu ot unga qaytarilishi zarur bo'ladi.

Kreditda esa tovar shaklida olingan kreditning o'rniga shunga o'xshash turdagi tovar bilan qaytarilishi mumkin ekanligini e'tirof etishadi. Masalan, tovar shaklida olingan bug'doyning o'rniga shu navdagi va miqdordagi bug'doy yoki boshqa mahsulot bilan qaytarilishi kredit sifatida tavsiflanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kreditining tovar shaklidagi jihatlari bo'yicha ham fikrlarning xilma – xil ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Yuqorida kreditning tovar shakliga berilgan tasnifdan farqli o'laroq, professor V.A.Shegorsova tahriri ostida nashrdan chiqqan

---

[46]Деньги, кредит, банки. Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В Иванова, В.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С. 517.

darslikda[47], kreditning tovar shaklida mashina, stanok va boshqa jihozlarga to'lovni kechiktirish, ularni ijraga va hatto lizinga berish ekanligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Fikrimizcha, bu yerda rossiyalik olimlar kreditning tovar shaklini uning turi bilan aralashtirib yuborgan. Kreditning tovar shakli kishilar o'rtasida pul munosabatlari vujudga kelib, to'liq taraqqiy etgan vaqtgacha qo'llanilgan, keyinchalik ushbu kredit pul – tovar ko'rinishida qo'llanilgan.

Jamiyatda tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi va mehnat taqsimotining tobora takomillashuvi kreditning tovar shakli zamirida uning *pul shaklini* vujudga kelishiga zamin bo'ldi. Kreditning pul shaklini vujudga kelishi, uning kreditor va qarzdorga qulaylik jihatlari xususida batafsil to'xtalishga, fikrimizcha, ehtiyoj mavjud emas. Chunki, kreditor jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, to'lovlilik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida beradi. O'z o'rnida qarzdor ham ushbu kredit summasini belgilangan muddatlarda tegishli to'lovlar asosida kreditorga pul ko'rinishida qaytaradi.

Pul juda likvidli va qulay ayirboshlash vositasi bo'lganligi tufayli kreditning pul (qiymat) shakli keng tarqaldi, buning natijasida kreditning tovar shakli o'z o'rnini sekinlik bilan kreditning pul shakliga bo'shatib berdi.

Kreditning yuqorida qayd etilgan shakllari bilan birga uning *aralash shakli* ham amal qiladi. Kreditning ushbu shakli uning tovar va pul shaklini o'zida mujassam etadi. Bunda kredit tovar yoki pul shaklida berilishi mumkin, uni qaytarishda ham qarzdor olgan kreditini pul yoki tovar ko'rinishida kreditorga qaytarishi mumkin. Aynan mana shu teskari bog'liqlik kreditning aralash shaklini o'zida ifoda etadi. Kreditning ayirboshlash shakliga misol sifatida tijorat kreditini keltirishimiz mumkin. Masalan, tovar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot sotib oluvchining moliyaviy muammolari mavjud hollarda sotilgan tovarlar va xizmatlarga to'lovni kechiktiradi, kechiktirilgan to'lov keyinchalik qo'shimcha to'lov asosida amalga oshiriladi. Mazkur masala keyingi paragraflarda batafsil ko'riladi.

Umuman olganda, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kreditning shakllari xususidagi turli fikrlarning mavjudligi mazkur masalalar ustida

[47] Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С. 181.

qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirishni davom ettirish zarurligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kreditning shakllari uning turlarida yanayam aniqroq namoyon bo'ladi.

Xususan, kreditning turlari bo'yicha ham turlicha qarashlar mavjud bo'lib, rossiyalik ayrim iqtisodchi olimlar kreditning firmalar o'rtasida (xo'jalik) krediti (1), bank krediti (2), fuqarolik (shaxslar o'rtasidagi) kredit (3), davlat krediti (4), xalqaro kredit (5) va iste'mol kreditlari (6) mavjudligini ta'kidlaydi[48].

Rossiyalik boshqa iqtisodchi olimlar bank krediti (1), xo'jalik (tijorat) krediti (2), davlat krediti (3), xalqaro kredit (4), fuqarolar (xususiy, shaxsiy) kreditlari (5) mavjudligini e'tirof etishadi[49]. Yana bir taniqli iqtisodchi olim, professor O.I.Lavrushin tahriri ostida tayyorlangan darslikda kreditning bank krediti (1), xo'jalik (tijorat) krediti (2), davlat krediti (3), xalqaro kredit (4), ishlab chiqarish va iste'mol kreditlari (5) amal qilishi hamda bulardan tashqari kreditning bevosita va bilvosita, namoyon bo'luvchi va yopiq, eski va yangi, asosiy va qo'shimcha, rivojlangan va rivojlanmagan turlari mavjudligi ta'kidlanadi[50].

Professor SH.Abdullayeva kreditning bank, tijorat, iste'mol, davlat, xalqaro va sudxo'rlik turlari mavjudligi xususidagi fikrlarni bayon etadi[51].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodchi olimlar kreditning turlariga mavjud ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqib turlicha yondashganlar. Fikrimizcha, kreditning turlariga tavsif berishda ularning amaliyotda qo'llanilishi va iqtisodiy samaradorligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan, davlat krediti (1), bank krediti (2), iste'mol (ipoteka) kreditlari (3), tijorat krediti (4), xalqaro kredit (5) mavjudligini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

9.3.1. Davlat krediti

Davlat krediti. Ushbu kreditning asosiy belgilaridan biri kreditni berish yoki olish jarayonida davlat bevosita ishtirok etadi. Ko'pchilik

---

[48] Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./Под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С. 517.

[49] Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С. 182.

[50] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –Сс. 263 – 265.

[51] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Иқтисод – Молия», 2007, 182 – 192 – бб.

hollarda esa davlat kreditor sifatida yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlar beradi.

Davlat krediti munosabatlari jarayonida uning subyektlari sifatida davlat nomidan markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari maydonga chiqsa, ikkinchi tomondan yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadi. Davlat kreditining vujudga kelishida an'anaviy ravishda ko'pchilik hollarda davlat budjeti taqchilligini qoplash yoki yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida o'z nomidan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradi. Davlat budjetining taqchilligini qoplashda davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sotib olinadi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar kreditor sifatida namoyon bo'ladi. Davlat budjeti taqchilligini qoplashning boshqa manbalari ham mavjud bo'lib. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- amaldagi soliq stavkalari miqdorini oshirish;
- muomalaga qo'shimcha pullarni (xazina biletlarini) emissiya qilish;
- Markaziy bankdan kredit qarzlarini olish;
- Xalqaro kredit va moliyaviy yordam so'rash;
- Davlatning qimmatli – qog'ozlarini muomalaga chiqarish.

Davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun amaldagi soliq stavkalari miqdorini oshirish iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda, xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq bazasini kamaytirib ko'rsatish, ikkilamchi buxgalteriyani yuritish hamda xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga moyillik tug'iladi. Natijada, mamlakatda iqtisodiyotning rivojlanishi va aholining turmush farovonligini ta'minlashda salbiy holatlar yuz beradi.

Muomalaga qo'shimcha pullarni chiqarish hisobiga davlat budjeti taqchilligini qoplanishi iqtisodiyotda tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, pul massasi tovar massasiga nisbatan ortib ketadi, bunday xolatda milliy valutaning sotib olish qobiliyati pasayadi va inflatsiya darajasining ortishiga sabab bo'ladi.

Markaziy bankning krediti davlat budjeti taqchilligini qoplashning boshqa manbalariga nisbatan bir muncha samaraliroq hisoblanadi, lekin Markaziy bank tomonidan berilgan kreditlar asosan 3 oy muddatga berilib, ushbu muddatdan ortib ketishi mumkin emas.

Davlat budjeti taqchilligini qoplashda xalqaro kredit va xorijiy mamlakatlarning moliyaviy yordamini olish doimo ham ijobiy natijalarni bermaydi. Chunki, kreditor mamlakat qarz oluvchi mamlakatga qator shartlarni qo'yadi. Ayrim holatlarda kreditlar berish orqali kreditor mamlakat siyosiy va iqtisodiy taziyq o'tkazish holatlari ham amaliyotda uchrab turadi. Shuning uchun davlat budjetining taqchilligini qoplashning eng qulay usuli davlatning qimmatli qog'ozlarni yuridik va jismoniy shaxslarga sotish orqali kredit olishi hisoblanadi. Shu bilan birga, alohida ta'kidlash lozimki, davlat krediti faqatgina budjet taqchilligini qoplash uchun emas, balki iqtisodiyotni tiklash (asosan tabiiy ofatlar yoki urushlardan so'ng), mamlakatda ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish ishlarini bajarish yoki sanoat tarmoqlarining alohida sohalarini rivojlantirish uchun uzoq muddatlarga (5, 10 yil) olinishi mumkin.

9.3.2. Bank krediti

Bank krediti – kreditning eng rivojlangan shakli bo'lib, ushbu kredit tijorat banklari tomonidan vaqtincha bo'sh pul mablag'larni jalb qilish hisobiga, qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug'ilgan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi. Kreditning shakllari tarkibida bank krediti asosiy ulushga ega bo'lib, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lar asosan banklarda jamlanadi. Buning natijasida, banklar ushbu mablag'lar hisobidan foyda topish maqsadida, ularni iqtisodiyotning turli sohalariga bank krediti shaklida joylashtiradi.

Bank kreditining boshqa kredit shakllariga qaraganda afzalliklari juda ko'p bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyekt istagan paytda va miqdorda kredit olish uchun bankka murojaat qilishi mumkin. Bank krediti pul shaklida namoyon bo'ladi, shu bois bu sharoitda kreditning obyekti bo'lib pul kapitali hisoblanadi. Bank krediti qarz oluvchiga pul shaklida berilishi tufayli tijorat kreditining hajmini chegaralashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pul shaklida olingan kredit qarz oluvchi tomonidan korxona ishlab chiqarish faoliyatining istagan jarayoniga yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Bank kreditini yo'naltirish va qarz oluvchi tomonidan foydalanish maqsadiga qarab turlicha nomlanishi mumkin. Masalan, bank krediti ishlab chiqarishni kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga yo'naltirilsa, bank krediti ssuda kapitali bo'ladi. Agar

bank krediti xo'jalik yurituvchi subyektning kassadagi mablag'larning etishmasligiga yo'naltirilsa bank krediti pul ssudasi deyiladi. Pul ssudasi faqat xo'jalik faoliyatining oborot kapitalini to'xtovsiz davom etishini ta'minlaydi, lekin uning miqdorini ko'paytirishga olib kelmaydi. Ssuda kapitali esa qarz oluvchining kapitali miqdorini ko'paytiradi.

Banklar turli toifadagi kredit oluvchilarga bank kreditini beradi. Xususan, korxonalar, korporatsiyalar, aholi, kredit muassasalari, mahalliy hokimiyatlar shular jumlasidandir. Kredit oluvchilar faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, banklar bilan kredit munosabatlarini tashkil etadi. Kredit munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat ular o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi hisoblanadi.

Bank kreditlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning takror ishlab chiqarish jarayonini to'xtovsizligini ta'minlashga va oborot mablag'larining hajmini oshirishga yo'naltiriladi. Bank kreditlari muddati jihatidan ***qisqa va uzoq muddatlarga*** guruhlanadi.

Qisqa muddatli kreditlar bir yilgacha muddatga berilib, korxona aylanma kapitalining harakatini ta'minlash, joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash moliyaviy faoliyatining barqarorligini ta'minlash kabi masalalarga yo'naltiriladi. Qisqa muddatli kredit korxona va tashkilotlarning aylanma kapitalini shakllantirishning ideal manbasi bo'lib hisoblanadi.

Uzoq muddatli kreditlar korxona asosiy kapitali harakatini ta'minlashga yo'naltiradi. Xususan, korxonada amalga oshirilayotgan qurilish va faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning rekonstruksiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq sohalarga sarflanadi. Qisqa muddatli kreditlar bir kundan bir yilgacha, uzoq muddatlilari esa bir yil va undan yuqori muddatlarga beriladi.

Bank kreditining asosiy turlaridan biri banklararo kredit hisoblanadi, ushbu kreditni banklar bir – biriga berishadi. Banklararo kreditlar bankning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanish, o'zaro likvidlikni ta'minlash maqsadida beriladi. Banklar vaqtinchalik bo'sh turgan yoki yuqori daromadlarga qo'yilma sifatida yo'naltirilayotgan mablag'larini banklararo bozorga taklif etadi.

Xalqaro bank amaliyotida banklararo kredit qisqa muddatli xarajatlarga ega bo'lib, bir necha soatdan, bir necha oygacha berilishi mumkin. O'zaro bitimlar telefon yoki faks orqali tuzilib, so'ngra tasdiqlovchi hujjatlar bilan ta'minlanishi ham mumkin.

9.3.3. Iste'mol (ipoteka) krediti

Iste'mol (ipoteka) krediti asosan aholiga yashashi uchun zarur bo'lgan buyumlarni (uy, mashina, televizor, muzlatkich, mebel va boshqalar) olishga beriladi. Iste'mol krediti pul va tovar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Pul ko'rinishidagi iste'mol krediti bank muassasalari tomonidan jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida savdo tashkilotlarining hisobiga o'tkazib beriladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda iste'mol krediti hisoblangan ipoteka krediti juda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ipoteka krediti iqtisodiyotning markazlashgan tuzumi sharoitida mavjud bo'lmagan. Bu holat o'sha davrda nashrdan chiqqan lug'atlarda ham e'tirof etilgan. Xususan, 1988-yilda mamlakatimizda nashrdan chiqqan O'zbekiston Sovet Ensiklopediyasida ipotekaga «Ipoteka (yun), uzoq muddatli kredit olish uchun ko'chmas mulk (yer, imoratlar)ni garovga qo'yish. Sotsialistik mamlakatlarda yo'q.»[52], deb ta'rif etilgan. Agar ushbu ta'rifning «sotsialistik mamlakatlarda yo'q» degan jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, haqiqatda ham markazdan rejalashtirish tuzumi sharoitida ushbu kredit turining amal qilmaganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shuningdek, 1984-yilda Moskva shahrida nashrdan chiqqan moliya – kredit lug'atida ipotekaga berilgan ta'rif ham buni tasdiqlaydi, unda «Ipoteka – (grekcha hypotheke so'zidan olingan bo'lib – garov, zaklad) ssuda olish maqsadida turli shakldagi ko'chmas mulklarning (asosan yer va qurilish binosi) garovidir. Qarzdorning to'lovga layoqatsizligi sharoitida kreditlarning talabi garovga qo'yilgan mulkni sotish evaziga qondiriladi. SSSR va boshqa mamlakatlarda qo'llanilmaydi.»[53], deb ta'kidlanadi.

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida ipoteka atamasi ko'chmas mulklarni garovga qo'yish natijasida vujudga keladigan moliyaviy munosabat bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri garovga qo'yilgan ko'chmas mulk kredit (qarz) oluvchining tasarrufida qolishi ma'lum bo'ladi. Ipoteka atamasi va ipoteka krediti haqida so'z yuritganda, ularning iqtisodiy mohiyatini to'liq aniqlash maqsadida, quyidagi ikkita holatga e'tiborimizni qaratamiz.

---

[52] Хонназаров К.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон совет энциклопедияси. Энциклопедик луғат.Том – 1.–Т.. 1988. 323 б.

[53] Захаров В.С., Дробозина Л.А., Красавина Л.Н. и др. Финансово – кредитный словарь Том – 1. -М.: "МиФ". 1984 – С. 477.

Birinchi holat, ipoteka – bu garov. Garov mavjud ekan – ipoteka mavjud bo'ladi, garov mavjud bo'lmasa ipoteka ham bo'lmaydi, bu kredit ipoteka krediti hisoblanmaydi. Ushbu holatni yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bank qarzdorga uy joyni yer, kvartira yoki uchastkani garovga qo'yish orqali kredit berdi. Ushbu kredit qarz oluvchi tomonidan qanday maqsadga ishlatilsa ham bu kredit ipoteka krediti hisoblanadi. Demak, kreditni olishga garov sifatida ko'chmas mulk qo'yildimi, ushbu kredit qanday maqsadga ishlatilishidan qat'iy nazar bu ipoteka hisoblanadi.

Ikkinchi xolat, bank qarz oluvchiga uy-joy olish uchun ta'minlanmagan kredit berdi, ya'ni garov sifatida kredit oluvchi tomonidan hech qanday narsa qo'yilmadi. Vaholanki, bankdan olingan kredit mablag'i uy – joy (kvartira) sotib olish uchun foydalanilsa – da, ushbu kredit ipoteka krediti hisoblanmaydi. Chunki, garov mavjud emas, demak garov mavjud emas ekan ipoteka ham mavjud bo'lmaydi.

Ipoteka so'zi (atamasi)ni kelib chiqishining tub ildiziga e'tibor qaratganimizda, uning vujudga kelishi va shakllanishining asosida qadimgi greklarning qarz berish munosabatlari yotganligi ma'lum bo'ladi.

Demak, manbalarga ko'ra, ipoteka atamasi birinchi marta eramizdan oldingi VI asrda Gretsiyada vujudga kelgan. Qadimgi greklar qarz oluvchini kreditor oldidagi majburiyati evaziga yerni tikishgan. Qarz oluvchining yer maydonining chetiga maxsus yog'och o'rnatilgan bo'lib, unda ushbu yer garov vazifasini o'tayotganligi haqidagi yozuv qayd etilgan. Bu yog'och ustun «ipoteka» deb atalgan, yunon tilida «tirgovich», «poya», «taglik» ma'nolarini anglatgan[54].

Bizning nazarimizda, ipoteka atamasining vujudga kelishi va uning ma'nosi yuqoridagi matnda, atroflicha, to'liq va aniq berilgan. Shu bilan birga, mazkur ta'rif uning dastlabki vujudga kelishi jarayonidagi mohiyatini anglatish bilan birga, hozirgi kundagi ipotekaga xos bo'lgan xususiyatlarni to'liq ochib berishga xizmat qilmaydi, albatta, bu tabiiy holat, chunki iqtisodiy rivojlanish jarayonlari va munosabatlarning takomillashuvi ipoteka atamasining ham rivojlanishi va takomillashuviga sabab bo'lmoqda. Quyida ipoteka atamasiga berilgan ta'rifda fikrimizning tasdig'ini kuzatishimiz mumkin.

Demak, ipoteka – (grek. hypotheke – zaklad, garov) – ko'chmas mulk ko'rinishidagi garov (asosan yer va binolar) bo'lib, asosiy maqsad

---

[54] Ефремова В.М. Толковый словарь. –М.: "Инфра – М", 1997. -С. 321.

ssudani olishga qaratilgan. Ipoteka shunday garov turiki u kreditorning qo'liga berilmaydi, balki qarzdorning ixtiyorida qoladi[55].

Masalan, yuqorida qayd etilgan moliya – kredit lug'atida unga quyidagi tavsiflar berilgan. «Ipoteka krediti – uzoq muddatli ssuda bo'lib, kapitalistik mamlakatlarda yer va ishlab chiqarish hamda yashash uchun qurilgan binolarni garovga qo'yish asosida beriladi. Quldorchilik tuzumi davrida vujudga kelgan bo'lib, feodalizm davrida kengaydi, biroq kapitalizm sharoitida rivojlandi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab ipoteka krediti sifatida ixtisoslashgan – ipoteka banklari tomonidan, qator mamlakatlarda qishloq xo'jaligi va boshqa tijorat banklari tomonidan berila boshladi. Revolyutsiyaga qadar Rossiyada dvoryan va yerli (zemelnыe) banklar tomonidan berilgan».

Taniqli iqtisodchi olim, professor O.I. Lavrushin «ipotekali kredit – ko'chmas mulk, yer maydoni garovi ostida berilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida faol ishlatiladigan kreditning bir shakli hisoblanadi. Yer mulkiga ega tashkilotlar va ixtiyorida xususiylashtirilgan xonadoni (kvartira), yer maydonlari bo'lgan aholiga bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan kredit munosabatlariga kirishish imkonini beradi[56], deya ta'kidlaydi. Olim ipoteka kreditiga bergan ta'rifida uning bozor iqtisodiyoti sharoitida yuz berishi, shuningdek, aholining xonadoni va yerini xususiylashtirish lozimligiga alohida e'tibor qaratgan.

«Ipotekali kredit –deya ta'kidlaydi, yana bir rossiyalik olim A.S.Neshitoy, uy – joy olish, qurish yoki yerni sotib olish uchun beriladigan kredit. Odatda, ushbu kreditni banklar va ixtisoslashtirilgan bank bo'lmagan moliya – kredit institutlari taqdim etadi»[57]. Bu yerda ipoteka kreditini olish uchun qo'yiladigan garov obyektining ahamiyati xususida fikr bildirilmagan. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, agar kreditning garovi sifatida mulk qo'yilmas ekan u ipoteka krediti hisoblanmaydi[58].

9.3.4. Tijorat krediti

Tijorat krediti – kreditning boshqa turlariga nisbatan tarixan juda qadimda paydo bo'lgan. Uning vujudga kelishi bevosita tovarlarni ishlab

---

[55] http://ru.wikipedia.org/wiki

[56] Лаврушин О.И. Банковские дело. –М.: "Ф и С", 2005. –С. 486.

[57] Нешитой А.С. Финансы и кредит. –М.: "Бирлик и банки", 2006. –С. 571.

[58] Мўминова З.А. "Тижорат банкларида ипотека кредити рискларини самарали бошқариш масалалари" и.ф.н. даражасини олиш бўйича тайёрланган диссертация ишн. –Т.: 2010.

chiqarish va ularning realizatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tijorat kreditining obyekti bo'lib – savdo kapitali hisoblanadi.

Tijorat krediti sotuvchi tomonidan sotib olingan tovarlarning to'lovini ma'lum muddatga kechiktirish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu kreditni *vekselli kredit* sifatida ta'kidlaydi. Veksel tijorat kreditining «quroli» hisoblanib, asosan barcha tijorat kreditlari veksel yordamida amalga oshiriladi. Bunda sotib oluvchi korxona sotuvchidan olgan tovarlar yoki ko'rsatgan xizmatlari uchun unga vekselni taqdim etadi. Veksellar odatda ma'lum muddatlarga (3 oy, 6 oy va 12 oy) sotib oluvchi tomonidan chiqarilgan bo'lib, sotuvchi vekselda ko'rsatilgan muddat yetib kelganda uni bankka topshirish asosida asosiy summani va unga hisoblangan qo'shimcha foiz to'lovini olish huquqiga ega bo'ladi.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda tijorat kreditini xo'jalik krediti sifatida ham yuritishadi. Buning sababi shundaki, tijorat kredit bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlar xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida amalga oshirilib, ushbu kredit turi kreditor – korxona tomonidan tovar yoki pul ko'rinishida berilishi mumkin. Tijorat kreditida kreditning obyekti tovarlar hisoblanib, tovarlarga to'lovlarni kechiktirish yo'li bilan veksel asosida beriladi. Pul ko'rinishidagisida kreditning obyekti qiymat hisoblanadi, bu kredit korxonaning ixtiyoridagi vaqtinchalik foydalanilmaydigan pul mablag'lari hisobidan beriladi. Tijorat krediti tovar yoki pul ko'rinishida berilishidan qat'iy nazar, bank kreditiga nisbatan juda qisqa muddatlarga beriladi.

9.3.5. Xalqaro kredit

Xalqaro kredit – bu mamlakatlar, banklar, yuridik shaxslar tomonidan boshqa mamlakatlarga, banklarga, kompaniya va tashkilotlarga beriladigan kreditdir. Bu – xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida pul kapitalining valuta va tovar moddiy qimmatliklari ko'rinishida qaytarish, muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan harakatidir. Xalqaro kreditning subyektlari sifatida ikkita mamlakat, turli davlatlarning yuridik yoki jismoniy shaxslari maydonga chiqadi.

Xalqaro kreditning subyektlari mulkiy shakliga qarab davlat, aralash mulk va shaxsiy mulklarga guruhlanadi. Xalqaro kreditlar kreditor mamlakatning milliy valutasida yoki uchinchi mamlakatning valutasi (AQSH dollari, yevro) da berilishi mumkin.

Xalqaro kredit, obyekti jihatidan pul ko'rinishida yoki natura shaklida berilishi mumkin. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida kreditor mamlakatlarning ko'pchiligi asosan xalqaro kreditni natura ko'rinishida berishdan manfaatdor bo'lib, bu orqali ular o'z mamlakatlarining ishlab chiqaruvchilarini iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Bobga oid savollar

1. Kreditning iqtisodiy kategoriya ekanligi nimada ko'rinadi?
2. Kredit so'zining iqtisodiy mohiyati.
3. Kredit munosabatlarida asosiy omil nimada namoyon bo'ladi?
4. Kredit munosabatlarida o'zaro ishonchdan tashqari yana qanday omil amal qiladi?
5. Kreditning zarurligini belgilovchi asosiy omillar.
6. Kreditning iqtisodiy mohiyatiga iqtisodchi olimlarning yondashuvlari.
7. Kreditning iqtisodiy mohiyati.
8. Kreditning funksiyalari va ularga nisbatan iqtisodchi olimlarning fikrlari qanday?
9. Kreditning tamoyillari.
10. Kreditning iqtisodiyotda tutgan o'rni.
11. Iqtisodiy adabiyotlarda kreditning shakllari va turlari xususidagi fikrlar nima uchun bir – biriga o'xshamaydi?
12. Kredit qanday mezonlarga asosan tasniflanadi?
13. Kreditning qanday shakllari mavjud, ular bir – biridan qanday farq qiladi?
14. Kreditning qanday turlari mavjud, bu haqda iqtisodchi olimlarning fikrlari bir – biriga mos keladimi?
15. Bank kreditining asosiy xususiyatlari va kredit turlari o'rtasida tutgan o'rni.
16. Tijorat krediti, uning bank kreditidan farqli jihatlari va afzalliklari.
17. Iste'mol krediti va uning asosiy maqsadi.
18. Ipoteka krediti va uning o'ziga xos jihatlari.
19. Veksellar va ularning qo'llanilish tartibi.
20. Davlat kreditining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
21. Xalqaro kredit va uning qo'llanilish doirasi.

22. Bank kreditlarining iqtisodiyot rivojida tutgan o‘rni.

Bobga oid testlar

1. Dastlab qanday munosabat vujudga kelgan?

A.Kredit munosabatlari.

B.Tovar – pul munosabatlari.

V. Bank munosabatlari.

G. Moliya – kredit munosabatlari.

2. Kredit qanday munosabatlar asosida tashkil topdi?

A. Tovar – kredit munosabatida.

B. Pul – kreditlar munosabatida.

V. Tovar – pul munosabatlarida.

G. Davlat krediti munosabatlarida.

3. Kredit munosabatlari iqtisodiy fanlarning qanday bo‘g‘inlarida o‘rganiladi?

A. Barcha bo‘g‘inlarida.

B. Ayrim bo‘g‘inlarida.

V. Moliya bo‘limida.

B. Ma’lum bo‘limida.

4. Kreditor va kredit oluvchi o‘rtasida asosiy omil nima hisoblanadi?

A. Mablag‘lardan samarali foydalanish.

B. Iqtisodiy manfaatdorlik.

V. O‘zaro yaqinlik.

G. Iqtisodiy hamkorlik.

5. Kreditning zarurligi qanday javobda noto‘g‘ri keltirilgan?

A. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlanishi.

B. Iqtisodiyotda vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lar ssuda kapitali sifatida jamg‘arilib, tegishli maqsadlarga yo‘naltiriladi.

V. Banklarni moliyaviy muassasa ekanligi.

G. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish siklining davriyligi.

6. Kredit munosabatlarini vujudga kelishining asosiy sababi?

A. Kapital muomalasi va aylanishi hisoblanadi.

B. Savdo kapitali hisoblanadi .

V. Pul kapitali hisoblanadi.

G. Davlat mablag'lari hisoblanadi.

7. Kreditning mohiyatiga iqtisodchi olimlarning qarashlari.

A. Yagona yondashuvga ega.

B. Yagona yondashuvga ega emas.

B. Bir,– biridan kuchli farq qiladi.

G. Bir – biriga aynan o'xshaydi.

8. Kreditning subyektiv mohiyati nimada namoyon bo'ladi?

A. Kreditor munosabatlarida

B. Kredit oluvchining munosabatlarida.

V. Pul – kredit munosabatlarida

G. Kreditor va kredit oluvchining munosabatlarida

9. Kreditning funksiyalari qanday javobda to'liq keltirilgan?

A. Qayta taqsimlash, muomala jarayonini tezlashtirish, pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish hamda pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish funksiyalarini.

B. Muomala jarayonini tezlashtirish, pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish hamda pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish funksiyalarini.

V. Qayta taqsimlash, muomala jarayonini tezlashtirish va pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish funksiyalarini.

G. Qayta taqsimlash, muomala jarayonini tezlashtirish, pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish funksiyalarini.

10. Kreditning tamoyillari qanday javobda to'liq keltirilgan?

A. Muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlik, maqsadlilik tamoyillari.

B. To'lovlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlik, maqsadlilik tamoyillari.

V. Muddatlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlik, maqsadlilik tamoyillari.

G. Muddatlilik, to'lovlilik, qaytarishlik, maqsadlilik tamoyillari.

11. Kreditning shakllari qanday javobda to'liq va aniq keltirilgan?

A. Tovarli kredit, aralash kredit.
B. Tovarli kredit, pulli kredit, aralash kredit.
V. Ipoteka krediti, pulli kredit, aralash.
G. Aralash kredit, tovar kredit, davlat krediti.

12. Kredit shakllari ichida ko'proq qaysi biri qo'llaniladi?

A. Tovarli kredit.
B. Pulli kredit.
V. Aralash kredit.
G. Davlat krediti.

13. Bank krediti muddatiga ko'ra qanday kreditlarga bo'linadi?

A. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli.
B. O'rta va uzoq muddatli.
V. Qisqa va uzoq muddatli.
D. Yaqin va uzoq muddatli.

14. Qanday iqtisodchilar ssuda va kredit o'rtasida farqni ajratib berishga harakat qilgan?

A. Qadimgi Gretsiya iqtisodchilari.
B. Amerikalik iqtisodiy nazariyachilar.
V. Rimlik huquqshunoslar.
G. Xitoylik moliyachilar.

15. Kreditning qanday turlari mavjud?

A. Bank, tijorat, iste'mol, ishlab chiqarish, davlat kreditlari.
B. Bank, tijorat, ishlab chiqarish, xalqaro, davlat kreditlari.
V. Bank, tijorat, iste'mol, davlat va xalqaro kreditlar.
G. Bank, tijorat, iste'mol va xalqaro kreditlar.

16. Bank kreditida kreditning obyekti nima hisoblanadi?

A. Tovar kapitali.
B. Savdo kapitali.
V. Pul kapitali.
G. Davlat mablag'lari.

17. Dastlab kreditning qanday shakli vujudga kelgan?

A. Aralash kredit.

B. Tovarli kredit.

V. Pulli kredit.

G. Bank krediti.

18. Xalqaro amaliyotda tijorat krediti asosan qanday qimmatli qog'oz vositasida beriladi?

A. Akşiyalar yordamida.

B. Oddiy aksiyalar.

V. Vekselda.

G. Imtiyozli aksiyalarda.

19. Davlat kreditining asosiy belgisi nimadan iborat?

A. Kreditlar tovar ko'rinishida beriladi.

B. Faqat davlat kredit oladi.

V. Kredit berish va olishda davlat bevosita ishtirok etadi.

G. Kredit berish va olishda davlatning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmaydi.

20. Iste'mol krediti qanday maqsadlarga beriladi?

A. Yuridik va jismoniy shaxslarga kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan tovar va buyumlarni sotib olishga.

B. Asosan jismoniy shaxslarga kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan tovar va buyumlarni sotib olishga.

V. Asosan jismoniy shaxslarga ishlab – chiqarishni rivojlantirishga.

G. Asosan yuridik shaxslarga ishlab – chiqarishni rivojlantirishga.

III BO‘LIM. BANKLAR VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARI

10 – bob. BANKLARNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

10.1. Banklarning vujudga kelishi va mohiyati

Banklarning vujudga kelishi tovar – pul munosabatlarining asosiy elementlari sifatida, pulning qiymat shakli paydo bo‘lishi bilan bir davrga to‘g‘ri kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklarning vujudga kelishi haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Ayrim iqtisodchi olimlar banklarni feodalizm davrida vujudga kelganligini ta’kidlashsa, ularning ayrimlari esa kapitalistik tuzumning dastlabki davrlarida paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi. Uchinchi guruh olimlar, banklar faoliyatiga xos bo‘lgan operatsiyalar miloddan ilgarigi davrlarda paydo bo‘lganligini qayd etadilar.

Manbalarga ko‘ra, dastlabki bankirlar kichik – kichik do‘konlarda mahalliy pullarni xorijiy pul birliklariga ma’lum darajadagi to‘lov evaziga almashtirib berishgan. Shuningdek, yirik pul egalarining pullari va tijorat veksellarini tegishli haq evaziga saqlash bilan shug‘ullangan. Keyinchalik banklar vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag‘larga ehtiyoji bo‘lgan shaxslarga ma’lum to‘lov evaziga bera boshlagan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, dastlabki banklar Gretsiyada paydo bo‘lgan, keyinchalik xalqaro savdo munosabatlarining rivojlanishi natijasida Yevropa mamlakatlarida banklar vujudga kelgan. Shuningdek, natural xo‘jalikning barham topishi, tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida hisob-kitoblar va kreditlarning roli shiddat bilan ortib bordi. Bular, o‘z navbatida, bir maromdagi hisob-kitob va pul muomalasini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu jarayon o‘z – o‘zidan banklarning tashkil topishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda, dastlabki banklar ibodatxona (butxona)larda tashkil topganligi ta'kidlanadi[59]. Ibodatxonalar hukumatning va diniy tashkilotlarning zaxira fondlari sifatida xizmat qilgan. Ularda oziq – ovqat zaxiralari va boshqa qimmatbaho buyumlar saqlangan. Keyinchalik ibodatxonalar to'lov vositalarini bajaradigan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni saqlash bilan birga, pul muomalasini tashkil etish jarayonlarida ham bevosita ishtirok etishgan. Bunga 2011-yil iyulida Hindistonning ibodatxonalaridan birida yirik miqdorda oltin va boshqa boyliklar topilganligini misol sifatida keltirish mumkin.' Topilma juda katta miqdorga teng bo'lib, qachon va kim tomonidan qo'yilganligi ma'lum emas.

Ibodatxonalar qadimda banklar vazifasini bajarganligining va ularni barqarorligining asosiy sabablaridan biri, davlat va dindorlarning asrlar davomida ibodatxonalarda xizmat qiluvchilarga nisbatan yuqori darajada ishonchning shakllanganligi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, boshqalarda ham ibodatxonalarda pul mablag'larni saqlashga bo'lgan ishonchini qozongan. Dastlab ushbu an'ana qadimiy Sharqda vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik qadimgi Gretsiya va Rim hamda Yevropaga tarqalgan.

Qadimgi Gretsiyada davlat va uning rasmiy xodimlari, zargarlar, savdogarlar va boshqa zodagonlar ibodatxonalarning (Delfiy, Deloss, Samoss, Efess kabi ibodotxonalar) alohida shaxslariga pul mablag'larini saqlash va tegishli operatsiyalarni amalga oshirishga ishonch bildirib, ularga pul mablag'lari va qimmatbaho metallarni saqlash, shuningdek, ularning topshiriqlariga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirishga ruxsat bergan. Buning barobarida, mamlakatda mehnat taqsimoti va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, o'zaro moliyaviy ayirboshlash hajmining ortishi natijasida ushbu ibodotxonalarda pul ishlari bilan shug'ullangan shaxslar moliyaviy vositachilar sifatida maydonga chiqa boshladi.

Taxminan eramizdan oldingi VII asrlarda yirik ibodatxonalarning kichik – kichik moliyaviy vositachilik do'konlariga aylanib borishi natijasida, shuningdek, pul muomalasini tartibga solishda muammolarning vujudga kelayotganligi sababli metall tangalarni muomalaga chiqarish va pul muomalasini tartibga solish huquqini davlat o'z qo'liga ola boshladi.

Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.; под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С.319 – 324.

Hozirgi kunda, siz bilan biz bank sifatida biladigan moliyaviy muassasalarning dastlabki ko'rinishlari XVI asrda Angliyada vujudga kelgan. E'tiborli jihati shundaki, dastlabki bankirlar oltin metallardan turli zebu – ziynatlar yasaydigan zargarlar yoki yirik savdo bilan shug'ullanadigan savdogarlar ichidan chiqqan. Shuningdek, Florensiya va Venetsiyada XVI asrda jirobanklar vujudga keldi. Keyinchalik banklar Amsterdam, Gamburg, Milan, Nyurenberg kabi yirik shaharlarda tashkil topa boshlagan. Ushbu banklar asosan yirik savdogarlarning oltin tangalarini saqlash va ularning to'lov hisob-kitoblarini amalga oshirish bilan shug'ullangan.

Hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan Markaziy bankka o'xshagan bank birinchi marta Stokgolmda 1650-yilda, keyinchalik 1694-yilda Angliyada tashkil topgan bo'lib, bu bank pul emissiyasini amalga oshirish, mamlakatda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish kabi ishlarni bajargan.

Banklar yirik savdogarlar, zargarlar va boshqa shaxslarning hisob-kitoblarini bajarish bilan birga, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jalb qilish asosida juda yirik miqdorda ssuda kapitalini jamg'aradilar, ushbu mablag' kredit sifatida iqtisodiyotning turli bo'g'inlariga yo'naltiriladi. Shu tariqa, kapitalistik jamiyatda «bank» deb yuritiladigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi «korxona»lar tashkil topdi.

Banklarning mohiyatiga iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. «Bank» etimologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, «bank» so'zi qadimgi fransuzcha «banque» va italiyancha «bansa» so'zlaridan paydo bo'lib, «almashtirish stoli» ma'nosini anglatishining guvohi bo'lamiz.

Bank – bu moliyaviy muassasa bo'lib, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar bilan jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji mavjud bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik asosida beradigan tijorat tashkilotdir.

Boshqa bir adabiyotda, bank – tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, uning faoliyati ssuda kapitalining harakati, ya'ni ularni jalb qilish va joylashtirilishi bilan bevosita bog'liqdir, degan fikr ilgari suriladi[60].

---

[60] Банки и банковские операции: Учебник для вузов/ Е.Ф.Жуков, Л.М.Максимова, О.М.Макарова и др.; Под ред. проф Е.Ф.Жукова. –М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. –С. 6.

Bankir ssuda kapitalistidan farqli o'laroq, turli ko'rinishdagi xizmatlarni taklif etadi va pul aylanmasini tashkil qiladi. Ssuda kapitalisti ishlab chiqarishni o'z kapitali hisobidan moliyalashtirsa, bankir ushbu jarayonni chetdan jalb qilingan begona shaxslarning mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

Tijorat banklari mohiyatini teranroq anglash uchun ayrim metodologik masalalarga e'tibor qaratish lozim. Ularning ayrimlari quyida keltiriladi:

– banklarning mohiyatini yoritishda ularning mikrodarajadagi faoliyatiga e'tibor qaratish lozim;

–, banklarning mohiyatini yoritishda ular qanday shaklda va maqsadda tashkil etilganligiga emas, balki ularga yagona bank sifatida faoliyat yuritishiga e'tibor qilish lozim;

– banklarning mohiyatini ajralmas qismi sifatida ularning tashkil topish asoslari, ya'ni tashkiliy – huquqiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi;

– banklarning mohiyati – bu o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan obyektning tarkibini anglatadi;

– banklarning mohiyatiga qator ta'riflar shakllantirilgan bo'lib, muammoni o'rganayotgan paytda uning qanday jihatiga e'tibor qaratilayotganligi muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning vujudga kelishi va ularning mohiyati kishilik jamiyatining vujudga kelishi davridan boshlab shakllanib, rivojlanib va takomillashib kelmoqda. Buning asosiy sababi jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, tovar va xizmatlar aylanmasi hajmining ortishi kabi qator omillar hisoblanadi. Shuningdek, qayerda savdo va zargarlik ishlari rivojlangan bo'lsa, shuningdek, ishonch yuqori bo'lgan joylarda dastlabki banklar paydo bo'lgan.

10.2. Banklarning funksiyalari

Banklarning mohiyati ularning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo'ladi. Banklarning funksiyalari ularning nazariy masalalari sifatida e'tirof etiladi. Shu bois ham banklarning mohiyatini yoritishda vujudga kelgan qator mulohazali holatlar ularning funksiyalarini yoritishda ham mustasno emas. Xususan, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning funksiyalari haqida qator mulohazali va tushunmovchilik holatlari mavjud. Masalan, ayrim manbalarda banklar bajaradigan

operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida qayd etiladi. Bu yerda bank faoliyati natijasida ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalari nazarda tutiladi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, banklarning barcha operatsiyalari ham ularning funksiyalari bo'la olmaydi. Bank funksiyasi uning ma'lum ko'rinishdagi faoliyatini ifodalaydigan iqtisodiy kategoriya bo'lishi lozim.

Shunga qaramasdan, ayrim iqtisodiy manbalarda banklar to'lov aylanmasi, kassaga naqd pullarni qabul qilish va berish, kredit berish, qimmatli qog'ozlarni saqlash va boshqarish, naqd va naqdsiz ko'rinishda xorijiy valutani sotish va sotib olish, shuningdek, bank tomonidan bajaraladigan boshqa operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning qimmatbaho metallar va buyumlarni saqlash uchun maxsus seyflar berish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning kapitalini shakllantirishda ishtirok etishi, kreditlash uchun resurslarni jalb etish va boshqa shu kabi operatsiyalari ularning funksiyalari sifatida talqin etiladi. Albatta, bu banklarning pul – kredit siyosatini amalga oshiruvchi muassasa sifatidagi faoliyatini aniqroq tushinishda va ularning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Biroq, ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning funksiyalari bo'lib hisoblanmaydi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, banklarning har – bir operatsiyasini ularning funksiyalari sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, demak zamonaviy banklar 300 dan ortiq funksiyani bajaradi degan fikr paydo bo'ladi.

Banklarning funksiyalari haqida gap ketganda, bu jarayonni nafaqat banklar nuqtayi nazaridan, balki uning mijozlari manfaatlaridan ham kelib chiqib so'z yuritish lozim. Shu jihatdan banklarning funksiyalarini o'rganishda ularni quyidagi mezonlariga e'tibor qaratish lozim:

1. Makroiqtisodiy darajada, banklar va real sektor ishtirokchilari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar.

2. Banklarning tashkiliy – huquqiy va mulkiy shakli jihatidan amal qilishi (Markaziy bank, tijorat banki, ixtisoslashgan bank va boshqalar).

Banklarning funksiyalari to'g'risida fikr yuritganda quyidagi masalalarni e'tibordan chetda qoldirish kerak emas. Birinchidan, banklarning funksiyalari ularning mohiyatini kengroq ochishga xizmat qilishi lozim, ikkinchidan, banklarning funksiyasi sifatida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriya barcha moliyaviy institutlarning xususiyatlariga xos

bo'lgan jarayon emas, balki faqat banklargagina xos bo'lgan iqtisodiy kategoriya bo'lishi lozim.

Ma'lumki, banklarning asosiy operatsiyalaridan biri iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etishga qaratilgan. Bu banklarning funksiyasi bo'la oladimi, degan savol tug'iladi. Markaziy bankda tijorat banklarining majburiy zaxiralari jamg'ariladi, banklarda esa aholi va mijozlarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari jamg'ariladi. Iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jamg'arish banklarning qadimiy operatsiyalaridan biri hisoblanadi. 'Bu yerda asosiy masala shundan iboratki, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jamg'arish faqatgina banklarga xos bo'lgan operatsiya emas, ushbu operatsiyani jismoniy shaxslar yoki boshqa yuridik shaxslar ham amalga oshirishi mumkin. Chunki, har qanday subyekt u yoki bu obyektni moliyalashtirish uchun dastlab ma'lum miqdordagi moliyaviy mablag'larni jamg'arishi lozim. Biroq, masalaga yanayam chuqurroq yondashadigan bo'lsak, banklar ushbu operatsiyani bajarganda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bajaradigan operatsiyalardan jiddiy farq qiladi. Ular asosan quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. Banklar pullarni jalb etganda o'z pullarini emas, balki begona shaxslarning mablag'larini jamg'aradi.

2. Banklar jamg'argan mablag'larni o'zining ehtiyoji uchun emas, balki boshqa shaxslarning ehtiyojlari uchun sarflaydi (qayta taqsimlash asosida).

Banklarning funksiyalari xususidagi mulohazalarni chuqurlashtirish fikridan yiroq ekanligimizni ta'kidlagan holda, ularning quyidagi funksiyalari mavjudligini qo'llab – quvvatlaymiz.

Birinchi funksiyasi, *vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jalb qilish, jamg'arish va ushbu mablag'larni kapitalga aylantirish* funksiyasi. Banklarning juda qadimiy funksiyalaridan hisoblanadi. Banklar jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'zlariga jalb qiladi va ushbu mablag'larni samarali yo'nalishlarga joylashtiradi. Albatta, banklardan tashqari turli investitsion fondlar, moliya – sanaot korxonalari ham pul mablag'larini jalb qilish va jamg'arish bilan shug'ullanadi, biroq ularning pul mablag'larini jalb qilish va jamg'arishi bilan banklarnikidan jiddiy farqlar mavjud. Banklarning itiyorida bo'lgan mablag'larning deyarli 90 foizi chetdan jalb qilingan pul mablag'lari hisoblanadi. Bu banklarning

asosiy faoliyati boshqa shaxslarning mablag'lari hisobiga amalga oshirilishini anglatish bilan birga, yuqori darajada riskka bog'liqligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchi funksiyasi, *korxona va tashkilotlar, davlat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash.* Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mulkiy shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Xususan, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va kengaytirish, mehnat taqsimotini takomillashtirish, qo'shimcha aksiyalarni sotib olish va boshqa maqsadlarni amalga oshirishda qo'shimcha moliyaviy mablag'larga kuchli ehtiyoj sezadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bu ehtiyojining asosiy qismi banklarning kredit berish funksiyasi orqali qondiriladi. Albatta, banklar ushbu funksiyani amalga oshirishda kreditning tegishli tamoyillariga (muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, qaytarishlik va maqsadlilik) amal qilgan holda xo'jalik yurituvchi subyektlarga tijorat asosida taqdim etadi.

Uchinchi funksiyasi, *xo'jalik subyektlari pul hisob-kitoblarini amalga oshirish* hisoblanadi. Iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari kun davomida bir necha yuz minglab turli darajadagi pul aylanmalarini (asosan naqdsiz pul ko'rinishida) amalga oshiradi. Banklarning bevosita ishtiroki natijasida ushbu o'tkazmalar jo'natuvchidan oluvchiga yetib boradi. Shuningdek, banklar pul o'tkazmalari orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapitalni joylashtiradi va kredit liniyalari ochadi. Bularning barchasi banklarning pul hisob-kitoblarni amalga oshirish funksiyasi orqali bajariladi va tartibga solinadi.

Banklarning pul aylanmasini tartibga solish funksiyasi orqali Markaziy bank iqtisodiyotdagi tovar massasi va pul massasi o'rtasidagi o'zaro muvozanatlikni ta'minlaydi. Ma'lumki, ushbu muvozanatning buzilishi iqtisodiyotda inflatsiya darjasining ortib ketishi yoki pul taqchilligini vujudga kelishiga olib keladi. Shu bois ham Markaziy bank o'zining pul – kredit instrumentlari orqali pul aylanmasi uchun zarur bo'lgan to'lov vositasining miqdorini tartibga solib turadi.

To'lovni amalga oshirishda vositachilik qilishi banklarning ***to'rtinchi funksiyasi*** hisoblanadi. Banklar iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi tomonlar o'rtasida to'lovlarni amalga oshirish orqali

vositachilik ishlarini amalga oshiradi. Banklar orqali bank mijozlarining, aholining, davlatning moliyaviy mablag'lari o'tadi, bank ular o'rtasida to'lovlarni amalga oshiruvchi moliyaviy muassasa sifatida vositachilik vazifasini amalga oshiradi. Banklar vositachilik funksiyasi orqali nafaqat pullarni bir xo'jalik yurituvchi subyektdan ikkinchisiga o'tkazadi, balki iqtisodiyotdagi moliyaviy kapitalni bir tarmoqdan ikkinchisiga o'tishini nazorat qilib boradi va ushbu tarmoqlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit mablag'larni muomalaga chiqarish banklarning ***beshinchi funksiyasi*** hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ushbu funksiyani barcha banklar bajarish huquqiga ega emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muomalaga kredit pullarni chiqarish Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank muomalaga chiqarayotgan pul massasini mamlakatda yaratilayotgan tovar massasiga nisbatan muvozanatligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Markaziy bankning ushbu funksiyani samarali bajarayotganligi milliy valutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamligi va inflatsiya darajasining pastligi belgilaydi.

Demak, tijorat banklari kredit pullarini muomalaga emissiya qilish huquqiga ega emas, ular muomaladagi mavjud pul hajmi doirasida faoliyat yuritadi. Muomaladagi pul massasining hajmini o'zgarishiga tijorat banklari bevosita ta'sir qila olmaydilar, bunga faqat Markaziy bankning huquqi mavjuddir.

Iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni berish ***banklarning oltinchi funksiyasi*** hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotdagi moliyaviy muassasa sifatida mulkiy shaklidan qat'iy nazar mamlakatdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'zlarining huquqiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli darajadagi iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni beradi. Albatta, ushbu maslahatlar mijoz va bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar yoki o'zaro kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning funksiyalari ularning mohiyatini va bajaradigan operatsiyalarining mazmunini anglashga xizmat qiladi. Banklarning funksiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilishining asosiy sababi ijtimoiy – iqtisodiy hayotda yuz berayotgan va rivojlanib borayotgan munosabatlarning doimiy ravishda yangi qirralarining vujudga kelayotganligi bilan izohlanadi.

10.3. Banklarning turlari

Kapitalistik tuzumning rivojlanishi turli mulkchilik shakllarining rivojlanishiga, moliyaviy mablag'larning alohida moliyaviy muassasalar ixtiyorida markazlashuviga olib keladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'pchilik kapitalistik mamlakatlarda ayrim banklarning milliylashtirilishi yuz berdi. Bu, o'z navbatida, banklarning mulkiy, huquqiy, funksiyasi, tabiati va boshqa qator mezonlari bo'yicha tavsiflanishiga sabab bo'ldi.

Zamonaviy iqtisodiyotda banklar quyidagi mezonlar bo'yicha tavsiflanadi.

Mulkiy jihatdan – *davlat banki, aksiyadorlik banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma banklariga bo'linadi.* Banklarni mulkchilik nuqti nazardan tasniflanganda asosan ularning ustav kapitali tarkibida kimning ulushi 51 foizdan yuqori bo'lsa, bank shu shaxslarning nomlarini oladi.

Masalan, bank kapitalining asosiy ulushi xususiy yoki kooperativ tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelsa, mazkur banklar xususiy yoki kooperativ bank deya yuritiladi.

Davlat banklari kapitalining asosiy ulushi davlatga tegishli bo'ladi, ko'pchilik mamlakatlarda mamlakat Markaziy banklari davlat banki hisoblanadi. O'zbekistonda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat – aksiyadorlik Xalq banki, aksiyadorlik tijorat «Asaka» banklarning kapitali tarkibida asosiy ulush davlatga tegishli bo'lganligi bois mazkur banklar davlat banklari hisoblanadi.

Mamlakatimizda aksiyadorlik tijorat banklari sifatida, aksiyadorlik tijorat «Agrobank»ni, Aloqabank, Turonbank va boshqalarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda yopiq turdagi aksiyadorlik tijorat banklari mavjud emas.

Xorijiy kapital ishtirokida qo'shma banklar mamlakat qonunchiligiga asosan belgilangan miqdordagi ustav kapitali xorijiy ishtirokchilar tomonidan shakllantirilsa mazkur banklar shu maqomga ega bo'ladi. Mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi banklarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Huquqiy jihatdan – *banklar ochiq va yopiq turdagi jamiyatlar sifatida tasniflanadi.* Banklarning kapitalini asosiy ulushi yuridik

shaxslar hissasiga to‘g‘ri keladi, ushbu banklar ochiq aksiyadorlik yoki yopiq aksiyadorlik banklari bo‘lishi mumkin.

Ochiq yoki yopiq aksiyadorlik banklari deyilishiga sabab ularning aksiyalarini sotish va sotib olish jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Qatnashchilari o‘zlariga tegishli aksiyalarini o‘zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Aksiyalari faqat o‘z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Mamlakatimizda mulkiy jihatdan tashkil topishidan qat’iy nazar, faoliyat yuritayotgan barcha banklar ochiq aksiyadorlik banklari hisoblanadi.

Banklar bajaradigan funksiyasi (operatsiyalari) jihatidan – *emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg‘arma banklar sifatida tasniflanadi.* Emission banklar mamlakat- iqtisodiyotiga pullarni emissiya qilish, shuningdek, kredit muassasalari faoliyatini tartibga solish va pul – kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Bunday vazifani hozirgi paytda mamlakat Markaziy banklari bajaradi. Markaziy banklar bevosita mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatmaydi va tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlanadi.

Tijorat banklari mamlakat bank tizimi va kredit muassasalari tarkibidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Ushbu banklar banklar bajarishi mumkin bo‘lgan barcha operatsiyalarni bajaradi.

Investitsion banklarning asosiy faoliyati passiv operatsiyalari natijasida shakllantirgan moliyaviy mablag‘larini asosiy ulushini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan iborat bo‘ladi. Mamlakatda investitsion banklar faoliyat yuritishi uchun qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan va yetarli darajada investitsion muhit yaratilgan bo‘lishi lozim.

Ipoteka banklari jismoniy va yuridik shaxslarga garov asosida uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi. Ipoteka atamasi ko‘chmas mulklarni garovga qo‘yish natijasida vujudga keladigan moliyaviy munosabat bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri garovga qo‘yilgan ko‘chmas mulk kredit (qarz) oluvchining tasarrufida qolishidir. Odatda, ipoteka banklari faoliyatining asosiy yo‘nalishini ipoteka krediti berishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Biroq, amaliyotda ushbu qoida doimo ham o‘zining isbotini topmaydi, chunki hozirgi

kunda faoliyat yuritayotgan ipoteka banklari kredit portfeli tarkibida nafaqat ipoteka krediti, balki boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan kreditlarning hajmi salmoqli ulushni tashkil etadi.

Jamg'arma banklarining asosiy mijozlari jismoniy shaxslar bo'lib, ushbu banklarning asosiy faoliyati aholidan muddatli omonatlarni jalb qilishga qaratilgan bo'ladi. Jamg'arma sifatida shakllantirilgan mablag'larni yirik tijorat banklariga, savdo va qurilish tashkilotlariga investitsiya va kreditlar ko'rinishida joylashtiradi.

Banklar bajaradigan operatsiyalarining tabiati jihatidan – *universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi.* Universal banklar banklar bajaradigan barcha operatsiyalarni bajaradi. Bunga misol sifatida tijorat banklarini keltirish mumkin. Ixtisoslashgan banklar esa iqtisodiyotning ma'lum tarmog'iga xizmat ko'rsatish va shu tarmoqni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida qator ixtisoslashgan banklar (O'zmevasabzavot, Zaminbank, Engilsanaot, G'allabank, Paxtabank) tashkil etildi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi natijasida ushbu banklar universal banklarga aylantirilib, bir – biriga qo'shib yuborildi yoki universal tijorat banklariga aylantirildi.

Shuningdek, ixtisoslashgan banklar, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni bajarish, investitsion faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. Biroq mamlakatimizda, alohida tarmoqqa xizmat ko'rsatadigan yoki operatsiyalarni bajaradigan ixtisoslashgan banklar faoliyat yuritmaydi.

Shu bilan birga, banklarning faoliyati *xizmat ko'rsatadigan tarmoqlari, filiallarining soni, xizmat ko'rsatish doirasi, kapitalining hajmi nuqtayi nazaridan ham tasniflanadi.*

Xizmat ko'rsatadigan tarmoqlari bo'yicha – banklarning faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayrim banklar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xizmat ko'rsatadi. Jumladan, avtomobilsozlik, neft sanoati, qurilish va boshqa sohalar. Masalan, mamlakatimiz Sanoatqurilishbanki ko'plab tarmoqlarga xizmat ko'rsatadi, biroq asosiy faoliyati og'ir sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Shuningdek, Agrobankning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi korxonalariga, Asakabank mashinasozlik sohasiga va hokazo.

Filiallarining soni bo'yicha – ayrim banklarda filiallar umuman mavjud emas, ayrimlarida esa mamlakatning barcha hududlarida filiallari mavjud. Mamlakatimizda bunday banklar sirasiga Agrobank,

Xalqbank, Mikrokreditbanklarni kiritish mumkin. Ushbu banklarning mamlakatimiz tumanlarining deyarli barchasida o'z filiallari faoliyat yuritadi. Banklarning filiallari yuridik shaxs sifatida barcha huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydi, ular tegishli nizom asosida bosh bank tomonidan berilgan chegaralangan huquq va majburiyatlar doirasida faoliyat yuritadi.

Xizmat ko'rsatish doirasi bo'yicha – banklar ma'lum hududga, hududlararo, xalqaro darajada mijozlarga xizmat ko'rsatishi e'tiborga olinadi. Buning uchun banklar Markaziy bankning tegishli litsenziyalariga ega bo'lishi talab etiladi. Masalan, mamlakatimizda Markaziy bankning tegishli talablarni bajargan tijorat banklariga milliy valutada va xorijiy valutalarda faoliyat yuritishi uchun alohida – alohida litsenziyalar beradi.

Kapitalining hajmi bo'yicha – banklar kichik, o'rta va yirik tijorat banklarga guruhlanadi. Masalan, mamlakatimiz barcha banklari ustav kapitalining 40 foizdan ortig'i TIF Milliy banki hisasiga to'g'ri keladi, yoki mamlakatimizda beshta yirik bankning (TIF Milliy banki, Sanoatqurilishbank, Agrobank, Asakabank, Ipotekabank) kapitali jami banklar kapitalining 85 – 90 foizini tashkil etadi.

Yakuniy so'z sifatida ta'kidlash mumkinki, banklarning turlarini ko'pqirraligi, ularning bajaradigan operatsiyalarining sonini ortib borishi jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bularning barchasi tegishli qonun, qoida, tartib va mexanizmlar asosida tartibga solib boriladi.

10.4. Banklarning iqtisodiyotdagi roli

Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Banklarning roli ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan operatsiyalarni bajaradi. Shu bois ham banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, ular iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi roli xususida so'z ketganda, dastlab jamiyatda ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining ularga bo'lgan ehtiyoji doirasida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglatadi.

Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko'pqirrali bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi;
- qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarishlik, to'lovlik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar beradi;
- milliy valutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul – kredit siyosatini amalga oshiradi;
- pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;
- iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi subyektlar o'rtasida hisob-kitob va to'lovlarni amalga oshirishda vositchilik qiladi;
- bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;
- aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, jamiyatda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olishga qaratilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni turli tarmoqda turlicha bo'lganligi bois, ma'lum davrda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoj tug'ilsa, ayrimlarida, aksincha. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish siklining turli – tumanligi (qishloq xo'jaligi, qayta ishlovchi korxonalar, qurilish sanoati va boshqalar) sababli, moliyaviy mablag'lar vaqtinchalik ishlab chiqarish jarayonidan chetlashtiriladi. Bu jarayonda bir tomondan bir guruh iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shimcha moliyaviy mablag'larga nisbatan qo'shimcha ehtiyojni keltirib chiqarsa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mablag'larning ishlab chiqarishdan chetlashishini keltirib chiqaradi.

Bu ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot sifatida banklar maydonga chiqadi. Birinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan ikkinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlariga, ya'ni qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezgan xo'jalik subyektlariga qayta taqsimlab beradi.

Bizningcha, ushbu munosabatlarni bankdan bo'lak birorta moliyaviy tashkilot samarali va tez hal eta olmaydi. Banklarning ushbu o'ziga xos jihati iqtisodiyotdagi rolini belgilaydi.

Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasida har kuni bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini yuqori yoki pastligiga qator omillar ta'sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining mustahkamligi. Xalqaro bank amaliyoti va mustaqillikdan keyin bosib o'tilgan qisqa davrda yig'ilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o'zagi asosan o'zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi yo'qolishi bilan bog'lab ko'radigan bo'lsak, banklarga nisbatan ishonch yo'qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining zaifligiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

– banklarning mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa;

– aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa, naqd pulga bo'lgan talabi to'liq va o'z vaqtida qondirilmasa;

– mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha mablag'lar qoldig'i va aylanmalari haqida bank siri ta'minlanmasa;

– mijozlarning pul o'tkazmalarini istalgan paytda va zarur miqdorda tegishli manzilga o'tkazilmasa;

– bankda omonatlarni saqlashning iqtisodiy manfaatdorligi pasayib ketishi va boshqalar.

b) Mamlakatda qonun ustuvorligini tammnlash va bozor mexanizmlari samaradorligini oshirish lozim. Tijorat banklarining xo'jalik subyektlariga kreditlarni berishda, mijozlarning naqd pullarga bo'lgan talabini qondirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshishi yoki pasayishiga nafaqat ularning sa'yi harakatlari, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi va raqobatbardoshligi bevosita ta'sir qiladi. Chunki, banklar milliy iqtisodiyotdan ajralgan holda, alohida subyekt sifatida samarali faoliyat yuritishi mumkin emas.

Masalan, banklarning asosiy faoliyat turlaridan biri muomalaga pulni emissiya qilishini oladigan bo'lsak, muomalaga emissiya qilingan pul massasi tovar massasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Aks holda, milliy valutaning inflatsiya darajasi oshishi bilan birga, uning sotib olish qobiliyati pasayib ketadi. Demak, muomalaga emissiya qilingan pullar tegishli tovar massasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda ishlab chiqarish va tovarlar aylanmasi samaradorligi ta'minlanganligini talab etadi.

Demak, iqtisodiyotda tovar massasi va pul massasi o'rtasidagi muvozanatlikning ta'minlanishi, birinchidan, bankning iqtisodiyotdagi rolini oshirsa, ikkinchidan, milliy iqtisodiyotning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, bu muvozanatlikni ta'minlanishiga qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi.

Masalan, 90-yillarning oxirlarida Rossiyada, shuningdek, qator sobiq ittifoq respublikalarida, shu jumladan malakatimizda ham pullarni muomalaga chiqarish hajmi ishlab chiqarish hajmidan sezilarli darajada pasayib ketdi. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarni vujudga kelishiga, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida debitor – kreditor summalari miqdorining sezilarli darajada oshib ketishiga olib keldi.

Banklarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini, ya'ni ularning rolini real sektorni kreditlash munosabatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakat real sektori ishtirokchilari bank kreditiga nisbatan doimiy ravishda ehtiyoji mavjud bo'lib, ushbu ehtiyoj, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida ortib ketadi. Inqiroz sharoitida iste'mol tovarlarga

nisbatan talabning hamda tovar va xizmatlar bahosining pasayishi, davlat buyurtmalari hajmining qisqarishi, debitorlarning to'lovga layoqatsizligi korxonalarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan kuchli talabni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Albatta, ushbu talab to'lig'icha banklarning kreditlari hisobidan qondirilishi, birinchidan, maqsadga muvofiq emas. Ikkinchidan, banklarda iqtisodiy inqiroz sharoitida ushbu ehtiyojni qondirish uchun yetarli moliyaviy resurslarning taqchilligi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, eng muhimi banklar tomonidan berilgan kreditlarning to'liq qaytmaslik xavfi, ya'ni kredit riski vujudga keladi. Shu bois, iqtisodiy inqiroz sharoitida banklarning kreditiga talab yuqori bo'lsada, banklar kredit qo'yilmalari hajmini oshirishga moyillik sezishmaydi. Bu banklarning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga emas, balki banklar ham tijorat muassasa sifatida asosiy e'tiborini iqtisodiy manfaatdorlik olishga qaratishini, eng muhimi banklar risk asosida kredit sifatida beradigan mablag'lari o'z mablag'lari emas, balki chetdan jalb qilingan boshqa shaxslarning mablag'lari hisobiga faoliyat yuritayotganligini unutmaslik lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat banklarning o'ziga, balki milliy iqtisodiyotning rivoji va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mamlakatda barqaror va samarali bank tizimining tashkil etilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, banklar va milliy iqtisodiyot bir – biridan ayri holda rivojlanishining imkoniyati mavjud emas. Ular biri – birini to'ldirgan holda, bir – biriga o'zaro hamoxang tarzda rivojlanib va takomillashib boradigan iqtisodiy – moliyaviy subyektlar hisoblanadi.

Bobga oid savollar

1. Banklarning vujudga kelishiga qanday munosabatlar ta'sir qilgan?
2. Dastlabki banklar qayerda paydo bo'lgan?
3. Ibodatxonalarda banklarning tashkil topishiga nima sabab bo'lgan?
4. 2011-yil iyulda qanday mamlakatning qadimgi ibodotxonasidan yirik oltin va boshqa boyliklar topilgan?
5. Davlat qaysi davrdan boshlab pulni tartibga solish huquqini o'z qo'liga ola boshladi va nima uchun?

6. Hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan banklaming dastlabki ko'rinishlari qayerda va qachon tashkil topgan?

7. Dastlabki bankirlar qanday soha vakillari ichidan chiqqan?

8. Dastlabki Markaziy banklar qachon va qayerda tashkil topgan?

9. «Bank» so'zining iqtisodiy ma'nosi nimadan iborat?

10. Banklar qanday funksiyalarni bajaradi?

11. Banklaming mulkiy va huquqiy jihatdan turlariga tavsif bering.

12. Emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg'arma banklar bir – biridan nimasi bilan farqlanadi?

13. Universal va ixtisoslashgan banklarga ta'rif bering.

14. Banklaming iqtisodiyotdagi roli nimada namoyon bo'ladi?

15. Banklarning iqtisodiyotdagi rolining mustahkamligiga nimalar ta'sir qiladi?

Bobga oid testlar

1. Iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklarning vujudga kelishi:

A. Miloddan ilgarigi III asrga to'g'ri kelishi ta'kidlanadi.

B. Aniq ma'lumotlar mavjud emas.

V. Angliya sanoat to'ntarishidan keyingi davrga to'g'ri keladi.

G. Buyuk inqirozdan keyingi davrga to'g'ri keladi.

2. Banklarning vujudga kelishi haqida fikr yuritgan iqtisodchi olimlarni necha guruhga ajratish mumkin?

A. Beshta guruhga.

B. To'rtta guruhga.

V. Uchta guruhga.

G. Ikkita guruhga.

3. Tarixiy manbalarga ko'ra, dastlabki banklar qayerda tashkil topgan?

A. Angliyada.

B. Rimda.

V. Gretsiyada.

G. Stokgolmda.

4. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklar:

A. Karvon saroyda tashkil etilganligi qayd etiladi;

B. Ibodatxonalarda tashkil etilganligi qayd etiladi;

V. Korxonalarda tashkil etilganligi qayd etiladi;

G. Uylarda tashkil etilganligi qayd etiladi.

5. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan banklarning dastlabki ko'rinishlari qayerda va qachon vujudga kelgan?

A. Angliyada, XVI asrda.

B. Rimda, XV asrda.

V. Gretsiyada, XIX asrda.

G. Italiyada, XVIII asrda.

6. «Bank» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A. Qadimgi nemicha «banque» va italiyancha «bansa» so'zlaridan paydo bo'lgan bo'lib, «almashtirish stoli» ma'nosini anglatadi.

B. Qadimgi fransuzcha «banque» va italiyancha «bansa» so'zlaridan paydo bo'lgan bo'lib, «almashtirish stoli» ma'nosini anglatadi.

V. Qadimgi lotincha «banque» va nemischa «bansa» so'zlaridan paydo bo'lgan bo'lib, «almashtirish stoli» ma'nosini anglatadi.

G. Qadimgi italyancha «banque» va fransuzcha «bansa» so'zlaridan paydo bo'lgan bo'lib, «almashtirish stoli» ma'nosini anglatadi.

7. Banklar nechta funksiyani bajaradi?

A. 3 ta.

B. 4 ta.

V. 5 ta.

G. 6 ta.

8. Banklarning iqtisodiyotdagi roli nimalarda namoyon bo'ladi?

A. Aholining ishonchi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishonchsizlik bildirishida.

B. Bajaradigan funksiyalari va aholining ularga bo'lgan ehtiyojida

V. Muomalaga pul chiqarishi va to'lov aylanmasini tashkil etishda.

G. Ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining ularga bo'lgan ehtiyojida.

9. Banklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

A. Tijorat faoliyati va moliyaviy massasaligida.

B. Ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni tashkil etishi

va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi.

V. Korxona va tashkilotlarga moliyaviy yordam berishida, shuningdek, turli komission operatsiyalarni amalga oshirishida

G. Vakillik hisobvaraqlari mavjudligi, aholiga va korxonalarga naqd pullarni yetkazib berishi va muomaladagi naqd pullarni qaytarib olishida.

10. Mulkiy jihatdan banklar tasniflanishi qanday javobda to'liq va to'g'ri keltirilgan?

A. Davlat banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma bank.

B. Davlat banki, aksiyadorlik banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma bank.

V. Davlat banki, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma bank.

G. Davlat banki, investitsion bank, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma bank.

11. Banklar bajaradigan funksiyasi (operatsiyalari) jihatidan qanday tasniflanadi?

A. Emission, komission, savdo, ipotekali va jamg'arma bank.

B. Emission, vositachi, qo'shma, ipotekali va jamg'arma bank.

V. Emission, tijorat, investitsion va jamg'arma bank.

G. Emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg'arma bank.

12. Banklarga bo'lgan ishonchning pasayishiga sabab bo'ladigan omillar qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Mijozlar va aholi oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa.

B. Mijozlar va aholi oldidagi majburiyatlarini to'liq va to'xtovsiz ravishda bajarsa.

V. Aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa, naqd pulga bo'lgan talabining to'liq va o'z vaqtida qondirilmasa.

G. Mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha mablag'lar qoldig'i va aylanmalari haqida bank sirining ta'minlanmasa.

11 – bob. MARKAZIY BANK

11.1. Markaziy banklarning vujudga kelishi va funksiyalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat bank tizimi ikki bo'g'indan tashkil topadi. Bank tizimi – bu ma'lum tarixiy davr ichida shakllangan va tegishli qonun hujjatlari asosida mamlakatda pul – kredit munosabatlarini tashkil etadigan va tartibga soladigan muassasalar majmuidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan davlatlarning deyarli barchasida bank tizimi ikki pog'onadan iborat bo'lib, ushbu banklar mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy sharoiti va tarixiy shakllanishiga qarab o'ziga xos xususiyatlar asosida faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda ham bank tizimi ikki pog'onadan iborat bo'lib, ularning faoliyati tegishli qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Ikki pog'onali bank tizimida banklar – emission bank (Markaziy bank) va emission bo'lmagan (tijorat banklari, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlar, lombardlar) banklardan tashkil topadi.

O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimining shakllanishi 1987 – 1990-yillarda, sobiq Davlat bankini isloh qilish davriga to'g'ri keladi. O'sha davrda asosiy e'tibor monopol emission bank hisoblangan Davlat bankining tashkiliy tuzilmasini keskin o'zgartirish orqali, iqtisodiyotni rivojlantirish va mijozlar bilan ishlaydigan ixtisoslashgan banklarni tashkil etishga qaratildi.

Bank tizimida mustaqillikkacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan islohotlarning asosiy konsepsiyasi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Ikki pog'onali bank tizimini tashkil etish.
- Davlatning ixtisoslashgan banklarini xo'jalik hisobi va o'zini-o'zi moliyalashtirishga o'tkazish.
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarga yangi bank xizmatlarini taklif etish, zamonaviy hisob-kitob shakllarini va kredit munosabatlarini amaliyotga joriy etish masalalari shular jumlasidandir.

Bank tizimida 1987-yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar va banklarni qayta qurish natijasida ularning mulkchilik shaklida, xizmat ko'rsatishida, kredit va hisob-kitob munosabatlarida ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Lekin, bank tizimida prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan ijobiy o'zgarishlar yuz bermadi. Davlat banki kredit resurslarini markazlashgan holda monopol taqsimlovchi muassasa sifatida o'z mavqeyini deyarli yo'qotmadi. Natijada, sobiq ittifoq tuzumi davrida 1988 – 1989-yillarda banklarni isloh qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Ushbu davrda dastlabki aksiyadorlik tijorat banklari vujudga kela boshladi.

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakatda xalqaro bank amaliyotidagi kabi haqiqiy ikki pog'onali bank tizimi tashkil topishi yo'lida qat'iy qadamlar qo'yildi. «1991-yilning o'zidayoq «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, eski Davlat bankining respublika idorasi bazasida mustaqil O'zbekistonning Markaziy banki tashkil etildi va unga respublika davlat, emission va rezerv banki mavqeyi berildi»[61].

Mamlakat bank tizimining asosiy bo'g'ini Markaziy bank hisoblanadi. Markaziy bank bevosita mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatmaydi, ayrim davlat tashkilotlari bundan mustasno. Barcha mamlakatlarda Markaziy banklarning bajaradigan vazifalari va funksiyalari deyarli bir xil bo'lib, ular turli mamlakatlarda turli nomda yuritilishi mumkin. Xususan, hozirgi kunda, bizga ma'lumki, dunyoning turli mamlakatlarida ushbu banklar «markaziy bank», «xalq banki», «emission banki», «milliy banki», «zaxira banki», «davlat banki» tarzida yuritiladi.

Masalan, AQSH da Federal zaxira tizimi, Angliyada Angliya banki, Yevropada Yevropa Markaziy banki, O'zbekistonda Markaziy bank, Qozog'istonda Milliy bank va hokazo. Markaziy banklarning vujudga kelish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turuvchi moliyaviy muassasa sifatida vujudga keldi.

Ma'lumki, dastlabki banklar, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari mustaqil ravishda qog'oz pullarni emissiya qilgan. Albatta, bu ma'lum davr davomida mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va muomala jarayonini

---

[61] Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Ф.Муллажонов таҳрири остида. –Т.: «Ўзбекистон» нашриёти, 2001й. 34 – бет.

tashkil etishda o'zining ijobiy natijasini berib kelgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qog'oz pullarning hajmi va turi juda ko'payib ketgan. Bu, o'z navbatida, pullarning qadrsizlanishini, ayrim hollarda tijorat banklarining bankrot holatiga tushib qolishi iqtisodiyotda pul muomasalasini buzilishiga va boshqa qator salbiy holatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Bularning barchasi mamlakatda pul emissiyasini markazlashgan holda amalga oshirish va pul muomalasini tartibga solish zruriyatini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida tijorat banklari bazasida Markaziy banklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi, Markaziy banklarning vujudga kelishi davlatga pul emissiyasini markazlashgan holda amalga oshirish va pul muomalasini tartibga solish imkoniyatini berdi.

Masalan, AQSH da 1836- va 1860-yillarda 2500 dan ortiq shtat banklari tashkil etilib, ularning 100 dan ortig'i birinchi o'n yil ichida yopilib ketgan. Shu davrda banklar mustaqil ravishda muomalaga pul chiqarish huquqiga ega bo'lib, muomalada ularning 5500 dan ortiq turli pul belgilari amal qilgan. Banklarning stixiyali ravishda pul muomalasini tashkil etishi, umumiy nazoratning mavjud emasligi ularni inqirozga yuz tutishiga, aholining ishonchini pasayishiga, muomaladagi pullarning qadrsizlanishiga sabab bo'lgan, shuningdek, pulning to'lov vositasi funksiyasini bajarmaslik holatlari tez – tez sodir bo'lib turgan. Bu kompaniya va firmalarning moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'lgan. Jumladan, 1862-yilda banklarning inqirozga yuz tutishi natijasida AQSHning yirik kompaniya va firmalari 100 mlrd. AQSH dollaridan ortiq zarar ko'rgan. Bularning barchasi AQSH hukumati tomonidan tijorat banklari va pul muomalasi ustidan tegishli nazoratni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqargan, natijada 1913-yilda AQSH Federal zaxira tizimi tashkil etilib, ushbu bankka yagona emissiya huquqi va tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash vazifasi yuklatilgan[62].

Iqtisodiy adabiyotlarda, dastlabki Markaziy bank 1650-yilda Shvetsiyaning Stokgolm shahrida tashkil etilganligi qayd qilingan[63]. Ushbu bank oltin tangalar asosida depozit sertifikatlarini muomalaga chiqargan, mazkur depozit sertifikatlari butun shvetsiya hududida to'lov vositasini bajargan bo'lib, taqdim qiluvchiga oltin tanga berilishi bilan kafolatlangan.

---

[62] Compton, Eric N. Principles of banking. Library of Congress. Printed in the USA. Fourth edition, 1991. pp. 8 – 9.

[63] Деньги, кредит, банки: учебник. /под авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 403.

Dastlabki emission bank 1694-yilda Angliya banki sifatida tashkil etilgan bo'lib, ushbu bank muomalaga pullarni emissiya qilish va banklarning tijorat veksellarini ro'yxatga olish bilan shug'ullangan[64].

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo va hisob-kitoblarning rivojlanishi Markaziy banklar zimmasiga qo'shimcha vazifalarni yuklash zaruriyatini keltirib chiqardi. Endi Markaziy banklar emission bank vazifasini bajarishdan tashqari mamlakatda kredit muassasalari faoliyatini tartibga solish, iqtisodiyotda pul – kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Davlat mamlakat milliy valutasini muomalaga chiqarish, uni tartibga solish, kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish, hisob-kitoblarni tashkil etish bilan bog'liq qator qonunlarni qabul qildi. Shu tarzda davlat kredit muassaslari faoliyatini tashkil etish va pul muomalasini amalga oshirish bo'yicha barcha ishlarni to'liq o'z qo'liga oldi.

Markaziy banklarning tashkil topish shakliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular davlat kapitali asosida tashkil topgan markaziy banklar (Buyuk Britaniya, Yevropa ittifoqi, Rossiya), aksiyadorlik shaklidagi markaziy banklar (AQSH, Italiya), aralash kapital ishtirokida markaziy banklar (Yaponiya, Belgiya) ko'rinishida vujudga kelgan.

Ayrim markaziy banklar dastlab aksiyadorlik shaklida tashkil topib, keyinchalik davlat tomonidan milliylashtirilgan. Ta'kidlash joizki, markaziy banklar qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'z vazifalarini davlat bilan o'zaro kelishuv va uning siyosatiga hamohang tarzda olib boradi. Ayniqsa, ularning o'zaro yaqinligi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning rivojlanishining zamonaviy bosqichida juda chuqurlashdi.

Markaziy bank davlat bilan juda yaqin aloqada faoliyat yuritsada, mamlakatda pul – kredit siyosatini amalga oshirishda davlatdan mustaqil bo'lishi muhim hisoblanadi. Agar davlat Markaziy banklarning pul – kredit siyosatiga bevosita aralashsa, ularga pul – kredit siyosatini amalga oshirish bo'yicha zarur darajadagi mustaqillikni bermasa mamlakat milliy valutasi va pul muomalasi barqarorligini ta'minlashda qator muammolar vujudga keladi. Shu jihatdan, Markaziy banklar iqtisodiy va huquqiy jihatdan mustaqil hisoblanadi, ularning davlatga bog'liqligi yoki mustaqilligi turli mamlakatlarda turlichadir. Odatda mamlakat

---

[64] Деньги, кредит, банки: учебник. /кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5-е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. -С. 403.

parlamentiga hisobdor bo'lgan Markaziy banklar ko'proq mustaqil hisoblanadi (AQSH, Rossiya, O'zbekiston), mamlakat Moliya vazirligiga hisobdor bo'lgan Markaziy banklar mustaqilligi nisbatan pastroq hisoblanadi, dunyoda bunday banklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Markaziy bank pul – kredit siyosatini amalga oshirishda u yoki bu darajada davlatdan mustaqil bo'lgani bilan o'zining pul – kredit siyosati orqali hukumatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish rejasini, siyosatini qo'llab – quvvatlashga bevosita va bilvosita mas'ul hisoblanadi. Shunday ekan, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul – kredit siyosati hukumatning makroiqtisodiy darajadagi siyosatini amalga oshirish nuqtayi nazaridan ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim bo'ladi.

Markaziy bank mazkur jarayonida amalga oshirishda o'zining qator funksiyalarini bajarish orqali ishtirok etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy banklarning asosiy maqsadi mamlakat milliy valutasining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Ular ushbu vazifani bajarish uchun qator funksiyalarni bajaradi, ushbu funksiya va vazifalar davlatning Markaziy bank to'g'risidagi qonunida belgilab qo'yiladi.

Sanoati rivojlangan shaharlarda Markaziy banklar asosan to'rtta funksiyani bajaradi:

1. *Banknotalar emissiyasi.*
2. *Pul – kredit munosabatlarini tartibga solish.*
3. *Banklarning banki.*
4. *Hukumat banki.*

Banknotalarni emissiya qilish Markaziy bankning eng asosiy va dastlabki funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, muomaladagi pul massasi hajmini oshirish yoki kamaytirish aynan Markaziy bankning banknotlarni emissiya qilish funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, uning hajmi iqtisodiyotdagi pul massasining hajmi bilan belgilanadi. Ya'ni, iqtisodiyotdagi pul massasi va tovar massasi o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni ta'minlanishi milliy valutaning barqarorligi va to'lov qobiliyatining mustahkamligiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

Markaziy bankning *pul – kredit munosabatlarini tartibga solish* funksiyasining asosiy maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu funksiya qator pul – kredit instrumentlari orqali amalga oshiriladi.

Ushbu instrumentlar sifatida:

5. Tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati.

6. Tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi).
7. Ochiq bozordagi siyosati.
8. Valuta va depozit siyosatlarini keltirish maqsadga muvofiq.

Markaziy bank *banklarning banki* sifatida mamlakatdagi barcha kredit muassasalariga litsenziya beradi va ularni qaytarib oladi, shuningdek, tegishli iqtisodiy me'yorlar asosida kredit muassasalari faoliyatini tartibga solib, ularning ustidan tegishli nazoratni amalga oshiradi.

Markaziy bank *hukumatning banki* funksiyasini bajarishda asosiy e'tibor hukumatning oltin va valuta zaxiralarini saqlash va ularni tasarruf qilish, shuningdek, davlat budjeti taqchilligini qoplash maqsadida tegishli moliyaviy yordamni (kredit) berishga qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy banklarning vujudga kelishi va ularning faoliyatini tashkil etilishi ijtimoiy – iqtisodiy jarayon bo'lib, dastlabki Markaziy banklar tijorat banklari bazasida tashkil topgan, ularning faoliyati va bajaradigan funksiyalari doimiy ravishda takomillashib kelmoqda.

11.2. O'zbekiston Markaziy banki, uning maqsadi va vazifalari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, sobiq ittifoq davlat banki bazasida O'zbekiston Respublikasining ikki pog'onali bank tizimi tashkil etildi. Shu davrdan boshlab, uning birinchi pog'onosida Markaziy bank, ikkinchisida esa kredit muassasalari (tijorat banklari, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar) faoliyat yurita boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqillikning dastlabki yillarida o'z faoliyatini «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun asosida amalga oshirdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yetmish yildan ortiq markazdan rejalashtirish sharoitida faoliyat yuritib kelgan bank tizimining maqsadi, majburiyati, vazifalari va ishlash tartibi yangidan tashkil etilgan ikki pog'onali bank tiziminikidan tubdan farq qilar edi. Shu jihtdan ham uning bazasida tashkil etilgan bank tizimi oldida juda katta va mas'uliyatli vazifalar turar edi. Xususan, mamlakatda iqtisodiy jarayonlarni to'xtatmagan holda bozor iqtisodiyoti sharoitiga asoslangan kredit muassasalari tizimini tashkil etish, muomalaga milliy valutani joriy etish, sobiq ittifoq respublikalari bilan

uzoq yillardan beri davom etib kelgan hisob-kitoblarni amalga oshirish va boshqa qator vazifalar shular jumlasidandir.

Shuning uchun ham mamlakatimiz Markaziy bankining tashkil etilishi, uning mamlakatda pul muomalasini tartibga solish va kredit muassasalari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi bilan bog'liq vazifalari doimiy ravishda takomillashib, rivojlanib zamonaviy xalqaro bank andozalariga o'tib bormoqda.

Markaziy bank iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan, yuridik maqomga ega tashkilot hisoblanadi. Markaziy bank o'z daromadlari hisobidan xarajatlarni amalga oshiradi. Agar uning xarajatlari daromadlarga nisbatan ko'p bo'lsa, ushbu farq (zarar) davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi. Hisobot yilining oxirida Markaziy bank ixtiyorida qolgan ortiqcha mablag' (foyda) to'lig'icha davlat budjeti hisobiga o'tkazib beriladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Markaziy banki tashkil topganidan buyon hisobot yilini moliyaviy zarar bilan qoplamagan, aksincha hisobot yilning so'nggida juda katta miqdordagi mablag'ni davlat budjetiga o'tkazib kelmoqda.

Markaziy bankning asosiy daromad manbalari sifatida tijorat banklariga beriladigan qayta moliyalash hisobidan oladigan foizlar, hukumatning oltin va valuta zaxiralarini tasarruf etishdan oladigan foizlar, tijorat banklaridan iqtisodiy me'yorlarni buzganligi uchun undiradigan jarimalari, tijorat banklari elektron to'lov tizimidan foydalanganliklari uchun to'laydigan to'lovlari va boshqa manbalarni keltirish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil etilgan O'zbekiston Markaziy banki qisqa muddat ichida banklarning banki sifatida juda katta ishlarni amalga oshirdi, shuningdek, uning faoliyati takomillashib va rivojlanib bordi. Buning natijasida uning faoliyatini amalga oshirish, huquq va majburiyatlarini belgilaydigan alohida huquqiy hujjatni qabul qilish zaruriyati vujudga keldi. Natijada 1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 9 ta bo'lim va 60 ta moddadan iborat bo'lib, Markaziy bankning maqsadi, majburiyat va huquqlarini belgilaydi, shuningdek, Markaziy bankning barcha faoliyat turlari mazkur qonunda aniq va ravshan qilib belgilab qo'yildi.

Mazkur qonunga ko'ra, Markaziy bank tijorat faoliyati bilan shug'ullanishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarga moliyaviy yordam

ko'rsatishi va ularning kapitalini shakllantirishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30 - moddasiga asosan Markaziy bank va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi, yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno.

Markaziy bank mamlakat banklarining banki hisoblanib, to'g'ridan – to'g'ri aholi va mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatmaydi. «Markaziy bank to'g'risida»gi Qonunning 31 – moddasida belgilangan holatlar bundan mustasno. Unga ko'ra Markaziy bank, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ayrim davlat qo'mitasi va muassasalari, shuningdek, o'zining huzuridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- monetar siyosatni hamda valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;
- banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalarni nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;
- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin – valuta rezervlarini, kelishuvga binoan hukumat rezervlarini qo'shgan holda, saqlash va tasarruf etish;
- mamlakatda yagona emission organ vazifasini amalga oshiradi.

Markaziy bank o'tgan yil faoliyatini mustaqil auditor tashkilotlar tekshiruvidan keyin hisobotni keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmasdan Oliy Majlis Senati ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi va hisobot beradi.

Markaziy bankning oliy organi uning Boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab

beradi, bankni boshqaradi. Boshqaruv o'n bir kishidan iborat bo'ladi. Boshqaruv tarkibiga Markaziy bank Raisi, uning o'rinbosarlari, shuningdek, bankning asosiy bo'linma rahbarlari kiradi.

Boshqaruvning majlislari oyiga kamida bir marta o'tkazib turiladi, boshqaruv majlisida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi va hal etiladi:

- monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini, shu jumladan, Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari ko'lami, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezervlari normasini belgilaydi;
- Markaziy bankning normativ hujjatlarini tasdiqlaydi;
- Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi;
- banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek, pul belgilarini muomaladan chiqarish shartlarini belgilaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi;
- banklar uchun iqtisodiy normativlarni va kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari hamda garovxonalar uchun moliyaviy operatsiyalar o'tkazish qoidalarini tasdiqlaydi, shuningdek, ularga rioya etilishini ko'rib chiqadi;
- bank faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar berish va ularni chaqirib olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyati, shuningdek, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarish litsenziyalanishini amalga oshiradi;
- Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi;
- Markaziy bank muassasalari hamda korxonalarini tashkil etadi, qayta tuzadi va tugatadi;
- Markaziy bank xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;
- Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko'rib chiqadi;
- Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari, muassasalari va korxonalari rahbarlarini tasdiqlaydi;
- Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari hamda maruzalarini tinglaydi;
- Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, ishdan bo'shatish, ularning mehnatiga haq to'lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar

olishi va aksiyalar sotib olishi tartibini qonun hujjatlariga muvofiq belgilaydi;

• Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Markaziy banki mamlakat banklarining banki hisoblanib, milliy valutaning barqarorligiga, kredit muassasalarining moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritishiga mas'ul bo'lgan davlatning moliyaviy tashkiloti hisoblanadi.

11.3. Markaziy bankning pul – kredit siyosati

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar ichida eng muhimlaridan biri uning pul – kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi.

Pul – kredit siyosatining qator usullari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

– tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati;

– tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi);

– ochiq bozordagi siyosati;

– valuta va depozit siyosati.

Iqtisodiy adabiyotlarda va xalqaro bank amaliyotida Markaziy banklarning pul – kredit siyosati monetar siyosat, monetar instrumentlar tarzida ham yuritiladi. Biroq, Markaziy bankning pul – krediti siyosati qanday tarzda yuritilishiga qaramasdan, ularning maqsadi bitta masalaga, ya'ni mamlakat milliy valutasining barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyoti va xo'jalik yuritish tajribasidan ma'lumki, milliy valuta sotib olish qobiliyatining tushib ketishi iqtisodiyotda inflatsiya darajasining oshishiga va mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va, aksincha. Ya'ni inflatsiya darajasining pasayishi esa mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi.

Markaziy bank aynan shu iqtisodiy jarayonni milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir etmaydigan darajada ushlab turish va milliy valutaning barqarorligini ta'minlash uchun pul – kredit siyosati usullarini amaliyotga joriy etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul – kredit siyosati «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 23

– moddasiga binoan kelgusi yil uchun mamlakat monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ishlab chiqiladi.

Xususan, ushbu siyosat:

– iqtisodiy konyunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini;

– muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini;

– pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini;

– valuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini;

– pul – kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati. Markaziy bankning pul – kredit siyosatini asosiylaridan biri tijorat banklariga o'rnatgan majburiy zaxiralar siyosati hisoblanadi. Markaziy bank ushbu siyosati orqali, birinchidan banklarning resurslarini chegaralashi natijasida iqtisodiyotda pul massasini tartibga soladi, ikkinchidan bank iqtisodiy jihatdan to'lovga layoqatsiz holatiga tushib qolgan paytda, qisman bo'lsada uning mijozlarining manfaatlarini himoya qiladi.

Tijorat banklari majburiy zaxiralarga mablag'ni «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» gi Qonunning 28 – moddasi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi Qonunning 24 – moddasiga asosan Markaziy bank tomonidan 2000-yil 25-martda ishlab chiqilgan «Banklar tomonidan Markaziy bankda majburiy zaxiralarni deponentlash tartibi to'g'risida» gi 449 – sonli Nizom asosida o'tkazadi.

Majburiy zaxiralarning obyektlari bo'lib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'lari hisoblanadi. Banklar chet – el valutasidagi mablag'lar, jismoniy shaxslar depozitlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, ipoteka obligatsiyalari chiqarish yo'li bilan jalb qilingan mablag'lar hisobidan zaxiralarni amalga oshirmaydi.

Banklar yoki ularning filiallari har bir oy boshlangandan so'ng uch ish kuni mobaynida Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga bank rahbari va bosh buxgalteri imzolagan majburiy zaxiralar hisob-kitobini taqdim etadi. Bunda bankning jalb qilingan mablag'larining hajmi oshishi natijasida zaxiraga qo'shimcha o'tkazish yoki jalb qilingan mablag'lar hajmining kamayishi natijasida oldin zaxiraga o'tkazilgan summaning bir qismini qaytarish zarurligi ko'rsatiladi.

Markaziy bankning hududiy Boshqarmalari har oyning 8 – kunigacha banklar tomonidan majburiy zaxiralarni deponentlashga doir talablar bajarilishi to'g'risida hisob-kitobni Markaziy bankka taqdim etadi.

Tijorat bankida majburiy zaxiralar summasi *10309* – «Markaziy bankdagi majburiy zaxira hisobvarag'i» da hisobga olinadi. Markaziy bankda esa ushbu summa 21312 – hisobvaraqda yuritiladi.

Markaziy bank o'z faoliyatini boshlagandan buyon mamlakatda samarali majburiy zaxiralar siyosatini olib bormoqda, buning natijasida tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxiralarining me'yori pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi). Bozor iqtisodiyotining doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib borishi iqtisodiyotda qo'shimcha pul resurslariga bo'lgan talabni keltirib chiqaradi. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy resurslariga bo'lgan talabini iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini o'ziga jalb qilish orqali qondiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ushbu talabining o'z vaqtida va past kredit foizlari asosida ta'minlanmasligi mamlakat iqtisodiyotining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonni iqtisodiyotda pul taqchilligi sifatida ham izohlash mumkin. Bir jihatdan, iqtisodiyotda vujudga kelgan pul taqchilligi milliy valutaning inflatsiya darajasini pasayishiga olib keladi, lekin iqtisodiyotda pul taqchilligi darajasining ortib borishi ishlab chiqarish sur'atining pasayishi va ishsizlik darajasining oshishi kabi xavfli ijtimoiy – iqtisodiy tanglikni keltirib chiqaradi. Markaziy bank aynan mana shunday ijtimoiy – iqtisodiy xavfni tijorat banklarining qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini o'zining qayta moliyalash siyosati orqali bartaraf etadi. Ya'ni Markaziy bank tijorat banklariga arzon moliyaviy resurslarini berishi orqali iqtisodiyotda pul massasi va tovar massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Demak, Markaziy bank qayta moliyalash siyosati orqali mamlakatdagi pul resurslari bozoridagi foiz stavkasiga ta'sir etib, miliy valutaning barqarorligini mustahkamlaydi. Chunki qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi iqtisodiyotda pul massasining ortishiga, aksincha, uning oshirilishi esa tijorat banklarining pul resurslariga

bo'lgan talabini kamayishi natijasida iqtisodiyotda pul massasining pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali faqat pul bozoriga emas, balki mamlakat fond bozoriga ham ta'sir o'tkazadi. Qayta moliyalash stavkasining ortishi pul bozoridagi depozit mablag'larning foizini va bank krediti foizining oshishiga olib keladi. Pul bozorida depozit mablag'larning va bank krediti foizining ortishi, o'z navbatida, fond bozorida qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabning pasayishiga va ularning taklifini ortishiga olib keladi. Chunki pul bozorida depozit mablag'larga to'lanadigan foizlar miqdorining ortishi pul bozori ishtirokchilarini to'g'ridan – to'g'ri moliyalashtirishga bo'lgan manfaatdorligini oshiradi.

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati tarixidan.

Markaziy bank mustaqillikning dastlabki yillarida o'zining qayta moliyalash stavkasidan inflatsiyaga qarshi kufashda asosiy qurollardan biri sifatida foydalandi. Milliy valuta muomalaga kiritilgan paytda qayta moliyalash stavkasi yiliga 150 foizni tashkil etar edi. Ammo milliy valutani muomalaga kiritilgungacha bo'lgan davrda inflatsiyaning inertsiya kuchi shu darajada katta ediki, tezda qayta moliyalash stavkasining bu darajada yetarli emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Inflatsiyani kamaytirish borasida yanada qat'iyroq siyosat yuritish maqsadida Markaziy bank 1994-yil oktabr oyidan boshlab qayta moliyalash stavkasini 150 foizdan 225 foizgacha ko'tardi. 1995-yil fevral oyida 250 foizgacha oshirilgan bo'lsa, mart oyidan boshlab 300 foiz etib belgilandi*.

Inflatsiya darajasining anchagina kamaytirilishi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini ham asta – sekin tushirib borishi uchun zamin yaratdi. 1996-yili qayta moliyalash stavkasi 50 foizni tashkil etgan bo'lib, keyinchalik pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2003-yil 16-iyulda 24 %, 2003-yil 10-sentabrda 20 %, 2004-yil 5-iyulda 18 %, 2004-yilda 12-yanvarda 16 %, 2006-yil 15-iyulda 14 %, 2011-yil 1-yanvarda 12 % belgilandi**.

** O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. F.Mullajonov tahriri ostida. –T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2001y. 59 – 60 – betlar.*

*** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining e'lon qilingan ma'lumotlari asosida tayyorlandi.*

Ochiq bozordagi siyosati. Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati – bu davlatning obligatsiyalari, xazina veksellari va boshqa qimmatli qog'ozlarini yuridik va jismoniy shaxslarga sotishi va sotib olishi bilan bog'liq operatsiyalaridir. Markaziy bank davlatning va o'zining qimmatli qog'ozlarini sotish orqali iqtisodiyotda pul massasini pasaytiradi. Bu o'z navbatida milliy valutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlash va inflatsiya darajasining pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank sotilgan qimmmatli qog'ozlarni qayta sotib olish orqali muomaladagi pul massasining oshishiga va tijorat banklarining qo'shimcha pul resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga zamin yaratadi.

Markaziy bank hozirgi kunda Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini va o'zining obligatsiyalarini muomalaga chiqarish orqali ochiq bozordagi operatsiyalarini amalga oshiradi. Markaziy bank ushbu operatsiya orqali tijorat banklarining likvidliligiga va qimmatli qog'ozlarning foiz stavkasiga ta'sir qiladi. Markaziy bank obligatsiyalari va davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish iqtisodiyotda pul massasini kamaytiradi, ularni muomaladan qaytarib sotib olish esa teskari natijani beradi.

Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari orqali pul – kredit siyosatini amalga oshirishning samarali usullaridan biri hisoblanib, mamlakatning pul va fond bozoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy bank va hukumat tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar, eng avvalo, ta'minlanganligi va foizining nisbatan yuqoriligi ularning jozibadorligini oshiradi va yuridik hamda jismoniy shaxslarni sotib olishga undaydi.

Shuningdek, ushbu qimmatli qog'ozlarga fond bozorlarida talabning yuqoriligini ta'minlashga erishish, ularni sotib oluvchilarning likvidli aktivlarining hajmini ortishiga xizmat qiladi. Shu bois, investorlarda qo'shimcha mablag'larga zaruriyat tug'ilganda ularni fond bozorlarida qiyinchiliklarsiz sotish orqali talabini qondirish imkoniyatiga egadirlar.

Shu bilan birga, ochiq bozordagi operatsiyalar o'zining zaif jihatlariga ham ega. Birinchidan, iqtisodiyotda inflatsiyaning mavjudligi yuridik va jismoniy shaxslarda davlatning va Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarini sotib olishga bo'lgan manfaatdorligini tushirib yuboradi. Ikkinchidan, qimmatli qog'ozlarning qaytarish muddati yetib

kelganda ularga to'lanadigan foizlar bilan qaytarib sotib olinishi mamlakatda dastlabki pul massasini ortishiga olib keladi, qimmatli qog'ozlarga to'lanayotgan foizlarning hajmi tovarlar bilan ta'minlanmagan bo'lsa iqtisodiyotda baho va inflatsiya darajasining oshishiga zamin yaratadi.

Hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlardan tushgan mablag'lar asosan davlatning strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarini bajarishga va budjet taqchilligini qoplashga yo'naltiriladi. Davlat budjetining taqchilligini noinflyatsion qoplash manbasi bo'lgan qisqa muddatli obligatsiyalar (DQMO) 1996-yil mart oyidan muomalaga chiqarildi.

Markaziy bank 1998-yil yanvardan boshlab ikkilamchi bozorda davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotish va sotib olish operatsiyalarini o'tkaza boshladi[65].

Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan REPO bitimlarini amalga oshirish to'g'risida» muvaqqat Nizom, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalarini chiqarish va ular muomalasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalarni chiqarish va ular muomalasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan banklarga lombard krediti berish tartibi to'g'risida nizom» va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Valuta va depozit siyosati. Markaziy bank **valuta siyosatining** asosiy maqsadi milliy valuta kursining xorijiy mamlakatlar valutasi kursiga bo'lgan nisbatining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy bank o'zining vakolati doirasida hukumat bilan hamkorlikda davlatning valuta munosabatlari bo'yicha siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mamlakatda valuta siyosatining joriy va kelgusi davrdagi holati yuzasidan rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi. Bularning ichida eng asosiylari sifatida mamlakatning to'lov balansi, hukumatning valuta munosabatlari bo'yicha ichki va tashqi pul – kredit siyosati va milliy valutaning chet el valutasiga nisbatan kursini aniqlashning tartibini ta'kidlash mumkin.

---

[65] Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Ф.Муллажонов тахрири остида. –Т.: «Ўзбекистон» нашриёти, 2001й. 62 – бет.

Markaziy bank valuta siyosatini olib borishda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Tijorat banklariga xorijiy valutalarda operatsiyalarni amalga oshirish uchun bir marotabalik va Bosh litsenziyalarni beradi hamda qaytarib oladi.

2. Vakolatli tijorat banklarining o'zlari va mijozlari nomidan chet el valutalarini sotish va sotib olishning miqdorini, ya'ni ochiq valuta pozitsiyalarini belgilaydi.

Ochiq valuta pozitsiyasi deganda, bankning tegishli chet el valutasidagi aktivlarini uning majburiyatidan ortiqchaligi (uzun valuta pozitsiyasi) yoki ushbu aktivlarning majburiyatdan pastligi (qisqa valuta pozitsiyasi) tushuniladi.

3. O'zbekiston Respublikasi valuta bozorida chet el valutalarini sotish va sotib olishni tartibga solib boradi.

4. Tijorat banklarida chet el valutasi va to'lov hujjatlari hamda boshqa qimmatliklar bo'yicha kassa operatsiyalarini tashkil etish va amalga oshirishning tartibini belgilaydi.

5. Vakolatli banklarda norezedentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valutasidagi hisob – varaqlarining yuritish tartibini belgilaydi.

6. Vakolatli banklarda rezident va norezedent (yuridik va jismoniy shaxs)larga chet el valutasida hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibini belgilaydi.

7. O'zbekiston Respublikasida korxona va tashkilotlarning chet el valutalarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va kassa intizomiga rioya etishni tartibga soladi.

8. Investitsion loyihalarni erkin valutalarda kreditlashning tartibini belgilaydi.

Markaziy bank valuta siyosatini amalga oshirishda valuta interventsiyasidan keng miqiyosda foydalandi. *Valuta interventsiyasi* – bu Markaziy bankning milliy valuta kursi va pulning yalpi taklif va talabiga ta'sir etishi uchun moliya bozorida chet el valutasini sotish va sotib olish bilan bog'liq operatsiyasidir.

Markaziy bank ***depozit siyosati*** orqali mamlakat resurs bozori, tijorat banklari depozit siyosati va depozit operatsiyalari holatiga ta'sir ko'rsatadi. Odatda Markaziy bank tijorat banklari depozit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarining eng yuqori darajasini belgilaydi. Shuningdek, tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqish, depozit

siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy mezonlarni aniqlab beradi.

Bobga oid savollar

1. Bank tizimining mohiyati.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi bank tizimining tashkil topishi va tarkibi.
3. Dastlabki Markaziy banklarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar.
4. O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimining tashkil topishi va rivojlanishi.
5. Markaziy bankning funksiyalari.
6. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda bank tizimida amalga oshirilgan islohotlarning maqsadi va yo'nalishlari.
7. Markaziy bankning huquqiy maqomi va iqtisodiy faoliyati.
8. Markaziy bankning bosh maqsadi va asosiy vazifalari.
9. Markaziy bankning yagona emission organ sifatidagi vazifasi
10. Markaziy bankning kredit muassasalari faoliyatini tartibga solishdagi vazifalari.
11. Markaziy bankning pul – kredit siyosati usullari va uning maqsadi.
12. Markaziy bankning majburiy zaxiralar siyosati.
13. Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati.
14. Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati.

Bobga oid testlar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi asosan qanday tarkibiy tuzilishga ega?

A. Bank tizimi bir bo'g'indan iborat bo'ladi.
B. Bank tizimi ikki bo'g'indan iborat bo'ladi.
V. Bank tizimi uch bo'g'indan iborat bo'ladi.
G. Bank tizimi to'rt bo'g'indan iborat bo'ladi.

2. O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimining shakllanishi qanday davrga to'g'ri keladi?

A. 1980 – 85-yillarga.
B. 1987 – 90-yillarga.
V. 1991 – 1992-yillarga.

G. 1993 – 1994-yillarga.

3. O'zbekistonda haqiqiy ikki pog'onali bank tizimi qachon tashkil topdi?

A. Mustaqillikdan oldin 1988 – 89-yillarda.

B. Mustaqillikka erishgandan so'ng, 1991-yilda.

V. Milliy valuta muomalaga kiritilgandan so'ng.

G. Markaziy bank to'g'risidagi qonun qabul qilingandan so'ng.

4. Dastlabki Markaziy bank qayerda va qachon tashkil topgan?

A. AQSHda, 1913-yilda.

B. Angliyada, 1621-yilda.

V. Stokgolmda, 1650-yilda.

G. Rimda, 1652-yilda.

5. Dastlabki emission banklar qayerda va qachon tashkil etilgan?

A. Germaniyada, 1652-yilda.

B. Angliyada, 1694-yilda.

V. Stokgolmda, 1650-yilda.

G. AQSHda, 1752-yilda.

6. Dastlabki Markaziy banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan?

A. Davlat kapitali shaklida, xorijiy kapital shaklida, aralash kapital shaklida.

B. Xususiy kapital shaklida, aksiyadorlik kapitali shaklida, aralash kapital shaklida.

V. Davlat kapitali shaklida, aksiyadorlik kapitali shaklida, aralash kapital shaklida.

G. Kredit mablag'lari hisobiga, aksiyadorlik kapitali shaklida, aralash kapital shaklida.

7. Markaziy bankning asosiy maqsadi qanday javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Tijorat banklariga kredit berish va ularning faoliyatini nazorat qilishdan iborat.

B. Muomalaga pul birliklarini emissiya qilish va ularni muomaladan qaytarib olishdan iborat.

V. Milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

G. Hukumatning oltin – valuta zaxiralarini saqlaydi.

8. Markaziy bankning funksiyalari qanday javobda to'g'ri va to'liq keltirilgan?

A. Pul – kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatda banklarning banki va hukumat banki funksiyalarini bajaradi.

B. Banknotalar emissiya qilish, mamlakatda banklarning banki va hukumat banki funksiyalarini bajaradi.

V. Banknotalar emissiya qilish, pul – kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatda banklarning banki va hukumat banki funksiyalarini bajaradi.

G. Banknotalar emissiya qilish, pul – kredit munosabatlarini tartibga solish va hukumat banki funksiyalarini bajaradi.

9. Markaziy bankning pul – kredit siyosati usullari qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati.

B. Tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi).

V. Banklarning faoliyatini litsenziyalash.

G. Ochiq bozordagi siyosati.

10. Markaziy bank qachon va kimga hisobot taqdim etadi?

A. Keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmasdan Moliya vazirligiga taqdim etadi.

B. Keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmasdan Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

V. Keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmasdan Prezident devoniga taqdim etadi.

G. Keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmasdan Oliy Majlis Senatiga taqdim etadi.

12 – bob. TIJORAT BANKLARI

12.1. Tijorat banklari va ularning tashkil topishi

Tijorat banklari mamlakat bank tizimining ikkinchi bo'g'inidagi moliyaviy muassasa hisoblanadi. Qonunchilik hujjatlari va iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jalb qilib, ushbu mablag'larni tegishli shartlar (to'lovlilik, qaytarishlik, muddatlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik) asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joylashtiradigan, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarga to'lov hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha xizmat ko'rsatadigan tijorat tashkilotlari sifatida tasniflanadi.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklarining jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan vositachilik operatsiyalari va xizmat turlari ortib bormoqda. Tijorat banklarining ushbu munosabatlari tijorat asosida tashkil etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining faoliyati tijoratga asoslangan bo'lib, ularning asosiy faoliyati yuqori darajada foyda olishga yo'naltiriladi. Biroq, tijorat banklari ishlab chiqarish korxonalaridan farqli o'laroq, o'z foydasini qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish hisobidan emas, balki korxona, tashkilotlar va aholi ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag'larga ehtiyoji mavjud bo'lgan shaxslarga tijorat yo'sinda berish orqali foydasini shakllantiradigan o'ziga xos moliyaviy muassasa hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklarining tashkil etilishi bevosita mustaqillik yillariga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar «bank tizimini faqatgina bir necha banklar, ya'ni SSSR Davlat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Qurilish banki va Davlat mehnat omonat jamg'armalari kassalari mavjud bo'lib, ittifoqdosh respublikalarda ushbu banklarning respublika, viloyat idoralari va tuman bo'limlari faoliyat ko'rsatar edi[66]«.

O'zbekistonda dastlabki tijorat banklarini tashkil etilishining huquqiy asosi bo'lib 1991-yilda qabul qilingan O'zbekiston

[66] Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Ф.Мулламонов таҳрири остида. –Т.: «Ўзбекистон» нашриёти, 2001 й.

Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni xizmat qildi.

Albatta, mamlakatimizda bozor munosabatlarining takomillashuvi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi natijasida tijorat banklari maqomi, kapitali va faoliyatiga qo‘yilgan talablar doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Bularning natijasi o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining yangi tahrirdagi matni 1996-yil 25-aprelda qabul qilindi. Mazkur qonun mamlakatimiz bank tizimi, xususan tijorat banklarini tashkil topishi va rivojlanishiga mustahkam huquqiy baza bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda tashkil etilgan dastlabki tijorat banki Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki hisoblanadi. Keyinchalik, «1994 – 1995-yillarda ixtisoslashtirilgan «Asaka» bank (avtomobil sanoatini qo‘llab-quvvatlash uchun), «G‘allabank» (g‘alla etishtirishni moliyalashtirish uchun), «Paxtabank» (qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab – quvvatlash uchun) yakka xo‘jaliklarni qo‘llab – quvvatlash uchun «Tadbirkor» tijorat banki tashkil etildi»[67].

O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatiga litsenziya berish, ularning faoliyatini nazorat qilish va to‘xtatish Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, tijorat banklarini tashkil etishda asosiy omillardan biri ularning ustav kapitaliga qo‘yilgan talab hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimiz tijorat banklari kapitalining minimal miqdoriga qo‘yilgan talab doimiy ravishda oshib bormoqda. Quyidagi jadvalda bu haqda ma’lumotlar keltirilgan.

Tijorat banklari kapitalining minimal miqdoriga qo‘yilgan talab 2007-yil 31-dekabrgacha AQSH dollari ekvivalentida amalga oshirilgan bo‘lsa, 2008-yil 1-yanvardan boshlab yevro ekvivalentida jamg‘arilishi joriy etildi. Ta’kidlash joizki, tijorat banklari o‘z faoliyatini dastlab boshlayotgan davrda kapitalning minimal miqdorini shakllantirilishi zarur bo‘ladi. Tijorat banklari Markaziy bankdan litsenziya olib, faoliyatini boshlagandan so‘ng esa kapitalning ushbu minimal miqdorini doimiy ravishda oshirib borishlari lozim bo‘ladi, kapitalni oshirishning asosiy mezoni sifatida ularning riskka tortilgan aktivlari hisoblanadi. Hozirgi paytda ushbu daraja umumiy kapitalga nisbatan 0,1 koeffitsiyentda, asosiy kapitalga nisbatan esa 0,05 koeffitsiyentda bo‘lishi talab etiladi.

---

[67] Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2 – жилд –Т.: “Ўзбекистон”, 1996. 16 – 17 – бетлар.

O'zbekistonda tijorat banklari kapitaliga o'rnatilgan minimal talab darajasi va dinamikasi

Joriy etilgan sana	Tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1.01.1998 y.	1,5 mln. AQSH dol. ekvivalent.	5 mln. AQSH dol. ekvivalent.	0,3 mln. AQSH dol. ekvivalent.
1.01.2000 y.	2,5 mln.	5,0 mln.	0,3 mln.
1.01.1999 y.	2,5 mln.	5,0 mln.	1,25 mln.
1.01.2005 y.	5,0 mln.	5,0 mln.	2,5 mln.
1.01.2008 y.	5,0 mln.yevro ekvivalent.	5,0 mln.yevro ekvivalent.	2,5 mln.yevro ekvivalent.
1.01.2011 y.	10,0 mln.	5,0 mln.	5,0 mln.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari aksiyador mulkchilik shaklida tashkil etiladi. Bu borada 1998-yil 2-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik – tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra, tijorat banklarini boshqarishda aksiyadorlarning va bank Kengashlarining roli oshirildi. Quyidagi rasmda tijorat banklari tashkiliy tuzilishining namunaviy ko'rinishi keltirilgan.

Tijorat banklari faoliyati uning boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bankning boshqaruv organi quyidagilar hisoblanadi:

1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
2. Bank Kengashi (kuzatuv kengashi);
3. Bank Boshqaruvi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bankning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiruvchi masalalar bank Kengashi yoki Boshqaruviga topshirilmaydi. Bank Kengashining miqdoriy tarkibi ustav yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra belgilanadi. Aksiyadorlar soni 500 gacha bo'lgan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklarning bank Kengashi miqdoriy tarkibi kamida besh a'zodan, 501 dan 1000 gacha bo'lgan banklarda kamida yetti a'zodan va 1000 dan ortiq bo'lgan banklarda kamida 9 a'zodan iborat bo'lishi lozim.



Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklarning bank Kengashi a'zolari umumiy soni aksiyadorlar sonidan qat'iy nazar beshtadan kam bo'lmasligi kerak.

O'zbekistonda tijorat banklarini tashkil etish va ularning faoliyatini nazorat qilish Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998-yil 9-sentabrda tasdiqlangan «Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi 22 – sonli Nizom asosida amalga oshiriladi. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar mamlakatimizdagi barcha tijorat banklari mazkur nizomga asosan tashkil etiladi va tugatiladi.

Markaziy bank tijorat banklariga bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda asosiy omil bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Biznes rejaning maqbulligi.
2. Kapitalning adekvatligi.
3. Daromadlilikning kelgusi istiqbollari.
4. Ko'zda tutilayotgan rahbarning malakasi va obro'-e'tibori.
5. Bankni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi.

6. Monopoliyaga qarshi choralar.

Dastlab tashkil etilayotgan banklarning ustav kapitalida banklarning ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi, xorijiy kapital ishtirokidagi banklar va shu'ba banklarni tashkil etish hollari bundan mustasno.

Tashkil etilayotgan bankning ustav kapitalida bir aksiyadorning ulushi yigirma foizdan ortsa Markaziy bankdan oldindan rozilik olinishi lozim. Bir aksiyador yoki o'zaro bog'langan aksiyadorlar guruhining tijorat banki ustav kapitalidagi ulushi ustav kapitali umumiy miqdorining 25 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Yangidan tashkil etilayotgan tijorat banklarining muassislari moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishlari lozim. Muassislarning moliyaviy barqarorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Balansning nolikvidligi.
2. To'lovga qobiliyatsizlik yoki bankrotlik.
3. Yuridik shaxs rasmiy ravishda bankrot deb e'lon qilinishidan qat'iy nazar uning passivlari aktivlaridan oshib ketishi.
4. Yuridik shaxs taqdim etgan shaxs zarur hollarda ustav kapitalini oshira olmasligini ko'rsatsa.
5. Bankda mulk sotib olinishi ko'zda tutilishi natijasida bankka yoki uning omonatchilariga moliyaviy xavf solinishi mumkinligini ko'rsatuvchi boshqa hollar ma'lum bo'lsa.

Tijorat banklarini tashkil etishda barcha shaxslar ham ishtirok etishi maqsadga muvofiq kelmaydi. Bunday shaxslar tarkibiga:

1. Bankrotlikka uchragan yuridik shaxsning sobiq rahbarlari, boshqaruvi va kuzatuv kengashi a'zolari yoki yirik ishtirokchisi va yuridik shaxsning bankrotligi ularning harakatlari oqibatida yuzaga kelganligi faktlari ma'lum bo'lsa.
2. O'zining ishbilarmonlik va shaxsiy xatti-harakatida ishlarni noto'g'ri boshqarish va vijdonan yuritish mumkin emasligini namoyish qilgan shaxslar.
3. Offshor hududlarda ro'yxatga olingan norezident yuridik shaxslar.
4. Davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, budjetdan tashqari fondlar, budjet muassasalari va tashkilotlari, agar boshqa holat qonunlarda ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Yangidan tashkil etilayotgan tijorat banklari quyidagi tasis hujjatlarini Markaziy bankka taqdim etishi lozim:

a) muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan tasdiqlangan tasis shartnomasi;

b) muassis – aksiyadorlar yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan va bank Kengashi raisi tomonidan imzolangan bank ustavi;

v) tasis yig'ilishining bayoni. Bu hujjatda bankni tashkil etish, ustav kapitali miqdori, ustav va biznes – rejani tasdiqlash, bank Kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash to'g'risidagi qaror bo'lishi lozim.

Mustaqillikka erishgandan hozirgi kungacha bo'lgan davrda turli mulk shaklidagi qator banklar tashkil etildi, ularning asosiy qismi mamlakatimiz moliya – kredit bozorida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Mamlakatimizda bozor munosabatlarining takomillashuvi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi natijasida ularning ayrimlarini maqomi o'zgartirildi, ayrimlari boshqa banklarga qo'shilib yoki umuman faoliyatini to'xtatdi. 2010-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda jami 30 ta tijorat banklari tashkil etilgan bo'lib, ularning uchtasi davlat banki, beshtasi xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma banklar, 13 tasi xususiy banklar, qolganlari aksiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklar iqtisodiyotning muhim moliyaviy «qon tomirlari» hisoblanib, ularning faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish mamlakatning tegishli qonun va me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bu boradagi jarayon doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib bormoqda.

12.2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari

Tijorat banklari asosan jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jalb qilish va ushbu mablag'larni tegishli maqsadlarga joylashtirish orqali tegishli foydani shakllantiradi. Banklarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalari passiv operatsiyalar hisoblanadi. Banklarning passiv operatsiyalari tegishli xarajatlar evaziga amalga oshirladi.

Demak, tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida moliyaviy resurslarni shakllantiradi. Resurslar ikkita yirik manba: jalb qilingan mablag'lar va o'z mablag'laridan iborat. Resurslar bank balansining passivida hisobga olib boriladi. Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (jalb qilingan mablag'lar) tashkil etib, ular jami bank resurslari tarkibida 85–90 foizdan iborat bo'ladi.

Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab: –barqaror va beqaror mablag'larga, ular uchun to'lanadigan xarajatlar miqdoridan kelib chiqib: arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin.

Jalb qilingan mablag'larning manbasi:

Depozitlar

1. Chaqirib olinguncha saqlanadigan depozitlar.
2. Muddatli depozitlar.
3. Jamg'arma depozitlar.

Xalqaro bank amaliyotida bank resurslari tarkibida depozit mablag'lar, ayniqsa muddatli depozitlar asosiy ulushni tashkil etadi. Bank resurslari tarkibida muddatli depozitlar ulushining yuqoriligi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga va to'lovga layoqatliligini ta'minlashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli mablag'larning ulushi o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2001-yil 1-yanvar holatiga taxminan 7 – 8 foizni tashkil etgani holda, 2008-yil 1-yanvar holatiga 17 foizga, 2010-yilda 35 – 40 foiz yaqin darajani tashkil etgan.

Depozitsiz mablag'lar

1. Banklararo kredit resurslari.
2. Hukumat hisobvaraqlaridagi vaqtincha bo'sh mablag'lar.
3. Tijorat banklaridan olingan resurslar.
4. Boshqa mablag'lar.

Banklarning depozit bo'lmagan mablag'lari tarkibida moliya bozoridan jalb qilingan banklararo kredit resurslari asosiy salmoqni egallaydi. Banklararo kreditlar asosan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, odatda, ushbu kreditlarni berish va olish jarayoni o'zining tezkorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bo'yicha asosiy operatsiyalar banklarning vakillik hisobvaraqlari doirasida amalga oshiriladi. Ya'ni, tijorat banklari o'zaro kelishuvga erishganda mablag'lar vakillik hisobvaraqlari orqali o'tkazib beriladi. Shu bilan birga, ushbu kreditlar tijorat banklari uchun nisbatan arzon va muddati jihatidan «uzun» mablag'lar hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning depozit bo'lmagan resurslari tarkibida asosiy yirik manbalardan biri qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga

chiqaradi. Shuningdek, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog'ozlari muhim o'rin tutadi. Banklarning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga, tijorat banklari ustav va qo'shimcha kapitalini shakllantirish maqsadida aksiya va subordinar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bo'yicha operatsiyalari, ikkinchi guruhga esa qisqa va uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun obligatsiya va ipoteka qimmatli qog'ozlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari bilan bog'liq operatsiyalari kiradi.

Aksiya va sertifikatlarning bozor bahosi banklarning ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarning bozor bahosi ortib borishi ularning oldi-sotdisiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik hollarda tijorat banklari o'z aksiyalari va sertifikatlarining ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi bahosini oshirish maqsadida investitsion kompaniyalar orqali investor sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarning bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o'rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarning nominal va bozor bahosi o'rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo'lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarning qimmatli qog'ozlar orqali resurslarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari aksiya va sertifikatlarining bahosiga ta'sir qiladigan asosiy omillardan biri ularga to'lanadigan dividend va foiz to'lovlari hisoblanadi. Aksiya va sertifikatlarga to'lanadigan to'lovlar miqdorining yuqoriligi va barqarorligi banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent nufuzini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy foyda olish yotadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflatsiya darajasi bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida, ayniqsa, emitent sifatida qatnashganida inflatsiya darajasini inobatga olishi lozim.

Tijorat banklari mablag'lari ikkinchi yirik manbasini ularning kapitali tashkil etadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining tashkil topishi va barqarorligi jihatidan muhim moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

O'z mablag'lari manbasi:

1. Umumiy kapital.
2. Asosiy (birinchi darajali) kapital:
1. Ustav kapitali.
2. Emission daromad.
3. Maxsus zaxiralar.
4. Taqsimlanmagan foyda.
5. Qo'shimcha (ikkinchi darajali) kapital.
6. Joriy yilning sof foydasi.
7. Qayta baholash zaxirasi.
8. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari.
9. Shu'ba korxonalarga qilingan qo'yilmalar.

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari regulyativ kapitali birinchi va ikkinchi darajali kapitaldan tashkil topadi. Iqtisodiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar va Bazel andozalariga ko'ra birinchi darajali kapital asosiy kapital sifatida ham e'tirof etiladi.

Tijorat banklari asosiy (birinchi darajali) kapitali xalqaro Bazel andozalariga asosan ustav kapitalining to'langan qismi, muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aksiyalar, emission daromad, sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summalari va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan tashkil topadi.

Tijorat banklari ikkinchi darajali (qo'shimcha) kapitali kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiraning riskka tortilgan aktivlar miqdori 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi, qayta baholash zaxirasi, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari va konsolidatsiyalashgan shu'ba korxonalarini tashkil etish maqsadiga yo'naltirilgan qo'yilmalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston tijorat banklari kapitalining tarkibi va uning yetarliligiga qo'yilgan talablar Markaziy bankning 1998-yil 2-noyabrda tasdiqlangan 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizomi» asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston tijorat banklari birinchi darajali kapitali tarkibiga xalqaro Bazel andozalaridan farqli o'laroq, bankning ustav kapitalidagi valuta qismiga teng bo'lgan valuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga

tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi alohida manba sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritilgan.

Mazkur paragrafning poyonida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida aktiv operatsiyalar uchun zarur bo'lgan resurslarni shakllantiradi, banklarning passiv operatsiyalari xarajatlarni keltirib chiqaradi.

12.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari

Tijorat banklarining aktiv opertsiyalari – bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan mablag'larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidligini ta'minlash bilan bog'liq operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyatida juda muhim hisoblanadi. Chunki ular ushbu operatsiyalar orqali daromadlarni shakllantiradilar va aktiv operatsiyalar doimo ma'lum darajada risk, ya'ni qarzdorning defolti (to'lovga qobiliyatsizlik) bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari iqtisodiy mohiyatiga ko'ra:

- ssuda operatsiyalari (kreditlash);
- hisob-kitob operatsiyalari;
- kassa operatsiyalari;
- investitsiya va fond operatsiyalari;
- valuta operatsiyalari va kafolatlar berish bilan bog'liq operatsiyalardan iborat.

Ssuda operatsiyalari orqali banklar mamlakatdagi faoliyat yuritayotgan mulkiy shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik subyektlariga tegishli kerditlarni beradi. Ma'lumki, bank kreditlari bir yilgacha – qisqa muddatli, bir yil va undan ko'p davrga – uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi.

Hisob-kitob operatsiyalarida banklar mijozlarning topshiriqlariga asosan turli maqsadlarga ularning hisobvaraqlarini debetlash orqali o'tkazadi, shuningdek, ssuda operatsiyalari ham bevosita kredit oluvchining ssuda hisobvarag'ini debetlash orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya operatsiyalarida banklar xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning qimmatli qog'ozlariga moliyaviy mablag'larni joylashtiradi. Albatta, ushbu operatsiyalar banklar uchun ma'lum

darajadagi riskli operatsiyalar hisoblanib, banklarning foydasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fond operatsiyalarida banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bajarish bilan birga, fond birjalarida oldi – sotdi qilinadigan qimmatli qog'ozlar va veksellar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Banklar ***kassa operatsiyalari*** orqali mijozlarga naqd pullarni berish va ulardan naqd pullarni qabul qilish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi.

Banklarning ***valuta operatsiyalari*** bevosita xorijiy mamlakatlar milliy valutasini oldi – sotdisi bilan bog'liq operatsiyalar hisoblanib, milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan kursini o'zgarishi hisobiga foyda yoki zarar ko'rishi mumkin.

Banklar yirik va yuqori darajadagi to'lov qobiliyatiga ega moliyaviy muassasa sifatida kompaniya, korporatsiya va boshqalarga uchinchi shaxs sifatida ***kafolatlar*** berishi mumkin. Albatta, berilgan kafolatlar evaziga banklar ma'lum darajadagi foydani olishni rejalashtiradi.

Yuqorida qayd eilganlarga asoslanib, banklarning aktiv operatsiyalarini to'rtta guruhga ajratish mumkin.

1. Erkin zaxiralar – bunga kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, boshqa kredit tashkilotlarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar. Erkin zahirlar yuqori likvidli mablag'lar hisoblanib, bankka qisman yoki umuman daromad keltirmaydi.

2. Berilgan kreditlar va depozit ko'rinishida boshqa moliya muassasalariga, shuningdek, Markaziy bankka joylashtirilgan mablag'lar.

3. Investitsiyalar – bu bankning qimmatli qog'ozlarga va nomoddiy aktivlarga, shuningdek pay ko'rinishida xo'jalik faoliyatiga yo'naltirilgan resurslari.

4. Bankning o'ziga (ichki investitsiyalar) moddiy va nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan mablag'lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalar kiradi.

Tijorat banklarining daromadi bankning 2 va 3 guruhiga kiruvchi aktiv operatsiyalari hisobidan tashkil topib, bank aktivlarining risk darajasi qancha yuqori bo'lsa, ushbu operatsiyalardan kelayotgan daromadlar miqdori ham shuncha yuqori bo'ladi va, aksincha.

Demak, banklarning aktiv operatsiyalari daromad keltirish darajasiga qarab:

1. Daromad keltiradigan (kredit va investitsiyalar) aktivlar.
2. Daromad keltirmaydigan (erkin zaxiralar, moddiy) aktivlarga bo'linadi.

Aktivlar Markaziy bankning 2000-yil 26-apreldagi 420 – sonli yo'riqnomasiga asosan riskka tortilgan darajasiga qarab to'rtta guruhga bo'linadi.

1. Birinchi guruhga – riskdan ozod bo'lgan aktivlar – 0.
2. Ikkinchi guruhga –minimal risk darajasiga ega aktivlar – 20.
3. Uchinchi guruhga – o'rta risk darajasiga ega aktivlar – 50.
4. To'rtinchi guruhga – yuqori riskli aktivlar – 100.

Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998-yil 9-sentabrda tasdiqlangan 242 – sonli «Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish» tartibiga asosan bank kreditlari yaxshi kreditlar, standart kreditlar, substandart kreditlar, shubhali kreditlar va umidsiz kreditlar sifatida tasniflanadi.

Bank kreditlarini tasniflashdan asosiy maqsad ularni to'liq qaytarishini ta'minlash bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirishga qaratiladi. Bank kreditlari «Yaxshi» deb tasniflanganda ularda qaytarilmasligi alomatlari bo'lmaydi, shu bois ushbu kreditlar bo'yicha tegishli zaxiralar ajratilmaydi. Foizlar muddati o'tgan ssudalar «Yaxshi» deb tasniflanishi mumkin emas.

Kreditlar «Standart» sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha qaytarilmagan kredit summasining 10 foizi miqdorida zaxiralar tuzishi shart.

«Substandart» sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 25 foiziga teng bo'lgan zaxiralarni shakllantirishi lozim.

«Shubhali» deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarz to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Bank tomonidan berilgan kreditlar kamida 180 kunga kechiktirilganda bular «umidsiz» deb tasniflanadi. Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

Bank aktivlari likvidli, ya'ni tez naqd mablag'ga aylantirish imkoniyati bo'lishi kerak. Bank aktivlari likvidlilik nuqtayi nazaridan quyidagilarga bo'linadi:

1. Yuqori likvidli aktivlar – bevosita pul ko'rinishidagi mablag'lar bo'lib, ushbu aktivlar istalgan paytda bank maburiyatini bajarishga yo'naltirilishi mumkin.
2. Qisqa muddatli likvidli aktivlar – qisqa muddatli kreditlar va ikkilamchi bozorga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar.
3. Qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar – o'rta va uzoq muddatli kreditlar, ikkilamchi bozorga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar, pay ulushlari va boshqalar.
4. Past likvidli aktivlar – bankning asosiy vositalariga yo'naltirilgan mablag'lar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning aktiv operatsiyalari ularning foydasini shakllantirishga xizmat qilish bilan birga, ma'lum darajadagi risklarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Banklar aktiv operatsiyalarni bajarishda asosiy e'tiborni mavjud risklarning darajasini pasaytirish orqali balansning likvidligini ta'minlashga qaratadi.

12.4. Tijorat banklarining noananaviy operatsiyalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mijozlarning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va foyda manbasini oshirish maqsadida qator noananaviy operatsiyalarni bajaradi. Bunday operatsiyalar sirasiga ***faktoring, kredit – ijara (lizing), kontokorrent (overdraft), forfeyting, trast*** kabi operatsiyalarni kiritish mumkin.

12.4.1. Faktoring operatsiyalari

Faktoring operatsiyalarida banklar tovar sotib oluvchining qarz hujjatlarini sotib oladi, unda asosan uchta tomon ishtirok etadi.

Birinchisi, *faktor – vositachi,* bankning faktoring operatsiyalarini bajaruvchi bo'limi. Odatda, rivojlangan mamlakatlar tajribasida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan faktoring kompaniyalari tashkil etish amaliyoti ham mavjud.

Ikkinchisi, *mijoz (tovar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi),* faktor – vositachi bilan kontrakt tuzuvchi sanoat yoki savdo firmasi.

Uchinchisi, *tovar sotib oluvchi*.

Mijoz sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan pul mablag'ini talab qiluvchi hujjatlar asosida «faktor – vositachi» bilan faktoring operatsiyasi bo'yicha shartnoma tuzadi. Faktor – vositachi imzolangan faktoring shartnomasi asosida, ma'lum komission to'lov hisobiga mijozga sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovni amalga oshiradi. Soddaroq qilib aytganda, faktor + vositachi mijozdan tovar sotib oluvchiga mablag'larni to'lash bilan bog'liq to'lov hujjatlarni komission to'lov asosida «sotib oladi».

Faktor – vositachi mijoz bilan faktoring operatsiyasini imzolayotganda tovar sotib oluvchining moliyaviy holatini oqilona baholashi juda muhim hisoblanadi. Agar sotib oluvchining moliyaviy holati yomonlashib, faktoring operatsiyasi bo'yicha faktor – vositachi tomonidan mijozga to'lagan summani to'lay olmasa, ushbu zarar faktor – vositachining gardaniga tushadi.

Iqtisodiyotda faktoring operatsiyalarni vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

– sotib oluvchi korxona va tashkilotlar olingan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'lashi lozim bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida to'lash imkoniyatlarining mavjud emasligi. Bu qator ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlar tufayli vujudga keladi;

– tovar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi mijozning ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda davom ettirib turishi uchun moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashning zarurligi;

– banklarning moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish hisobiga qo'shimcha foydani shakllantirishga bo'lgan ehtiyojining mavjudligi.

12.4.2. Kredit – ijara (lizing)

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, ***kredit – ijara (lizing)*** murakkab savdo – moliya – kredit operatsiyalarining bir shakli hisoblanadi. Kredit – ijaraning asosiy xususiyatlari sifatida lizing muddati davomida ijaraga berilgan vositalarga nisbatan egalik huquqini saqlab qolishdir. Uning asosiy shakllaridan biri mashina va jihozlarni ijaraga berish, asosiy usullaridan biri investitsiyalarni moliyalashtirish va ta'minotni faollashtirish hisoblanadi.

Kredit – ijara (lizing) operatsiyasida, odatda, uch tomon ishtirok etadi:

1. Ishlab chiqaruvchi (tovar sotuvchi), bo'lajak lizing beruvchiga tegishli mashina va jihozlarni sotuvchi yuridik shaxs.

2. Lizing beruvchi, tovar sotuvchidan mashina va jihozlarni sotib oluvchi, mulkning egasi sifatida lizing shartnomasiga asosan ma'lum muddatga va to'lov evaziga mashina va jihozlarni lizing oluvchiga beruvchi. Odatda, lizing beruvchi sifatida yetarli darajada moliyaviy mablag'ga ega bo'lgan banklar, ixtisoslashgan lizing kompaniyalari, korxonalar maydonga chiqadi.

3. Lizing oluvchi, lizing shartnomasiga ma'lum muddat va to'lovga asosan mashina va jihozlarni oluvchi shaxs.

Odatda, lizing oluvchi sifatida asosan yuridik shaxslar maydonga chiqadi. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, lizingga olingan mashina va jihozlarning shartnoma muddati tugagandan so'ng lizing beruvchiga qaytariladi yoki lizing oluvchining ixtiyorida qoladi. Lizing o'ziga xos bo'lgan shartnoma hisoblanadi, unda ijara elementlari va kredit elementlari mujassamlashadi. Shu bois, lizing so'zi «kredit – ijara» tarzida talqin etiladi.

Lizing iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, kredit munosabatlariga xos bo'lib, kreditning iqtisodiy mohiyati va elementlarini o'zida aks ettirsada, kredit sifatida to'liq e'tirof etilmaydi. Chunki, kreditor va qarzdor kapital sifatida pul mablag'i bilan emas, balki ishlab chiqaruvchi jihozlar vositasida o'zaro munosabatga kirishadi. Shu bilan birga, lizing kredit hisoblanib, unda kreditning barcha tamoyillari o'z aksini topadi, shu jihatdan, lizing qiymat shaklidagi kredit ko'rinishida emas, balki tovar shaklidagi kredit sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotda lizingning qator ijobiy jihatlari mavjud bo'lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– lizing oluvchi korxona va tashkilotlarda mashina va jihozlarni sotib olish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar yetishmovchiligi yoki mavjud emasligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'z faoliyatini yangidan boshlayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qimmat va zamonaviy mashina va jihozlarni sotib olish bilan bog'liq muammolarni yechishga yordam beradi. Bu iqtisodiyotda ishlab chiqarishni tashkil etishga va boshqa qator ijtimoiy – iqtisodiy ziddiyatlarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi;

– ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan mashina va jihozlarni sotish bilan bog'liq muammolar bartaraf etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi;

– lizing beruvchining ixtiyoridagi pul mablag'lari samarali manbalarga joylashtiriladi va buning natijasida ma'lum darajada foyda olish imkoniyati vujudga keladi.

12.4.3. Kontokorrent operatsiyalari

Banklarning noaanaviy operatsiyalaridan biri ***kontokorrent operatsiyalar*** hisoblanadi. Kontokorrent (overdarft) operatsiyalarda mijozlarning banklardagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari bo'yicha ma'lum miqdorda debet qoldiq (overdraft) qolishiga ruxsat beriladi. Albatta, bu iqtisodiy jarayon bank va mijoz o'rtasida tegishli shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, kontokorrent shartnomasiga binoan mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarida mablag'lar mavjud bo'lmagan holda, unga to'lovlarni amalga oshirish uchun tegishli summani debet qoldig'i hisobidan o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarida mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ining aktiv qismida qolgan qoldiq asosida bank hisobiga tegishli foiz hisoblanadi. Mijoz tomonidan sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag'lar uning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i tushishi orqali debet qoldiq (overdraft) summasi yopiladi.

Shu tariqa, bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada kelishilgan muddat davomida kontokorrent (overdraft) operatsiyasi amalga oshiriladi. Uning ishtirokchilari bank va bankning mijozi hisoblanib, bank kontokorrent (overdraft) shartnomasini tuzayotganda mijozning moliyaviy holati, balansining likvidligi va boshqa mezonlariga alohida e'tibor qaratadi. Bunda asosan bank bilan uzoq yillardan buyon hamkorlik qilib kelayotgan va asosli to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan hamda ishonchli mijozlari yuqori mavqeyiga ega bo'ladi.

Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarining qator afzalliklari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

– mijozning qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi va qo'shimcha hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt va moliyaviy mablag'larni tejash imkoniyatini beradi;

– banklarga moliyaviy mablag'larni ishonchli va samarali maqsadlarga joylashtirish imkoniyatini berish bilan birga, qo'shimcha foyda olishga sharoit yaratadi.

12.4.4. Forfeyting operatsiyalari

Forfeyting operatsiyalari asosan yirik banklar va kompaniyalar o'rtasida uzoq muddatga, juda katta miqdordagi moliyaviy mablag'larni to'lashda qo'llaniladigan operatsiyalar hisoblanadi.

Forfeyting operatsiyasida, faktoring operatsiyasidagi kabi uch tomon ishtirok etadi. Birinchisi, mol yetkazib beruvchi, ikkinchisi, mol sotib oluvchi va uchinchisi, vositachi – bank yoki moliyaviy muassasa.

Forfeyting operatsiyalarining faktoring operatsiyalaridan asosiy farqi sifatida ushbu operatsiyalar uzoq muddatga (6 oydan 5 – 6 yilgacha) va yirik summalarga tuzilishini ta'kidlash mumkin.

Forfeyting iqtisodiy termeni, odatda, majburiyatni sotib olish ma'nosida qo'llaniladi, uni so'ndirish tovar va xizmatlarni sotib olish jarayonida kelgusida yuz beradi. «a forfait» so'zi fransuzchadan vujudga kelgan bo'lib, «huquqdan voz kechish» ma'nosini anglatadi. Forfeytingda pul mablag'ini olishga talabgor bo'lgan sotuvchi o'tkaziladigan veksel inodassamentiga[68] «to'lovni qaytarish shartisiz» so'zini qayd etish orqali to'lov regressidan[69] o'zini himoya qiladi. Forfeyting vekselini sotuvchi asosan yirik eksporterlar hisoblanib, ular vekselni to'lov hujjati sifatida akseptlab sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarning summasini diskont asosida zudlik bilan to'lash hisobiga barcha risk va majburiyatlar bilan birgalikda forfetterga (yani vekseldagi summani to'lab beruvchi va o'zida qayd etib boruvchi bankka) o'tkazadi.

Agar importer birinchi darajali to'lov qobiliyatiga va yuqori moliyaviy mavqeyiga ega bo'lmasa, har qanday forfetterlangan qarz summa aval[70] shaklida kafolatlangan yoki chaqirib olinmaydigan bank kafolatiga ega bo'lishi lozim.

Vekselni forfeterlash paytida undagi summa forfet krediti berilayotgan to'liq muddatga diskont asosida forfetter tomonidan avans tarzida ushlab qolinadi. Eksporter forfet krediti bo'yicha hech qanday majburiyatni o'ziga olmaydi, faqatgina u jo'natayotgan tovarlar va

---

[68] Индоссамент – векселни бошқа шахсга ўтказиш ҳуқуқини берувчи орқа тарафидаги ёзув.
[69] Регресс – олдин тўланган суммани қайтаришни талаб этиш.
[70] Аваль – вексел бўйича тўланмай қолган суммани тўлаб бериш ҳақида мажбуриятни олиш.

ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va tuzilayotgan hujjatlarning qonuniyligi hamda haqqoniyligini ta’minlashga mas’ul hisoblanadi.

Forfeyting operatsiyalariga misol sifatida AQSHning Boing samolyotini ishlab chiqaradigan kompaniya bilan yirik avikompaniyalar o‘rtasidagi o‘zaro oldi – sotdilarni keltirish mumkin. Chunki, boing samolyotlarining bahosi juda yuqori bo‘lishi aviakompaniyalarga ushbu mablag‘larni birdan to‘lash imkoniyatini bermaydi, biroq, o‘z navbatida, ishlab chiqarilgan samolyot uchun tegishli to‘lovni ololmagan samolyotsozlik kompaniyasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini‘ ta’minlashda muammolar vujudga keladi. Aynan shu muammo banklarning ishtirokida forfeyting operatsiyalari orqali hal etiladi. Bundan bank samolyotni sotib olgan aviakompaniyaning boing kompaniyasi oldidagi majburiyatlarini sotib oladi (savdo trattasi, o‘tkazma yoki oddiy veksel shaklida) va to‘lovni bir yo‘la amalga oshiradi, kelgusida esa bank va aviakompaniya o‘rtasida tuzilgan shartnomaga bo‘yicha asosiy summa tegishli jadval asosida, qo‘shimcha foiz to‘lovlari bilan birgalikda undirib boriladi.

12.4.5. Trast operatsiyalari

Xalqaro bank amaliyotida banklar mijozlarning topshiriqlariga asosan trust operatsiyalarini, ya’ni ularning ishonchli vakili sifatida xizmatlarni bajaradi.

Tijorat banklarida trast – bo‘limlari trast operatsiyalari doirasida quyidagi uch yo‘nalishdagi ishlarni bajaradi:

– mijozlarning vasiyatlariga binoan ularning meroslarini boshqarash;

– ishonchli vakil sifatida xizmatlarni bajarish va otaliqqa olish;

– agentlik (vositachilik) xizmati.

Mijozlarning vasiyatlariga binoan ularning meroslarini boshqarish. Meroslarni boshqarishda ularning asosiy vazifalari sud qarorini olish, meros bilan bog‘liq mol – mulklarni butligi va xafsizligini ta’minlash, mamuriy xarajatlarni amalga oshirish, qarzlarni to‘lash yoki undirish, mol – mulk bilan bog‘liq soliqlarni to‘lash va vasiyatchining merosxo‘rlariga tegishli xizmatlarni ko‘rsatish va yordam berish. Masalan, amaliyotda bunday holat mulkdorning farzandlari voyaga etmaganda erta olamdan ko‘z yumushi natijasida vujudga kelishi mumkin.

Mijozning ishonchli vakili sifatida ishlarni bajarish yoki shartnoma asosida vaqtinchalik mol – mulkini boshqarish. Bu shakldagi operatsiyalar mijoz uzoq muddatga safarga yoki jismoniy zaifligi oqibatida o'ziga tegishli mol – mulk (uy – joy, mashina, uy hayvonlari va boshqalar)ni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan holatda yuz beradi.

Agentlik (vositachilik) xizmati.

1. Qimmatli qog'ozlarni saqlashga qabul qilish.
2. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni undirish.
3. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar haqida benefitsarga ma'lumot berib turish.
4. Muddati tugagan qimmatli qog'ozlarni so'ndirish.
5. Qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish.
6. Benefitsarning hisobvaraqlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish.
7. Sug'urta polislarini rasmiylashtirish.
8. Seyflarni ijaraga berish.

Yakunlovchi fikr sifatida ta'kidlash mumkinki, har qanday iqtisodiyotda banklarning noaananaviy operatsiyalarini rivojlanishiga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan, milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan kursining barqarorligi, real inflatsiya darajasining xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan me'yorlarini ta'minlanishi, bank tizimiga aholi va mijozlar ishonchining mustahkamligi kabilar shular jumlasidandir.

12.5. Tijorat banklari daromad va xarajatlari

Tijorat banklarining daromadi foizli va foizsiz daromadlardan iborat. Tijorat banklarining daromadlari tarkibida foizli daromadlar asosiy salmoqni egallaydi. Daromadlar bank balansining passivida hisobga olib boriladi.

Tijorat banklari daromadlarining manbalari turli – tuman bo'lib, ularni quyidagi tartibda guruhlash mumkin.

1. Mulkiy shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga qisqa, o'rta va uzoq muddatga so'mda va xorijiy valutalarda berilgan kreditlar bo'yicha daromadlar.
2. Markaziy bankdagi va boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlar bo'yicha daromadlar.

3. Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha daromadlar.

4. Trast, lizing, faktoring va forfeyting operatsiyalari bo'yicha daromadlar.

5. Qimmatbaho metallar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha daromadlar.

6. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan REPO bitimlari bo'yicha daromadlar.

7. Xorijiy valutalar kursining o'zgarishi natijasida olinadigan daromadlar.

8. Berilgan kafolatlar va tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar.

9. Qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalarga va shu'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar.

10. Maslahat va vositachilik xizmatlaridan olingan daromadlar.

11. Boshqa daromadlar.

12. Tijorat banklarining foizli daromadlari asosan ular tomonidan berayotgan kreditlar hisobidan shakllanadi.

Tijorat banklarining xarajati foizli va foizsiz xarajatlardan iborat bo'ladi. Xarajatlar bank balansining aktiv tomonida hisobga olib boriladi.

Tijorat banklari o'z faoliyatini tashkil etish jarayonida turli xarajatlarni amalga oshiradi, shu bois xarajatlarni moddalar bo'yicha guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

1. Bankning moliyaviy resurslarini shakllantirish va uning bevosita faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar. Ushbu xarajatlar tarkibiga:

1) mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlariga xarajatlar;

2) depozit sertifikatlar, omonatlar va aksiyalarga to'lanadigan xarajatlar;

3) boshqa bank va bank bo'lmagan tashkilotlardan olingan kreditlar bo'yicha xarajatlar;

4) Markaziy bankdan qayta moliyalash tarzida olingan resurslarga to'lanadigan xarajatlar;

5) naqd pullarni olib kelish, jo'natish va saqlash bilan bog'liq xarajatlar;

6) qimmatli qog'ozlar va qimmatli metallar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha to'lanadigan xarajatlar;

7) mahalliy banklarning vakillik hisobvaraqlariga to'lanadigan xarajatlar;

8) xorijiy banklarning «Loro» vakillik hisobvaraqlariga to'lanadigan xarajatlar;

9) qaytarilmagan kreditlar bo'yicha xarajatlar;

10) boshqa xarajatlar.

2. Xodimlarining ish haqi, ijara va boshqa mamuriy xarajatlar:

1) ish haqi va moddiy yordam xarajatlari;

2) sug'urta va badallarga xarajatlar;

3) xodimlarni ijtimoiy himoya va tibbiy xarajatlari;

4) ijara, suv, elektr energiya, tamirlash, qo'riqlash va boshqa xarajatlar.

3. Xizmat safari, tarnsport va amortizatsiya xarajatlari.

1) bank xodimlarining xizmat safari va yashash xarajatlari;

2) transport va yoqilg'i xarajatlari;

3) bank binosi va boshqa imoratlariga amortizatsiya xarajatlari;

4) transport, mebel va boshqa jihozlarning amortizatsiya xarajatlari;

5) nomoddiy aktivlar va ijaraga topshirilgan binolarga amortizatsiya xarajatlari;

6) soliq to'lovlari bilan bog'liq xarajatlar;

7) boshqa xarajatlar.

4. Bankning imidjini ko'tarish va xizmatlarining turini ko'paytirish bilan bog'liq xarajatlar:

8) reklama va e'lonlarga qilinadigan xarajatlar;

9) prezentatsiya va boshqa tadbirlarlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar;

10) kitoblar va davriy nashrlarga qilinadigan xarajatlar,

11) homiylik va vasiylik xarajatlari;

12) boshqa xarajatlar.

Tijorat banklarining xarajatlari tarkibida asosiy salmoqni yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi guruhdagi xarajat moddalari egallaydi.

Tijorat bankining yuqori darajada foydaga ega bo'lishi va kapitalning yetarliligini ta'minlanganligi uning iqtisodiy jihatdan mustahkamligini anglatadi. Bankning yuqori foydaga ega bo'lishi uning raqobatbardoshligini va xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kapitalning yetarligini ta'minlanganligi esa bankning aktiv operatsiyalarining hajmini oshirishga va risk darajasini pasaytirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bobga oid savollar

1. Tijorat banklari mamlakat bank tizimida qanday o'rin tutadi?
2. Tijorat banklari faoliyati qanday maqsadga qaratilgan?
3. O'zbekistonda mustaqillikkacha bo'lgan davrda qanday bank tizimi faoliyat yuritgan va mustaqillik davrida qanday rivojlandi?
4. Tijorat banklari faoliyati qanday qonun bilan tartibga solinadi?
5. O'zbekistonda qanday bank dastlabki tijorat banki hisoblanadi va undan keyin qanday tijorat banklari tashkil etildi?
6. Tijorat banklari minimal ustav kapitaliga qo'yilgan talab miqdori.
7. Tijorat banklarini litsenziya olish tartibi va talablari.
8. Tijorat banklari passiv operatsiyalari mohiyati va tarkibi.
9. Banklarning barqaror va beqaror mablag'larining mohiyati.
10. Tijorat banklari aktiv operatsiyalari mohiyati va tarkibi.
11. Banklarning yuqori va past riskli aktivlari.
12. Tijorat banklari noan'anaviy operatsiyalari.
13. Tijorat banklari daromadlari.
14. Tijorat banklari xarajatlari.

Bobga oid testlar

1. Tijorat banklari mamlakat bank tizimining nechanchi bo'g'inida faoliyat yuritadi?

A. Birinchi bo'g'inida.
B. Ikkinchi bo'g'inida.
V. Uchinchi bo'g'inida.
G. To'rtinchi bo'g'inida.

2. Hozirgi kunda tijorat banklari mijozlarga necha turdan ortiq xizmatlarini ko'rsatadi?

A. 100 dan ortiq.
B. 200 dan ortiq.
V. 300 dan ortiq.
G. 400 dan ortiq.

3. Tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki qonun qachon qabul qilingan?

A. 1989-yil.
B. 1991-yil.
V. 1993-yil.
G. 1995-yil.

4. Tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi yangi tahrirdagi qonun qachon qabul qilindi?

A. 1996-yil 25-yanvar.
B. 1996-yil 25-fevral.
V. 1996-yil 25-aprel.
G. 1996-yil 25-iyun.

5. Aksiyador va xususiy tijorat banklari uchun 2011-yil 1-yanvardan boshlab minimal ustav kapitali qanchadan iborat qilib o'rnatilgan?

A. 5,0 mln. va 2,5 mln. yevro ekvivalentida.
B. 8,0 mln. va 4 mln. yevro ekvivalentida.
V. 10,0 mln. va 5 mln. yevro ekvivalentida.
G. 12,0 mln. va 6 mln. yevro ekvivalentida.

6. Tijorat banklari resurslari nechta yirik guruhga bo'linadi?

A. 2 ta.
B. 5 ta.
V. 7 ta.
G. 9 ta.

7. Tijorat banklari riskli aktiv operatsiyalari natijasida:

A. Xarajat qilishga majbur bo'ladi.
B. Daromad oladi.
V. Mablag'larni jalb qiladi.
G. Kapitalini oshiradi.

8. Quyidagi qanday operatsiyalar bank uchun yuqori riskli aktiv operatsiyalar hisoblanadi?

A. Kassa operatsiyalari.
B. Kredit operatsiyalari.
V. Asosiy vositalar bilan bog'liq operatsiyalar.
G. Mijozlar bilan bog'liq operatsiyalar.

9. Tijorat banklari aktivlari riskka tortilganlik darajasiga qarab nechta guruhga bo'linadi?

A. 2 ta.
B. 3 ta.
V. 4 ta.
G. 5 ta.

10. Banklarning noananaviy operatsiyalari qanday javobda to'liq keltirilgan?

A. Faktoring, kontokorrent (overdraft), forfeyting, trast.
B. Faktoring, kredit – ijara (lizing), forfeyting, trast.
V. Faktoring, kredit – ijara (lizing), kontokorrent (overdraft), forfeyting, trast.
G. Faktoring, kredit – ijara (lizing), kontokorrent (overdraft), forfeyting.

11. Banklarning daromadlari qanday tarkibdan tashkil topadi?

A. Foizli.
B. Foizsiz.
V. Foizli va foizsiz.
G. Qiymatli va qiymatsiz.

12. Banklarning xarajatlari qanday operatsiyalar guruhiga kiradi?

A. Passiv operatsiyalar.
B. Valuta operatsiyalari.
V. Aktiv operatsiyalar.
G. Kapital operatsiyalar.

13.1. AQSH bank tizimi

AQSH kredit tizimi stixiyali – evolyutsion tarzda shakllanib, hozirgi kunda dunyoning eng rivojlangan zamonaviy kredit tizimlaridan biri hisoblanadi. AQSHda bank tizimining tashkil topishini dastlabki davrida banklar faoliyatini tartibga solib turuvchi Markaziy banki mavjud bo'lmagan. Buning natijasida banklar mustaqil ravishda pul emissiyasini amalga oshirgan, ayrim davrda ularning soni juda tez ko'payib ketgan, qator inqirozli va ziddiyatli davrlarni boshidan kechirgan. Masalan, 1850-yillarda banklarning soni 28 tadan 700 taga chiqqan, mos ravishda ularning aktivlari shu ravishda 40 mln. dollardan 800 mln. dollarga ortgan, aynan shu davr Amerika kredit tizimida juda ko'p turdagi banknotlar muomalaga chiqarilgan, juda ko'p banklar moliyaviy qiyinchilik tufayli yopilib ketgan. Bundan esa Amerika iqtisodiyoti va aholisi juda katta iqtisodiy talofatlar ko'rgan. Bularning barchasi 1863-yilda davlat (milliy) banklari tizimi tashkil etilishiga sabab bo'lgan, ushbu tizim Vashingtondagi Pul muomalasini nazorat qilish departamentiga bo'ysundirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, AQSHda bir necha marta (1900 – 1910-yillarda) pul muomalasini tartibga solib turish bo'yicha davlat Markaziy bankini tashkil etishga urinib ko'rilgan, lekin bu harakatlar tegishli samara bermagan. Chunki, har bir shtat mustaqil ravishda banklarni litsenziyalash huquqiga ega bo'lgan ushbu banklar esa, muomalaga banknotalarini chiqarish va tegishli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullangan.

Odatda, Milliy bank tizimi mamlakatda pul emissiyasini tartibga solish, pul muomalasini elastikligini ta'minlash, tegishli zaxiralarni shakllantirishni nazorat qilish bilan shug'ullangan. 1913-yilda AQSH Federal zaxira tizimi tashkil etilib, uning bosh shtati Vashingtonda va 11 ta yirik shtatlarda zaxira banklari sifatida faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularning asosiy vazifasi etib, pul emissiyasini tashkil etish, muammolari faoliyati ustidan nazoratni tashkil etish, banklarning zaxiralarini markazlashtirish belgilab qo'yildi.

AQSH Federal zaxira tizimi tarkibidagi 12 ta bankdan yuqori mavqega ega bo'lgan Nyu – York FZT hisoblanib, mamlakatdagi barcha FZTlar aktivlarining j qismi uning hissasiga to'g'ri kelar edi. Depozit mablag'larining hajmi bir mln. dollardan ortiq bo'lgan barcha banklar FZTning a'zosi bo'lishi belgilab qo'yilgan edi.

FZTning faoliyatini tashkil etish Boshqaruv kengashidan tashqari Ochiq bozordagi operatsiyalarni tashkil etish qo'mitasi, maslahat kengashi va har bir FZTda boshqaruv a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruv kengashi 7 kishidan iborat bo'lib, 14 yil muddatga mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Ularning funksiyasi federal zaxira banklari faoliyati ustidan nazorat qilish, ularning prezidenti va vitse prezidentlarini tayinlash, banknotlar emissiyasi ustidan nazorat qilish, majburiy zaxira foizi va hisob stavkalarini belgilash, pul – kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarni ishlab chiqish va boshqalar hisoblanadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar qo'mitasi Nyu – York Federal zaxira tizimi orqali davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish ishlarini amalga oshiradi. Shtatlardagi Federal zaxira banklari boshqaruv a'zolari (3 ta), Boshqaruv kengashi (3 ta) va mazkur hududlarning sanoatchilari (3 ta) tomonidan boshqariladi.

Hozirgi paytda, AQSHda jami tijorat banklarning taxminan 40 foizdan ortig'i FZTning a'zosi hisoblanadi, (12 minga yaqin) ushbu banklarning hissasiga jami depozitlarning 75 foizdan ortig'i to'g'ri keladi.

AQSHda 1920-yillarda 14,848 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatgan, tijorat banklari o'rtasida monopolistik harakat hukmronlik qiladi. Masalan, mamlakatdagi jami aktivlarning 65,8 foizi 518 ta yirik tijorat banklarning hissasiga to'g'ri keladi.

AQSHda tijorat banklari filiallarini shtatdan tashqarida ochishni bank qonunchiligi taqiqlaydi, shunga qaramasdan, tijorat banklarning filiallari soni ortib bormoqda. Masalan, 1966-yilda tijorat banklari faoliyati 15,8 mingta bo'lsa, 1986 yilda ularning soni 43,9 mingtaga yetdi.

Ko'pchilik monopolistlar ushbu muammoni *bank xolding – kompaniyalari va zanjirli bog'lanish* tizimi orqali yechishga harakat qiladi. Xolding kompaniyalar kichik tijorat banklari aksiyalarini sotib olish orqali ularni yirik monopol banklari nazoratiga kiritib qo'yadi.

Zanjirli bog'lanish tizimida esa ayrim yirik kapitalli shaxslar shtat yoki tuman banklari aksiyalarini sotib olib, ularning nazoratini o'z qo'liga oladilar.

AQSH banklari xorijiy mamlakatlarda o'z filiallarini tashkil etish bilan birga, ularning o'zlari xorijiy mamlakatlar banklari tomonidan qattiq raqobatga duchor bo'lishadi. Masalan, 1987-yilda AQSHda 259 ta bankning 398 ta bo'limi tashkil etilgan bo'lib, AQSH jami banklari aktivlarining 12 foizi ularning ulushiga to'g'ri kelgan.

AQSH kredit muassasalari tarkibida tijorat banklaridan tashqari ssuda – jamg'arma banklari, kredit uyushmalari, sug'urta kompaniyalari, pension fondlar, investitsiya kompaniyalari, pul bozorining qarz fondlari faol faoliyat yuritadi.

Ssuda – jamg'arma banklari tijorat banklari singari mijozlarga kredit berish va omonatlarini jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotida muhim moliyaviy bo'g'inlardan hisoblanadi. Ular asosan qurilayotgan inshootlarni garovi ostida kreditlar beradi.

Kredit uyushmalari – asosan a'zolaridan pul mablag'larini jalb qilish orqali mayda kreditlar beradi.

Sug'urta kompaniyalari – mamlakat moliya bozorida uzoq muddatli yirik ssuda mablag'larini joylashtirish orqali yirik korporatsiya, banklar va davlatning qimmatli qog'ozlarini sotib oladi.

AQSHda pension fondlar ikkinchi jahon urushidan keyin muhim moliya vositachilik rolini o'ynay boshladi. Ular asosan, ishchi tadbirkorlarning jamg'arilgan pensiya mablag'lari hisobidan yirik savdo – sanoat va transport kompaniyalarning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarini sotib olib, investitsion fondlar bilan raqobatga kirishadi.

Pul bozorining qarz fondlari asosan qisqa muddatga bozor majburiyatlarini joylashtiradi va uning o'rniga yuqori daromad keltiradigan aksiyalarini muomalaga chiqaradi.

13.2. Buyuk Britaniya bank tizimi

Buyuk Britaniyaning kredit tizimi o'zining iqtisodiy va tarixiy evolyutsiyasi jihatidan dunyodagi eng rivojlangan, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan tizimlardan hisoblanadi. U juda yuqori jihatdan ixtisoslashgan kredit instituti bo'lib, uning bosh bo'g'ini Angliya banki, tijorat banklari va maxsus kredit – moliya institutlaridan tashkil topgan.

Kredit institutlari o'rtasida yuridik va tashkiliy jihatdan juda katta cheklovlar mavjud emas, keyingi yillarda ko'p hollarda an'anaviy bozorlar kuchayib bormoqda, buning natijasida kredit muassasalari doimiy ravishda universallashib bormoqda.

Angliya Banki (Markaziy banki) 1694-yilda xususiy aksiyadorlik kompaniyasi shaklida tashkil topgan. XVIII asr o'rtalaridan boshlab, emissiya monopoliyasini qo'lga oldi va hukumatning banki sifatida Markaziy bankning funksiyalarini bajara boshladi. Jumladan, Angliya Banki quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi:

– tijorat banklarning banki sifatida xizmat ko'rsatadi;

– davlat byujetini barcha daromad va xarajatlari u orqali amalga oshiriladi va hukumatning banki vazifasini bajaradi;

– banklar emissiyasini amalga oshiradi;

– hukumatning qarz operatsiyalarni amalga oshiradi va hisobini yuritadi;

– valuta operatsiyalarini amalga oshiradi va nazorat qiladi, hukumatning rasmiy oltin – valuta zaxiralarini boshqaradi va tasarruf etadi;

– hukumatga pul kredit siyosatini amaga oshirish bo'yicha maslahatlar beradi va uning ijrosini ta'minlaydi.

Angliya Banki rasmiy jihatdan hukumatdan mustaqil hisoblanadi, biroq moliya vazirligining umumiy rahbarligi ostida faoliyat yuritadi.

Angliyada eng yirik tijorat banklari «katta to'rtlik»ni tashkil etib – depozit va kredit operatsiyalari bo'yicha mamlakatda yetakchi o'rinda turadi. «Katta to'rtlik» banki dunyoning eng yirik tijorat banklari tarkibiga kirib, Neshnl Vestminister, Barklayz, Midlend va Lloyds banklaridan tashkil topgan.

Mamlakatda oltita yetakchi banklar depozit banklari hisoblanadi, chunki ular London kliring (hisob-kitob) palatasi a'zosi hisoblanadi.

Umumamn olganda, mamlakatda 14 mingdan ortiq tijorat banklari mavjud bo'lib, ularni «chakana banklar» sifatida ham atashadi. Juda ko'p tijorat – depozit banklari xalqaro miqyosdagi operatsiyalarni bajarishda faol ishtirok etadi va xorijiy mamlakatlarda ko'plab filiallariga ega.

Angliya maxsus kredit – moliya institutlari tarkibiga quyidagi moliya muassasalari kiradi:

– savdo bank;

– hamkorlik banki;

– hisob (uchetnыe) uylari;
– moliyaviy uylar;
– ishonch jamg'arma banklari;
– milliy jamg'arma banklari;
– qurilish jamiyatlari;
– milliy jirobanklar;
– sug'urta kompaniyalari va pension fondlar;
– investitsion trestlar;
– ishonchli pay fondlari;
– moliyaviy korporatsiyalar;
– vinchur (riskli) moliyalashshtiruvchi firmalar;
– xorijiy banklar.

Savdo banklari – bir necha o'nta moliyaviy muassasa bo'lib, ular asosan tashqi savdo va xalqaro kredit – moliya operatsiyalari bilan shug'ullanadi.

Ushbu banklarning asosiy yutug'i shundaki, ular an'anaviy ravishda ssuda kapitali va qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritib keladi. Savdo banklari depozit – ssuda operatsiyalarning birgalikda bajarilishi bilan ajralib turadi.

Hamkorlik banklari – rasmiy nomi sobiq britaniya kolonnalari banki deb yuiritiladi. Hozirgi kunda statistik ma'lumotlarda aks ettirilmaydi, chunki ularning ko'pchiligi yirik banklarning tarkibiga kirib ketgan. Ushbu banklarning farqli jihati shundaki, ularning aksiyadorlari britaniya fuqarolari hisoblanadi. Bunday banklarning tinchlik vakili sifatida Stendart garted bankni aytish mumkin. Ushbu bank 1300 dan ortiq xorijiy bo'limlarga ega bo'lgan va Angliyaning eng yirik 10 talik banklari tarkibiga kiradigan bank hisoblanadi.

Hisob (uchet) uylari – moliya bozorida faoliyat yuritadigan, uncha yirik bo'lmagan moliya muassasi. Ular an'anaviy tarzda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarni jalb etib, (onkol kredit) ushbu mablag'larni tijorat banklariga, g'aznachilik veksellariga, davlat obligatsiyalariga, munitsipal majburiyatlarga, muddatli depozitlar va depozit sertifikatlariga joylashtiradi. Keyingi paytlarda ularning soni juda qisqarib, 2000-yillarga kelganda 13 tadan 8 taga tushib qoldi. Yunion Diskount, Djerrord End neshenl, Keyter Allen kabi taniqli hisob uylari xozirgi kunda ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Moliyaviy uylar – iste'mol tovarlari va ayrim sanoat mollariga to'lovni kechiktirish tartibida kereditlar beradi. Ularning asosiy

moliyaviy manbalari sanoat savdo filiallari, banklar va aholidan 3 – 6 oyga jalb etgan depozitlari hisoblanadi. Mamlakat kredit operatsiyalari hajmida ularning ulushi unchalik yuqori emas, ko'pchilik moliyaviy uylar an'anaviy faoliyat turlari bilan emas balki, lizing operatsiyalari va kredit kartochkalari bilan shug'ullanadi.

Ishonchli jamg'arma banklari, milliy jamg'arma banklari va *qurilish jamiyatlari* asosan aholi mayda jamg'armalarini jalb etish orqali moliyaviy mablag'larini shakllantiradi.

Ishonchli jamg'arma banklari boshqaruvi tarkibida davlatning ishonchli vakili bo'lib, tijorat banklari bajargan barcha operatsiyalarni bajaradi.

Milliy jamg'arma banki – sobiq pochta – jamg'arma banki hisoblanib, barcha mablag'lari davlatning qimmatli qog'ozlarini moliyalashtiradi.

Qurilish jamiyatlarining moliyaviy mablag'lari asosan uzoq muddatli uy- joylarini qurish ishlariga joylashtiradi.

Milliy jirobanklar – 1968 yilda davlat tomonidan pochta bo'limlari bazasida tashkil etilgan bo'lib, asosan tijorat banklarida qo'llaniladigan chek kliring tizimini tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Sug'urta kompaniyalari va pension fondlar faoliyati bilan bog'liq manbalar hisobidan shakllantirilgan mablag'larni uzoq muddatli investtsiyalarga joylashtirish bilan shug'ullanadi. Ularning moliyaviy mablag'lari 20 – 25 yil muddatga, asosan aksiya va qimmatli qog'ozlarga joylashtiriladi.

Angliyaning Royal, Kommershl yunion va boshqa sug'urta kompaniyalari dunyo sug'urta monopoliyasi tarkibidan mustahkam o'rin egallaydi.

Investsion trestlar – asosan qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan shug'ullanadi. Ular o'z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish orqali iqtisodiyotdan moliyaviy kapitalni jalb etadi va ushbu mablag'larni yirik kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga joylashtiradi. Ushbu muassasalarning faoliyati o'ziga xos jihatga ega bo'lib, bozor konyukturasiga bog'liqlik darajasi juda yuqori hisoblanadi.

Ishonchli pay fondlari – faoliyati investitsion trestlar faoliyatiga o'xshash bo'lib, jamg'arilgan moliyaviy mablag'larni kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga joylashtiradi.

Bobga oid savollar

1. AQSH bank tizimining tashkil topishi va rivojlanishi.
2. AQSH da pul muomalasini tartibga solish bo'yicha qachon harakatlar bo'lgan va ularning natijalari?
3. AQSH FZT tashkil topishi va uning tarkibi.
4. AQSH FZTning asosiy vazifalari.
5. AQSH tijorat banklari va ularning FZT bilan aloqasi.
6. AQSH maxsus moliya – kredit muassasalari.
7. Buyuk Britaniya bank tizimi va uning rivojlanishi.
8. Angliya Bankining asosiy vazifalari.
9. Angliyada tijorat banklari va ularning faoliyati.
10. Angliya maxsus moliya – kredit muassasalari.

Bobga oib testlar

1. AQSH da dastlabki bank tizimi qanday rivojlangan?

A. AQSH Kongressi qonunlari asosida.
B. Stixiyali – evolyutsion tarzda.
V. Xorijiy tajriba asosida.
G. Angliya bank tizimi tasarrufida.

2. Bank tizimi va pul muomalasini nazorat qilish bo'yicha 1863-yilda:

A. Federal zaxira tizimi tashkil etildi.
B. Pul muomalasini nazorat qilish departamenti tashkil etildi.
V. Moliya vazirligi huzurida maxsus boshqarma tuzildi.
G. Kongress a'zolari ishtirokida maxsus guruh tuzildi.

3. AQSH Federal zaxira tizimi qachon tashkil etildi va uning Boshqaruv kengashi nechta kishidan iborat?

A. 1863-yil, yettita kishi.
B. 1913-yil, yettita kishi.
V. 1913-yil, uchta kishi.
G. 1863-yil, uchta kishi.

4. Hozirgi paytda taxminan necha foiz banklar FZTning a'zosi hisoblanadi?

A. 35 foiz.
B. 40 foiz.

V. 45 foiz.
G. 50 foiz.

5. AQSH da tijorat banklaridan tashqari qanday kredit muassasalari faoliyat yuritadi?

A. Ssuda – jamg'arma banklari, kredit uyushmalari, sug'urta kompaniyalari, pension fondlar, investitsiya kompaniyalari, pul bozorining qarz fondlari.

B. Kredit uyushmalari, sug'urta kompaniyalari, pension fondlar, investitsiya kompaniyalari, pul bozorining qarz fondlari.

V. Sug'urta kompaniyalari, pension fondlar, investitsiya kompaniyalari, pul bozorining qarz fondlari.

G. Tijorat banklari, kredit uyushmalari, sug'urta kompaniyalari, pension fondlar, investitsiya kompaniyalari, pul bozorining qarz fondlari.

6. Angliya bank tizimining asosiy bo'g'ini qanday tashkilot hisoblanadi?

A. Tijorat banklari.
B. Maxsus moliya – kredit muassasalari.
V. Barklayz Bank.
G. Angliya Banki.

7. Angliya Banki quyidagilardan qanday funksiyani barjarmaydi?

A. Davlat byujetini barcha daromad va xarajatlari u orqali amalga oshiriladi va hukumatning banki vazifasini bajaradi.

B. Mijozlarning omonatlarini qabul qiladi va ularga kredit beradi

V. Banklar emissiyasini amalga oshiradi.

G. Hukumatning qarz operatsiyalarni amalga oshiradi va hisobini yuritadi.

8. Angliyada tijorat banklarini qanday banklar sifatida atashadi?

A. Moliyaviy banklar.
B. Chakana banklari.
V. Savdo banklari.
G. Kredit banklari.

9. Quyidagilardan Angliya maxsus moliya – kredit muassasalari tarkibiga qaysi biri kirmaydi?

A. Savdo banklari.

B. Hamkorlik banklari.

V. Hisob (uchetnыe) uylari.

G. Xalq banklari.

10. Angliya kredit tizimi tarkibida qanday yirik sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritadi?

A. Royal.

B. Neshnl Vestminister.

V. Barklayz.

G. Midlend.

14 – bob. NOBANK KREDIT TASHKILOTLAR VA ULARNING OPERATSIYALARI

14.1. Kredit uyushmalari va ularning operatsiyalari

Kredit uyushmasi – mikromoliyalash tashkilotlari tarkibidagi asosiy moliya muassasasi hisoblanib, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jalb qilish asosida mikrokredit va kreditlar berish bilan shug'ullanadigan tijorat tashkilotidir.

Kredit uyushmasiga Markaziy bankning tegishli me'yoriy hujjatlarida, kredit uyushmasi – kreditlar berish hamda boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy teng huquqli a'zolik asosida tuziladigan kredit tashkiloti sifatida ta'rif berilgan.

Kredit uyushmalariga iqtisodiy adabiyotlarda notijorat moliyaviy tashkilot sifatida ta'riflar berilgan. Bizningcha, dastlabki kredit uyushmalari notijorat asosida tashkil topgan bo'lishi mumkin, biroq hozirgi kunda mamlakatimizda tashkil etilayotgan va faoliyat yuritayotgan barcha kredit uyushmalarining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan.

Kredit uyushmalari faoliyatiga kengroq ma'noda e'tibor qaratadigan bo'lsak, kredit uyushmalari kooperativ tashkilot bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi va o'zining a'zolariga ushbu mablag'lar hisobidan kreditlarni taqdim etadi.

Ayrim manbalarga ko'ra, dastlabki kredit uyushmalari 1844-yilda Angliyaning Rochdeyl shahrida to'qimachlik korxonasi ishchilari tomonidan tashkil etilgan. XIX – asrning 60-yillarida kredit uyushmalari tashkil etish g'oyalari Germaniya va Avstriyalik Fridrix Rayffayzen va German Shultse – Delichlar tomonidan ilgari surildi. Shu davrda kredit uyushmalari faoliyati rivojlandi va moliyaviy muassasalar sifatida mamlakat moliya tizimiga kirib keldi.

Rayffayzen dastlabki qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan kredit klasslari, shuningdek, savdo – sotiqni kreditlaydigan uyushmalarning asoschisi hisoblanadi.

Shultse – Delich tomonidan tashkil etilgan kredit uyushmalarining asosiy faoliyati shaharlarda faoliyat yuritadigan hunarmand, kosib va mayda tadbirkorlarga xizmat ko'rsatishga qaratildi.

Hozirgi kunda, kredit uyushmalari AQSH, Kanada, Irlandiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Tayvan mamlakatlarida juda keng rivojlangan, shuningdek, ayrim MDH mamlakatlarida (Rossiya, Qozog'iston, Estoniya) ham jadal rivojlanish bosqichini o'z boshidan kechirmoqda.

Kredit uyushmalari passiv operatsiyalari – bu mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalaridir. Kredit uyushmalari mablag'larni *pay badallari, muddatli va jamg'arma depozitlar, boshqa moliyaviy muassasalardan kredit* sifatida jalb qilishi mumkin. Shuningdek, kredit uyushmalarining daromad va foydani shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini ham ularning passiv operatsiyalari sifatida tasniflash mumkin.

Kredit uyushmalarini tashkil etishning asosiy passiv operatsiyalari va ularni tashkil etishning talablaridan biri ustav kapitalini shakllantirish hisoblanadi. Kredit uyushmalari pay badallari (ustav kapitali) uning tasischilari tomonidan shakllantiriladi.

Kredit uyushmalari ustav fondi pul mablag'laridan, shuningdek, mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol – mulk hisobidan shakllantirilishi mumkin. Kredit hisobidan va garovga olingan mablag'lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan kredit uyushmalari ustav fondini shakllantirishga ruxsat berilmaydi.

Kredit uyushmalarining muddatli va jamg'arma depozitlari unga a'zo jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari hisobidan shakllantiriladi.

Ta'kidlash joizki, kredit uyushmalarida muddatli va jamg'arma depozitlar bo'yicha to'lanayotgan foiz stavklarining yuqoriligi aholining kredit uyushmalarida omonatlarni jamg'arishga bo'lgan ishtiyoqini oshirmoqda. Biroq, bu omonatlar bilan bog'liq risklarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Kredit uyushmalari, moliyaviy muassasa sifatida qo'shimcha resurslarga kuchli ehtiyoj sezadi. Kredit uyushmalari, albatta ushbu ehtiyojni ustav kapitali, omonatlar, taqsimlanmagan foyda hisobidan qondirishga alohida e'tibor qaratadi. Shunga qaramasdan, ushbu moliyaviy manbalar hisobidan shakllantirilgan mablag'lar yetarli

bo'lmaganda tijorat banklaridan qisqa va uzoq muddatli kreditlarni jalb etadi.

Kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari – bu passiv operatsiyalar natijasida shakllantirilgan moliyaviy mablag'larni tegishli foydani shakllantirish maqsadida samarali joylashtirishi bilan bog'liq faoliyati majmuidir. Kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda *moddiy va nommoddiy aktivlarga, riskli va risksiz aktivlarga, daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlar* sifatida guruhlash mumkin.

Kredit uyushmalarining *moddiy aktivlariga* bevosita qiymat va buyum ko'rinishida mavjud bo'lgan aktivlar kiradi. Masalan, kassadagi naqd pullar, kreditlar, asosiy vositalar shular jumlasidandir. *Nomoddiy aktivlarga* kredit uyushmasini faoliyatini tashkil etish uchun sotib olingan dasturiy mahsullar, gudvill va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, kredit muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarning asosiy qismi bevosita risk bilan bog'liq. Shuningdek, kredit uyushmalarining faoliyati ham bundan xoli emas. Shu jihatdan ularning aktiv operatsiyalari ham *riskli va risksiz aktivlardan* iboratdir. Kredit uyushmalarining riskli operatsiyalari bevosita ularning daromadlarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalari jarayonida vujudga kelib, risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ularning daromadlari hajmi ham shu darajada yuqori bo'ladi va, aksincha.

Kredit uyushmalarining riskli operatsiyalari sifatida berilgan kreditlar, investitsiyalar, lizinglar va boshqa shaxslardagi omonatlarini keltirish mumkin. Risksiz aktivlar tarkibiga esa kassadagi naqd pullar, tijorat banklaridagi mablag'lari, asosiy vositalar va shunga o'xshash aktivlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Kredit uyushmalarining barcha operatsiyalari ham daromad keltirmaydi, shunday bo'lsada, uyushmaning faoliyatini tashkil etish maqsadida ular daromad keltirmaydigan operatsiyalarni amalga oshirishga ham majburdirlar. Masalan, kassadagi naqd pul bilan bog'liq operatsiyalari, asosiy vositalar, bankdagi hisobvaraqlaridagi mablag'larni *daromad keltirmaydigan aktivlar* sifatida ta'kidlash mumkin.

Kredit uyushmalarining *daromad keltiradigan aktivlari* tarkibiga kreditlar, investitsiyalar, lizing va boshqa muassasalarga qo'yilgan muddatli jamg'armalarni kiritish mumkin.

Kredit uyushmalarining ***daromad va xarajatlari.*** Kredit uyushmalarini foizli va foizsiz daromad va xarajatlarga guruhlash mumkin.

Kredit uyushmalarining foizli daromadlari ularning riskli operatsiyalari hisobidan shakllantiriladi. Kredit uyushmalari daromadlarining asosiy ulushi ularning kredit operatsiyalari hisobidan shakllantiriladi. Foizli va foizsiz daromadlar uyushma balansining passiv hisobvaraqlarida hisobga olib boriladi, barcha daromadlar har oyda, chorakda va hisobot yilining oxirida uyushmaning tegishli hisob varaqlariga (31206 – Sof foyda (zarar) (aktiv – passiv)) kreditlash orqali yopiladi.

Kredit uyushmalarining ***xarajatlari*** ularning passiv operatsiyalari natijasida vujudga keladi. Xarajatlarning asosiy ulushi resurslarni jalb qilish (foizli xarajatlar) va uyushma xodimlariga ish haqi berish (foizsiz xarajatlar)ga to‘g‘ri keladi.

Foizli va foizsiz xarajatlar uyushma balansining aktiv hisobvaraqlarida hisobga olib boriladi, barcha xarajatlar har oyda, chorakda va hisobot yilining oxirida uyushmaning tegishli hisob varaqlariga (31206 – Sof foyda (zarar) (aktiv – passiv)) debetlash orqali yopiladi.

14.2. Lombardlar va ularning tashkil topishi

Lombardlar – ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo‘lib, asosiy faoliyati fuqarolarning harakatdagi mulklari garovi ostida, qisqa muddatli kreditlar berish va buyumlarni saqlash bilan shug‘ullanadi. Lombardlarning ixtisoslashganlik darajasiga qarab buyumlar, oltin buyumlar va avtoulovlar garov sifatida qabul qilinadi. Buyumlar tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida baholanadi. Lombard va kredit oluvchi shaxs o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida kredit beriladi.

Dastlabki lombardlar XV asrlarda Fransiyaning Lombard shahrida savdogarlar tomonidan tashkil etilgan. Hozirgi kunda amaliyotda qo‘llanilib kelinayotgan «lombard» termeni shu tariqa paydo bo‘lgan.

Lombardlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ushbu muassasalar mijozning ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan summani juda tez fursatda berish imkoniyatiga egaligidir. Bunda lombard va qarz oluvchi o‘rtasida, ko‘pchilik hollarda qimmatbaho buyumlar garov sifatida foydalaniladi. Lombard tashkiloti berilgan kredit uchun undirilishi

lozim bo'lgan foiz to'lovini, ko'pchilik hollarda, oldindan kredit summasidan chegirib qoladi.

Lombard kredit uchun hisoblanadigan foiz summalari quyidagi tartibda hisoblanadi.

Masalan, kredit summasi – 1,0 mln. so'm, oylik foiz to'lovi – 3 %, kreditdan foydalanish muddati – 20 kun.

Kredit summasidan kelib chiqib, ushbu kredit summasiga nisbatan to'lanadigan foiz to'lovi quyidagicha aniqlanadi: 1000000*0,003*20=60000 so'm. O'zbekistonda lombardlar bank tizimining ikkinchi pog'onasidagi kredit muassasalari tarkibiga kiradi.

Bobga oid savollar

1. Mikromoliyaviy tashkilotlarning mohiyati.
2. Kredit uyushmalari va ularning vazifalari.
3. Kredit uyushmalarini tashkil etishga qo'yilgan talablar.
4. Kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari.
5. Kredit uyushmalari passiv operatsiyalari.
6. Kredit uyushmalarining daromadlari.
7. Kredit uyushmalarining xarajatlari.
8. Lombardlarning tashkil etishning zarurligi.
9. Lombardlarni ro'yxatga olish va litsenziya berish.
10. Lombardlarning kredit operatsiyalari.

Bobga oid testlar

1. Mikromoliyalash tashkilotlari bank tizimining qanday bo'g'iniga kiradi?

A. Birinchi bo'g'iniga.
B. Ikkinchi bo'g'iniga.
V. Uchinchi bo'g'iniga.
G. To'rtinchi bo'g'iniga.

2. O'zbekiston qonunchilik hujjatlari asosida mikromoliyalash tashkilotlari tarkibi qanday javobda to'liq keltirilgan?

A. Banklar, kredit uyushmalari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

B. Banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

V. Kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

G. Banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

3. Qanday tashkilot mikromoliyalash tashkilotlari tarkibida asosiy moliya muassasi hisoblanadi?

A. Mikrokredit tashkilotlari.
B. Kredit uyushmalari.
V. Lombardlar.
G. Jamg'arma kassalari.

4.Kredit uyushmalari dastlab qachon va qayerda tashkil etilgan?

A. 1844-yilda Angliyaning Rochdeyl shahrida.
B. 1845-yilda Fransiyaning Parij shahrida.
V. 1846-yilda AQSHning Loizina shtatida.
G. 1847-yilda Germaniyaning Doychi shahrida.

5. Kredit uyushmalarining passiv operatsiyalari:

A. Ularga daromad keltiradi.
B. Ularni xarajat qilishga undaydi.
V. Riskli operatsiyalar hisoblanadi.
G. Aktiv operatsiyalar hisoblanadi.

6. Kredit uyushmalarining aktiv operatsiyalari:

A. Ularga daromad keltiradi.
B. Ularni xarajat qilishga undaydi.
V. Risksiz operatsiyalar hisoblanadi.
G. Passiv operatsiyalar hisoblanadi.

7. Lombardlar qanday moliya muassasa hisoblanadi?

A. Tijorat – moliyaviy muassasa.
B. Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tashkilot.
V. Vositachi – moliyaviy muassasa hisoblanadi.
G. Ixtisoslashgan tijorat tashkiloti.

IV BO'LIM. XALQARO MOLIYAVIY MUNOSABATLAR

15 – bob. XALQARO VALUTA MUNOSABATLARI VA HISOB-KITOB OPERATSIYALARI

15.1. Valuta tizimi va uning elementlari

Xalqaro valuta munosabatlarining rivojlanishida mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xalqaro bozorlarning paydo bo'lishi, xo'jalik yuritishning xalqaro tizimini shakllanishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning globallashuvi hamda internatsionallashuvi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro valuta munosabatlari xalqaro ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Xalqaro takror ishlab chiqarish va valuta munosabatlari o'rtasida bevosita va qarama– qarshi aloqa mavjud bo'lib, ular xalqaro daromadli tovarlar, moliyaviy kapital va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida namoyon bo'ladi.

Mamlakatlar o'rtasida valuta munosabatlarining holati milliy va xalqaro iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy muhit, shuningdek, boshqa qator omillar bilan baholanadi.

Xalqaro iqtisodiyotning globallashuvi va internatsionallashuvi sharoitida ichki ishlab chiqarish jarayonlar tashqi omillarga bog'liq bo'lib qoladi. Jumladan, xalqaro ishlab chiqarish, savdo, fan va texnika taraqqiyoti, xorijiy kapitalning migratsiyasi kabi boshqa jarayonlar valuta munosabatlari orqali tartibga solib boriladi. Xalqaro valuta munosabatlarining zaiflashuvi, jahon moliyaviy inqirozlari mahalliy va xalqaro darajadagi takror ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi xalqaro valuta munosabatlarining shakllanishi va mazmunan rivojlanib, takomillashib borishiga zamin yaratdi. Bu, o'z navbatida, valuta tizimini shakllanishiga xizmat qildi.

Valuta tizimi – valuta munosabatlarini tashkil etish va tartibga solish shakli bo'lib, mahalliy qonunchilik yoki xalqaro kelishuv asosida mustahkamlanadi. Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda – milliy, xalqaro va hududiy valuta tizimlari mavjudligi e'tirof etiladi.

Dastlab milliy valuta tizimlari vujudga kelgan. Milliy valuta tizimlari xalqaro amaliyotdagi normalarni inobatga olgan holda mahalliy qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi. Milliy valuta tizimi mamlakat pul tizimini tashkil etib, erkin ravishda mamlakat hududidan o'zga hududlarda to'lov vositasini bajarishi mumkin. Buning uchun qator omillar mavjud bo'lishi lozim. Xususan, milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi ta'minlangan bo'lishi, milliy valutani sotib olish qobiliyati mustahkam bo'lishi, mamlakat jahon xo'jaligida yuqori mavqeyi va reytingga ega bo'lishi kabilar shular jumlasidandir.

Xalqaro valuta tizimining vujudga kelishining asosini mamlakatlarning milliy valuta tizimi tashkil etadi va mamlakatlar o'rtasida o'zaro kelishuvlar asosida mustahkamlanadi. Dastlabki xalqaro valuta tizmining vujudga kelishi 1850 yillarga to'g'ri keladi. Xalqaro valuta tizimining barqaror samarali amal qilishi, uning tegishli tamoyillariga rioya etilishi, mamlakatlar o'rtasida siyosiy iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishini talab etadi, aks holda xalqaro valuta tizimi vaqti – vaqti bilan inqirozga uchraydi, buning natijasida amaldagi valuta tizimi barham topib, uning o'rniga yangisi tashkil topadi.

Milliy va xalqaro valuta tizimining amal qilishi, ularning elementlarida namoyon bo'ladi.

Milliy valuta tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

– milliy valuta;
– konverterlash shartlari;
– milliy valuta pariteti;
– milliy valuta kursining rejimi;
– valutaviy chegaraning mavjudligi yoki chegaralanmaganligi, valuta nazorati;
– mamlakatning xalqaro valuta likvidligini tartibga solish tartibi;
– xalqaro kredit mablag'laridan to'lov vositasi sifatida foydalanishi reglamenti;
– mamlakatning xalqaro hisob-kitoblar reglamenti;
– mahalliy valuta va oltin bozorlarini faoliyat ko'rsatish rejimi (tartibi);

– mamlakat valuta munosabatlarini tartibga soladigan va boshqaradigan mahalliy organlar.

Xalqaro valuta tizimining elementlari:

– jahon pulining funksional shakli;
– valutalarni o'zaro konvertirlash shartlari;
– valuta pariteti rejimining reglamenti;
– davlatlararo valutaviy chegaralarni tartibga solish;
– xalqaro valuta likvidligini davlatlararo tartibga solish usuli;
– xalqaro kredit mablag'lari muomalasini unifikatsiyalash qoidalari;
– xalqaro hisob–kitoblar shakllarini qo'llashning qoidalari;
– xalqaro valuta va oltin bozorlarining faoliyat yuritish rejimi;
– davlatlararo valutani tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar.

Milliy valuta tizimining asosini shu mamlakat milliy valutasi tashkil etadi. Ushbu valuta tegishli qonunchilik hujjatlari asosida mamlakatda yagona to'lov vositasi sifatida mustahkamlanadi. Xalqaro hisob –kitoblarda qo'llaniladigan pul (milliy valutalar) valuta deb yuritiladi.

15.2. Valuta tizimining rivojlanish bosqichlari

15.2.1. Klassik oltin standarti (1815 – 1914 yy.)

Jahon sivilizatsiyasining asrlar davomida rivojlanishi dunyodagi turli mamlakatlar ijtimoiy – iqtisodiy hayot tarziga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan XIX asrni tom ma'noda g'arb sivilizatsiyasining oltin asri yoki klassik oltin standarti hukmronligi asri deyishimiz mumkin. Bu davrda muomalada oltin bilan birga kumush ham to'lov vositasini bajargan, lekin mamlakatlar o'rtasidagi hisob-kitoblar oltinda amalga oshirilar va jahon mamlakatlari iqtisodiyoti oltin standarti ostida birlashgan edi.

Mamlakatda amal qilgan milliy valutalar (dollar, funt, frank va h.k.) esa, faqatgina belgilangan oltin qiymatini o'lchov birligi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, dollarning nomlanishi – 1/20 unsiya og'irlikka teng bo'lgan oltinni anglatgan, funt sterling nomi esa – oltinning j unsiya og'irligini anglatgan. Shundan kelib chiqib, ayirboshlash kurslari davlat ishtirokisiz qat'iy belgilangan baholarda amalga oshirilgan. Mamlakat milliy valutalari o'lchov birligiga bog'liq ravishda bir – biriga doimo

mos kelgan. Ya'ni 1 funt (o'lchov birligi) doimo 16 unsiyaga, xuddi shunday 1 funt sterling (oltin o'lchov birligi) 4,86 dollarga teng bo'lgan.

Xalqaro oltin standarti insonlarga juda katta imkoniyatlar yaratgan va butun jahonda amal qiluvchi universal pul vazifasini o'tagan. AQSHning rivojlangan va boy mamlakat darajasiga yetishining asosiy sabablaridan biri sifatida, dunyoning deyarli barcha davlatlarida dollarning to'lov vositasi sifatida amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buni iqtisodiyotning rivojlanishida mehnat taqsimotida, xalqaro kapital oqimida, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida va boshqalarda ko'rishimiz mumkin.

Shuni qayd etish joizki, oltinni erkin iqtisodiyotda amal qilishi, barcha tovarlarga erkin ayriboshlanadigan umumiy ekvivalent «maxsus tovar» sifatida tan olinishi uchun 100 yillar talab qilindi va davlatning bu jarayonlardagi o'rni unchalik katta emas. Chunki, oltinni muomalaga chiqishi davlat ixtiyori bilan emas, balki bozor talabidan kelib chiqib belgilangan. Xalqaro oltin standartining amal qilishi mamlakatda sun'iy inflatsiyani yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi bilan birga, mamlakat to'lov balansining muvozanati ta'minlagan.

Mamlakatda pul taklifini ortishi mahalliy tovar va xizmatlar bahosining ortishiga olib keladi. O'z navbatida, aholining nominal daromadlari ortadi, bu esa importning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki, import tovarlar bahosi mahalliy tovarlarga nisbatan ancha past bo'ladi. Natijada mamlakatda eksportning hajmi importga nisbatan qisqaradi. O'z navbatida, mamlakat tashqi savdo balansida taqchillikni keltirib chiqaradi. Bu esa mamlakat oltin valuta zaxiralarini kamayishiga olib keladi. Shu o'rinda aytish joizki, bank depozitlarining sun'iy ravishda oshishi va bank tomonidan beriladigan kreditlar hajmining ortishi ham oltin – valuta zaxiralarini kamayishiga olib keladi. Chunki, bu holda ham importerlar yoki bank mijozlari depozitlarni oltin miqdorida qaytarishni talab qiladilar. Shuning uchun mamlakatda pul taklifini kamaytirish va uning tegishli me'yorini saqlash lozim bo'ladi. Pul taklifining pasayishi tovarlar narxini tushishiga olib keladi va shu tariqa bozorda narxlar muvozanati ta'minlanadi. Bu esa eksport hajmini oshirish ehtiyojini tug'diradi va mamlakatga oltin oqimining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat o'zaro savdo – iqtisodiy munosabatda bo'lgan barcha davlatlarda narxlar muvozanati ta'minlangunga qadar davom etadi.

O‘z davrida davlatning oltin standarti pul tizimini mustaqil amal qilishiga aralashuvi, uning samaradorligiga salbiy ta’sir qilgan va ushbu pul tizimining mukammalligidan qat’iy nazar inflatsiya, retsessiya natijasida iqtisodiy siklning izidan chiqish holatlari yuz bergan. Oltin tangalarni zarb etish ustidan davlat nazoratini o‘rnatilishi, qonuniy to‘lov vositalarining davlat tomonidan belgilab qo‘yilganligi, qog‘oz pullarni joriy etilishi va inflatsiyani rag‘batlantirilishi kabi yo‘nalishlar orqali davlat erkin pul bozorini boshqarishga harakat qilgan. Davlatning pul muomalasiga ta’sir etish choralarini joriy etilishiga qaramay, ushbu sohadagi o‘zgarishlar asosan bozor talabidan kelib chiqib amalga oshirilgan.

15.2.2. Birinchi jahon urushi va undan keyingi davr (1914 – 1926 yy.)

Klassik oltin standarti pul tizimi mukammal bo‘lib, hozirgi kungacha insonlar undan samaraliroq va qulayroq pul tizimini o‘ylab topa olishmagan. O‘z navbatida, «Agar oltin standarti mukammal amal qilgan bo‘lsa, nima uchun muomaladan yo‘qoldi degan savol tug‘iladi.» Buning asosiy sababi, davlatning pul tizimiga aralashuvining ortishi va banklarning o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmasligi oqibatida pul tizimining izdan chiqishidir. Birinchi jahon urushi natijasida urushda ishtirok etgan barcha davlatlarda xarajatlarning oshishi natijasida pul taklifini haddan ziyod ko‘paytirishga majbur bo‘ldilar. O‘zaro urushda ishtirok etayotgan mamlakatlarda inflatsiya darajasi shu darajada yuqori ediki, ular xarajatlarni qoplash maqsadida emissiya qilingan qog‘oz pullar oltin va boshqa qimmatbaho metallar bilan ta’minlanmagan edi. Shu tariqa ushbu davlatlar oltin standartidan voz kechdilar va o‘zlarini bankrot deb e’lon qildilar.

Urushda ishtirok etgan davlatlar ichidan faqatgina AQSHda dollarning taklifi belgilangan me’yoridan orttirilmadi. O‘z vaqtida, boshqa davlatlarda devalvatsiyaning ortishi, o‘zaro turli valutaviy to‘siqlarning yuzaga kelishi, bojxona ta’riflari va kvotalarining joriy qilinishi natijasida xalqaro savdo va investitsiya faoliyati izdan chiqdi, bu esa mamlakat pul tizimiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Inflatsiya oqibatida Angliya funti, Fransiya franki, Germaniya markasi oltinga nisbatan qadrsizlandi. Bu hol keyinchalik dollarning ham oltinga nisbatan kursini tushishiga olib keldi. Ushbu vaziyatda dunyo pul tizimi

inqirozga uchragan va dunyoning yetakchi ekspertlari va siyosatchilari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi oltin standartiga qaytish ustida bosh qotirayotgan edi.

15.2.3. Oltin quyma va oltin deviz standarti (1926 – 1931 yy.)

Birinchi jahon urushi natijasida jahon valuta tizimi inqirozga uchragan edi. Urushdan keyingi davrga kelib, mamlakatlararo valuta – pul tizimini yo'lga qo'yish maqsadida oltin standartini joriy qilishning imkoniyatlarini ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O'sha davrda yuzaga kelgan vaziyat shuni taqozo etar ediki, Yevropa mamlakatlari pullarini oltinga nisbatan qadrsizlanishidan kelib chiqib, valuta kurslari o'rtasidagi nisbatni pul taklifi va narxlar darajasiga bog'liq ravishda qaytadan o'rnatish kerak edi. Chunki, agar urushdan oldingi davrda funt sterling 4,86 dollarga teng bo'lgan oltin birligiga ayriboshlangan bo'lsa, urush so'nggida inflatsiya oqibatida valuta bozoridagi funt sterlingning kursi 3,50 dollargacha tushib ketdi. Boshqa davlatlarni pullari ham shu tariqa qadrsizlangan edi. Shuning uchun Buyuk Britaniya oltin standartiga qaytadigan bo'lsa, funtning haqiqiy qiymati 3,50 dollar nisbatida belgilanishini talab etar edi. O'z navbatida, oltin standarti amal qilishi uchun barcha davlatlar ushbu holatga rozi bo'lishi kerak edi. Lekin bu borada mamlakatlarning bir to'xtamga kelishi qiyin bo'ldi. Masalan, Buyuk Britaniyaning kamchiligi shunda ediki, nafaqat oltin standartini qayta tiklash, balki funtning avval amalda bo'lgan 4,86 dollar darajadagi kursiga qaytarish edi.[71]

Buyuk Britaniyaning bunday siyosati dunyoning moliyaviy markazi bo'lgan Londonning obro'sini saqlashga qaratilgan edi. Buni amalga oshirish uchun Buyuk Britaniya, eng avvalo, pul taklifini kamaytirish va tovarlar narxini pasaytirishga erishishi kerak edi. Lekin funt kursi 4,86 dollarga tenglashgan holda Buyuk Britaniya tovarlarlarini jahon bozoridagi narxi ortib raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Kasaba uyushmalari ta'sirining ortishi va davlat tomonidan ishsizlik uchun nafaqalarni joriy qilinganligi pul taklifini kamaytirish imkonini bermas edi. Deflyatsiyani amalga oshirish (pul taklifini kamaytirish bilan aholi nominal daromadlarini pasaytirish) uchun Buyuk Britaniya ijtimoiy himoyaga asoslangan davlat qurish

[71] О принципиальной ошибке Великобритании и ее последствиях, приведших к депрессии 1929 г., см.: Robbins L. The Great Depression. New York: MacMillan, 1934

nazariyasidan voz kechishi yoki ayrim «ijtimoiy kafolat»larni muzlatishi kerak edi. Buning o'rniga Buyuk Britaniya ijtimoiy himoyaga asoslangan davlat dasturlarini bajarish maqsadida pul taklifini yanada orttirib bordi, o'z navbatida, inflatsiya darajasi ham o'sib bordi.

Yigirmanchi asrning 20-yillarga kelib, Buyuk Britaniyada inflatsiya va ishsizlik darajasi yuqori nuqtaga kelgan, mamlakat eksport hajmi ham tushib ketgan edi. Bu davrda boshqa Yevropa davlatlarida iqtisodiy o'sish kuzatilayotgan edi. Shuning uchun Buyuk Britaniyada qabul qilingan qarorlardan voz kechmagan holda yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish muammosi ko'ndalang turgan edi. Shu maqsadda 1922-yili Genuya shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada Buyuk Britaniya yangi pul standarti bo'lgan oltin deviz standartini taklif qildi.

Dunyo mamlakatlari ichida AQSHda klassik oltin standarti saqlangan bo'lib, Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari 1926-yilga kelib klassik oltin standartiga tenglashtirilgan yangi pul tizimiga o'tishdi. Unga ko'ra Britaniya funti va boshqa valutalar oltin tangalarga emas, balki faqatgina yirik tashqi savdoni amalga oshiruvchilar uchun oltin quymalarga ayriboshlanar edi. Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari fuqarolari kundalik hayotda oltin tangalardan foydalana olmas edilar. Bu bank kreditlarini va inflatsiyani rag'batlantirishga xizmat qilar edi. Yangi oltin deviz standartiga asosan Buyuk Britaniya funtni so'ndirishda oltin bilan birga dollardan ham foydalanar, boshqa davlatlar esa o'zlarining valutalarini oltinga emas, funtga ayirboshlar edilar. Shu yo'l bilan aksariyat mamlakatlarda milliy valutalar kursi sun'iy oshirildi va oltin standartiga qaytishdi. Natijada oltinga asoslangan moliyaviy piramida tashkil topdi. Uning asosini qisman funt bilan ta'minlangan Yevropa mintaqasi valutalari, qisman dollar bilan ta'minlangan funt, qisman oltin bilan ta'minlangan dollar tashkil etgan va bu «oltindeviz standarti» deb ataldi, dollar va funt esa «tayanch valutalar» hisoblangan.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida pul taklifi hamda kredit hajmining ortishi hisobiga tashqi savdo balansda taqchillik yuzaga keldi. Bunday vaziyatda oltin standarti inflatsiyani cheklashga xizmat qilmay qo'ydi. oltin deviz standarti Buyuk Britaniyaga milliy valuta taklifini oshirish va inflatsiya darajasini oshishiga sharoit yaratgan. Yevropaning boshqa davlatlari funtni oltin bilan qoplashni talab qilmas edi. Shu tariqa Yevropa va Buyuk Britaniyada inflatsiya darajasi tobora chuqurlashayotgan, tashqi savdo kamomadi ortib borayotgan edi.

Undan tashqari, Buyuk Britaniya mamlakatdan oltin va dollarni chiqib ketishini oldini olish maqsadida AQSH Federal zaxira tizimining dollar taklifini oshirishiga erishgan edi.

Oltindeviz standartining alohida xususiyati shunda ediki, u uzoq muddat amal qilishi mumkin emas edi. Chunki ushbu moliyaviy piramidaning izdan chiqishidan qochib bo'lmaslik haqiqat bo'lgan. AQSH, Fransiya va boshqa davlatlar iqtisodiyotida katta hajmda ta'minlanmagan Buyuk Britaniya funt sterlingi yig'ildi. 1931 yilda Yevropa mamlakatlarida inflatsiya darajasi yuqoriligidan Fransiya «qattiq pul» siyosatini olib bordi va Buyuk Britaniyadan iqtisodiyotda yig'ilgan funt sterling o'rniga oltin ayirboshlashni talab qilishi yevropa banklarini bankrot bo'lishiga olib keldi. Bu esa Buyuk Britaniyani butunlay oltin standartidan voz kechishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida barcha Yevropa mamlakatlari o'zini bankrot deb e'lon qildilar.

15.2.4. Ta'minlanmagan qog'oz pullar (1931 – 1945 yy.)

Birinchi jahon urushidan keyin amaldagi oltin standarti pul tizimi o'zining xususiyatini yo'qotib, davlatlar klassik oltin standartini saqlab qolish maqsadida turli choralarni qo'lladi. Lekin yigirmanchi asrning 30-yillarida dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan moliyaviy tartibsizliklar oqibatida muomalada oltin standartini amal qilishi butunlay to'xtadi. Mamlakatlar iqtisodiyotidagi inqiroz tobora chuqurlashib, ishsizlik darajasi ortib bormoqda edi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida turli valuta cheklovlarini o'rnatish, milliy valutalarni devalvatsiyalash, savdo va valuta ustidan nazoratni kuchaytirish orqali o'zaro iqtisodiy va moliyaviy urush olib borishdi. Iqtisodiyotda to'g'ri va egri suzib yuruvchi valuta kurslari yuzaga keldi[72]. Xalqaro savdo va investitsiyalarni to'xtab qolishi natijasida o'zaro savdoni amalga oshirish uchun xukumatlar ishtirokida tuzilgan bitimga ko'ra tovarlar barter qilindi. AQSH davlat kotibi Kordell Xoll ushbu holatga izoh berib, «Ikkinchi jahon urushining asosiy sababi 30 yillarda yuzaga kelgan moliyaviy va iqtisodiy kelishmovchiliklar» – deya ta'kidlagan edi.[73]

---

[72] "Clean floating" – плавающий курс, определяемый действием закона спроса и предложения на рынке. – Прим. пер

[73] Hull C. Memoirs. New York, 1948 Vol. I. P.81. Шунингдек: Gardner R. Sterling – Dollar Conspiracy. Oxford: Clarendon Press, 1956. P. 141.

AQSHda oltin standartini amal qilishi Yevropaga nisbatan ikki yilga cho'zildi. 1933 – 1934 yillarda AQSHning, «turg'unlikni oldini oladi» – degan teskari siyosati tufayli oltin standarti amaliyotda to'xtatildi. Amerika fuqarolariga mamlakatda (shu jumladan, xorijda) oltinni ishlatish, olib yurish man etildi va dollarli hisob-kitoblarni oltin bilan so'ndirish taqiqlandi. Lekin, 1934-yildan keyin ham AQSHda oltin standartining o'ziga xos yangi shakli amal qildi. Unga asosan qadrsizlangan dollar 1/35 unsiya oltinga tenglashtirilib, oltin bilan chet el hukumatlari va banklar talablari qondirilgan. Dollarning oltinga oz bo'lsada bog'liqligi va Yevropadagi tartibsizliklar hisobiga AQSHga kirayotgan oltin hajmi yanada ortdi.

Milton Fridman va Chikago maktabi vakillarining qarashlarida iqtisodiy va siyosiy kamchiliklar mavjudligini 1930-yillardagi iqtisodiy tartibsizliklar ko'rsatib berdi. Fridman va uning izdoshlari – erkin bozor sharoitida qanday taklif bilan chiqishdi? Ularning qarashlari bo'yicha dastlab oltin standartidan voz kechish va milliy valutani chiqarish vakolati davlat ixtiyorida bo'lishi lozim edi. Ya'ni, davlat tomonidan chiqarilgan ta'minlanmagan qog'oz pullar, qonuniy to'lov vositasini bajarishiga erishish nazariyasini ilgari surilgan. Shundan co'ng dastlab davlat qog'oz pullarni muomalaga chiqarishi va boshqa valuta kurslariga nisbatan tebranishiga imkon berish kerak. Bunda inflatsiya darajasini belgilangan me'yorda bo'lishini davlat tomonidan nazorati ta'minlanishi lozim edi. Lekin 1930-yillardagi jahon iqtisodiyotidagi tartibsizliklarni kelib chiqishi, aynan mamlakatlar pul tizimini izdan chiqishi bilan bog'liq edi.

Shunday qilib, 30-yillarning ta'minlanmagan qog'oz pullariga asoslangan pul tizimining ayanchli tajribasi va uni oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik shuni ko'rsatdiki, ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro iqtisodiy munosabatlarni, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va kapital oqimini yo'lga qo'yish maqsadida AQSH o'z oldiga jahon pul tizimini qayta tiklash vazifasini qo'ydi.

15.2.5. Bretton Vuds va yangi oltin deviz standarti (1945 – 1968 yy.)

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin AQSH tomonidan yangi pul tizimi taklif etildi. Uning qoidalari 1944-yilda Nyu – Xemshir shtatining Bretton – Vuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada

kelishildi va 1945-yilning iyul oyida AQSH Kongressi tomonidan ratifikatsiya qilindi. Yangi amaliyotga kiritilgan Bretton – Vuds pul tizimining 1920-yillarda qabul qilingan oltin deviz standartidan farqli jihatlari ko'p emas edi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu pul tizimi ham kamchiliklardan holi emas va navbatdagi moliyaviy tartibsizliklarni kelib chiqishiga tashlangan dastlabki qadam edi.

Bretton – Vuds pul tizimining eski oltin deviz standartidan amaldagi farqi shunda ediki, uning asosini ikki «tayanch valuta»(funt va dollar) emas, balki yagona dollar tashkil etib, 35 dollar 1 unsiya oltingan tenglashtirilgan. Shu bilan birga, amaldagi tizimni 20-yillardagi oltin deviz standartidan farqli jihatlari, amerika fuqarolari dollardagi hisob-kitoblarni oltin bilan so'ndirish imkoniyatining yo'qligi va dollardagi hisob-kitob qilish huquqi xorijiy davlatlar va banklarga berilganligini e'tirof etish lozim. Ya'ni, jahon pulini (oltin) dollar bilan so'ndirish vakolati faqat davlat organlariga berildi. Shu jihatdan Bretton – Vuds tizimi ham 1920-yillarni oltin deviz standarti kabi moliyaviy piramida asosiga qurildi.

AQSHda moliyaviy piramidaning asosini, faqatgina xorijiy davlat xukumatlari talab qilish huquqiga ega bo'lgan oltin tashkil etgani holda, muomalada ta'minlanmagan dollarlar mavjud bo'lgan. Boshqa davlatlarda moliyaviy piramidaning asosini, valuta zaxirasi sifatida saqlanayotgan dollar tashkil etgani holda, muomalada ta'minlanmagan milliy valutalar amal qilgan. Bunday moliyaviy piramidani tashkil etish uchun AQSHda yetarlicha imkoniyatlar mavjud edi. Chunki ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH da to'plangan juda katta miqdordagi oltin zaxiralari (25 mlrd. doll.), ularga moliyaviy piramida qurish imkonini bergan. Bretton – Vuds tizimi amaliyotga joriy qilinishi bilan Yevropa davlatlari valutalarining dollarga nisbatan kursi oshirildi. Masalan, Buyuk Britaniya funt sterling kursi urushgacha bo'lgan vaqtdagi qiymatga, ya'ni 4,86 dollarga tenglashtirildi. Funtning sotib olish qobiliyatiga nisbatan qaralganda esa, uning qiymati pastroq bo'lgan. Ta'kidlash joizki, 1945-yilda dollar kursi sun'iy pasaytirilishi va boshqa davlatlar valutalarining kursi dollarga nisbatan sun'iy oshirilishi natijasida «dollar tanqisligi» yuzaga keldi. AQSHdan tashqarida yuzaga kelgan «dollar tanqisiligi»ni oldini olish maqsadida Amerika hukumati tomonidan Yevropa mamlakatlariga moliyaviy yordam ko'rsatildi. Boshqacha qilib aytganda, Yevropaga moliyaviy yordam berilishi, dollar

kursini sun'iy pasaytirilishi natijasida AQSH to'lov balansi profitsitini qisman moliyalashtirishga xizmat qilgan.

Bretton – Vuds tizimida Amerika hukumatiga shunisi aniq bo'ldiki, ushbu tizim doirasida dollar inflatsiyasini oshirilishi javobgarlikka olib kelmas edi. Shu nuqtayi nazardan, urushdan keyingi davrda inflatsiyani rag'batlantirilishi AQSHda davlat siyosatiga aylandi.

1950-yillar boshida dollar inflatsiyasi natijasida xalqaro savdo oqimi o'z yo'nalishini o'zgartirdi. AQSHda pul taklifi va kredit hajmi ortib borishi natijasida, aksariyat Yevropa mamlakatlari (G'arbiy Germaniya, Shveytsariya, Fransiya, Italiya)ning valutalari yanada mustahkamlandi. Inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan Buyuk Britaniyada esa mamlakatdan dollarni chiqishini oldini olish maqsadida funtni 2,40 dollargacha devalvatsiya qilindi. Yevropa va Yaponiyada ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi AQSH to'lov balansida kamomadni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Inflatsiyani cheklashda oltin tanga standartining klassik yondashuvchanligi o'zining xususiyatini butunlay to'xtatishi bilan birga, Bretton – Vuds tizimining qoidalari G'arb davlatlariga doimiy dollar zaxiralarini ko'paytirishni va buning asosida milliy valuta taklifi va kredit hajmini oshirishni talab etgan.

Shu tariqa 1950 – 1960 yillarga kelib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiya dollar zaxirasini oshirib borish siyosati samarasiz ekanligi hamda yangi tizim tashkil etilganda dollar kursi sun'iy baholanganligidan sarosimaga tushdi. Chunki dollarning sotib olish qobiliyatining tushishi, G'arb davlatlarida dollarga bo'lgan ehtiyojni pasaytirdi.

Bretton – Vuds tizimi Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti uchun «tuzoq» sifatida qaraldi va qarama – qarshiliklar ortdi. Fransiya nomidan oltin deviz standartini yoqlab va amaldagi tizim qoidalariga qarshi fikrlar bilan davlat moliyaviy maslahatchisi de Gollya Jak Ryueff chiqdi. Amerika siyosatchilari va iqtisodchilari yuzaga kelgan qarshiliklarga e'tibor bermay, Yevropa dollarni «tayanch valuta» sifatida qabul qilganligini ta'kidladi. Ularning fikriga ko'ra, Yevropa aynan Bretton – Vuds tizimini amal qilishi natijasida iqtisodiy tanglikdan chiqish muammosini hal etgan. Davlatlar o'rtasidagi kelishuvga asosan boshqa mamlakatlarda dollarning inflatsiya darajasi ortishidan qat'iy nazar, AQSH yanada pul taklifini oshirish huquqiga ega edi.

Yevropada oltinning bir unsiyasi uchun 35 dollarga teng bo'lgan miqdori saqlanib qolingan edi. 1950-yillarda Yevropada dollar massasini

ortib ketishi, uning oltinga va yevropaning «qattiq» valutalariga nisbatan qadrsizlanishiga hamda Amerikadan oltinni chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida AQSHning oltin zaxiralari 25 mlrd. dollardan, 9 mlrd. dollargacha kamayib ketdi. Yevropa mamlakatlari hukumatlari va Markaziy banklarining dollarni oltin bilan so'ndirish talabini qondirilmasligi oqibatida Bretton – Vuds tizimining izdan chiqish xavfi tug'ilgan edi. Lekin, Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan ushbu salbiy holat ham AQSHni pul taklifini oshirishdan qaytarmadi. Shu tariqa 60 yillarning oxirida Yevropada 80 mlrd. dollardan ortiq «yevrodollar» nomini olgan pullar paydo bo'ldi. Yevropada muomalada bo'lgan dollarni oltin bilan so'ndirish talabini to'xtatish maqsadida AQSH siyosiy bosim o'tkaza boshladi. 1930-yilda oltin deviz standartining inqirozga yuz tutishida ham Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida shunday vaziyat yuzaga kelgan.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy qonunlarni aylanib o'tish, AQSH inflatsiyani hisobga olmagani kabi, mamlakatda ijtimoiy – iqtisodiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu tariqa 1968-yilda Amerika tomonidan taklif etilgan «abadiy va buzilmas» Bretton – Vuds tizimi yemirila boshladi.

15.2.6. Bretton – Vuds tizimining barham topishi (1968 – 1971 yy.)

Yevropada dollar massasining ortib borishi va AQSHda oltin zaxiralarini kamayishi, London va Syurixdagi erkin oltin bozorlarida oltinning unsiyasi uchun belgilangan 35 dollar narxni ta'minlab turish AQSHga qiyinchiliklar tug'dira boshladi. Mamlakatlar o'rtasida Bretton – Vuds tizimining qoidalari kelishilganda ushbu narx (oltinning bir unsiyasi uchun 35 dollar) butun tizimning asosini tashkil etgan. Amerika fuqarolariga 1934-yilda oltinga egalik qilish taqiqlangan bo'lib, boshqa davlat fuqarolari oltin quyma va oltin tangalarga qonuniy egalik qilishi mumkin bo'lgan. Ularning dollarni oltin bilan so'ndirish imkoniyati faqat erkin bozorda 35 dollarga sotish orqali amalga oshirilgan. Amerikadagi inflatsiya darajasining o'sishi, dollarning yanada qadrsizlanishi natijasida AQSH to'lov balansidagi kamomad o'sdi, oltinga egalik qilgan fuqarolar esa erkin bozorda faol ravishda oltin xarid qilar edi. O'z navbatida AQSH, London va Syurix erkin oltin bozorlaridagi oltin narxini belgilangan miqdorda ushlab turish uchun qisqarib borayotgan oltin zaxirasidan berishga majbur bo'ldi.

Erkin oltin bozoridagi dollarga bo'lgan ishonchsizlik, 1968-yilning mart oyida AQSH tomonidan mavjud pul tizimga o'zgartirishlar kiritishiga olib keldi. Ya'ni, amaldagi tizimni saqlab qolish maqsadida, oltinni erkin bozoridagi faoliyatini to'xtatish zarur degan xulosaga keldi. Shunday qilib, «ikki pog'onali oltin bozori»: oltinni erkin bozori – mustaqil va mamlakatlar Markaziy banklarining oltin hisob-kitoblari – mustaqil faoliyat yurita boshladi. AQSH taklifiga binoan oltinning erkin bozor bahosini belgilangan 35 dollar miqdorida xarid qilinishi rad etildi. Shu bilan birga, barcha davlatlar oltin unsiyasi uchun 35 dollar miqdorni abadiy belgilangan narxda bo'lishiga kelishib oldi.

Mamlakat Markaziy banklari va Hukumatlari «tashqi» (erkin) bozordan oltinni sotish va sotib olishdan bosh tortdi, natijada oltin Markaziy banklar o'rtasidagi hisob-kitoblarda hisob birligi (1 unsiya = 35 doll) sifatida qo'llanila boshladi. Oltinning erkin bozori ham umumiy pul tizimiga aloqasi bo'lmagan holda rivojlandi.

Ikki pog'onali oltin bozorining parallel ravishda amal qilishi, AQSHni yangi zaxira qog'ozlarini joriy etish to'g'risidagi fikrini ilgari surdi va maxsus huquq beruvchi birlik (SDR)ni muomalaga kiritish masalasi ko'rildi.[74] Amerika bunday birlikni kiritish orqali oltinning o'rnini bosuvchi yangi qog'oz pul shaklidagi jahon valutasini joriy etishni bo'lgan. SDRni amaliyotga joriy etish va uni emissiya qilish huquqini Jahon banki ixtiyoriga berish rejalashtirilgan edi. SDRni joriy etish va uni jahon valutasiga aylantirish xususida ilgari surilgan tizimni barpo etish orqali AQSH boshqa davlatlar bilan birlashgan holda pul taklifini yanada oshirish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Bu tizimni joriy etish, albatta, dunyo iqtisodiyotining izdan chiqishiga jiddiy xavf tug'dirdi.

SDR amaliyotini tarqalishiga qarshilik ko'rsatayotgan G'arbiy Yevropa va qattiq valutaga ega bo'lgan mamlakatlar AQSH valuta zaxiralarining sezilarsiz miqdorini tashkil etgan.

Qog'oz pullar nazariyasini qo'llab – quvvatlagan Milton Fridman ham o'z qarashlarida jahon valuta tizimidan oltinni butunlay bekor bo'lishini ilgari surgan. Ya'ni, Bretton – Vuds tizimi joriy etilganda, AQSHning yetakchi ekspertlari sanoatda dollarga talab ortishi natijasida oltin narxini 10 dollargacha pasayishini taxmin qilishgan. Lekin, ushbu tizimni mukammal ishlashi uchun dollar inflatsiyasini belgilangan me'yorda saqlash lozim edi. 1973-yilning boshlariga kelib, oltinning bir unsiyasi 125 dollargacha ko'tarildi.

---

[74] Special drawing rights.

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, AQSHning taklifiga asosan ikki pog'onali oltin bozorining yaratilishi, Bretton – Vuds tizimining faoliyat yuritish muddatini bir necha yilga cho'zishga xizmat qildi. Chunki, inflatsiyaning o'sishi oqibatida Amerikaning to'lov balansi kamomadi ortib, oltin zaxiralari qisqarib bordi. Yevropa Markaziy banklari hisobvarag'larida esa, «yevrodollar»lar miqdori ortib bordi. O'z navbatida, erkin oltin bozorida dollar massasini ortishi, oltin narxini ortishiga va dollarga bo'lgan ishonchsizlikni ortishiga olib keldi. Endilikda, oltinga egalik qilgan shaxslar, uni sotishdan voz kechayotgan edi. Bu, o'z navbatida, avvaliga erkin oltin bozori faoliyatini, keyinchalik Bretton – Vuds tizimini batamom to'xtashiga olib keldi.

15.2.7. Suzib yuruvchi kurs (1971-yil va keyingi davr)

1970-yillarning boshida AQSH iqtisodiyotida inflatsiya darajasining yuqoriligi Bretton – Vuds tizimi faoliyatini davom ettirishiga ham jiddiy xavf sola boshladi. Inflatsiyani oldini olish maqsadida 1971-yilning 15-avgustida AQSH Prezidenti Nikson barcha ish haqi va narxlarni muzlatdi, shuningdek, Bretton – Vuds tizimi qoidalariga mos kelmaydigan qarorlar qabul qildi.

Xususan, AQSH Yevropa mamlakatlari Markaziy banklari hisobvarag'larida yig'ilgan dollarni oltin bilan so'ndirish xususidagi talabini qondirishdan bosh tortdi. AQSH Prezidenti oltin standartidan butunlay voz kechganligi to'g'risida axborot berdi. Jahon pul tizimi 30-yillarning tartibsizligiga qaytdi.

1930-yillarda AQSHda dollarni oltinga bog'liqligining saqlanishi, jahon pul tizimidagi tartibsizliklarni chuqurlashib ketishini oldini olgan edi. Endilikda, dollar oltin bilan ta'minlanmagan oddiy qog'oz pulga aylangan edi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy salbiy oqibatlarni: valuta to'siqlari, devalvatsiyaning ortishi xalqaro savdo va investitsiya faoliyatini to'xtashi kabi moliyaviy, iqtisodiy «urush»ni yuzaga kelishiga, jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi bo'lishiga jiddiy xavf tug'dirdi.

Barcha davlatlar xavf solib turgan moliyaviy – iqtisodiy inqirozni oldini olish uchun turli chora – tadbirlar loyihalarini ishlab chiqdi. 1971-yil 18-dekabrda jahon pul tizimini saqlab qolish maqsdida AQSH tomonidan ilgari surilgan taklif Yamayka konferensiyasida muhokama

qilindi va tasdiqlandi. Ushbu kelishuvga asosan jahon valuta tizimi oltin bilan ta'minlanmagan bo'lib, Smitson kelishuvi nomini oldi. Shu davrdan boshlab, oltin milliy valutalarning ta'minlanganlik vazifasini bajarishni to'xtatdi.

AQSH Prezidenti Nikson tomonidan jahon valuta tizimiga kiritilgan yangilik, amaldagi Bretton – Vuds tizimi yoki 20-yillarning oltin deviz standartidan ham ishonchsiz edi. Chunki, kelishuvga asosan mamlakatlar qat'iy belgilangan valuta kurslarini saqlashi bilan birga, yangi tizimga ko'ra valutalar oltin yoki boshqa jahon pullari bilan ta'minlanmaganligi bekor qilindi. Yevropa valuta kurslari sun'iy ravishda baholandi. AQSH dollarining kursini doimiy 35 doll. darajada bo'lishini ta'minlashi to'g'risidagi kelishuvga asosan dollarning devalvatsiyasi 38 dollar qilib belgilandi.

Yangi valuta tizimida valutalarning yagona ayriboshlash qoidalarining mavjud emasligi, ularni qat'iy ayriboshlash kursini amal qilishida kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Shuningdek, Smitson kelishuvida AQSHdagi inflatsiyani, dollar kursi va tashqi savdo kamomadini tartibga soluvchi qoidalarning yo'qligi, iqtisodiy vaziyatni yanada chuqurlashtirdi.

Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida «yevrodollar» massasini muntazam o'sishi, oltinga ayriboshlash shaklining barham topishi natijasida erkin bozordagai oltinning bahosi 215 dollargacha ko'tarildi. Mamlakatlar valuta ayriboshlash kurslari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kelib chiqishi, dollarga yuqori baho berilganligi va Yevropa, Yaponiya davlatlari valutalari sun'iy baholanganligidan dalolat bergan edi. Buning natijasida 1973-yilning fevral – mart oylarida jahon moliya bozori ishtirokchilari sarosimaga tushdi. Chunki, dollarga ishonchsizlikni yuqoriligi natijasida, mamlakatlar dollar xarid qilishdan bosh tortdi. Shunday qilib, Smitson kelishuvi imzolanishidan bir yil o'tib, bu tizimni faoliyat yuritishi barham topdi.

Smitson kelishuvida belgilangan qoidalarni o'zini to'liq oqlamaganligi dollarga bo'lgan ishonchsizlikni yanada kuchaytirdi. Moliya bozoridagi tartibsizliklar dollar devalvatsiya qilinishini talab etdi. Qog'oz pullarning suzib yuruvchi kursida, valuta kurslari talab va taklifdan kelib chiqib erkin aniqlandi. Bu esa, Yevropa valuta birjalarida dollarni qadrsizlanishiga, nemis markasi, Shveytsariya franki va Yaponiya iyenasi kabi qattiq valutalarni qadri ko'tarilishiga olib keldi. Shu qatorda yevrodollar muammosining barham topishi bilan AQSH

to'lov balansi kamomadi ham me'yorlashdi. Chunki, dollar kursi tushishi, AQSHning jahon bozoridagi tovarlari bahosiga ijobiy ta'sir qildi va Amerika eksportini o'sishini ta'minladi. O'z navbatida, valuta bozorini tartibga solish uchun vaqti – vaqti bilan davlat tomonidan valuta intervensiyasi o'tkazilishi, valuta bozorini erkin faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatdi.

Keyinchalik ushbu tizimni amal qilishida ham qator kamchiliklar mavjudiligi ayon bo'ldi. Chunki, qattiq valutaga ega bo'lgan mamlakatlar milliy valutasining qadrini o'sishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ya'ni milliy valutaning uzoq vaqt o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi, milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini narxini o'sishiga, iste'mol tovarlari bozorini Amerika tovarlari bilan to'lishiga olib keldi. Iqtisodiyotda shu kabi holatlarni oldini olish maqsadida boshqa davlatlar 1930-yillarda bo'lgani kabi, turli valutaviy nazoratlar, valuta devalvatsiyasi va boshqa iqtisodiy me'yorlar joriy qilindi. Shuni ta'kidlash joizki, dollarning qadrsizlanishi, Amerikada import tovarlarining bahosini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Boshqa davlatlarda arzon amerika tovarlariga bo'lgan talab yanada ortadi. AQSH bozorlarida esa eksport tovarlarini hajmini kamayishi, ichki bozorda bunday tovarlarning (go'sht va bug'doy) bahosini o'sishiga olib keldi. Aytish joizki, dollarning qadrsizlanishi eksporterlarga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, bu – inflatsiya solig'ini to'layotgan iste'molchilar to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

AQSH ning 1971-yil avgustidan keyingi davrda oltin standartidan voz kechishi va 1973-yil mart oyidan suzib yuruvchi valuta kurslarini joriy qilinishi, jahon valuta tizimida uzoq vaqt inflatsiyani saqlanishiga sabab bo'ldi. Qog'oz pul nazariyasi tarafdorlari bo'lgan keynschilar va Milton Fridman kabi iqtisodchilar, sanoatni rivojlanishi natijasida dollarni oltinga nisbatan kursi 8 – 10 dollargacha tushishini taxmin qilishgan edi. Amaliyotda esa Bretton – Vuds tizimi joriy etilganda belgilangan oltin unsiyasi uchun 35 dollar, ushbu davr ichida umuman pasaymadi. Aksincha, 1971-yillarga kelib oltinning bozor bahosi bir necha marta oshib ketdi. Fransiyaning davlat maslahatchisi Jak Ryueff tomonidan 50 – 60 yillarda, oltin unsiyasi uchun 70 dollar miqdoridagi narx taklif qilinishi, AQSHning qarshiligiga sabab bo'lgan edi. Lekin 1970-yil boshiga kelib, oltinning erkin bozordagi bahosi 70 dollardan bir necha marta oshdi.

1973-yilda butun davlatlar iqtisodiyotida hukm surayotgan inflatsiyani ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari tabora chuqurlashib bordi. Erkin bozorda narxlarni shakllanishida noaniqliklar va beqarorlik yuzaga keldi. Bu jahon valuta tizimini qat'iy valuta kurslariga va paritetiga asoslangan Bretton – Vuds tizimi qoidalaridan chiqish bilan izohlanadi. Ya'ni amaliyotga valutalarning suzib yuruvchi kurslarini kiritilganligi, oltinning rasmiy qiymatini yo'qolganligi va AQSHning boshqa davlatlar Markaziy banklari hisobvarag'larida yig'ilgan «yevrodollar»larni oltinga ayriboshlashdan bosh tortishi, Bretton – Vuds tizimi tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan[75].

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo – iqtisodiy munosabatlarni va investitsiya oqimini qayta tiklash maqsadida 1976-yil Kingston (Yamayka) shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada Xalqaro valuta fondi tomonidan yangi valuta tizimi taklif qilindi. 1978-yilning apreli oyida ratifikatsiya qilingan Yamayka kelishuvi, valutalarni qat'iy belgilangan kurslarini bekor qildi. Shu bilan birga, oltin likvid aktiv sifatida Markaziy banklarda tayanch valuta bo'lib qoldi. Xalqaro valuta jamg'armasi Yamayka kelishuvi doirasida davlatlarga valuta kurslarini aniqlash qoidalarini tanlash huquqini berdi. Yamayka kelishuviga asosan oltin demonetizatsiyasi[76] ko'zda tutilgan. Ya'ni:

1. Ikki davlat valutalari nisbatida – oltin va oltin paritetining rasmiy qiymati bekor qilindi.

2. Davlat organlari va Markaziy banklar dollarni oltinga ayriboshlash to'xtatildi.

3. Oltinni bozor bahosida sotish va sotib olishga ruxsat berildi.

4. Mamlakatlarga valuta kurslarini aniqlash rejimlarini tanlash huquqi berildi.

5. Valuta kurslarini qat'iy belgilangan kursi o'rniga suzib yuruvchi valuta kurslari joriy etildi.

6. Xalqaro valuta jamg'armasiga, a'zo mamlakatlar valuta siyosati ustidan nazorat qilish vakolati berildi.

---

[75] 1967 йилда Франция Марказий банки ҳисобварағида йиғилган 4,704 млрд долларни 4,2 минг тонна олтинга айрибошланишини ва олтинга эркин конвертирланадиган франкни жорий қилиши, кейинчалик Германиянинг ҳам шундай йўл тутиши, 1971 – 1973 йилларда Бреттон – Вудс тизимини инқирозга учратди. Чунки АҚШ нинг олтин захиралари 12,5 минг тоннагача камайиб кетиши натижасида Р.Никсон раҳбарлигидаги Президент маъмуриятини олтинни эркин айрибошланишига чек қўйишига сабаб бўлди. Долларнинг 10 % га девальвация бўлиши натижасида олтиннинг баҳоси кўтарилди. Валюта инқирози НАТО таркибидаги АҚШ, Франция ва Германия ўртасида келишмовчилик келтириб чиқарди. (Шаапуков В.М. Система глобальных финансов и ее современное состояние // Проблемы современной экономики. 2002. № 2. С. 46)

[76] Олтинда, пул функцияларини йўқолиши юридик ва реал жараёнлар билан изоҳланади. Ямайка валюта тизими қоидаларига асосан олтин демонетизацияси юридик мустаҳкамланди. Лекин Халқаро валюта жамғармаси низомида олтинни халқаро захира активи жаннати ман этилмаган, шунинг учун ҳақиқатда олтин демонетизацияси тугатилмаган.

Suzib yuruvchi valuta kurslarining doimiy o'zgaruvchanligi, ularning barqaror faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatishini oldini olish uchun a'zo mamlakatlar, valuta tizimida qabul qilingan qoidalar to'g'risida o'z vaqtida Xalqaro valuta jamg'armasini ogohlantirish majburiyatini oldi. Xalqaro valuta jamg'armasi, a'zo davlatlardan batafsil olingan ma'lumotlarga asosan, mamlakatlarni valutalarning uch kategoriyasidan biriga kiritadi.

1. Bir yoki bir necha valutalarga bog'langan valuta.
2. Ayriboshlash kursi bir yoki bir necha valutalarga nisbatan egiluvchan bo'lgan valutalar.
3. Egiluvchanligi yuqori bo'lgan valutalarning ayriboshlash kursi.

Ta'kidlash joizki, Xalqaro valuta jamg'armasi mamlakatlarni, uchta kategoriya bo'yicha guruhlashtiradi va bu har yili o'zgarib turishi mumkin. Masalan, 1983-yilda jahonning 38 mamlakati o'z valutalarini dollarga bog'lagan, 1985-yilda ularning soni 31 tagacha, 1990-yilda 28 tagacha kamaydi. Aksariyat davlatlar qattiq valuta siyosati yuritib, valuta tizimini kuchli nazorat ostiga olgan. Shu o'rinda mamlakat valuta ayirboshlash tizimining litsenziyalashtirilishi[77] natijasida valutalar to'liq konvertatsiya qilinmaydi.

Yamayka valuta tizimi Bretton – Vuds valuta tizimiga nisbatan egiluvchan bo'lib, mamlakatlar to'lov balansi va valuta kurslari beqarorligiga moslashuvchan hisoblanadi. Shu bilan birga, Yamayka valuta tizimini amal qilishi jarayonida, bir qator murakkab muammolar mavjudligi ko'zga tashlandi. Xususan, SDR standartining samarasizligi[78], yuridik jihatdan oltin demonetizatsiya qilinishi va haqiqatda esa, uning jahondagi likvid aktiv sifatida zaxirada shakllantirilayotganligi, suzib yuruvchi kurslar tizimining mukammal emasligi bilan izohlanadi.

15.3. Valuta kursi va uning turlari

Iqtisodiy adabiyotlarda valuta kursi va uni aniqlash xususida juda ko'p fikrlar va yondashuvlar mavjud. Ular ko'p holatda bir – biriga mos kelmaydi. Buning asosiy sababi valuta kursi haqida bildirilgan fikrlar

---

[77] Бунга асосан Марказий банк томонидан қатъий айирбошлаш курслари белгиланади ва экспортни амалга оширувчи хўжалик юритувчи субъектлари, валюта тушумлари бўйича белгиланган курсда айирбошлаш мажбуриятини олади.

[78] СДР стандарти мукаммал эмас. Чунки, СДР ни амал қилиш доираси Халқаро валюта жамғармасининг операциялари доирасида чегараланган. Жаҳон валюта тизимида доллар стандарти амалий жиҳатдан сақланиб қолди. СДР нинг валюталар саватчасида долларнинг улуши 2001 – 2005 йилларда 39 – 45 % дан ортиб кетди.

turli georgrafik va ijtimoiy – iqtisodiy muhitda yaratilganligi bo'lsa kerak.

Valuta kursi bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikr va yondashuvlarning umumiy mazmuni «*Valuta kursi – bu bir mamlakat milliy valutasi «bahosini» boshqa mamlakat pul birligida ifodalanishini*» anglatadi.

Valuta kursi valuta tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki xalqaro iqtisodiy munosabatlar turli mamlakatlarning milliy valutalarini bir–biriga o'lchashni taqozo etadi. Bu esa valuta'kursi orqali aniqlanadi. Turli mamlakatlar valutalari bir – biriga taqqoslab bahosini aniqlash ishlab chiqarish va ayriboshlash jarayoniga asoslanib ularni obyektiv qiymat munosabatlari orqali amalga oshiriladi.

Valuta kursi fundamental va boshqa obyektiv–subyektiv omillar ta'sirida doimiy ravishda tebranib turadi, bozorda tovarlar va xizmatlar hajmining o'zgarishi hamda pul tizimining ta'sirida valutalar kursi aniqlanadi va uni aniqlash tartibi ham o'zgarib turadi.

Xalqaro amaliyotda valuta kursining ***tartibga solib turiladigan va suzib yuruvchi*** usullari mavjud.

Tartibga solinadigan valuta kursi nazariyasi tarafdorlari valuta kursini davlat tomonidan tartibga solish orqali uni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning qo'shimcha mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi. Fransiya iqtisodchisi Dj. Mid, R. Mandellning fikricha xalqaro bozorlarda valuta kursining doimiy ravishda o'zgarishi milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki davlat har doim ham undan samarali foydalana olmasligi mumkin, shuning uchun ham davlat milliy valuta kursini iqtisodiyotning samarali rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqib o'zi belgilashi lozimligini ta'kidlaydi, Amerikalik iqtisodchi E.Birnbaum valuta kursi davlatlararo tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilotlarning o'zaro kelishuvi asosida o'rnatilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Valutaning suzib yuruvchi kursining nazariyasi tarafdorlari asosan neoklassik yo'nalishdagi iqtisodchilar hisoblanadi. Jumladan, ularning qatoriga M. Fridmen (Chikago maktabining yo'lboshchisi), F. Maxlup (Prinston universiteti), A. Lindbek (Stokgolm universiteti), G. Djonson (Chikago va London universitetlari), L. Erxard, G. Girsh, E. Dyurr (Germaniyaning Freyburg maktabi) va boshqalar kiradi.

Valutaning suzib yuruvchi kursining qattiq valuta kursidan quyidagi afzalliklari mavjud:

• mamlakat to'lov balansini avtomatik tarzda tartibga soladi;

• mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha siyosatni tashqi aralashuvsizlar tanlash imkoniyatini beradi;

• valuta savdosini rivojlanishiga keng imkoniyat beradi, bozordagi talab va taklif asosida kimdir yuttiradi kimdir esa yutadi;

• xalqaro savdoni rivojlanishini rag'batlantiradi;

• valuta bozori valuta kursini davlatga nisbatan tez va aniqroq aniqlash imkoniyatini beradi.

Har bir mamlakat valuta kursining qanday usulini joriy etishni mustaqil hal etadi. Bunga qator omillar ta'sir etadi, jumladan, mamlakatning ijtimoiy–iqtisodiy holati, mamlakat bank tizimida pul – kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi kabilar shular jumlasidandir.

Valuta kursining tartibga solinadigan usuli amaliyotda qo'llanilganda milliy valutaning kursi asosan Markaziy bank tomonidan o'rnatiladi, valuta kursining ushbu turi asosan iqtisodiyotni mamuriy boshqarish sharoitiga xosdir. Bu sharoitda valuta kursi mamlakat Markaziy banki tomonidan derektiv ko'rsatilgan tarzda joriy etilib, tovar va xizmatlar bahosi mamuriy usulda joriy etiladi. Bunday sharoitda, asosan milliy valutalar boshqa mamlakat valutasiga erkin ayirboshlanmaydi.

Valuta kursining suzib yuradigan turi, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tovar – pul munosabatlarida keng joriy etilib, bunda milliy valutalarning xorijiy mamlakatlar valutasiga nisbatan kursi talab va taklif asosida o'rnatiladi.

15.4. Xalqaro hisob-kitoblarning vujudga kelishi va mohiyati

Xalqaro valuta hisob-kitoblarning vujudga kelishi va rivojlanishining asosida mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar almashivuning mavjudligi, kapital aylanmasining vujudga kelishi va uning hajmini doimo ortib borishi yotadi. Xalqaro hisob-kitoblar xalqaro tashqi tovar va xizmatlar aylanmasini tashkil etish, tijorat va notijorat operatsiyalarni amalga oshirish, kreditlar berish va kapital harakatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro hisob-kitoblar – turli mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar natijasida vujudga keladigan pullik talab va majburiyatlarni tartibga solish usullaridir. Mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan operatsiyalarning asosiy hajmi xorijiy valutalarni ko'chirish, ya'ni xalqaro hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda banklarning xorijiy mamlakatlardagi bo'limlari yoki xorijiy banklar bilan o'rnatilgan vakillik hisobraqamlaridan (korrespondentlik munosabatlari) foydalaniladi. Korrespondent munosabatlarda «loro» (xorijiy banklarning mahalliy banklardagi), «nostro» (mahalliy banklarning xorijiy banklardagi) hisobraqamlarini ochish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan korrespondent hisobraqamlar ochilganda banklar o'rtasida ushbu hisobraqamlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, komission to'lovlarning miqdori, sarflangan mablag'larni to'ldirish yo'llari va boshqa masalalarni bajarish haqida o'zaro kelishuv tuziladi.

Banklar xalqaro hisob–kitoblarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish maqsadida likvidli valutalarda zarur miqdordagi valuta pozitsiyalarni ta'minlashga harakat qiladi, bunda asosiy e'tibor amalga oshiriladigan hisob–kitoblarni belgilangan muddat va miqdorda to'lab berishga qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, xalqaro hisob–kitoblarni amalga oshirayotgan banklar «nostro» hisobvaraqalari bo'yicha tegishli valutada daromad olish, shuningdek, ushbu mablag'larni jahon ssuda kapitali bozorlarida valutali aktivlarga joylashtirish maqsadida tegishli qoldiqni saqlashga harakat qiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarda banklarning faoliyati tegishli mahalliy va xalqaro miqiyosdagi huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Xalqaro joriy valuta operatsiyalardan dunyoning yetakchi mamlakatlari milliy valutasi to'lov vositalari vazifasini bajaradi. Birinchi jahon urushiga qadar funt sterlingda muomalaga chiqarilgan veksellar (trattallar) xalqaro hisob–kitoblar bo'yicha operatsiyalarning 80 foizini bajardi.

Mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimotining kuchayishi va ularning iqtisodiyotini rivojlanishida o'zaro mutanosiblikning vujudga kelishi bois, angliya funt sterlingi xalqaro hisob–kitoblardagi ulushi 1948-yilda 40 foizga, 1999-yilarning boshida esa 5 foizga tushib qoldi.

AQSH dollarining tashqi savdodagi ulushi 1982-yilda 78 foizga etdi, 2000-yillarning boshida yevro, yaponiya iyenasi, shvetsariya franki va boshqa yetakchi mamlakatlar milliy valutalari xalqaro to'lov vositasi sifatida foydalanila boshlandi, natijada AQSH dollarining xalqaro savdodagi ulushi 55 foizga tushdi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan ayrim hisob-kitoblarda 1970-yildan SDR (spetsialnыe prav zaimstvovaniya), 2000-yildan so'ng yevro faol qo'llanila boshlandi.

Xalqaro hisob-kitoblarning rivojlanishi natijasida oltinni to'lov vositasi sifatidagi roli nafaqat ichki hisob-kitoblardan, balki xalqaro to'lovlarni amalga oshirishdan ham siqib chiqarildi. Oltin standarti eng rivojlangan davrda ham xalqaro hisob–kitoblarda undan to'lov balansining passiv qoldig'ini to'lashda foydalanildi. Oltin standartining bekor qilinishi va sariq metallga kredit pullarni almashtirish to'xtatilgandan so'ng xalqaro majburiyatlarni oltinga to'lash zaruriyati yo'qoldi.

Biroq, ta'kidlash joizki, mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy–iqtisodiy barqarorlik buzilganda jahon pulini bajarayotgan milliy valutalarga nisbatan ishonchning yo'qolishi natijasida xalqaro hisob-kitoblarda oltindan foydalanish hollari amaliyotdan ma'lum.

Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida xalqaro hisob–kitoblarning asosiy qismi oltin slitkalarda amalga oshirilgan. Urushdan keyingi davrda (1950 – 1958-yillarda) ayrim ko'p tomonlama hisob-kitoblar dastlab 40 foizgacha, 1955 yilda 75 foizgacha oltin bilan to'langan.

Zamonaviy sharoitda mamlakatlar o'zining to'lov balansi barqarorligini ta'minlash maqsadida oltin zaxiralarini dunyoning yetakchi valutalariga sotadi. Bu o'z – o'zidan ko'rinib turibdiki, oltin xalqaro hisob-kitoblarda to'g'ridan – to'g'ri ishtirok etmasdan, oltin bozorlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishga erishmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblarning holati va rivojlanishiga qator omillar ta'sir etadi. Xususan, mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy – iqtisodiy siyosat, valuta qonunchiligi, xalqaro savdoni tashkil etishning qonun va qoidalari, shuningdek, moliya – kredit tizimining rivojlanganlik darajasi shular jumlasidandir.

15.5.Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari va valuta riski

Mamlakatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar bo'yicha oldi – sotdi operatsiyalarni amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1. Hujjatli akkreditiv.
2. Inkasso.
3. Bank o'tkazmalari.
4. Veksel va cheklar bilan hisob-kitoblar shular jumlasidandir.

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

1. Xalqaro hisob-kitoblarda eksporter va importerga xizmat ko'rsatadigan banklar moliyaviy vositachi sifatida maydonga chiqadi.

2. Xalqaro hisob-kitoblar mahalliy va xalqaro qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3. Xalqaro hisob-kitoblar turli valutalarda amalga oshiriladi. Asosan, dunyoda to'lov vositasi sifatida tan olingan mamlakatlarning milliy valutalarida (AQSH dollari, yevro, iyena, yuan).

4. Bitta xalqaro kontrakt doirasida bir necha hisob-kitob shakllari qo'llanilishi mumkin.

Eksporter va importerlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda hisob-kitob shakllarini tanlash muhim masalalardan biri hisoblanadi va bunga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan:

5. Tovar va xizmatlar turi.

6. Kontrgentlarni to'lovga layoqatliligi va mavqeyi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar importerlarining to'lov qobiliyati zaif bo'lganligi bois, ular o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shakli ko'proq qo'llaniladi. Akkreditiv hisob-kitob shaklida eksporterga to'lov kafolatlanadi.

7. Jahon bozorida sotiladigan tovarlarga bo'lgan talab va taklif darajasi;

8. Boshqa omillar.

Valuta riski va valuta kelishuvi. Xalqaro hisob-kitoblarda valuta riski va valuta kelishuvi mavjud bo'lib, xalqaro valuta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiyoti, moliyaviy holati va tashqi siyosatini barqarorligini oldini olish maqsadida tuziladi.

Valuta riski – tomonlar o'rtasida tashqi savdo va kredit shartnomalarini imzolash jarayonida to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan valuta kursining o'zgarishi tufayli vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishdir.

Odatda valuta kursi bahosining tushishi natijasida eksportyor va kreditor zarar ko'radi, to'lov valutasi kursining oshishidan esa importyor va qarzdor moliyaviy mablag'larini yo'qotadi.

Xalqaro hisob-kitoblarda valuta riskidan ko'rilishi mumkin zararlarni oldini olish maqsadida ***himoya kelishuvi*** to'g'risida shartnoma shartlari joriy etiladi, bu shartlar eksporter va importer o'rtasida tuziladigan shartnoma va kontraktlarda ko'zda tutiladi. Bretton – Vudse valuta tizimi inqirozigacha bo'lgan davrda va oltin pariteti bekor qilinguncha oltin kelishuvlari qo'llanilar edi, bunda to'lov vositasining pariteti oltinga nisbatan o'zgaradigan farq summasi proporsional ravishda to'lab berilgan.

Valuta kelishuvi – eksporter va importeriga to'lov vositasining qadrsizlanishidan himoya qilish bo'lib, to'lov valuta kursining o'zgarishi natijasida vujudga keladigan farqni proporsional tarzda to'lab berish haqidagi kelishuvdir.

15.5.1. Akkreditiv

Xalqaro hisob-kitoblar ichida akkreditiv juda ko'p qo'llaniladigan pul o'tkazmalarining shakli hisoblanadi. Akkreditiv bilan hisob-kitobda importer benefitsarning nomiga akkreditiv ochish yuzasidan topshiriq beradi, akkreditiv summasi benefitsarning tovarlar yetkazib berganligi yoki xizmatlarni ko'rsatganligini tasdiqlovchi hujjatlari asosida uning hisobiga o'tkaziladi.

Xalqaro akkreditiv bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi tomonlar ishtirok etadi:

1. Importer, bankka akkreditiv ochish uchun murojaat qiluvchi.
2. Emitent – bank, akkreditiv ochuvchi bank.
3. Avizo qabul qiladigan bank, ushbu bank importer bankida benefitsar nomiga akkreditiv ochilganligi haqida xabarni eksporterga yetkazadi va to'lovni amalga oshiradi.
4. Benifitsar – eksporter, uning hisobiga akkreditiv ochiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shakli eksporterga to'lovni kafolatlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, chunki eksporter va importer o'rtasida tuzilgan shartnoma summasi oldindan eksporterga

xizmat ko'rsatadigan bankning akkreditiv hisobvarag'iga o'tkazib beriladi. Shuning uchun eksporterlar xalqaro hisob-kitoblarda to'lov qobiliyati nisbatan past importerlar va siyosiy – iqtisodiy jihatdan beqarorlik mavjud bo'lgan mamlakat eksporterlari to'lovlarni amalga oshirishda ushbu shakldan foydalanishni afzal ko'radi.

Akkreditiv qo'llanilishi darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Emitent – bank akkreditivning shartlarini o'zgartirish nuqtayi nazaridan, *chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan* akkreditivdan iborat. Agar importer va eksporter o'rtasida tuzilgan shartnomada chaqirib olinadigan akkreditiv ko'zda tutilgan bo'lsa, shartnomda kelishilgan muddat ichida importerning tovarlarni sotib olish yoki xizmatlar bo'yicha qarori o'zgarsa benifitsar foydasiga o'tkazilgan shartnoma summasini to'liq yoki qisman chaqirib olinishi mumkin. CHaqirib olinadigan akkreditivda esa importerga bunday huquq berilmaydi.

2. Sharnomada ko'rsatilgan summani benifitsarning akkreditiv hisobvarag'iga o'tkazishi nuqtayi nazardan, *ta'minlangan yoki ta'minlanmagan akkreditiv*ga bo'linadi. Ta'minlangan akkreditivda importer shartnomada kelishilgan summa to'liq benefitsarning bankida deponentlanadi, ta'minlanmaganda esa ushbu summa importerning banki tomonidan kafolatlanadi.

3. Akkreditiv shartnomasida ko'rsatilgan summa bo'lib – bo'lib, bir necha marta benefitsarning bankida ochilgan akkreditiv hisobvarag'iga o'tkazilishi mumkin, akkreditivning bu turi *to'ldirib boriladigan* yoki *revolver akkreditiv* deb yuritiladi. Akkreditivning ushbu shakli, odatda, ishlab – chiqarish jarayoni bir – biriga bog'liq bo'lgan eksporter va importerlar o'rtasida qo'llaniladi.

Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan akkreditivning afzallik jihatlari ko'proq eksporterga tegishli bo'lib, unga jo'natilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat uchun to'lov kafolatlangan. Biroq, importer benifetsar uchun ochilgan akkreditiv hisobvarag'iga mabalag'ni o'tkazishi natijasida uning ixtiyoridagi mablag' ma'lum muddatga chetlashishiga sabab bo'ladi.

15.5.2. Inkasso

Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan akkreditivlarning asosiy mohiyati shundan iboratki, eksporter jo'natilgan tovarlar yoki

ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni undirib olish maqsadida o‘z bankiga tegishli hujjatlar bilan birga inkasso to‘lov hujjatini ham taqdim etadi.

Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shaklida tovarlar harakati pul harakatidan oldinda yuradi. Shu bois ham ushbu hisob-kitobni amalga oshirishda tijorat kreditining bir ko‘rinishi namoyon bo‘ladi, bu eksporterlarni ma’lum darajada riskka duchor bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu, o‘z navbtida, eksporter importerning moliyaviy holati va uning to‘lovga qobiliyati haqida, shuningdek, importer boshqa mamlakatdan bo‘lsa mamlakatdagi siyosiy – iqtisodiy ahvolni o‘rganishi juda muhim hisoblanadi.

Xalqaro hisob-kitoblarning shakli mahalliy inkasso hisob-kitoblardagi kabi, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1. Eksporter tovarlarni jo‘natgandan o‘z bankiga tovarlarni jo‘natganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga inkasso hujjatini taqdim etadi.

2. Eksporterning banki inkasso hujjatlarini xalqaro talablar doirasida tayyorlanganligini o‘rganib chiqqandan so‘ng SFIVT elektron to‘lov tizimi orqali importerning bankiga jo‘natadi.

3. Importerning banki inkasso hujjatlari kelib tushganligi va to‘lovni amalga oshirayotganligini unga xabar qiladi va mablag‘larni eksporterning bankiga jo‘natadi.

4. Eksporterning banki valuta mablag‘larini uning hisobvarag‘iga kirim qilgandan so‘ng bu haqda xabar beradi.

Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shakli qo‘llanilganda valuta kursining o‘zgarishi, importerning moliyaviy holati yomonlashuvi tufayli to‘lovni amalga oshira olmasligi, importerning mamlakatida siyosiy va iqtisodiy vaziyatning keskinlashuvi oqibatida eksporter moliyaviy jihatdan zarar ko‘rishi mumkin. Shu bois ham eksporter xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda hisob-kitoblarning ushbu shaklini tanlashda juda ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

15.5.3. Bank o‘tkazmalari

Xalqaro hisob-kitoblarda bank o‘tkazmalari asosan eksporter va importer o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar doimiy xarakterga ega bo‘lganda, ularning moliyaviy holati bir – biriga to‘liq ma’lum bo‘lganda va tegishli darajadagi ishonch mavjud bo‘lsagina joriy etiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning ushbu shakli juda oddiy va oson bo‘lib, tovarlar eksport qilingandan so‘ng to‘lovni amalga oshirish uchun importer o‘z bankiga topshiriqnoma arizasini taqdim etadi. Importer banki topshiriqnoma arizada ko‘rsatilgan summani eksporterning bankiga SFIVT elektron to‘lov tizimi orqali o‘tkazib beradi. Eksporterning banki uning hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘ haqida xabar beradi.

Xalqaro hisob-kitoblarda bank o‘tkazmalarining ijobiy jihatlari ko‘proq importerga tegishli bo‘lib, u olingan tovarlar uchun mablag‘ yetarli bo‘lsa to‘lovni amalga oshirishi, agar mablag‘ mavjud bo‘lmasa yoki yetarli bo‘lmasa to‘lovni ma’lum muddatga kechiktirishi, olingan tovar yoki xom ashyodan to‘lovni amalga oshirmagan bo‘lsada foydalanishi mumkin bo‘ladi.

15.6. O‘zbekiston banklarida xalqaro valuta munosabatlari

O‘zbekiston tijorat banklari mustaqillik yillarida juda ko‘p xorijiy mamlakatlarning banklari bilan qator valutali operatsiyalarni amalga oshirishni yo‘lga qo‘ydi.

O‘zbekistonda xalqaro valuta munosbatlari tegishli qonun va me’yoriy hujatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Valutani tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuni shular jumlasidandir. Ushbu qonun 1993-yil 7-mayda qabul qilingan bo‘lib, unga qator qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritilgan.

O‘zbekistonda xalqaro valuta operatsiyalari vakolatli banklar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu banklar Markaziy bankning bosh litsenziyasiga ega bo‘lib, ular:

– O‘zbekiston Respublikasi hududida ochiq valuta mavqeyi limiti doirasida chet el valutasini sotib olish va sotish bo‘yicha, shu jumladan, hosila moliyaviy vositalar asosida chet el valutasini sotib olish va sotish bo‘yicha bevosita o‘zaro, o‘z mijozlari bilan hamda valuta birjalari orqali, shuningdek, xalqaro bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasining banklarida va chet el banklarida vakillik hisobvaraqlariga hamda boshqa hisobvaraqlarga ega bo‘lish;

– naqd chet el valutasini hamda chet el valutasidagi to‘lov hujjatlarini jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish operatsiyalarini amalga oshirish uchun ayirboshlash shoxobchalarini ochishga haqli hisoblanadi.

Vakolatli banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar, valuta to'g'risidagi qonunga ko'ra joriy xalqaro operatsiyalarni va kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalarga bo'linadi.

Joriy xalqaro operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha to'lovlar.
2. Foizlar va boshqa daromadlar ko'rinishidagi to'lovlar.
3. Kreditlarni, qarzlarni uzish uchun yoki to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to'lash.
4. Savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalarini amalga oshirish bo'yicha operatsiyalar.

Kapital harakati bilan bog'liq valuta operatsiyalarga joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha operatsiyalar kiradi. Xususan:

1. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish.
2. Kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish.
3. Ko'chmas mulkni sotib olish va sotish.
4. Xorijiy davlatlardan mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga jalb etish hamda xorijiy davlatlarda mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish kiradi.

Bobga oid savollar

1. Xalqaro valuta tizimining mohiyati.
2. Mahalliy valuta tizimining elementlari.
3. Xalqaro valuta tizimining elementlari.
4. Xalqaro valuta tizimini tashkil etish va faoliyat yuritishidan ko'zlangan bosh maqsad nima?
5. Oltin standarti tizimini joriy etilishi va uning afzalliklari.
6. oltin deviz standartini joriy etilishi va uning salbiy oqibatlari.
7. Bretton – Vuds konferensiyasiga asosan tashkil etilgan valuta tizimining qoidalari va uni inqirozga uchrashining sabablari nimalardan iborat?
8. Yamayka valuta tizimini tashkil etilishi va uning asosiy tamoyllari nimalardan iborat?
9. Xalqaro munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilgan?
10. Valuta kursining turlari.

11. Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va turlari.
12. «Loro» va «nostro» hisobraqamlarning mohiyati.
13. Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari.
14. Valuta riski va valuta kelishuvi.

Bobga oid testlar

1. 1922-yilda bo'lib o'tgan Genuya konferensiyasida qandayy kelishuv imzolandi?

A. Birinchi jahon urushidan keyingi davrda oltin standarti amal qilishi hususidagi kelishuv.

B. Yangi oltin deviz standartini amaliyotga kiritish to'g'risidagi kelishuv.

V. Birinchi jahon urushidan oldingi pul tizimini qayta tiklash hususidagi kelishuv.

G. Qog'oz pul – kredit tizimiga o'tish kerakligi xususidagi kelishuv.

2. Bretton – Vuds konferensiyasi qaysi yili bo'lib o'tdi va bu konferensiyadan ko'zlangan maqsadi nima bo'lgan?

A. 1945-yilda Bretton – Vuds shahrida, oltin standartini pul tizimini tiklash maqsadida bo'lib o'tdi.

B. 1944-yilda Bretton – Vuds shahrida, urushdan keyingi davrda jahon iqtisodiyotini tiklash maqsadida bo'lib o'tdi.

V. 1944-yilda Bretton – Vuds shahrida, oltin deviz standartini amaliyotga joriy etish maqsadida bo'lib o'tdi.

G. 1944-yilda Bretton – Vuds shahrida, Xalqaro valuta jamg'armasini tashkil etish maqsadida bo'lib o'tdi.

3. Devalvatsiya nima?

A. Devalvatsiya – bu milliy valuta kursining chet el valuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosida pasaytirilishi

B. Devalvatsiya – bu milliy valuta kursining chet el valuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosida oshirilishi

V. Devalvatsiya – bu milliy valuta kursining chet el valuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosiga tenglashtirilishi

G. Devalvatsiya bu – valuta siyosatining bir yo'nalishi bo'lib, importni rag'batlantirish uchun o'tkaziladi.

4. Bretton – Vuds valuta tizimiga ko'ra oltinning rasmiy qiymati qaysi valutaga bevosita bog'landi.

A. Dollarga, 1 unsiya oltin = 35 dollar.

B. Fransiya frankiga, 1 unsiya oltin = 40 frank.

V. Dollar va funt sterlingga, 1 unsiya oltin = 35 dollar, 25 funt sterling.

G. Germaniya markasi, 1 unsiya oltin = 38 marka.

5. Yamayka konferensiyasiga asosan jahon valuta tizimida qanday o'zgarishlar ro'y berdi.

A. Funt sterling va dollar jahon valutasi sifatida qabul qilindi.

B. Oltin qiymati qat'iy belgilangan baholarda aniqlanishi belgilab olindi.

V. Oltinni dollarga nisbatan rasmiy qiymati e'lon qilindi.

G. Valuta kurslarini qat'iy belgilangan kursi o'rniga, suzib yuruvchi valuta kurslari joriy etildi;

6. SDR maxsus to'lov birligi qanday operatsiyalarda ishlatiladi.

A. Mamlakatlar o'rtasidagi valuta – kredit munosabatlarida.

B. AQSH va Yevropa davlatlari o'rtasidagi eksport – import operatsiyalarda.

V. Xalqaro valuta jamg'armasining hisob-kitob operatsiyalarida.

G. Mamlakatlar o'rtasida qarz munosabatlarida.

7. Dastlabki xalqaro tizimining vujudga kelishi qaysi yillarga to'g'ri keladi?

A. 1830-yillarga.

B. 1840-yillarga.

V. 1850-yillarga.

G. 1860-yillarga.

8. Milliy valuta tizimining elementlari qaysi javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Milliy valuta.

B. Xalqaro valuta.

V. Konvertatsiya shartlari.

G. Milliy valuta pariteti.

9. Milliy valuta tizimining elementlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Valutalarni o'zaro konvertirlash shartlari.

B. Valuta pariteti rejimining reglamenti.

V. Xalqaro valuta.

G. Konvertatsiya shartlari.

10. Xalqaro valuta tizimining elementlari qaysi javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Xalqaro valuta likvidligini davlatlararo tartibga solish usuli.

B. Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblar reglamenti .

V. Xalqaro kredit mablag'lari muomalasini unifikatsiyalash qoidalari.

G. Xalqaro hisob–kitoblar shakllarini qo'llash qoidalari.

11. Banklar o'rtasida korrespondent munosabatlarda qo'llaniladigan «loro»hisorbvaraqlar:

A. Xorijiy banklarning mahalliy banklardagi hisobvaraqlari.

B. Mahalliy banklarning xorijiy banklardagi hisobvaraqlari.

V. Hisob-kitoblarning shakli.

G. Banklarning valutadagi daromad hisobvarag'i.

12. Banklar o'rtasida korrespondent munosabatlarda qo'llaniladigan «nostro»hisorbvaraqlar:

A. Xorijiy banklarning mahalliy banklardagi hisobvaraqlari.

B. Mahalliy banklarning xorijiy banklardagi hisobvaraqlari.

V.Hisob-kitoblarning shakli.

G.Banklarning valutadagi xarajat hisobvarag'i.

13. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda AQSH dollarining ulushi 1982-yilda:

A. 40 foizga yetadi.

B. 78 foizga yetdi.

V. 55 foizga ko'tarildi.

G. 5 foizga ko'tarildi.

14. 1955-yilda xalqaro to'lovlarning oltin bilan to'lanadigan ulushi:

A. 45 foizni tashkil etdi.
B. 55 foizni tashkil etdi.
V. 65 foizni tashkil etdi.
G. 75 foizni tashkil etdi.

15. Xalqaro hisob-kitoblarda eng ko'p qo'llaniladigan hisob-kitob shakli:

A. – akkreditiv.
B. – inkasso.
V. – cheklar bilan hisob-kitob.
G. – bank o'tkazmalari.

16. O'zbekiston tijorat banklari qanday valuta operatsiyalarni bajaradi?

A. Joriy xalqaro va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar.
B. Kapital harakati bilan bog'liq bo'lmagan valuta operatsiyalar.
V. Joriy bo'lmagan valuta operatsiyalari.
G. Xalqaro hisob-kitoblarni shakllari.

16 – bob. TO'LOV BALANSI

16.1.To'lov balansi va uni tuzish tamoyillari

Mamlakatlar tashqi ijtimoiy – iqtisodiy aloqalarini, savdo va kreditlar aylanmasini, xizmatlar va joriy operatsiyalarining harakatini qiymat ko'rinishida to'lov balansida aks ettiradi.

To'lov balansi – mamlakatning tashqi ijtimoiy – iqtisodiy aloqalarning boshqa mamlakatlar bilan amalga oshiriladigan aloqalarini qiymat ko'rinishida ifodalanishidir.

To'lov balansida alohida olingan mamlakatni haqiqatda boshqa mamlakatlarda to'lagan va ulardan tushgan mablag'lari o'rtasidagi nisbatdir. To'lov .balansi, odatda. ma'lum davr (oy, chorak, yil)ga tuziladi.

Mamlakatning to'lov balansi quyidagi tarkibdan tashkil topadi.

I. Joriy operatsiyalar balansi

1. Savdo balansi:

a) eksport;

b) import.

2. Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi, «ko'rinmaydigan» operatsiyalar balansi.

II. Kapitallar va kreditlar harakati balansi (mamlakatga kiritilgan va mamlakatdan chiqib ketgan davlat va xususiy kapitallar, xalqaro miqyosda olingan va berilgan kreditlar).

Yuqorida keltirilganidek, to'lov balansi asosan ikkita guruhdan tashkil topadi. To'lov balansining birinchi guruhi ***savdo balansi hamda xizmatlar va notijorat to'lovlar*** bo'yicha operatsiyalarni aks ettiradi. Ikkinchi guruhda ***kapitallar va kreditlar harakati*** bo'yicha operatsiyalar balansi tuziladi.

To'lov balansining *savdo balansida* mamlakatdan qilinadigan eksport va mamlakatga qilinadigan import tovarlari o'rtasidagi nisbat aks ettiriladi. Odatda, bu tashqi savdo aylanmasi tarzida ifodalanib, uning natijasi ijobiy yoki salbiy qoldiq ko'rinishida bo'ladi.

Agar mamlakat to'lov balansida jami eksport summasi import summasidan ortiqcha bo'lsa, ijobiy tashqi savdo qoldiq hisoblanadi.

To'lov balansining ijobiy savdo qoldig'i mamlakatdagi mavjud yalpi talab ichki ishlab chiqarish hisobiga qondiriliyotganiligini anglatadi, o'z navbatida, bu ko'rsatkich mamlakat milliy valutasining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar mamlakat to'lov balansida import summasi eksport summasiga nisbatan ortiqcha bo'lsa, ushbu holat salbiy tashqi savdo qoldig'i hisoblanadi. Mamlakatda salbiy tashqi savdo vujudga kelishi mahalliy ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmaganligini va tashqi ishlab chiqarish omillariga bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Xizmatlar va notijorat, ko'rinmaydigan operatsiyalar balansi o'z tarkibiga transport, sug'urta, pochta – telegraf, telefon aloqasi, vositachilik operatsiyalari, turizm, madaniy almashuvlar, pul o'tkazmalari (ish haqi, stipendiya, pensiya, vorislik), diplomatik va savdo konsullari, investitsiyalar bo'yicha dividendlar va foizlar, litsenziya uchun to'lovlar, texnik yordam, gonorar, tashqi mamlakatlardagi harbiy xarajatlar bo'yicha to'lovlarni oladi.

Rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar xizmatlar va notijorat balansi tarkibida asosiy ulush turli darajadagi xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi, keyingi ko'rsatkichlar turizm, ilmiy – texnikaviy yo'nalishlar hisoblanadi.

To'lov balansining savdo balansi, xizmatlar va notijorat balansi ***joriy operatsiyalar balansi***ni tashkil etadi, uning deyarli 70 foizi savdo balansi hissasiga to'g'ri keladi.

To'lov balansining ikkinchi guruhi *kapitallar va kreditlar harakati balansi* hisoblanadi. Ushbu balansda mamlakatga davlat, xususiy kapital va xalqaro kreditlar nisbati ifoda etiladi. Xalqaro iqtisodiyotning globallashuvi va jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida to'lov balansining ushbu bo'limining ahamiyati ortib boradi.

To'lov balansini tuzishda qo'llaniladigan statistik usullar va ma'lumotlarni qayta ishlashni doimiy ravishda takomillashtirib borishiga qaramasdan uning noaniqlik darajasi yuqoriligcha qolmoqda. Shuning uchun to'lov balansida ***«Xatolar va hisobga olinmaydigan»*** alohida moddasi mavjud. Ushbu moddada aniqlab bo'lmaydigan yoki hisobga olishni imkoniyati bo'lmagan operatsiyalar aks ettirib boriladi. Bunday holat xalqaro moliyaviy – iqtisodiy inqirozlar sharoitida davlatlar o'rtasida investitsiya, kredit va boshqa operatsiyalar ko'rinishda noqonuniy yoki norasmiy ravishda ko'chib yurgan valuta mablag'larining summasi kabilarni kiritish mumkin.

Masalan, mamlakatimiz aholisi hisobidan pul o'tkazmalari orqali xorijiy davlatlardan har yili juda katta miqdorda valuta mablag'lari kirib keladi. Statistik ma'lumotlarga qaragandan 2007 – 2010 yillarda ushbu manba hisobidan mamlakatimizga har yili 2,5 mlrd. dollardan 3,5 mlrd. dollargacha valuta tushumlari kelib tushgan, ularni mamlakatimiz to'lov balansida aks ettirish mumkin. Biroq, xorijda ishlovchi aholi o'zi bilan olib kelgan valuta mablag'larining, shuningdek, aylanma yo'llar orqali davlat bojini to'lamasdan kiritilgan tovar moddiy qimmatliklarning aniq va to'liq hisobi mavjud emas. Aynan shu kabi operatsiyalar to'lov balansining ***«Xatolar va hisobga olinmaydigan»*** moddasida aks ettiriladi.

To'lov balansini tuzishni o'zining tegishli usullari, qoidalari va tartibi mavjud bo'lib, buning asosiy jihati shundaki, to'lov balansidagi moddalar va ko'rsatkichlar xalqaro iqtisodiy aloqalarda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilar uchun o'zining yagonaligi talab va qoidalari asosida tuzilganligi bilan tegishli qarorlarni qabul qilishda asos sifatida xizmat qilishi zarur. Aks holda tegishli talablar va qoidalarga javob bermaydigan to'lov balansi xalqaro darajada foydalanish imkoniyatini bermaydi va uni tuzishdan mantiq chiqmaydi.

To'lov balansining moddalari, uning ma'lumotlari va ko'rsatkichlarini yagonaligini ta'minlashda Xalqaro valuta jamg'armasi tavsiyalari barcha mamlakatlar uchun asos sifatida qabul qilingan. Hozirgi kunda XVJga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar to'lov balansi aynan shu talab asosida tuziladi. Bu ushbu mamlakatlar o'rtasida uning yagonaligini ta'minlashga xizmat qiladi.

To'lov balansini turlicha talqin etilishi. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida to'lov balansiga nisbatan berilgan ta'riflarga e'tibor beradigan bo'lsak, to'lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari bo'yicha statistik ma'lumotlar shakli sifatida talqin qilinadi.

Amerkalik iqtisodchilar Vasserman va Ueyrning fundamental ishlarida to'lov balansini: «To'lov balansi – mamlakatning ma'lum davrda mazkur mamlakat rezidentlari va boshqa mamlakatlar vakillari o'rtasida amalga oshirilgan ijtimoiy – iqtisodiy operatsiyalarning statistik ma'lumotmlarda aks ettirgan hujjatdir» degan tarzda ifodalaydi.

Xalqaro valuta jamg'armasi metodik ko'rsatmalarida to'lov balansiga yanayam aniqroq va rasmiy ma'noda ta'rif berilgan. Unga ko'ra: «To'lov balansi – statistik ma'lumotlar jadvali bo'lib, ma'lum davrga tuziladi. To'lov balansida: a) alohida olingan mamlakatni boshqa

mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar va daromadlar bo‘yicha amalga oshirgan operatsiyalari; b) alohida olingan mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan SDR va oltin standarti bo‘yicha huquqlarining o‘zgarishi va v) o‘zaro qoplanadigan va buxgaletriya hisobida aks ettiriladigan bir tomonlama o‘tkazishlar va bir – birini to‘ldiradigan yozuvlar» tarzida bayon etiladi.

To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati bo‘yicha har – bir mamlakatda turlicha talqinlar yuritilsada, mamlakatlar o‘rtasida uning tuzilishi bo‘yicha yagona tamoyillarga rioya etiladi. Unda eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri rezident va norezident masalasini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Rezident tushunchasi. To‘lov balansini tuzishda tashqi iqtisodiy operatsiyalarini ichki iqtisodiy operatsiyalardan ajratish muhim ahamiyat kasb etgan bir paytda rezident, savdo kelishuvi, tranzaksiya kabi iqtisodiy tushunchalarning mohiyatini teranroq anglash lozim bo‘ladi.

Rezident tushunchasi barcha mamlakatda tegishli qonun hujjatlari asosida belgilab qo‘yiladi. Masalan, AQSHda barcha hukumat tashkilotlari, milliy kompaniyalar va mamlakat hududida doimiy ravishda istiqomat qiladigan fuqarorlar rezidentlar hisoblanadi.

AQSHning xorijiy mamlakatlarda yashaydigan fuqarorlarini (davlat xizmatchilaridan tashqari) AQSH rezidenti sifatida e’tirof etilishida ularning yashash davrini qisqa yoki uzoqligiga e’tibor qaratiladi. AQSH kompaniya va korporatsiyalarining xorijiy mamlakatlardagi filiallari, kompaniyalari AQSH uchun chet el kompaniyalari hisoblanadi. Xuddi shunday tartib dunyoning boshqa yetakchi mamlakatlarida ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida ham tegishli qonunchilik hujjatlariga asosan rezident va norezident shaxslarga tegishli tavsiflar qo‘llaniladi. Masalan, 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Valutani tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonunning to‘rtinchi moddasiga asosan bank operatsiyalari doirasida rezidentlar toifasiga quyidagilarni kiritadi.

a) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari;

b) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;

v) O‘zbekiston Respublikasining hududida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar;

g) O‘zbekiston Respublikasining immunitet va diplomatik

imtiyozlardan foydalanadigan xorijdagi diplomatiya hamda boshqa vakolatxonalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tashkilotlarining chet eldagi, xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari.

Shu qonunning beshinchi moddasida esa O'zbekiston Respublikasining norezidentlari deyilganda ushbu Qonunning 4 – moddasiga muvofiq rezidentlar jumlasiga kirmaydigan shaxslar tushuniladi, deb qayd etilgan.

16.2. Hisob-kitob balansining to'lov balansidan farqlari

Hisob-kitob balansi – mamlakatni boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlari va talablari o'rtasidagi nisbat. Odatda, hisob-kitob balansi yilning oxiriga yoki boshiga tuziladi.

Hisob-kitob balansida mazkur mamlakatning boshqa davlatga bergan kreditlari va kiritgan investitsiyalari, shuningdek, mazkur mamlakatni boshqa davlatlardan olgan kreditlari va ularning kiritgan investitsiyalari aks ettiriladi.

Hisob-kitob balansi bo'yicha qoldiq summa ushbu mamlakatning netto kreditlar yoki qarzdor sifatidagi pozitsiyasini anglatadi.

To'lov va hisob-kitob balansi tarkibiy tuzilishi jihatidan bir – biridan farq qilmaydi. Ular o'rtasidagi farqi shundaki, hisob-kitob balansida mamlakatning xorijiy davlatlarga nisbatan majburiyati va talablari, shuningdek, muddatida to'lanmagan qarzlari aks ettiriladi, to'lov balansida esa haqiqatda mamlakatdan chiqib ketgan va kelib tushgan valuta tushumlari hisobga olinadi.

To'lov va hisob-kitob balanslari o'rtasidagi farq ushbu mamlakatning xalqaro kredit munosabatlarining rivojlanganlik darajasini anglatadi. Bu mamlakatning majburiyatlari va talablari o'rtasidagi uzilish hisobidan vujudga keladi. Bunga esa qator ijtimoiy – iqtisodiy obyektiv va subyektiv sabablar mavjud.

16.3. Mamlakat to'lov balansiga ta'sir etadigan omillar

Mamlakat to'lov balansi uning ijtimoiy – iqtisodiy siyosiy holatini, shuningdek, uning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan xalqaro ko'rsatkichdir.

Mamlakat to'lov balansiga ta'sir etadigan qator omillar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

– mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy muvozanatning buzilishi;

– iqtisodiyotning tebranishi davriyligi;

– iqtisodiyotni haddan ziyod harbiylashtirish va harbiy xarajatlarni ortib borishi;

– kapital harakatini kengayishi;

– xalqaro savdo va foiz bozorlarida baholarning tebranib turishi;

– valuta – moliyaviy omillar;

– inflatsiya va ishsizlik;

– va boshqalar.

Bobga oid savollar

1. To'lov balansining mohiyati.
2. To'lov balansining tarkibi.
3. Savdo balansi va uning xususiyatlari.
4. Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi.
5. Kapitallar va kreditlar harakati.
6. To'lov balansidagi «Xatolar va hisobga olinmaydigan» modda.
7. To'lov balansiga berilgan talqinlar.
8. Rezident va norezident tushunchasi.
9. O'zbekiston rezidenti va norezidentlari.
10. Hisob-kitob balansi va uning to'lov balansidan farqi.
11. To'lov balansida «ijobiy va salbiy» qoldiqlar mohiyati va ahamiyati.
12. To'lov balansiga ta'sir qiladigan omillar.

Bobga oid testlar

1. To'lov balansi bu:

A. Markaziy bank balansi.

B. Korxona va tashkilotlar balansi.

V. Mamlakat balansi.

G. Moliya vazirligining balansi.

2. To'lov balansining tarkibiy tuzilishi qaysi javobda to'g'ri va to'liq keltirilgan?

A. Joriy operatsiyalar balansida eksport va import operatsiyalari.

B. Kapitallar va kreditlar harakati balansida qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar.

V. Joriy operatsiyalar va kapitallar hamda kreditlar harakati balansi.

G. Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi, «ko'rinmaydigan» operatsiyalar balansi.

3. Savdo balansi to'lov balasnining nechinchi bo'limida aks ettirilgan?

A. Birinchi bo'limida.

B. Ikkinchi bo'limida.

V. Uchinchi bo'limida.

G. Beshinchi bo'limida.

4. Mamlakatning eksport va import operatsiyalari to'lov balansining qanday bo'limida aks ettiriladi?

A. Xizmatlar va notijorat to'lovlar bo'limida.

B. Savdo balansi bo'limida.

V. Kapitallar va kreditlar harakati balansi bo'limida.

G. Xatolar va hisobga olinmaydigan moddasida.

5.Savdo balansida jami eksportlar summasining import summasidan ortishiga nima deyiladi?

A. Balansda salbiy qoldiq.

B. Balansda ijobiy qoldiq.

V. Eksport summasining ortiqchaligi.

G. Import summasining taqchilligi.

6. Savdo balansida jami eksportlar summasining import summasi hajmidan kamligiga nima deyiladi?

A. Balansda salbiy qoldiq.

B. Balansda ijobiy qoldiq.

V. Import summasining ortiqchaligi.

G. Eksport summasining taqchilligi.

7. AQSH kompaniyalarining xorijdagi filiallariga qanday tavsif beriladi?

A. Norezidentlar.
B. Chet el kompaniyalari.
V. Rezidentlar.
G. Milliy kompaniyalar.

8. O'zbekiston bank tizimida rezidentlar toifasi qanday hujjat asosida tartibga solinadi?

A. Markaziy bank to'g'risidagi qonunga asosan.
B. Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunga asosan.
V. Valutani tartibga solish to'g'risidagi qonunga asosan.
G. Garov to'g'risidagi qonunga asosan.

9. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar:

A. Norezidentlar hisoblanadi.
B. Rezidentlar hisoblanadi.
V. Chet el rezidenti hisoblanadi.
G. Hukumat vakili hisoblanadi.

10. Quyidagilardan qaysi biri to'lov balansiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi?

A. Iqtisodiyotni haddan ziyod harbiylashtirish.
B. Kapital harakatini kengayishi.
V. Xalqaro savdo va foiz bozorlarida baholarning tebranib turishi.
G. Inflatsiya va ishsizlik darajasining oshishi.

17 – bob. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI

17.1. Xalqaro moliyaviy institutlariga umumiy xarakteristika

Xalqaro valuta – kredit va moliya munosabatlarining institutsional tuzilishi o'z ichiga ko'plab xalqaro moliyaviy tashkilotlarni oladi. Ularning ayrimlari yirik moliyaviy resurs va katta vakolatlarga ega bo'lib, dunyo iqtisodiyoti va moliya – kredit jarayonlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Boshqalari hukumatlararo moliyaviy masalalarni muhokama etish, moliya – kredit siyosati bo'yicha tavsiyalar va maslahatlar berish hamda moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Yana boshqalari axborot yig'ish, muhim valuta – kredit va moliya muammolari va umuman, iqtisodiyotda statistik va ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshiradi.

Ushbu xalqaro moliyaviy tashkilotlar zamonaviy xalqaro moliyaviy institutlari deb yuritiladi. Ularning vujudga kelishi, tashkil topishi va rivojlanishining asosiy sababi jahon xalqaro iqtisodiyotining tobora globallashib borayotganligidir.



Bu institutlarning asosiy maqsadi – xalqaro va mahalliy ijtimoiy – iqtisodiy doirada yuz berayotgan murakkabliklarga va qarama – qarshiliklarni bartaraf etish, yumshatish hamda ularning o'zaro hamkorligini ta'minlashga qaratilgandir.

Dunyoda global ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy institutlar tarkibiga, BMTning hayrxoxligida tashkil etilgan, ixtisoslashtirilgan Xalqaro valuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki guruhi, Butunjahon savdo tashkiloti kiradi. Bu ixtisoslashtirilgan xalqaro moliyaviy institutlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning faoliyati bilan bog'liq xalqaro moliyaviy va iqtisodiy masalalarni hal etishda bevosita ishtirok etadi.

BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi – iqtisodiy kengash – Yevropa, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi uchun 4 mintaqaviy komissiya tuzgan. Osiyo va Lotin Amerikasi komissiyalari Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Amerikalararo taraqqiyot banki (ATB)ni tashkil etilishiga vositachilik qilgan. Maxsus jamg'armalar bu tashkilotlarni to'ldirib turadi.

«Marshall rejasi»ning amalga oshirilishi munosabati bilan 1948-yilda tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti, keyinchalik Yevropa to'lov ittifoqining tashkil etilishiga yo'naltirilgan (1950 – 1958-yillar), 1960-yilda esa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (IXTR[79], Parij) almashtirilgan. Hozirda bu tashkilot o'z ichiga 32 mamlakatni oladi, uning vazifalariga – tashkilotga a'zo mamlakatarda iqtisodiy o'sishga ko'maklashish, moliyaviy barqarorlikka qaratilgan siyosatni ishlab chiqish, xalqaro savdoni rivojlantirish, diskriminatsion qarama – qarshiliklarni cheklash, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish kabilar kiradi IXRT ramkasida 100 ga yaqin qo'mita faoliyat ko'rsatadi.

Ularning tarkibiga Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash guruhi (FATF) ham kiradi. Bu tashkilot 1989-yilda tashkil etilgan va IXRTga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlikda noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash ishlarini amalga oshiradi.

IXRTning maqsadi – erkin savdoga, yosh davlatlarning rivojlanishiga, a'zo mamlakatlarni iqtisodiy rivojlantirishga va moliyaviy barqarorlashtirishga ko'maklashashishdir. IXRT – o'ziga xos klub bo'lib, yiliga 2 marta sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun fikrlar

[79] ОЭСР – Организацией экономического сотрудничество и развития.

almashish va iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, valuta – kredit va moliya siyosatni samaradorligini oshirish, ilmiy – tadqiqot ishlarini tashkil etish, jahon iqtisodiyotining ekonometrik andozalari asosida xalqaro qiyoslash va bashoratlarni ishlab chiqish borasida yig'ilib turadi.

Kreditor mamlakatlarning Parij klubi – rivojlangan mamlakatlarning norasmiy tashkilotidir. Bu yerda mamlakatlarning davlat qarzlari bo'yicha to'lov muddatlarini boshqarish muammolari muhokama qilinadi. Bir tomonlama moratoriyadan qochish maqsadida (to'lovni uzaytirish) kreditorlar tashqi qarzlarni qayta ko'rib chiqish shartlari haqida qarzdorlar bilan «yuzma – yuz» bitimlar olib boradi. Klub faoliyati 1956-yilda tashkil etilgan bo'lib, Argentina kreditorlari Parijga qarzdorlar bilan muzokaraga taklif qilingan paytga to'g'ri keladi.

Parij klubining majlislarida XVJ, Jahon banki va boshqa yirik moliyaviy institutlardan kuzatuvchilar ishtirok etishadi va, ko'pincha, tashqi qarzlarning joriy yilda to'lanishi lozim bo'lgan qismi ko'rib chiqiladi.

Xususiy bank – kreditorlarning norasmiy London klubi 1976-yildan faoliyatini boshlagan bo'lib, qarzdor mamlakatlarning xususiy tashqi qarzlarini tartibga solish muammolarini muhokama qiladi. London klubi XVJ va Parij klubi bilan iqtisodiy hamkorlik olib boradi.

1970-yillardan boshlab davlatlaro moliyaviy – iqtisodiy muammolar dastlab «yettilik», keyinchalik Rossiiya Federtsiyasi qo'shilgandan so'ng «sakkizlik», Belgiya, Niderlandiya, Shvetsariya va Shvetsiya qo'shilgandan keyin «o'nlik» davlat va hukumat rahbarlari darajasida hal etilishi yo'lga qo'yildi. «O'nlik» mamlakatlar rahbarlari yig'ilishida asosiy e'tibor xalqaro valuta – kredit masalalariga qaratiladi va «har kim o'zi uchun», ya'ni markazga intilish tendensiyalariga qarama – qarshi bo'lgan xalqaro hamkorlik va liberalizm tamoyillari asosida ish ko'rishga intiladi.

Xalqaro moliya institutlari, Xalqaro hisob-kitoblar (HHKB, 1930-yil) bankidan tashqari, asosan ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan.

Bu davlatlararo institutlar mamlakatlarga kreditlar berish, jahon valuta tizimining amal qilish tamoyillarini ishlab chiqish, xalqaro valuta – kredit va moliya munosabatlarini davlatlararo tartibga solish bilan shug'ullansada, ularni tashkil etilishining tub sabablaridan biri rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy mustaqillikni joriy etish, ularning xalqaro doiradagi ishtirokini faollashtirish, milliy iqtisodiyotda vujudga

kelayotgan muammolarni mintaqa va xalqaro darajada echish masalalariga qaratilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro moliya institutlarining vujudga kelishiga quyidagi omillarni keltirish mumkin.

1. Xalqaro iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida kuchlarni umumlashtirgan holda hamkorlikda faoliyat yuritish.

2. Davlatlararo valuta va moliya – kredit siyosatini tartibga solish yuzasidan xalqaro andozalarni yaratish va amaliyotga joriy etish.

3. Hamkorlikda jahon valuta va moliya – kredit siyosati yuzasidan strategik taktikani ishlab chiqish.

17.2. Xalqaro valuta jamg'armasi

Xalqaro valuta jamg'armasi (XVJ) jamg'armaga a'zo mamlakatlarning valuta – kredit munosabatlarini tartibga solish va ularning to'lov balansi defitsetini qoplash uchun xorijiy valutada qisqa, o'rta va uzoq muddatga kredit berish bilan shug'ullanadi.

Jamg'arma BMTning rasmiy ixtisoslashgan muassasi statusiga ega. U dunyo valutasining institutsional asosi sifatida faoliyat yuritadi. XVJ BMTning 1944-yil 1-22 iyulda AQSHning Bretton – Vudse shahrida o'tkazilgan xalqaro valuta – moliya munosabatlariga bag'ishlangan konferensiyasida tasis etilgan.

Konferensiya XVJning Kelishuv moddalarini qabul qildi. Ushbu hujjat 1945-yil 27-dekabrdan kuchga kirdi. Jamg'arma o'z faoliyatini 39 a'zo – mamlakat bilan 1946-yil mayda boshladi, valuta opertsiyalari faoliyati bo'yicha operatsiyalari 1947-yil 1-martdan kuchga kirdi. Sobiq ittifoq Bretton – Vudse konferensiyasida ishtirok etdi, biroq Janub va G'arb o'rtasidagi «sovuq urush» tufayli jamg'arma kelishuvlarini ratifikatsiya qilmadi.

XVJga a'zo mamlakatlar soni 2004-yilda 184 taga etdi. Jamg'armaning bosh ofisi Vashingtonda joylashgan, shu bilan birga Bryussel, Parij, Jeneva va Tokioda ofislari, Nyu Yorkda BMT huzurida vakolatxonasi mavjud.

XVJning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1) «valuta – moliya doirasida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish»;

2) a'zo – mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, bandlilikning yuqori darajasini ta'minlash va aholining real daromadini

oshirish maqsadida «xalqaro savdoni kengaytirish va uning muvozanatligini ta'minlashga yordam berish»;

3) «valutaning barqarorligini ta'minlash, a'zo – mamlakatlar o'rtasida valuta munosabatlari bilan bog'liq masalalarni hal etish» va raqobatbardosh muhitni ta'minlash maqsadida milliy valutaning barqarorligini tushib ketishining oldini olish;

4) a'zo – mamlakatlar to'lov balansidagi salbiy qoldiqni bartaraf etish maqsadida kreditlar berish;

5) a'zo – mamlaktlar o'rtasida hisob-kitoblarni tashkil etishga yordam berish, shuningdek, valuta cheklovlariga barham berish.

XVJning maxsus hisob-kitob valutasi hisoblangan SDR (Spetsialnix prav zaimstvovaniya, Maxsus ayirboshlash huquqi)ning rasmiy kursi SDR savatchasiga kirtilgan valutalar asosida aniqlanadi. Quyida XVJning SDR savatchasiga kiritilgan valutalar va ularning ulushi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jadvaldan SDR savatchisida asosiy ulush AQSH dollari hissasiga to'g'ri kelganligini kuzatish mumkin, keyingi o'rinlarda Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda amal qiladigan yevro pul birligi egallab turibdi.

XVJda ovozlar «tortilgan» tamoyilga amal qilib, a'zo – mamlakatlar ularning jamg'armadagi a'zolik badali miqdoridan qat'iy nazar 250 «asosiy» ovozga ega bo'lib, har bir qo'shimcha ovoz uchun 100 ming SDR badal to'lanishi lozim.

Turli valutada 1 SDRning bahosi (qavsda valutalarning SDR korzinasida tutgan mavqeyi foizda keltirilgan)

Yillar	USD	DEM	JPY	GBP	FRF
1981 – 1985	0,540(42%)	0,460(19%)	34,0(13%)	0,0710(13%)	0,740(13%)
1986 – 1990	0,452(42%)	0,572(19%)	33,4(15%)	0,0893(12%)	1,020(12%)
1991 – 1995	0,572(40%)	0,453(21%)	31,8(17%)	0,0812(11%)	0,800(11%)
1996 – 1998	0,582(39%)	0,446(21%)	27,2(18%)	0,1050(11%)	0,813(11%)
Yillar	USD	EUR	JPY	GBP	
1999 – 2000	0,5820(39%)	0,3519(32%)	27,2(18%)	0,1050(11%)	
2001 – 2005	0,5770(45%)	0,4260(29%)	21,0(15%)	0,0984(11%)	
2006 – 2010	0,6320(44%)	0,4100(34%)	18,4(11%)	0,0903(11%)	

XVJda hozirgi paytda, 2004-yil 7-sentabr holatiga, eng yuqori ovoz AQSH – 17,1 %, Yaponiya – 6,1 %, Germaniya – 6,0 %, Buyuk Britaniya va Fransiya – 4,9 %, Italiya va Saudiya Arabistoni 3,2 %, Kanada, Xitoy va Rossiya 2,7 % mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Jamg'armada Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lgan 15 ta mamlakat hissasiga 29,8 % va IXTRga a'zo bo'lgan 30 ta rivojlangan mamlakat 64,5 % ovozni, qolgan 35,5 foiz ovoz esa a'zo – mamlakatlarning 84 % hissasiga to'g'ri keladi. Jamg'armada kvotalarning taqsimlanishi 5 yilda bir marta ko'riladi.

Jamg'armaga a'zo – mamlakatlar soni ortib borishi barobarida unga to'lanadigan a'zolik badali hajmi 1947-yilda 7,7 mlrd. SDRdan 2004-yil 30-aprel holatiga 212,8 mlrd. SDR (308,9 mlrd. AQSH dollari)ga yoki 28 martaga ortgan. Biroq, jamg'armaning kapital miqdori o'sishi dunyo YaIMga nisbatan judayam past darajada qolmoqda. Bu, o'z navbatida, XVJning oldida turgan vazifalarni to'liq bajarishga imkoniyat bermayapti.

17.3. Jahon banki

Jahon banki (JB) BMT tarkibidagi ixtisoslashgan moliyaviy muassasa hisoblanadi. Jahon banki Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va uning bo'limi hisoblangan Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlash agentligi (IXKA) va Investitsion munozaralarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markazi (IMXM) kabi moliyaviy tashkilotlarni o'z tarkibiga oladi.

JB tarkibidagi birinchi uchta moliyaviy tashkilot dunyo rivojlanish bankining vazifalarini bajaradi, keyingi ikkitasi esa rivojlanayotgan va iqtisodiyoti o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlarga investitsiya oqimlarini rag'batlantirish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki guruh tarkibida bosh tashkilot sifatida Xalqaro valuta jamg'armasi bilan birgalikda Bretton – Vudseda 1944-yil 1-22-iyulda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada tashkil topgan bo'lib, faoliyatini 1946-yil iyuldan boshlagan.

XTTBning resurslari ikkita manba:

- birinchisi, aksiyadorlarning kapitali (6 foiz atrofida) hisobidan;
- ikkinchisi, xalqaro moliya bozorlarida aksiyalarni joylashtirish orqali (95 foizga yaqini) shakllantiriladi.

Tashkiliy jihatdan XTTB aksiyadorlik jamiyati tamoyili asosida tashkil etilgan. XTTBda aksiyadorlarni ovoz berish soni ularning ustav kapitalidagi ulushi doirasida aniqlanadi. XTTBda asosiy ovoz berish huquqi AQSHga (16,8%) tegishli, bu AQSHga bankda qabul qilinayotgan qarorlarga veto qo'yish huquqini ta'minlaydi, qarorlarni qabul qilinishi uchun umumiy aksiyadorlarning 85 foizi ovoz berishi lozim bo'ladi. Ovozlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda Yaponiya (8%) turadi, shuningdek Germaniya (4,6%), Buyuk Britaniya va Fransiya (4,4% dan) mamlakatlari sezilarli ovozlar soniga ega.

XTTBning boshqaruv organi Boshqaruv kengashi va Direktor (ijrochi organ)dan iborat bo'lib, Boshqaruv kengashi tarkibi unga a'zo mamlakatlar moliya vaziri yoki markaziy banki boshliqlaridan tashkil topadi. Boshqaruv kengashi har yili bir marta yig'ilib tegishli qarorlarni Xalqaro valuta jamg'armasi bilan kelishgan holda qabul qiladi. Bank siyosiy o'yinlardan holi emas, u tashkil topgandan buyon amerika fuqarosi bo'lgan shaxslar tomonidan boshqarib kelinmoqda.

XTTB tashkil topganda unga 38 mamlakat a'zo bo'lgan bo'lsa, 2004 yil iyun oyida ularning soni 184 taga etgan. XTTBning asosiy faoliyati investitsion loyihalarni kreditlashga qaratilgan.

XTTBning 1950-60-yillarga qadar asosiy maqsadi a'zo – mamlakatlarning xalq xo'jaligini tiklashga qaratilgan bo'lib, 1960-yillardan so'ng ijtimoiy loyihalarni kreditlash masalasi birinchi darajaga ko'tarildi. Buning asosiy sababi ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror ko'rsatikichga ega bo'lsada, boy va kambag'allar o'rtasida farq oshib borish tendensiyasi mavjud bo'lib, bu esa o'z navbatida turli ijtimoiy ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lar edi. Shu bois, XTTB o'z kreditining asosiy qismini aynan shu muammolarni hal qilishga yo'naltira boshladi.

XTTB dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy integratsiyalashuv, shuningdek turli iqtisodiy inqirozlar natijasida kreditlash tamoyillarini va siyosatini doimiy ravishda takomillashtirib o'zgartirib borishga majbur edi. Masalan, 1990-yillardan keyin yuz bergan moliyaviy – iqtisodiy inqirozlarni bo'lishida XFJ va XTTB jiddiy tanqid ostiga olindi.

Quyidagi rasmda XTTBning kreditlarini tarmoqlar kesimidagi tarkibi keltirilgan. Rasmdan 1998-yilda bank tomonidan berilgan kreditlarning deyarli 30 foizi moliya sohasiga berilganligi, 2008-yilda kreditlarning asosiy qismi davlat boshqaruvi hissasiga to'g'ri

kelganligini ko'rish mumkin. Bu XTTBning kredit siyosatini unga a'zo – mamlakatlarda yuz berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar natijasida o'zgarib borayotganligini anglatadi.



XTTBning 1998- va 2002-yillarda kredit portfeli tarkibi, jamiga nisbatan foizda.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) 1960-yilda tashkil etilgan bo'lib, XTTB va XRA boshqaruv tartibi bir xil va ular bitta bank prezidenti tomonidan boshqariladi. XTTB ning moliyaviy resurslari muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'lsa, XRAning resurs manbasi a'zo – mamlakatlarning badallari va XTTB ning foydasi hisoblanadi. XRA 20, 25 va 40 yil muddatga, 10 yillik imtiyoz davri bilan kreditlar beradi. Berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisoblanmaydi, biroq juda yuqori bo'lmagan 0,75 foiz miqdorida komission to'lovlar undiriladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad 875 AQSH dollaridan kam bo'lgan mamlakatlar XRAning kreditiga da'vogarlik qilishi mumkin. Dunyo bo'yicha bunday mamlakatlar soni taxminan 81 tani (2008-yil) tashkil etib, ushbu mamlakatlarda 2,5 mlrd. dan ortiq aholi yashaydi.

XRAning kreditlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirladi. Unga XTTBga a'zo – mamlakatlar kirishga haqli bo'lib, lekin ko'pchilik mamlakatlar bu imkoniyatdan foydalanmaydi, shuning uchun XTTBga a'zo bo'lgan 184 ta mamlakatdan faqat 164 tasi uning a'zosi hisoblandi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956-yilda tashkil etilgan. U XTTB va XRAga nisbatan boshqa strategik siyosatni amalga oshiradi.

XMK asosan xususiy sohani kreditlash bilan shug'ullanib, uning kreditlari bo'yicha XTTB va XRAdan farqli o'laroq, davlat kafolati talab etilmaydi. XMK berayotgan kreditlar asosan loyiha summasining 25 foizidan ortmaydi. Kreditlarning muddati asosan 7 – 8 yil va eng yuqorisi 15 yilgacha berilishi mumkin. XMKning moliyaviy resurslari xalqaro moliya bozorlaridan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish asosida shakllantiriladi. ,

Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlash agentligi (IXKA) rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida 1988-yilda tashkil etilgan. IXKA a'zo – mamlakatlarga kiritilayotgan investitsiyalarni notijorat risklardan, ya'ni investitsiya mulklarini eksproporsiya qilish, siyosiy kataklizma, valuta konvertatsiyasini bekor qilish, hukumat qarori natijasida kontrakt shartnomalarini bajarilmaslik holatlarini kafolatlaydi. Odatda investitsiyalarni 15 yilga, ayrim hollarda 20 yil muddatgacha kafolatlaydi. Kafolatlangan investitsiyalar bo'yicha muammolar vujudga kelganda ularning 90 foizi IXKA tomonidan qoplab beriladi. IXKA o'zining kafolatlash faoliyatini milliy sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etadi.

Investitsion munozaralarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markazi (IMXM) 1966 yilda tashkil etilgan bo'lib, investitsion nizolarni arbitraj yordamida, xalqaro huquq mexanizmlari asosida tartibga solish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadi. Shu bois ham ko'plab investitsiyalar haqidagi kelishuvlar shartida IXKAning arbitraj yordamida hal etishga havola qilinadi.

17.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

Fransiyaning sobiq Prezidenti Fransua Mitteran 1989-yilning 25-oktabrda Yevropa parlamentining yig'ilishida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETB)ni tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Shundan so'ng 1990-yil 29-mayda Parijdagi kelishuvga asosan YETB tasis etildi va bu kelishuv 1991-yil 28-martdan kuchga kirdi.

1991-yil 15-17-aprel kunlari bank boshqaruv kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda bank tasischilari bo'lgan 40 ta mamlakat va 2 ta xalqaro tashkilot, ya'ni Yevropa Ittifoqi (YEI) va Yevropa investitsiya banki (YEIB) ishtirok etdi.

YETTB faoliyatining eng asosiy jihatlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. 1991-yilning noyabrida YETBning Varshava vakolatxonasi ochildi va Estoniya, Latviya va Litva davlatlari bankga a'zoligi tasdiqlandi. Bugungi kunda YETBning aksiyadorlari 60 mamlakat, YEI va YEIB xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Umumiy imzolangan kapital – 1964 mlrd. yevro, to'langan kapital – 5,2 mlrd. yevro.

YETTB ning faoliyat maqsadi va asosiy vazifasi bozor munosabatlarini rivojlantirish va jahon iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirish uchun tashkil etish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan YETBning asosiy vazifasi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini tezlashtirishdan iborat. Bugungi kunda YETB loyihalari Yevropa va Osiyoning 27 davlatida amal qilmoqda. Boshqa xalqaro moliya tashkilotlaridan farqli o'laroq, bank nizomiga asosan loyiha amalga oshirilayotgan davlatlarda ko'p partiyaviylik, plyuralizm va bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qilishi shart.

YETTB ning investitsiya loyihalari orqali:

1. Sanoatda tarkibiy islohotlar o'tkazish.
2. Raqobat, xususiylashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish.
3. Moliyaviy tashkilotlar faoliyati va huquqiy tizimni barqarorlashtirish.
4. Xususiy sektorni rivoji uchun infrastrukturani qo'llab-quvvatlash.
5. Korporativ boshqaruv tizimini tatbiq etish, shu jumladan, tabiatni muhofaza qilish masalalari moliyalashtiriladi.

YETTB ning tarkibiy tuzilishi va faoliyati ustidan boshqaruv kengashi, direktorlar kengashi va bank prezidenti nazorat olib boradi. Boshqaruv kengashi YETB ning yuqori organi bo'lib, bankning har bir a'zosidan ikkitadan shaxsni boshqaruvchi va uning muovinini o'z ichiga oladi. YETB ga a'zo mamlakatlar xohishiga qarab, bu shaxslar istalgan vaqtda o'zgartirilishi mumkin.

Direktorlar kengashining 23 a'zosi bo'lib, uning ikkitasi YEI va YEIB tomonidan; 6 ta direktor AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan saylanadi. 15 ta direktorlar saylash bir xil davlatlarga to'g'ri keladi: 4 tasi donor mamlakatlar, 5 tasi istisno tariqasida loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatlar tomonidan

va 6 tasi donor va loyiha amalga oshirilayotgan davlatlar kelishuviga ko'ra saylanadi. YETBni yig'ilishlarida ovoz berish tartibi aksiyalar ulushiga qarab belgilanadi.

YETTB ustav kapitali tarkibida EI va EIBning kvotalari 51 % ni, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlariniki – 13%, boshqa Yevropa mamlakatlariniki – 11% , boshqa a'zo mamlakatlar hissasiga – 24 % kvota to'g'ri keladi. Bankning kapitali tarkibida eng yuqori ulush AQSH (10%), Italiya, FRG, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya (8,5 % dan) mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Quyidagi' rasmda YETBning 2004 – 2008-yillarda investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ajratgan mablag'lari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.



YETTBning 2004 – 2008 yillarda investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ajratgan mablag'lari va dinamikasi, loyihalar soni donada, kreditlar miqdori mln. yevroda.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, bank tomonidan moliyalashtirilgan investitsion loyihalar soni 2008-yilda 2007-yilga nisbatan 51 taga, kreditlar hajmi qariyb 1000 mln. yevroga kamaygan. Buning asosiy sababi, 2008-yilda AQSHda yuz bergan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozidir.

YETTBning kredit siyosatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan a'zo – mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek hamkorlikda sindikat kreditlarini berish, korxonalarning ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish, qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni kafolatlash, mamlakat infrstrukturasini rivojlantirish va eksport – import operatsiyalari bo'yicha dasturlarni qo'llab – quvvatlash masalalari alohida o'rin tutadi.

17.5. Mintaqaviy moliya – kredit institutlari

Xalqaro mintaqaviy banklari hisoblangan Amerikalararo taraqqiyot banki (ATB)ning, Afrika taraqqiyot banki (AFTB) va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 1960 yillarda tashkil topgan bo'lib, ularning tashkil topishiga qator ijtimoiy – iqtisodiy sabablar mavjud. Xususan:

1) o'sha yillari ko'pchilik mamlakatlarda mustamlakachilik tuzumining ag'darilishi natijasida siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritilishi, rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon rivojidagi mavqeyini ko'tarish va yangi iqtisodiy tuzumni joriy etishga bo'lgan zaruriyatning kuchayib borishi;

2) XVJ va Jahon banki e'tiboridan chetda qolayotgan xalqaro mintaqaviy ijtimoiy – iqtisodiy masalalarni hal etish;

3) hududiy mintaqalar iqtisodiyotini kreditlash uchun ichki moliyaviy resurslardan, shuningdek tashqi manbalardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;

4) rivojlanayotgan mamlakatlarda mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, shuningdek iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash.

Quyidagi jadvalda nomlari keltirilgan banklar o'rtasidagi asosiy farq ularning ijtimoiy – iqtisodiy, madaniyat va marifiy darajalarining turlicha ekanligi, shu bilan birga ularning geografik joylashuvi va aholining etnik qatlami bo'yicha ham farq qiladi.

Shu bilan birga, barcha banklarning a'zo mamlakatlari 1/3 qismi rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Ovoz berish huquqining yuqoriligi tufayli XaTBning har qanday qarori AQSH, OTBning qarori Yaponiya va AQSH tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Quyidagi jadvalda uchta mintaqaviy bank haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

AFTB tashkil topgan paytda unga a'zo mamlakat sifatida faqat Afrika qitasidagi mamlakatlar kirishi belgilab qo'yilgan edi. Biroq, keyinchalik bankning moliyaviy resurslari bazasini shakllantirishda muammolar vujudga kelganligi sababli rivojlangan mamlakatlarni a'zo bo'lishiga ruxsat berildi.

Xalqaro valuta va kredit tashkilotlari ichida ***Xalqaro hisob kitoblar*** banki (Bazel) alohida o'rin tutadi. XHKB 1930 yilda oltita mamlakat (Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya va

Yaponiya) ning xukumatlararo Gaga shartnomasi va shu mamlakatlarning konvensiyasi asosida Shveytsariyada tashkil etildi.

XHKB dunyodagi barcha banklar uchun kapitalning yetarliligi bo'yicha xalqaro talablarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi. Masalan, XHKB banklar kapitalini ularning riskka tortilgan aktivlariga nisbatan umumiy kapitali bo'yicha 0,08 va asosiy kapitali 0,04 bo'yicha koeffitsiyent bo'lishi zarurligi belgilagan.

Xalqaro mintaqaviy tarqqiyot banklari

Nomi va joylashgan joyi	Tashkil topgan yili	A'zo mamlakat – lar soni	Shundan rivojla – nayotgan	Ustav kapitali	Shundan to'langani	Loyiha – larni moliyalash – tirish
				Mlrd. dollar		
Amerikalararo taraqqiyot banki (ATB), Vashington	1959	46	30	101,0	4,3	13,6
Afrika tarqqiyot banki (AfTB), Abidjon	1963	77	51	29,7	2,0	2,6
Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Manila	1965	61	45	47,0	3,0	5,4

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki aynan shu talablarni, mos ravishda 0,05 va 0,1 koeffitsiyentda o'rnatgan. Xususan, malakatimiz tijorat banklari banklarida ushbu talab yuqori darajada bajarilayotganligini Prezidentimiz Islom Karimov alohida e'tirof etib: «Banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa banklar monitoringi bilan shug'ullanadigan xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko'pdir[80]« deya ta'kidladilar.

XHKB – markaziy banklarning banki. XHKBga uning ustavi bo'yicha ikkita asosiy vazifa qo'yilgan. Birinchisi, markaziy banklar o'rtasida o'zaro aloqalarni rag'batlantirish, xalqaro moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga qulay muhit yaratish; ikkinchidan, unga a'zo mamlakatlar o'rtasida xalqaro kredit va boshqa operatsiyalarni

[80] Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. –Т: "Ўзбекистон", 2010. 36 – б.

amalga oshirishda bank – agent yoki bank – depozitariy sifatida faoliyat yuritadi.

XHKBning asosiy moliyaviy resurs manbasi Markaziy banklarning qisqa muddatli (asosan 3 oy muddatga) depozitlari yoki oltinlari hisoblanadi. Aktiv operatsiyalari sifatida bankning Markaziy banklarga xorijiy valutalarda beradigan kreditlarini ta'kidlash mumkin.

Arab valuta jamg'armasi (AVJ) mintaqaviy moliyaviy tashkilot bo'lib, 1976 yil 27 aprelda 20 ta arab mamlakatlari ishtirokida Marokkoda tashkil etilgan. Asosiy maqsadi, arab mamlakatlarining iqtisodiy va valuta siyosatini tartibga solib turishdan iborat. Jamg'armaning yana bir muhim vazifalaridan biri, arab mamlakatlarida neftdollarni tartibga solish bo'lib, jamg'armaga a'zo mamlakatlardagi ortiqcha neftdollarni g'arbdan erkin foydalanish bo'yicha mustaqillik darajasini oshirishga qaratilgan.

Yevropa ittifoqiga a'zo malaktalar tomonidan o'nga yaqin xalqaro moliyaviy tashkilot, institut, markazlar (1960 – 65 yillardan buyon) tashkil etilgan bo'lib. Ularni tashkil etilishining asosiy maqsadi quyidagilar bilan izohlanadi:

1) yagona bozor va yagona valutani yaratish asosida iqtisodiyotning, shuningdek valuta – kredit va moliya munosabatlarining rivojlanishi va integratsiyasini ta'minlash;

2) G'arbiy Yevropa mamlakatlari jahon iqtisodiyotidagi mavqeyini mustahkamlash asosida AQSH va Yaponiya markazlari bilan raqobat qila oladigan muhitini yaratishga bo'lgan harakat;

3) rivojlanayotgan iqtisodiy hamkor mamlakatlarga yordam berish mintaqada ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'shma jamg'armalarni kengaytirishga bo'lgan zaruriyatning mavjudligi.

17.6. O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlari bilan hamkorligi va istiqbollari

O'zbekiston Respublikasi va YETB ning o'zaro hamkorlik aloqalari 1992-yil 30-aprelda boshlandi. 1993-yildan mamlakatimiz YETB ning to'laqonli a'zosi va aksioneri bo'ldi. O'zbekiston YETB ning hamkorlikdagi aloqalarini rivojlanishga quyidagi holatlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. 1993-yil Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov Buyuk Britaniyaga rasmiy tashrifi chog'ida YETB ning shtab –

kvartirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishiga 60 mln. dollar hisobidagi birinchi kelishuv imzolandi. 1994-yil Toshkentda YETB ning vakolatxonasi ochildi va shu yilning 10-yanvarida YETB O'zbekistonda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari uchun majburiy garovni bekor qildi. Bu esa, ikki tomonlama hamkorlikning yanada ishonchli tusga kirganidan xabar beradi. 2002-yilning yakunida YETB Prezidenti Jan Lemerani yurtimizga rasmiy tashrifi YETB va O'zbekiston o'rtasida 2003-yil 4-martdan strategik hamkorlik boshlanishiga sabab bo'ldi.

YETTB tomonidan amalga oshirilgan loyihalar O'zbekistonda asosan paxta va neftni qayta ishlash, qurilish, tekstil va tog'kon sanoati, temir yo'l transporti, bank sektori va qimmatbaxo qog'ozlar bozori sohalariga yo'naltirilgan. Bundan tashqari bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, turizm va energetikani rivojlanishida faol ishtirok etmoqda.

YETTB ning 60 mln. dollar qiymatidagi birinchi kredit liniyani kichik biznesni qo'llab quvvatlash maqsadida Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy banki orqali amalga oshirildi. Ushbu kredit liniyasi orqali umumiy qiymati 96,47 mln. dollarlik 21 ta loyiha 1996-yil nihoyasiga etdi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishini belgilovchi omillardan biri, bozorda sog'lom raqobat muxitini shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda 2002 yilning 7 – 9-avgust kunlari Yevropa tiklanish taraqqiyot banki, Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida O'zbekistondagi xususiylashtirish jarayonlari va telekommunikatsiya sohasidagi qonunchilik xolati bo'yicha «aylana stol» tashkil etildi.

1995 – 1996 yillarda bevosita YETB ishtiroki bilan O'zbekistonda «O'zbeklizing Internеyshnl» lizing kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu loyihaga YETB 0,9 mln.dollar kompaniya ustav kapitalining 15 % ni yo'naltirdi.

YETTB Yaponiya xukumati bilan kelishgan holda O'zbekistonda BAS dasturini amalga oshirdi. Dastur maqsadi O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish va tashqi bozorga olib chiqishdan iborat. Bu dastur bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan 10 ta davlatda amal qilib, eksport korxonalarining sertifikatlashtirish bilan bog'liq 50 % xarajatlarini qoplaydi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB)ning asosiy vazifasi Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarga iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishda ko'maklashish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, aholi turmush darajasini oshirish, inson resurslarini rivojlantirish, ekologik muammolar, jumladan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hal etishda yordam berishdan iboratdir.

1966-yilda tashkil etilgan Osiyo taraqqiyot banki bugungi kunda katta moliyaviy va texnik imkoniyatlarga ega 67 ta davlat, jumladan, Osiyo – Tinch okeani mintaqasining 48 ta, Yevropaning sanoati rivojlangan qator mamlakatlari, shuningdek, Kanada va AQSH mazkur bankning a'zolari hisoblanadi. Bank rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikka oid loyihalarni moliyalashtirish hamda ushbu sohalarda texnik ko'mak berish bilan birga aholining milliy salohiyati va turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, puxta o'ylangan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni amalga oshirayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratmoqda.

2007 – 2008 yillar davomida Markaziy osiyo davlatlariga qilingan ajratmalar to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadvaldan olishimiz mumkin[81]. mln. yevro

№	Mamlakatlar	2007 yil	2008 yil	1991 – 2008 yillarda
1.	Qirg'iziston	12	12	165
2.	Mongoliya	34	51	102
3.	Tojikiston	26	35	96
4.	Turkmaniston	3	10	123
5.	O'zbekiston	15	33	545
	Jami	**90**	**141**	**1031**

OTBning O'zbekiston bilan uzoq muddatli va samarali hamkorligi bunga yorqin misol bo'la oladi. Mamlakatimiz 1995 yildan buyon ushbu yirik xalqaro moliya tashkilotining teng huquqli a'zosidir.

1996 yildan OTB ning loyihalari O'zbekiston hududida transport, energetika, suv ta'minoti, moliya va ta'lim sohalarida amal qilmoqda. Bugungi kunga qadar OTB tomonidan ajratilagn 1,29 mlrd. dollar qiymatidagi qarz mablag'lar va 40,83 mln. dollar grant mablag'i texnik yordam dasturi doirasida amal qilmoqda.[82] Ushbu resurslarning 27 %

[81] www.imf.org ВТТБ нинг 2008 йиллик хисоботидан
[82] www.adb.org ОТБ нинг 2009 йиллик хисоботидан

qishloq xo'jaligi, 23 % ta'lim, 21 % transport va 15 % suv ta'minotida o'zlashtirilmoqda. Bozor munosabatlarida mikromoliyalash tizimini rivojlantirish muxim rivojlanish omil bo'lib hisoblanadi. Shu maqsadda 2008 yildan O'zbekistonda OTB ning ikki bosqichli loyihasi amal qila boshladi. Loyihaga asosan ushbu sohani rivojlantirish uchun 2008 yilda 137,4 mln. dollar, 2009 yilda 125,9 mln. dollar ajratildi.

Shu bilan birga, qiymati 300 million AQSH dollarlik «Suv ta'minoti va kanalizatsiya sohasida multitranshli moliyalash dasturi» 2009 yildan amalga oshirilayotgan yirik loyihalardan biridir. Ilgari qabul qilingan ana shunday loyihani amalga oshirish doirasida Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining 170 ta aholi punktida quvurlar o'tkazilmoqda hamda mavjud uskunalar holati yaxshilanmoqda.

OTB Boshqaruvchilar kengashining 43 – yillik majlisida OTB Prezidenti Xaruxiko Kuroda va Jaxon bojxona tashkilotini bosh kotibi Kunio Mikuriya tomonidan Osiyo – Tinch okeani hududida strategik hamkorlikni ta'minlash maqsadida memorandumi imzolandi. Memorandumning asosiy maqsadi xalqaro savdoni rivojlantirishdan iborat.

Bundan tashqari Osiyo taraqqiyot banki Prezidenti O'zbekiston rahbariyatiga OTBning Toshkentdagi forumi yuksak saviyada tashkil qilingani va uni o'tkazishga yaxshi tayyorgarlik ko'rilgani hamda tadbirning samarali o'tishiga yordam bergani uchun samimiy minnatdorlik izhor etdi. OTB Boshqaruvchilar kengashining bu yilgi majlisida Osiyo – Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozidan samarali chiqishi va inqirozdan keyingi rivojlanishi bilan bog'liq qisqa, o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Shu maqsadda mintaqaning iqtisodiy barqarorligini oshirish, uning global iqtisodiy boshqaruvga, mintaqaviy integratsiyani kengaytirishga hissa qo'shishi uchun zarur choralarni ko'rish lozimligi hamda bu jarayonlar OTB tomonidan bundan keyin ham qo'llab – quvvatlanishi ta'kidlandi. OTB tomonidan ishlab chiqilgan «Strategiya – 2020» aynan ushbu masalalarni hal etishga qaratilgan. Barqaror iqtisodiy rivojlanishga bevosita daxldor bo'lgan iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va quyosh energiyasidan yanada keng foydalanish majlisda ko'rib chiqilgan muhim masalalar sirasidandir.

OTBning O'zbekistondagi eng yirik loyihalaridan biri kredit uyushmalarini faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bugungi

kunda OTBning ushbu loyihasi natijasida 100 ta kredit uyushmasi depozitida 88 mln. AQSH dollarga va 107 mln. AQSH dollar kredit portfeliga ega bo'lgan 141000 ta a'zoni birlashtirdi. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bobga oid savollar

1. Xalqaro moliya institutlari o'z tarkibiga qanday tashkilotlarni oladi?
2. Xalqaro moliya tashkilotlarining vakolatlari.
3. Xalqaro moliya tashkilotlarning maqsadlari.
4. Global ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy institutlar.
5. Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
6. Xalqaro valuta jamg'armasi qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
7. Jahon banki qachon tashkil etilgan, uning tarkibiga qanday moliyaviy tashkilotlar kiradi?
8. Investitsiyalarni hartomonlama kafolatlash agentligi qanday tashkilot va u investitsiyalarni necha yilgacha kafolatlaydi?
9. Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki kimning tashabbusi bilan va qachon tashkil etilgan?
10. Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki ustav kapitalining eng yuqori ulushi qanday mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi?
11. Xalqaro mintaqaviy institutlar tarkibiga qanday tashkilotlar kiradi va ularning asosiy missiyasi nimadan iborat?
12. O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik doirasi.

Bobga oid testlar

1. Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti qanday reja asosi tashkil etilgan?

A. Cherchel rejasiga asosan.
B. Qirolicha Yelezaveta rejasiga asosan.
V. Marshall rejeaiga asosan.
G. Mark Tven rejasiga asosan.

2. Kreditor mamlakatlar Parij klubining maqsadi:

A. Rivojlangan mamlakatlarga kredit beradi.

B. Rivojlanayotgan mamlakatlarning siyosatini ishlab chiqadi.

V. Rivojlangan mamlakatlarning norasmiy tashkilotidir.

G. Moliya – kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi.

3. Xalqaro moliya institutlari asosan qachon paydo bo'la boshlagan?

A. Birinchi jahon urushidan keyin.

B. Ikkinchi jahon urushidan keyin.

V. Buyuk inqirozdan keyin.

G. 2008 yildagi jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozidan keyin.

4.Xalqaro moliyaviy institutlarni vujudga kelishiga ta'sir qilgan omillar qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?

A. Xalqaro iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida kuchlarni umumlashtirishgan holda hamkorlikda faoliyat yuritish.

B. Kapitalizm va sotsializm tuzumi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash.

V. Davlatlararo valuta va moliya – kredit siyosatini tartibga solish yuzasidan andozalarni yaratish va amaliyotga joriy etish.

G. Hamkorlikda jahon valuta va moliya – kredit siyosati yuzasidan strategik taktikani ishlab chiqish.

5. Xalqaro valuta fondi qanday maqsadga kredit beradi?

A. Mamlakat qishloq – xo'jaligini rivojlantirish uchun.

B. Mamlakatlarning valuta – kredit munosabatlarini tartibga solish uchun.

V. Mamlakatlarning to'lov balansi defitsetini qoplash uchun .

G. B va V javoblar to'g'ri.

6. Xalqaro valuta jamg'armasiga a'zo mamlakatlar soni 2004 yilda nechtani tashkil etdi va uning bosh ofisi qanday shaharda joylashgan?

A. 204 ta, Parijda.

B. 184 ta, Vashingitonda .

V. 189 ta, Jenevada.

G. 184 ta, Nyu Yorkda.

7. Jahon banki qaysi tashkilot tarkibidagi qanday muassasa hisoblanadi?

A. Xalqaro valuta jamg'armasi tarkibidagi, ixtisoslashgan moliyaviy muassasa.

B. Birlashgan millatlar tashkiloti tarkibidagi, ixtisoslashgan moliyaviy muassasa.

V. Yevropa ittifoqi tarkibidagi, moliyaviy muassasa.

G. Rivojlangan mamlakatlar tarkibidagi, moliyaviy muassasa.

8. Qanday xalqaro moliyaviy tashkilotning kreditlari bo'yicha foizlar undirilmaydi?

A. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki.

B. Xalqaro moliya korporatsiyasi.

V. Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi.

G. Investitsiyalarni hartomonlama kafolatlash agentligi.

9. *Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kimning tashabbusi bilan qachon tasis etilgan ?*

A. Marshallning taklifi bilan, 1989-yil 29-mayda.

B. Fransua Mitteranning taklifi bilan, 1990-yil 29-mayda.

V. Klintonning taklifi bilan, 1991-yil 30-oktabrda.

G. Jak SHerakning taklifi bilan, 1988-yil 25-iyunda.

10. Quyidagilardan qaysi biri xalqaro minatqaviy taraqqiyot banklari tarkibiga kirmaydi?

A. Amerikalararo taraqqiyot banki, Vashington.

B. Afrika tarqqiyot bank, Abidjon.

V. Jahon banki, Vashingiton.

V. Osiyo taraqqiyot bank, Manila.

11. O'zbekiston Yevropa tiklanish va taraqqiyot bank bilan aloqalari qachon boshlandi va uning to'laqonli a'zosi qachon bo'lgan?

A. 1989-yil 20-mayda aloqalar o'rnatildi va 1990-yilda a'zo bo'ldi.

B. 1991-yil 25-aprelda aloqalar o'rnatildi va 1992-yilda a'zo bo'ldi

V. 1992-yil 30-aprelda aloqalar o'rnatildi va 1993-yilda a'zo bo'ldi

G. 1993-yil 30-maydan aloqalar o'rnatildi va 1994-yilda a'zo bo'ldi

12. O'zbekiston Osiyo tarqqiyot banki bilan qachondan boshlab to'laqonli hamkorlikni yo'lga qo'ygan?

A. 1991 yildan.
B. 1993 yildan.
V. 1995 yildan.
V. 1997 yildan.

Testlarning javoblari

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
1-bob	V	G	V	B	B	A	B	B	V	V	B	V								
2-bob	B	B	V	B	V	B	A	V	V	B	B	V	B	A	G	B	V	V	B	G
3-bob	V	V	A	B	A	B	G	B	A	V										
4-bob	B	A	G	G	B	B	B													
5-bob	B	V	V	B	A	B	A	G	A	V	V	B	G	V	B	V	V	V	B	G
6-bob	V	V	V	V	V	B	V	A												
7-bob	B	V	B	G	V	B	A	B	A	A										
8-bob	A	B	V	B	B	B	A	B	A	V										
9-bob	B	V	A	B	V	A	B	G	A	A	B	B	V	V	V	V	B	V	V	B
10-bob	B	V	V	B	A	B	G	G	B	B	G	B								
11-bob	B	B	B	V	B	V	V	V	V	G										
12-bob	B	V	B	V	V	A	B	B	V	V	V	V								
13-bob	B	B	B	B	A	G	B	B	G	A										
14-bob	B	G	B	A	B	A	G	B												
15-bob	B	B	A	A	G	V	V	B	G	B	A	B	B	G	A	A				
16-bob	B	B	A	V	V	A	B	V	B	B										
17-bob	V	V	B	B	G	B	B	V	B	V	V	V								

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»ги қонуни. –Тошкент, 1995.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. –Тошкент, 1996.

3. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14 –Тошкент, Ўзбекистон, 2006. 176-б.

4. Каримов И.А. Демократик ҳуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш, фуқаролик жамияти асосларини қуриш – фаровон ҳаётимиз гаровидир. –Тошкент, Ўзбекистон, 2007. 64-б.

5. Каримов И.А. Жаҳон молиявий – иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Тошкент, Ўзбекистон, 2009. 54-б.

6. Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: «Iqtisod-Moliya», 2007, 348-б.

7. Абдуллаева Ш.З., Абдуллаев Ё.А., Қоралиев Т.М. Банк иши. Дарслик. –Т.: «Iqtisod-Moliya», 2010.

8. Аристотель. Сочинения: 4 т. –М.: 1983. -Т.: -325 с.

9. Банки и банковские операции: /Учебник для вузов Е.Ф. Жуков, Л.М.Максимова, О.М.Макарова и др.; Под ред. проф Е.Ф.Жукова. –М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. – 471 с.

10. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. –М.: «Юрайт», 2005. -522 с.

11. Деньги мира. Ред.группа: О.Элисеева, Т.Эвсеева и др. –М.: Мир энсиклопедий Аванта, Астрел, 2009.–184 с.: ил.–(Самые красивые и знаменитые).

12. Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. -848 с.

13. Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Шегорсова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. – 383 с.

14. Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.е.н. проф. О.И.Лаврушина. –5 - изд., стер. –М.:КНОРУС, 2007.-560 с.

15. Жуков Е.Ф. Деньги, кредит, банки. –М.: «Юнити», 2003.

16. Кадиров А.К., Каралиев Т.М., Омонов А.А. Хозяйственный расчет в системе коммерческих банков –Т.: ТГЭУ, 1991. -64.

17. Краткий экономической словар. /под ред. А.Н. Азрилияна. –2 – е изд. Доп. и перераб. –М.: Институт новой экономики, 2002.

18. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В. 2 т.: Пер. англ. 11 – го изд. Т. И. –М.: Республика, 1992. –399 с.

19. Харрис Л.Денежная теория. –М.: 1990. –С.75; Долан Е., Линдсей Д. Макроэкономика. – СПб.: 1994, – 854 с.

20. Муллажонов Ф.М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими. – Т.: «Ўзбекистон», 2001.

21. Омонов А.А. Тижорат банклари молиявий ресурсларини бошқариш. Монография. – Т.: Иккинчи нашри. «Иқтисод-Молия», 2010. 246-б.

22. Омонов А. Банклар ва банкларда ҳисоб. Ўқув қўлланма.–Т.: Биринчи нашри. «Академия» нашриёти, 2006. 122-б.

23. Омонов А. Абдуллаева Ш. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. Монография. –Т.: «Iqtisod-Moliya», 2006. 112-б.

24. Омонов А.А., Марпатов М.Д. Пул ва пул муомаласи. Ўқув қўлланма. –Т.: 2008, «Академия» нашриёти. 158-б.

25. Пезенти А. Очерки политической экономики капитализма: в 2 т.: пер. с итал. Т.1. – 785 с.

26. Рашидов О.Ю. ва бош. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2008. 432-б.

27. Самуэльсон П. Экономика вводной курс. –М.: 1964. –698 с.

28. Смит А. Исследовние природе и причинах-богатства народов. Том 1. –584 с.

29. Тижорат банкларида касса ишини ташкил этиш, инкассация ва қимматликларни ташишга доир йўриқнома. –Т.: «Ўзбекистон», 2004.

30. Ўзбекистон Республикаси банк тизимида бухгалтерия ҳисобини юритишга оид ҳужжатлар тўплами. –Т.: «Ўзбекистон», 2003.

31. Ўзбекистон Республикаси банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. –Т.: «Ўзбекистон», 2003.

32. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. –М.: 1993. –774 с.

33. Эдвин Дж. Долан, Колин Д. Кемпбелл, Розмари Дж. Кемпбел. Деньги, банковское дело и денежно – кредитная политика. Пер. с. англ. к.е.н. А.А.Лукашевич, А.П.Маноцкова, к.ф.н. Е.Б.Ярцева, к.ф-м.н. М.Б.Ярцев. – М. – СПб., 1991. – 448 с.

34. Қоралиев Т.М. Сайфиддинов И.Ф. Тижорат банклари фаолияти таҳлили. Дарслик. –Т.: «Iqtisod-Moliya»2010. 384-б.

35. Қоралиев Т.М. Норқобилов С.Х. Пул-кредит орқали мувофиқлаштириш. Ўқув қўлланма. –Т.: «Iqtisod-Moliya», 2008.

36. International Financial Statistics. IMF, August 2011. 1422 p.

MUNDARIJA

Kirish 3

I BO'LIM. PUL

1 – bob. PULNING ZARURLIGI VA MOHIYATI

1.1. Pulning vujudga kelishi va zarurligi 6
1.2. Pulning mohiyati 11
1.3. Pulning rivojlanish tarixi 13

2 – bob. PULNING FUNKSIYALARI VA TURLARI

2.1. Pulning funksiyalari 22
2.2. Pulning turlariga umumiy tavsif 28
2.3. Natural pullar 29
2.4. Metall pullar 32
2.5. Qog'oz pullar 34
2.6. Elektron pullar 37
2.7. Tovar xo'jaligi sharoitida pulning roli 38

3 – bob. PUL AYLANMASI VA UNING TASHKIL ETILISHI

3.1. Pul aylanmasining mohiyati 46
3.2. Naqd pul aylanmasini tashkil etish 49
3.3. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning tamoyillari 57
3.4. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari 59

4 – bob. PUL MUOMALASI VA PUL MASSASI

4.1. Pul muomalasi tushunchasi va tarkibi 79
4.2. Naqd pullar aylanmasi va uning tarkibiy qismi 80
4.3. Naqd pul muomalasining o'rni va zaruriyati 85
4.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining naqd pul muomalasi bo'yicha asosiy vazifalari 90
4.5. Muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar miqdorini aniqlash asoslari 91
4.6. Pul massasi va pul agregatlari 96

5 – bob. PUL TIZIMI

5.1. Pul tizimining mohiyati va elementlari 101
5.2. Pul tizimining turlari 106

5.3. O‘zbekiston pul tizimining tashkil topishi va rivojlanishi.. 110
5.4. O‘zbekiston pul tizimining elementlari..... 115

6 – bob. INFLATSIYA

6.1. Inflatsiyaning mohiyati va turlari..... 121
6.2. Inflatsiyaning vujudga kelish sabablari..... 126
6.3. Inflatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari..... 128
6.4. Inflatsiyaga qarshi siyosat..... 130

7 – bob. PULNING NAZARIYALARI

7.1. Pul nazariyasining mohiyati..... 133
7.2. Pulning metallik nazariyasi..... 134
7.3. Pulning nominallik nazariyasi..... 137
7.4. Pulning miqdoriy nazariyasi..... 140

8 – bob. AYRIM XORIJIY DAVLATLAR PUL TIZIMI

8.1. AQSHning pul tizimi..... 148
8.2. Buyuk Britaniyaning pul tizimi..... 150

II BO‘LIM. KREDIT

9 – bob. KREDITNING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

9.1. Kreditning zarurligi va mohiyati..... 156
9.2. Kreditning funksiyalari va tamoyillari..... 160
9.3. Kreditning shakllari va turlari 163

III BO‘LIM. BANKLAR VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLAR

10 – bob. BANKLARNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

10.1. Banklarning vujudga kelishi va mohiyati..... 179
10.2. Banklarning funksiyalari..... 182
10.3. Banklarning turlari 187
10.4. Banklarning iqtisodiyotdagi roli 190

11 – bob. MARKAZIY BANK

11.1. Markaziy banklarning vujudga kelishi va funksiyalari..... 198
11.2. O‘zbekiston Markaziy banki, maqsadi va vazifalari..... 203

11.3. Markaziy bankning pul – kredit siyosati..... 207

12 – bob. TIJORAT BANKLARI

12.1. Tijorat banklari va ularning tashkil topishi..... 217
12.2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari..... 222
12.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari..... 226
12.4. Tijorat banklarining noananaviy operatsiyalari 229

13 – bob. AYRIM XORIJIY DAVLATLAR BANK TIZIMI

13.1. AQSH bank tizimi..... 241
13.2. Buyuk Britaniya bank tizimi..... 243

14 – bob. NOBANK KREDIT TASHKILOTLAR

14.1. Kredit uyushmalari va ularning operatsiyalari..... 250
14.2. Lombardlar va ularning tashkil topishi..... 253

IV BO'LIM. XALQARO MOLIYAVIY MUNOSABATLAR

15 –bob. XALQARO VALUTA MUNOSABATLARI VA HISOB-KITOB OPERATSIYALARI

15.1. Valuta tizimi va uning elementlari 256
15.2. Valuta tizimining rivojlanish bosqichlari 258
15.3. Valuta kursi va uning turlari 273
15.4. Xalqaro hisob-kitoblarning vujudga kelishi va mohiyati... 275
15.5. Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari va valuta riski..... 278
15.6. O'zbekiston banklarida xalqaro valuta munosabatlari 282

16 – bob. TO'LOV BALANSI

16.1. To'lov balansi va uni tuzish tamoyillari 288
16.2. Hisob-kitob balansining to'lov balansidan farqlari 292
16.3. Mamlakat to'lov balansiga ta'sir etadigan omillar 292

17 – bob. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI

17.1. Xalqaro moliyaviy institutlariga umumiy xarakteristika .. 296
17.2. Xalqaro valuta jamg'armasi 299
17.3. Jahon banki 301
17.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki 304

17.5. Mintaqaviy moliya – kredit institutlari 307
17.6. O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlari bilan hamkorligi va istiqbollari 309

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 317

Omonov Akrom Adinazarovich
Qoraliyev To'raboy Mamatqulovich

PUL, KREDIT VA BANKLAR

Darslik

Muharrir: E. Bozorov
Badiiy muharrir: M. Odilov
Kompyuterda sahifalovchi: U. Raxmatov

Nashr lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 17.07.2012 y.da berildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi № 2. «Times» garniturasi.
Shartli b.t. 20,0. Nashr hisob t. 20,25. Adadi 1200.
Buyurtma № 24

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent. Kichik halqa yo'li, 7-uy